

SHUKRULLO

KAFANSIZ KO'MILGANLAR

MUALLIF IJODIDAGI ENG YAXSHI
DEYA E'TIROF ETILGAN ASAR

YOSH KITOBXON



SHUKRULLO

KAFANSIZ
KO'MILGANLAR



YANGI ASR AVLODI

TOSHKENT

2020

UO'K: 821.512.133-3

KBK: 84 (5 0'zb)7

Sh-91

Shukrullo

Kafansiz ko'milganlar: avtobiografik roman / Shukrullo.
- Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020. - 192 b.

ISBN 978-9943-08-851-1

Boshidan o'tkazgan qiyinchiliklarini, to'g'rirog'i, xo'rliklarini eslash insonni yana bir karra og'ir azobga ro'baro' qiladi. Uni yozish esa... Qatag'onlik davri tasviri, undan ham og'iri - o'zining «xalq dushmani» deb ayblanishi haqida yozish, mahbusligini eslash, qamoq voqealari, lager hayoti, so'zsizlik... bularning haqqoniy tasviri Shukrulloning «Kafansiz ko'milganlar»ida yaqqol ifodalangan. Asarning yana bir ahamiyatli jihati - uning mazkur mavzudagi yagona asarligida.

Ushbu xotira-roman o'quvchiga qatag'on davri haqida tirik lavhalarni namoyish etadi.

UDK: 821.512.133-3

BBK: 84 (5 Q'zb)7

ISBN 978-9943-08-851-1

© Shukrullo, «Kafansiz ko'milganlar». «Yangi asr avlodi»
2020-y.

NAVQIRON AVLOD XIZMATIDA

*Bugun kitob o'qigan bitta bola
ertaga televizor ko'rib o'tirgan
o'nta bolani boshqarishi mumkin.*

Sh.M.Mirziyoyev

Kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish ayni paytda davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Va tabiiyki, nashriyotlar zimmasiga bugungi kun o'quvchisiga tanlangan, bola tafakkurini yuksaltiradigan adabiyotlarni nashr etish vazifasini qo'ydi. Ushbu ma'rifiy jarayonlarda faol ishtirok etish va yosh kitobxonlarga yuksak saviyadagi adabiyotlarni taqdim etish maqsadida «Yangi asr avlodi» nashriyoti navbatdagi loyihaga qo'l urdi. Loyiha maqsadi - awalo maktab o'quvchilarini qamrab olish, bu borada ularning badiiy adabiyotlarga bolgan ehtiyojini qondirish, maktab darsliklariga qisman kiritilgan yoki faqat nomlari zikr etilgan asarlarni to'liq holda taqdim etish, shuning barobarida maktab o'quvchisi mutolaa etishi lozim deb topilgan, mutaxassislar tomonidan «o'qish shart» deya tavsiya etiladigan eng sara o'zbek va jahon adabiyoti namunalarini o'quvchilarga tanishtirishdan iborat.

Loyiha doirasidagi kitoblar yuz nomni tashkil etadi va o'quvchi ushbu kitoblarni o'n yillik maktab davrida toliq mutolaa qilishi lozim va bu bilan umid qilamizki, bir yilda o'nta, o'n yilda yuzta kitob o'qigan o'quvchi katta hayotga qadam qo'yar ekan, uning intellekti, dunyoqarashi, Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, televizor ko'rgan o'nta boladan ancha yuqori bo'ladi.

Farzandlarimizni keng fikrli, salohiyatli, zakovatli bo'lib voyaga yetishicfa hissa qo'shadigan yuz nomdagi kitobni kutib oling, unutmang, «Yangi asr avlodi» doimo navqiron avlod va ma'naviyat xizmatida!

Tahririyatdan

***Navoiy g'amga qoldi o'z kalomi jonfizosidin,
Aningdekkim, yetar bulbulga mehnat o'z navosidin.***

Navoiy

Xotira sababi

Suhbatlardan birida gapdan gap chiqib, kimdir vazirlikka tayinlanganini aytib qolishdi. O'tirganlardan biri bu vazir qanday bo'larkin, oldingisidan yaxshi chiqarmikan yoki bu ham oldingilardek bo'larmikin, degandek gap boshlagan edi, boshqasi uning gapini shartta bolib:

- Bizlarda o'zi yaxshi rahbar bo'lganmi?.. Stalin... U o'lgandan keyin Xrushchev, Brejnev, undan keyin Chernenko, undan keyin... Odatda, bizda rahbarlarning qaysisi yaxshi-yomonligi tirigida emas, aksincha o'lgandan keyin aytiladi, - dedi.

Yarim hazil, yarim chin qilib aytilgan bu gap kutilmaganda kulgiga, oxiri bahsga aylanib ketdi.

- Xo'p zamonlarga yetib keldik-da, bunday gaplar mabodo o'ttizinchi, hatto elliginchi yillarda birovning og'zidan chiqqanda, hali sen sovet rahbarini masxaralaydigan bo'ldingmi, bu partiya rahbarligidan kulish, degan siyosiy aybni qo'yib, oyog'ingni yerga tekkizmasdan xalq dushmani qilib qamardi, - dedi ko'pni ko'rganlardan biri.

Ottizinchi, elliginchi yillar dahshati, qama-qamalarni boshdan kechirish u yoqda tursin, hali u vaqtda tug'ilmagan, oramizda otirgan yigirma yoshlar chamasini bir yigitga bu gaplar afsonadek tuyildi shekilli, kulib qo'vdi. Ammo uning bu o'rinsiz kulgisi oramizda o'tirgan bir odamga (otasi navqiron yigit vaqtida 37-yilda otilib ketgan edi) qattiq botdi shekilli, yigitchaga qarab:

- Abdulla Qodiriy, Usmon Nosir degan yozuvchilarni eshitganmisan? Fayzulla Xo'jayev, Akmal Ikromovdek buyuk rahbarlarni-chi? Ularni kim otgan? Nega? Bilasanmi?.. Mana yoningda o'tirgan Shukurullo «xalq dushmani» bo'lib, necha yilga hukm qilingan, necha yil qamoq lagerlarida o'tirib chiqqan, bunga ham ishonmaysanmi? Bir necha o'limlardan qanday qilib qolgani, xo'rliklarini eshitganmisan?

Yigit yelka qisdi.

Nahotki hozirgi bu avlod buyuk iste'dod, bilim sohiblari bo'lgan bobolarining vatanga, xalqiga xoinlikda ayblanib otilganiga ishonib kelgan bo'lsalar!

O'tirganlardan biri bu avlod qonli tarixini bilib qo'ysin, gapiring, degandek menga qaradi.

Aytib bering, deyish oson. Har qanday dahshatli, fojiali voqealarni ham ertak eshitgandek eshitish mumkin. Ammo qamoqlarda tilka-pora bolgan bu yurak, qaqshagan bu asablar tuhmat va haqoratlar azobini qayta xotirlashga endi bardosh bera olarmikanlar!

Ko'zi bog'liq odam

Odam o'ldiribmi yoki o'g'irlik qilibmi, ishqilib biror gunohga botib qo'lga tushgan kishining ahvolini tasavur qilish mumkin. Ammo hech narsadan hech narsa yo'q, mutlaqo begunoh bir odamning uyidan qo'lga kishan salsalar-da, olib chiqib qamab qo'y-salar, bundoq quruq tuhmat kimning xayoliga kela-di-yu, qaysi risolada bitiladi.

1951-yili nashriyotda muharrir bo'lib ishlardim. Mutlaqo begona bir odam menga ish oxirida telefon qilib, sizning muxlislaringizdan biriman, ko'rishmoqchi edim, degan istak bildirdi. Men, vaqtning kech bo'lib qolganini, bundan tashqari ayni zamonda imkonim yo'qligini, ijod haqida hamisha gaplashish mumkin, degan vaj-korsonga qaramay, atigi besh

daqiqagina vaqtingizni olaman, yaqin joydaman, o'zingizda bo'lsangiz hozir boraman, dedi-da, mening javobimni eshitmasdanoq go'shakni qo'ib qo'ydi. Oradan ko'p o'tmay nashriyot xodimlaridan kimdir tashqarida meni qandaydir odam kutayotganini, chaqirib berishni iltimos qilganini aytdi. Chiqdim.

Begona odam ishshayib salomlashdi. Atrofga olazarak qarab meni chekkaroqqa oldi.

- Men voyenkomatdanman, harbiy biletingiz yoningizda bo'lsa ko'rsam, - dedi.

Tinchlik bir zamonda bunday gap kishini taajjubga solishi tabiiy, albatta, bu meni ham hayratga soldi.

Kerakmas vaqtda bu hujjatni yonimda olib yurmasligimni aytdim. Ammo u esa qat'iy qilib, uyinizda bo'lsa ko'rishim kerak, - dedi. O'sha yillardagi «ovchi»larning sinalgan usuli edi bu.

Pastga tushdik. Ko'chada gaz mashina kutib turar, mashinada baland bo'vli rus kishisi ham bor edi. O'sha zahoti qo'limga kishan solishdimi, yo'qmi - yodimda yo'q, uyga keldik. Ular nomiga harbiy hujjatimni ko'rgandek bolishdi-da, uyda kim bor, kim yo'qligini aniqlagandan keyin hech kim hech qayoqqa qimir-lamasligi lozimligini talcidlashdi. Mendan esa uyda qurol-yarog', ta'qiqlangan siyosiy adabiyotlar bor-yo'qligini so'ragach, tintuv boshlashlarini aytdi. Men nima ham derdim! Birorta odam ta'qiqlangan kitoblar saqlagan deb malumot bergan bo'lsa, bunday narsalar menda yo'qligidan xotirjam bo'lib qarashsa-qarasha-versin, deb ko'nglimdan o'tkazib qo'ydim. Xalq dushmani bo'lib qamalib ketgan Akmal Ikromov, Fayzulla Xo'jayev, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Usmon Nosirlarning kitoblari, hattoki ularning nomlari yozilgan gazeta va jurnallar chiqib qolarmikan, degan umidda rosa izlashdi. Hatto otam, qarindosh-urug'larimning 20 - 30-yillarda ovro'pacha yoqada tushgan rasmlarigacha yig'ishdi. Keyinchalik bilsam, ularni jadidlarga aloqa-

— " ~ — " " " —

dor, degan shubhada olishgan ekan. Hatto men bilan o'rta va oliy maktablarda birga o'qigan do'stlarim, mahalladosh, tanish-bilishlarimning urushdan yuborgan suratlarini ham olishdi. Ular uydagi narsalarni har yoqqa otib-sochib tintuv qilardilar. To'rt yoshli o'g'ilcham bolsa hech narsadan xabari yo'q, ularga men yozgan «Kreml yulduzlari» degan she'rni o'qirdi.

Tintuv paytida guvohlik uchun chaqirilgan qo'shni ayol go'dakning o'z otasi taqdiridan bexabarligidanmi yoki menga achinganidanmi, uni bag'riga bosib ho'ngrab yig'lab yubordi.

Men esa uyimda ta'qiqlangan biror narsa topilmasligiga komil ishonch bilan xotirjam edim. Ammo bu xotirjamlik uzoqqa cho'zilmadi. Tintuv tugagach, meni o'zlari bilan olib ketajaklarini aytishdi. Qayerga, nega, aniqjavob berishmadi. Xohlasangiz, ehtiyotdan ko'rpa-yostiq, kiyim-kechaklar olishingiz mumkin, deb qo'ayishdi.

Xotin, bola-chaqa, uyimda hozir bolgan qo'ni-qo'shnilarning qiy-chuvi ostida men ular bilan ketdim.

Boshimga tushgan bir necha yillik ayriliq, qaro kunlar mana shu daqiqadan boshlandi. Ammo oldimdagi yo'l qandoq, xuddi ko'zi bog'liq odamdek menga qorong'i edi.

KGB qamoqxonasining yakka xonasida yotganimga mana bir necha kun bo'ldi. Qamalganimning ertasi kuni sochimni qirtishlashdi. Bu ham xunuk bir xabarning, ya'ni bu dargohdan yaqin orada chiqishdan uniid qilinaslik belgisi edi. Xuddi shuni tasdiqlagandek nomim yozilgan taxtachani ko'kragimga qo'lib rasmimni olishdi. O'zini o'zi osib yoki bo'g'ib qo'ymasin, degan g'amxo'rlik bilan kamarim bormi, hatto tomirini kesib, o'zini o'zi o'ldirmasin, degan maqsadda bo'lsa kerak, shimimdan tortib hamma kiyimlarimdagi tugmalargacha qirqib olindi.

Qamalganimning nechanchi kuni, yodimda yo'q, men yotgan xonaning temir eshigidagi tuynukdan

nazoratchi nomimni aytib chiqishga tayyorlanishimni buyurdi.

Kutib turdim. Eshik ochilib chiqishim bilan nazoratchi boshdan-oyoq go*yo men nimanidir yashirib qo^gandek hamma joyimni tintib chiqdi-da, qolingni orqaga qil, yo'lda gapirma, yur deganimda yur, to'xta deganimda to'xtaysan, deb tartibni tushuntirib, qayergadir olib ketdi. Bu do'q-davaraning zamirida shu bundan boshlab butun insoniy huquqlardan mahrum-san, kimligingni endi unutaver, degan ishora bor edi.

Xo'sh, meni qayerga olib bormoqchi? Yana qanday ko'rgiliklarim bor - bular faqat Xudoyimning o'zigagina ayon edi.

Qamoq nazoratchisi meni tergovchi Suxanovning xonasiga olib kirdi.

- Xo'sh, ahvoling qalay? - dedi u soxta mehribonchilik bilan ishshayib. Bu «mehribonchilik»ni aynan masxaralash, deb tushunish lozim edi.

Bugungi tergovda go'yo tug'ilganimdan boshlab shu kungacha bo'lgan qilmishlarimni eslatib, yodimga solmoqchi bo'lgandek, tarjimayi holimni surishtirishdan boshladi. Tug'ilgan yilimdan tortib to ota-onam kimligi, qachon tug'ilib qachon olgani-yu, qarindoshurug'larim kim bo'lgan, qamalganmi-yo'qmi, chet ellarda bolganmi-bo'lmaganligigacha hammasiga javob berdim. U esa nimalarnidir uzoq vaqt yozdi. Nihoyat yozganlarini o'qib berib, qo'l qoyishimni so'radi. Qo'l qoyishdan awal o'qidim-u yoqa ushladim. Tug'ilgan yilimdan boshqa deyarli hamma gaplar buzib, men aytmagan narsalar qo'shib yozilgan edi.

Otang kim, degan savolga otam ham, avlod-ajdodim ham emchilik kasbi bilan shug'ullangan deb bergan javobim otam dindor, domla bo'lgan, men o'zim sovetlarga qarshi targ'ibot bilan shug'ullanganman, deb yozilibdi. Axir tarjimayi holimni buzib yozishdan maqsad nima? Bundan kuzatilgan birdan-bir maqsad, butun avlod-ajdodi bilan sovetlar dushmani,

degan tavqi la'natni bo'ynimga osish, xolos. U paytlarda, ayniqsa, dindormi, tamom - sovetga qarshi dushman, degan so'z edi.

Men qo'l qo'lishdan bosh tortdim. Mana shu bugundan boshlab oqni qora, qilmagan gunohlarimni qildi deb ko'rsatish, do'q-haqorat, yolg'on boshlandi.

Bu haqorat va xo'rlik azoblaridan qutulish uchun bitta yo'l bor edi, u ham bolsa men sochimning tolasidan tirnog'imgacha sovet davlatiga dushmanman, millatchiman, deb yozib berishim edi, xolos. Bu esa o'zimni o'zim o'limga hukm qilish bilan barobar edi.

Kim bunga rozi boladi?! Rozi bo'lmasang-chi? Karserga tashlashadi. Karser qanday boladi, bilasanmi? Yotar joying sement. Har kuni yeydigan bir cho'mich yovg'on sole oshi yoki sulii bo'tqadan ham mahrum bo'lib, ikki yuz gramm non va suvga kuning qoladi. Oylab senga uyqu bermasliklari mumkin. Uyingdan kiritiladigan yeyish-ichishdan ham, xat-xabardan ham mahrum etilasan. Istagancha haqorat qilishlari, azoblashlari mumkin. Bularning hammasiga bardoshing yetadimi? Yashashdan umiding bormi? Qancha chidaysan? Nima qilish kerak? Yolg'onlarni rost deb tan olish - bu o'zingni o'zing dushman deb hukm chiqarish bolmaydimi? Xo'sh, bordi-yu shunday ham qilding, baraka top, deb seni qamoqdan ozod qilib yuborishadimi?

To'qima aybnomalarga qo'l qo'yishni rad etganim; m kcyin tergovchi:

Nega (|; unalغانingni bilasanmi? - dedi.

Bu bilan, sen qo'l qoyasanmi, yo'qmi, seni dushman deb qamadikmi, majbur qilamiz, demoqehi. Albatta, mening hayratlanishim va yo'q deyishimdan o'zga javobim bo'lmas edi. Mendan yo'q javobni eshitgach, tergovchi o'tirgan joyidan darg'azab qo'zg'alib:

- Makkor!.. Makkor! Dushman makkor bo'ladi! Sovetlarga qarshi harakatlaring, panturkizm va panislomizm qarashlaring haqida bizlarni bilmaydi deb

o'ylaysanmi! Zo'rlab, qiynamasimizdan hammasini yashirmay, o'zing gapirishing ma'qul, bu gunohingni yengillashtiradi. Maksim Gorkiy nima degan? Shoirsan, bilishing kerak! «Dushman o'zi taslim bo'lmasa, uni majaqlab tashlaydilar», shundaymi? - dedi.

- O'zi yo'q narsani nimasini yashiraman? Guno-himni bilsang, aytaber! Meni sovet davlatiga hech qanday dushmanligim ham, yengillatadigan yoki og'irlatadigan gunohim ham bo'lgan emas.

Mening bu javobim unga haqorat tuyilib, stolga g'azab bilan musht urib:

- Dushmanligingni yashirib bizni aldamoqchimis-an, tuhmatchi! Senga shafqat bo'lmasligini o'la! - deb urmoqchi bolgudek tepamga kelib turib oldi.

Hamisha to'tiqushdek bir gapni qaytarardi:

- Sovet davlatiga qarshi qanday va kimlar bilan birgalikda kurashmoqchi bo'lgansan? Biz majbur qil-masimizdan o'zing ayt!

U qancha do'q-po'pisa, haqorat qilmasin, mening ham javobim faqat bitta bo'ldi:

- Men dushman bo'lmagan bo'lsam, nimani o'ylay-man!.. Nimani aytaman!

- Sening ashaddiy dushmanligingning bitta belgisi shundaki, hattoki sen sovet chekistlarini yolg'onchi qilmoqchi bo'lasan, ularga ham ishonmaysan.

Yo'q!.. Men chekistlarni eng fidoyi, davlat va vatan manfaatidan o'zga manfaatni o'ylamovchi, eng halol odamlar deb hisoblaganman.

Ammo men tergovchiga nima javob qilmay, har bitta so'zimni aksini aytib, mendan dushman chiqar-makka intilardi.

- Yaxshilikcha millatchiligingni bo'yningga olma-sang dalil va guvohlar bilan dushmanligingni fosh qi-lamiz, bizlarga ishonib, aybingga iqror bo'lsang, yana takrorlayman, gunohing yengillashadi, tergovni tez-roq tugallashga sabab bo'lardi... Cyla!

- Gunohim bo'lsa guvohsiz ham, dalilsiz ham tan olaman. Yo'q gunohni nimasini o'ylayman! Gunohim bo'lsa ayt!

- Millatchilik faoliyatingni yashirasanmi?

- Tuhmat!

- Qamalgan millatchi, xalq dushmani yozuvchilar bilan aloqang-chi?

- *Hech qanday millatchi* bilan hech qachon aloqam bo'lgan emas. Bo'lsa, aytaber, tan olaman!

- Bizga hammasi malum. Dushman makkor bo'ldi, darhol tan olmaydi.

Javoblarimdan jini qo'zigan tergovchi mendan oldinroq hibsga olingan Hamid Sulaymon, Mirzaxon Ismoiliy, Shuhrat, aka-uka Alimuhammedovlar, Mahmud Murodovlar bilan tanishligim, qanday aloqada bo'lganim, qayerlarda uchrashganimiz va sovetlarga qarshi qanday g'oyaviy qo'poruv ishlari olib borganimiz haqidagi savollarga javob berishimni talab qila boshladi.

Bunga dod deyishdan boshqa iloj yo'q. Qayerga qochasan? Nimani o'ylab, nimani iqror qilaman.

- Biz hech kimni nohaq qamagan emasmiz. Gunohsiz odamlar bu yerga kelmaydi.

Tergovchi menga zug'um bilan qaradi-da, nazoratchini telefon orqali chaqirib meni olib ketishni buyurdi.

Mana necha kundirki, yakka kishilik kameradaman. Tergovchi meni unutib qoydi. Gunohlarini obdan o'ylab olsin, deb chaqirmayotgandir balki. Unday bo'lsa qaysi gunohimni o'lay! O'zimga o'zim savol beraman, qilgan gunohlarim bormikan, deb axtaraman. Balki unutgandirman...

Bordi-yu kimdir menga bu ko'rguliklar biron pay! († a -onangning dilini ranjitganing, ozor berganing uchun desa, ularning oyoqlariga yiqilib tavba-tazarru qilishga, hatto har qanday jazoga ham rozi bolardim. Ammo o'z vatanim, xalqimga esa aslo xiyonat qilgan emasman! Agar shundoq bolganda olimimga rozi edim.

4 W

Taqdirimni vijdonimga havola qilib, o'z-o'zimga savol ham berib ko'raman. Axir hayotdan, siyosatdan norozi bo'lgan vaqtlarim bo'lmaganmikin? Bo'lganmi? Balki shuning uchun qamashgandir?

Qamoqqa olib kelganlaridan beri qish o'tib, bahor ham kirib keldi. Bu oradayerdan ko'katlar unib, dalalarda lolalar ochildimi, daraxt kurtak chiqarib gut yozdimi, bilmadim, bularni ko'rishdan butkul mahrumman. Qushlar ovozi ham men uchun yot. Men yotgan qamoqxonaga na bahor shamoli, na ko'klam nafasi kiradi. Qilgan qay gunohlarimga Xudo o'zining bu orombaxsh ne'matlaridan meni mahrum qildi?!

Qani, tergovchi aytgandek boshdan kechirganlarimni o'ylab ko'ray-chi... Beayb Parvardigor, degandek qaysi gunohlarimga Xudoning qahri keldiykin? Otam qori bo'lsa ham gunohkormanmi? Bordi-yu Abdulla Qodiriy yoki Usmon Nosir asarlarini o'qigan aybmi? Bundan sovet davlatiga nima dushmanlik bo'lishi mumkin? Meni nima aybim bor?

Menga qo'ygan asosiy ayblaridan biri - sovet hokimiyatiga dushmanligim, sovet turmush tarzidan, siyosatidan noroziligim, nolishim emish! Dushmanlik bor, norozilik bor!.. 1930-yillarda odamlar ochlikdan shishib qirildi. Bunga kim rozi bo'ladi? 1937-yilda begunoh odamlar qamalib, yo'q bo'lib ketdi. Kim bunga rozi bo'ldi? Aqlimni tanibmanki, yoshlik chog'larim-danoq hamisha bir xavf-u xatar bilan yuragimni hovuchlab, norozilik bilan kun kechirganim rost, buni yashirmayman. Nahotki bu dushmanlik sanalsa!

Besh-olti yoshlarimda ko'rganlarim adolatsizlik, zo'rliklar hali esimda.

Mahallamizning Mamanbey degan komissiyasi bolardi. O'ta muttaham odam edi. Vatan urushi yillarida ortiqcha zoborniy - kartochnka olib sotishda ayblanib qamalgancha, qamoqda olib ketdi. Mahalla aholisining ko'pchiligi bunga qayg'urmadi ham. Hatto odamlar ora-



sida «Qilmish-qidirmish, birovlarining haqi qo*ymaydi, bitta yomon kamayibdi», deganlari ham boldi. Mamanbey birovning haqidan qo'rqmaydigan, qancha-qancha mahaila kishilarining 1928 - 30-yillarda nohaq quloq bolishi, qamalishiga sabab bolganlardan biri edi.

Hali-hali esimdan chiqmaydi. 1926 - 27-yillari har kun bo'lmasa ham bir hafta, o'n kunda garchand otam domla bo'lmasa ham eshigimizdan «Qori domla» deb baqirib-chaqirib kelardi. Mamanbeyning domla so'ziga urg'u berib chaqirib kelishi sababi meni ko'nglimni ovloymasang, dindor, domla deb quloq qildirish ham qo'limdan keladi, degan do'q, ta'na ma'nosida bo'lardi. Uning bu niyatini bilgan otam domla emasligini isbotlash uchun Chor Rossiyasi davridayoq emchi deb berilgan shahodatnomadan tortib, Sovet davrida qay tuman, qay shahar, qaysi respublikada qachon, qancha aholini emlaganligi haqidagi hujjatlarni chiqarib ko'rsatardi. Chalasavod Mamanbey uni o'qiy olarmidi, yo'qmi, bu hujjatlarni falon joyga ko'rsating, degancha biror narsa undirolmay qaytardi.

Ammo hafta o'tmasdan yana biror bahona topib, mahaila faollaridan birini yoniga olib baqirib-chaqirib eshikda paydo bo'lardi:

- Boloxonani chiqib ko'rmoqchimiz, odam o'tqazamiz.

- Axir bu odam o'tiradigan joy emas-ku, na dera-zasi, na eshigi bor, o'tin-po'tin, xazon-xuzon qo*yishdan boshqa narsaga yaramaydi-ku... - Onamning bir chekkada ro'moliga yuzini yashirib qilgan bu javobiga:

- Ko'chib kiradigan odam o'ziga kerak narsani qilib oladi. Ichidagi ashqol-dashqollarni tushirib qo'linglar, - degan sovuq javobni qilardi.

Onamning:

- Qori akangiz bu safar uzoqda. Qozog'iston to-monga ishga ketganlar, kelsinlar, undan keyin bir maslahati bo'lar, - deb qilgan nolasiga qaramasdan,

«Ertaga odam kiradi», - deganча orqasiga qaramay chiqib ketdi.

Tepamizga kim keladi? Bizlarning ustimizdan bos-tirib kim boloxonaga otib yuradi? Bu zo'ravonlik, bu vahimalardan faqat onamgina emas, yosh bola mening ham ko'nglimda halovat, xotijamlik bolmasdi. Doimo ko'nglimda quloq qilinsak, yoki domla deb otamni qamashsa nima qilamiz, degan g'ashlik, qo'rquv yotardi. Onam esa eshik tiq etsa, Mamanbey kimni ustimizga ko'chirib kelyapti, degan xavf bilan kun o'tkazardi.

Bu g'alvadan qutulish uchun kichkina bola ham chiqsa bo'ladigan taxta narvonni otam kimgadir berib yuborib, o'rniga qo'l ushlamasdan chiqib bo'lmaydigan yog'och narvon topib qo'vdi. GoVo shu bilan boloxonaga odam ko'chirib kelish tashvishidan qutulgandek bo'ldik.

Yo'q, bu bilan ham xolamning o'g'li Ubaydulloxon karomat qilib aytganidek, Mamanbeyni eshik qoqib kelishidan qutulmadik, uning aytgan gaplari bo'ldi.

1925 - 1926-yillarda otam yaxshi niyat bilan mening sunnat to'yimga atab havas bilan imorat soldirgan edi. O'sha vaqtda hovlimizga kelgan Ubaydulloxonga maqtanib:

- Ubaydulloxon, hali uyimiz chala, shiplarni bo'yatib, devorlarini ganch qildiraman, o'shanda kelasiz, - deganda, Ubaydulla akam:

- Ganch qilib shipining panerlarini bo'yatish emas, iloji bo'lsa, panerlarini buzib, tunukaning o'rniga loy torn qilib qo'ying, zamonning bu ketishi shu bo'lsa, boloxonali uy-joying bor ekan, boy ekansan, deb tortib olib qo'yadi. O'zingizni quloq qilmasa ham, odam kiritadi, hozirgi siyosat shunday, - degan edi.

Bu qanday zamon bo'ldi, o'z halol mehnating bilan topgan pulingga ko'nglingdagidek orzu-havas qilib yasholmasang, bu nima degan hayot bo'ldi. Bundan ortiq zo'ravonlik bo'ladimi?

Ubaydulloxon Rossiyaning shaharlaridan birida 1905-yilda huquq maktabini bitirgan, advokat bo'lgan, juda bilimdon, zamon siyosatidan boxabar odam edi. Lev Tolstoylar bilan xat olib, xat yozishgan. 1917-yilda Qo'qon muxtoriyatining rahbarlaridan biri bo'lgan. (Albatta, Ubaydulla akamning Qo'qon muxtoriyatining rahbarlaridan biri ekani u yoqda tursin, menga qarindosh ekanini bularga aytgudek bo'lsam, hamma ayblarni yig'ishtirib qo'yib, meni qamash uchun shuning o'zini dastak qilardi qo'yardi). Oradan bir-ikki yil o'tmayoq, uning karomat qilib aytgan hamma gaplari to'g'ri chiqdi.

Mamanbeyning eshik qoqib, turli bahonalar bilan kelishidan qutulib bo'lmadi: hali arzimagan qorovul puli, hali hovli soliqlari tolangan-tolanmaganini tekshirish bahonasi bilan paydo bo'laverdi. Tolash muddatidan bir kun o'tgan bo'lsa bas: uyimizni tintuv qildirib, sandiq bormi, boloxonami, molxonami - hammasini ostin-ustin qilib falon muddatgacha tolamasanglar hammasi davlatga o'tkazilishini tayinlab, vahima solib ketardi. Kunlarni vahimada o'tkazardik.

U vaqtlarda sandig'ingdan uch-to'rt kiyimlik mato chiqsa bo'ldi, quloq qilish uchun bahona bo'laverar edi. Onamning birdan-bir tashvishi uyimizdagi kitoblar, ayniqsa Qur'onni u yerdan olib bu yerga, kishi ko'zi tushmaydigan yerga berkitish edi. Chunki o'sha vaqtda savodi bor, hatto masjidga chiquvchilar ham quloq qilingan. Uyimizda Navoiy, Bedildan tortib So'fi Olloyor bayozlarigacha, Amir Umarxon davridagi «Majmuat-ush shuaro»gacha bor edi. Bu kitoblar Mamanbeyning ko'ziga tushib boshimizga balo bo'lmasligi uchun kunlardan bir kuni hammasini hovlimizning bir chekkasiga o'ra qazib ko'mganimiz esimda. 1960-yilda o'ra qilingan joyni umid bilan kavlab ko'rdim, tuproq tagidan kitoblar o'rnida hovuch-hovuch kepaklar olib yig'ladim.

U yillar shunday bir davr ediki, butun huquq Mamanbeyga o'xshagan kitob nimaligini bilmagan savodsizlar ixtiyoriga berib qo'yilgan edi. Hatto o'sha yillar «pastdan yuqoriga ko'tarish» siyosati qo'llanib, oddiy ishchimi, qorovul bormi, rahbarlik ishlariga ko'tarilavergandi. Hatto maktab qorovuli Qosim aka degan savodsiz bir odamni 1920-yillarning oxirida men o'qigan «Shayx Sa'diy» maktabiga mudir qilib tayinlab, bir necha tillarni va fanlarni biladigan Jamil afandi, Yahyo afandilarni esa quvg'in qilib, ayrimlarini qamashgandi. Mamanbeydeklarining aytgani aytgan, degani degan zamonlar edi.

Ilm, ma'rifat egalari oyoq osti bo'lib, umrini choyxonada o'tkazgan, maktab, tarbiya nimaligidan mutlaqo bexabar, hatto qo'l qo'yishii ham bilmagan odamlar izzat-ikromda bo'lsa, aqli raso kishilar bu qanday siyosat demaydimi?

Tergovchining menga sovet tuzumidan noroziliging, dushmanlik faoliyating haqida o'zing ayt, degan savoli sabab bo'lib yoshlikdan boshimdan kechirgan bir-biridan ko'ngilsiz, yuqoridagidek adolatsiz voqealar xayolimdan o'ta boshladi. Axir bu nohaqliklar kishida norozilik uyg'otadimi, yo'qmi? Axir otam tekinox'r, o'g'ri yoki savdogar bo'lmasa (savdogarlik ham gunoh emas, axir u ham mehnat), xalqning bolalarini emlab, ofatdan saqlab qolish uchun halol mehnat qilib topgan puliga boloxonalik imorat solgan bo'lsa, xo'sh, nega endi u qurgan tayyor joyga bir begona odam tekindan-tekini kirib yashashi kerak? Bu zo'rlik emasrai! Bunday adolatsizlikka kim rozi bo'ladi? Bunday adolatsizlikdan nafratlanish nahotki sovet tuzumidan norozilik, jinoyat hisoblansa!?

Kechagina tergovchi, otamning kasbini emchi bo'lgan deyish o'rniga, o'zicha qayerdandir o'ylab, domla deb yozdi. Bu yolg'on-ku!

Bordi-yu, otam emchi emas, domla bo'lganda nima bo'libdi? Uning kimga ziyoni bor? Dindor odam

yomon-u dindand qaytgan yaxshi, hukumatga sadoqatli bo'ladimi? Axir e'tiqodsizlikdan ko'ra nimagadir ishonib, e'tiqod qo'vib yashash afzalroq-ku. Lev Tolstoy xudojoy bo'lgan, dindor bo'lgan, uni zararli odam deb bo'ladimi? Bordi-yu, dindorlar sovet kishilarini buzadi, deydigan bo'lsak, axir odamlar ham ba'zilar o'ylagancha, darhol har bir narsaga ishonib ketaberadigan darajada sodda bo'lmasalar kerak! Bu oltin emas, temir degan bilan ishonib, temir ekan deb tashlab ketabermaydi. Menimcha e'tiqodga emas, e'tiqodini yo'qotgan, nafsi uchun, manfaati uchun har ko'chaga kirib ketaberuvchilarga qarshi kurashmoq afzalroq emasmi, deb o'z-o'zimcha o'lardim.

Qamoqning yakka xonasida o'zim bilan o'zim kurashib, o'lagan bu fikrlarimni tergovchiga aytib bo'larmidi? Dindorlikda ayblamaydimi?

Faqat 1920 - 1937-yillar emas, yaqin-yaqinlarda ham diniy e'tiqodi uchun, eskicha fikrlashda, feodalizm qoldig'i sifatida ayblanib minglab emas, million-million kishilarni qamab, surgun qilganlari hammaga ayonku. Shular hukumatning siyosatidan rozimi? E'tiqod uchun kishini dushmanga chiqarib bo'ladimi?

O'zi tug'ilgan tuprog'idan mahrum bo'lib, quloq qilinib Sibir, Ukrainaga yuborilgan bechoralar bu adolatsizlikdan nolimaganmikan? Tilida aytmasa ham dil-dilidan bu siyosat, bu hayotdan rozi bo'lganmi? O'z mehnati bilan boy bo'lish gunohmi? Boy bo'lsa, dushman sanalaberadimi?

Haqiqatni aytmaslik bu - xiyonat. Ammo ayt-sang-chi!.. Xayol seni ming yoqqa olib ketadi. Ba'zan qanchalik chidamli, mard bo'lsang ham adolatsizlik alami, chirqirab qolgan farzandlaring, oilang ko'z oldingdan o'tib bu xo'rlikdan ko'zlaringga yosh quyilib keladi. Qamoqda birdan-bir hamrohing xayol-xayol!..

Sening bunday uzluksiz xayollaringni faqat o'zini o'zi osib qo'ymadimi, yoki devorni teshib qochishni mo'ljal-

layotgani yo'qmi, deb nazoratchining dam-badam temir eshikning tugmadek teshigidan qarashigina buzadi, qamoqda ekaningni eslatib turadi. Nazoratchi meni nima bilan mashg'ul ekanimni bir oz kuzatgach, eshik tuynukchasini ochib, ism-sharifimni so'rab, yuklarim bilan chiqishga tayyorlanishimni aytdi.

Yo tavba! Yuklarim bilan qayerga olib borishmoqchi! Balki, uyimdan olib ketayotganda ba'zi narsalarni aniqlab, gunohing bo'lmasa, erta-indin qo'yib yuborish ham mumkin, biz bir narsa deyoilmaymiz, deganlaridek, nahot uyga qaytarsalar! Ey Xudo!

Ammo tergovchining, bu yerga begunoh kishilar olib kelinmaydi, degan so'zi yodimga tushdi-yu umidlarim chil-chil sindi. Xo'sh, endi qayerga olib borishmoqchi? Uydan ko'tarib kelgan ko'rpa-yosti, yana nimalarnidir o'rab turib, birdaniga o'pkam tolib ko'zlarimga yosh keldi: xotinim sho'rlikning olti yoshidan xuddi mendek ko'rpa-yosti orqalab yurishi ko'z oldimdan o'taberdi. Taqdirimiz sho'rlikiga yigladim. Uning poyezdma-poyezd, daryoma-daiyo kezib, quvg'inlikda kechirgan azob-uqubatlari, baxtsizliklari esimga tushdi-yu o'zimga emas, ma'suma mushtipar xotinimning taqdiriga yigladim. Ko'z oldimdan uning baxtsiz o'tmishi emas, fojiali buguni, kelajagi o'ta boshladi. Nahot kelajagi ham otmishidek qaro bolsa!

Xotinim bilan to'y oldidan tanishib orzu-havas, avlod-ajdod, ota-ona haqida gap ketganda ko'zlarida mo'lt-mo'lt yosh bilan bir necha yildan beri ota-onasining o'lik-tirigidan darak yo'qligi, olti yoshidan buyon darbadarlikda boshidan kechirgan nohaqliklar, dahshatli kechinmalarni aytarkan, uni eshitgan insofli odam shu hayotdan rozi bo'ladimi?

Ko'chish. Darbadarlik. Yangi qabr.

Xotinimning hikoyasi

1931-yil, yoz. Men olti yoshli qizaloq edim. Bizlarni quloq qilishdi. Tintuvdan so'ng hovli-joy, mol-mulk,

ot-ulovlar musodara qilinib, otamlarni qaygadir olib ketishdi.

Oradan 20 kunlarcha o'tgach, erlarning Ukrainaga jo'natilishi, agar xotinlar erlari bilan ketmay, bolalari bilan qolishni istasa, qolsin deb elon qilishdi. Shunda xaloyiq orasida dod-faryod ko'tarildi. Onam esa men bolalarimni tirik yetim qilmayman, erimni qayerga jo'natsangiz men ham bolalarim bilan birga ketaman, qanday azob bo'lsa ham birga tortaman deb iltijo qildilar. Ayrim oilalar ajralib ketdi.

Bizni nega quloq qilishdi - hammamiz hayron edik. Ozigina yer, bir sigir, bir ot va bizlar bilan yashaydigan korandamiz Xushvaqt aka va uning kampiridan boshqa hech narsa yo'q edi.

Biz jo'nab ketishimiz oldida, onam Xushvaqt akaga - bizning uyda qoling, musodara qilingan mollarimizni ehtimol sizga berishar, deganlarida Xushvaqt aka, men sizlardan hech yomonlik ko'rmaganman, bittagina ketmonimni olib bolsa ham sizlar qayerga ketsangiz, birga ketaman, degan javobni qildi. Shu bilan Xushvaqt aka ham kampiri bilan quloq qilindi. Birga ketdik.

Avgust. Kun issiq. Hamma quloq qilingan oilalarni Qo"yliqdagi etap qilish punktiga yig'ishdi. Qarindosh-urug'lar kelishgan. Xayrlashuv. Kimdir dod-faryod qilib o'zidan ketgan. Kimdir yig'idan holdan toygan. Biz esa otamiz bilan birga jo'nab ketayotganimizdan xursand edik.

Toshkent temiryo'l vokzaliga olib kelib, qizil yuk vagonlarga joylashdi. Har bir vagonda 2-3 oila joylashgan. Har oilada kamida 3-4 tadan bolalar bor. Vagonda faqat bittagina deraza bo'lib, u ham juda kichkina edi. Eshik yopildi. Eshik tagida ikkitadan soqchi qo'yildi va poyezd jo'nadi. Poyezd jo'nadi-yu go'yo hammaning yuragini birdan uzib olib ketayotgandek bo'ldi. Hamon yig'i-sig'i bosilmas edi.

Vagonning ichi issiq, havosi buzuq, ko'ngilni ozdirardi. Poyezd katta stansiyadagina to'xtaydi, xo-

los. Shunda soqchilar bilan birga qaynagan suv olib chiqish mumkin edi. Hojatxona yo'q. Tuvak tutiladi. Vagon issig'iga chidab bo'lmas edi. Tuvak poyezd yurgan paytdagina derazadan yoki teshikdan to'kilar, suv ham yetishmas edi. Uni esa tozalab turish kerak. Shu ahvolda 13 kun yo'l yurdik. Olingan oziq-ovqatlar qancha tejalmasin, yetishmas edi. Har kuni tush paytida suyuq baliq sho'rva berilardi. Bu sho'rvani esa ayniqsa bolalar ichmay xarxasha qilishardi. Shu azob bilan Odessa shahriga kelganligimiz elon qilindi. Yana qancha yuramiz - nomalum edi.

Odessadan bizni teploxodga («Penay») o'tkazdilar. Shu davrda ko'z og'riq, ich og'riq kasali avj oldi. Deyarli hamma bolalar ko'z og'riq kasali bilan og'rigan. Ko'zlarimiz yumilib, shishib ketgan. Mening kichkina 3 yoshli Abdulaziz degan ukam esa zotiljam bo'lib qoldi. Isitmasi baland, shaytonlab qoladi. Ota-onam uxlamay galma-gal ko'tarib chiqishdi.

Bir sutkadan so'ng teploxoddan Xerson degan shaharga tushdik. Yuzga yaqin aravalalar (4 g'ildirakli brichka) keltirilib, qishloqlarga tarqatishdi. Shu yerda quloqlar 4 millatga ajratildi. Qozoq, turkman, o'zbek, qirg'iz. Har bir millatni alohida qishloqlarga olib ketishdi. Toshkentdan quloq qilinganlarga otamni boshliq qilishdi (otam rus tilini yaxshi gapirar, savodli edilar). Bizga «Yastreb» degan qishloqni berishdi. Yigirma oila Yastreb qishlog'iga jo'nab ketdi. Biz bilan Xushvaqt aka va kampiri birga edi.

Biz borgan qishloqdagi ukrainlar Sibirga surgun qilinib, ularning mol-mulki va uy-joylari bizga o'xshab musodara qilingan ekan. Ular bo'm-bo'sh, uy atroflarini o't bosib, hatto derazalar zo'rg'a ko'rinadi. Har bir oilaga bir xona va bir dahliz ajratildi. Bizning yonimizga Xushvaqt aka kampiri bilan joylashdi.

Xushvaqt akaning biz bilan ketishi otam uchun katta tashvish edi. Chunki bir ketmonidan tashqari hech



narsasi yo'q. Unga bir kigiz, bir ko'rpa, bir yostiq va bir ko'rpacha ajratdi. Uy-ro'zg'or buyumlaridan bizga juda kam berilgan edi. Hatto qozon ham bittagina berilgan. U ham bo'lsa o'rtacha dekcha edi. Yolga olingan oziq-ovqatlar poyezddayoq tugagan. Otam ikki-uch erkak bilan Ptaxovka degan qishloqqa ovqat qidirib ketdilar.

Ukamning ahvoli og'irlasha boshladi. Onam erta-yu kech ukam bilan ovoralar. Doktor yo'q. Begona yurt. Uchinchi kuni nihoyat otam Ptaxovkadan bir doktor topib keldilar. Dori berdi. Lekin foydasi bo'lmadi. Nihoyat oltinchi kuni kechasi vafot etdi. Butun qishloq aholisi yig'ildi. Ertalab dafn qilindi. Unga bir siqim ona tuprog'i nasib etmadi. Birinchi qabr paydo bo'ldi. Shu joy «Musofirlar mozori» deb ataldi. Musofirlar mozoriga birinchi bo'lib mening ukam Abdulaziz qo'yildi. Bu biz uchun juda og'ir kun bo'ldi. Go'rkov ham, yuvg'uvchi ham yo'q. Xushvaqt aka esa shu mozorga qarab turadigan bo'ldi. Ukamning qabrini Xushvaqt aka o'zi qazib o'z qo'li bilan qabrga qo'ydi. Shunday qilib bizning musofir shahridagi og'ir hayotimiz boshlandi.

Oradan 6 oycha o'tgach, Xushvaqt akaning kam-piri Savri xola ham vafot etdi. Savri xolani ukamning yoniga qo'ydilar. Shu-shu, Xushvaqt aka mozordan chiqmay qoldi.

Biz bilan ketganlar ichida Amirsaidovlar oilasi ham bor edi. (Ular hozir ham bor.) Ulardan Amiril-laxon, Hamidxon akalar 3-4 tilni biladigan o'qimishli kishilar edilar. Tez orada harakat qilib maktab ochib, o'zlari shu maktabda o'qituvchi bo'lib ishlashdi. Amirillaxon aka nemis, fransuz, rus tilidan dars berar, Hamidxon aka esa (hozir 85 yoshda) ona tili, adabiyotdan dars bera boshladilar. Quloq qilinganlar 3000 xonadon bo'lib, ular janubiy Ukraina rayonlarida paxta yetishtirish ishiga safarbar qilindi.

Biz yashagan yerda yoz mayin bo'lsa ham qish qattiq kelarkan. Qor bo'roni, shamollar. O'rta Osiyo sha-



roitida yashab, yupun yurishga o'rgangan xalq orasida sovuqda yuz ruhlarini, oyoq-qo'Uarini sovuqqa oldirganlar ko'p edi. Yoqilg'i topish qiyin, uyni isitish azob (pechlarga poxol yoki tikonli o'tlar yoqilar, uni ketma-ket yoqmasa sovib qolar edi). Shu qiyinchilik yillari kasalliklar, ayniqsa zotiljam ko'payib, ko'plarini olib ketdi. Musofirlar mozoridagi qabrlar soni ham tobora ko'payardi.

1933-yil bahori og'ir keldi. Ocharchilik boshlandi, toliqib chiqqan xalq bahorda holdan ketib, ochlikdan qirila boshladi.

Shuning uchun otam otxonaga ishga kirdilar. U yerda otlarni boqish uchun beriladigan kepak bilan bir amallab, olmay yozga chiqdik. Ammo, ayniqsa, qozoq, turkmanlarga qiyin boldi. Ularda na biror bisot, na tilla, na kumush bor edi. Ular sho'ra otni qaynatib yeb, shishib yoppasiga qirila boshladilar. Qishloq aholisi juda siyraklashib qoldi. Kunda o'nlab o'liklar ko'milar edi. Shu og'ir kunlardan birida bizga hamroh bo'lib qolgan Xushvaqt aka ham tif kasali bilan vafot etdi. Otam uni ko'mdilar, boricha ma'rakalarini otkazdilar.

Ochlik, qimmatchilik asta-sekin qahatchilikka aylandi. Pulga ham narsa topish qiyin bo'lib qoldi. Shu kunlarda Torgsin degan magazin ochildi. Unda tilla va kumushgagina qand va un berar edi. Oyimlarning kelinliklarida olib qo'lgan zirak, uzuklari shunda jonimizga ora kirdi. Ularni Torgsinga topshirib, un va qand oldilar. Bu ham qanchaga yetardi? Bisotda bori tamom bo'ldi.

Bizning yonimizda otamning Ortiqov Qo'shoq aka degan yaqin o'rtoqlari bolib, uning xotini, uch o'g'li va bir qizi bor edi. Qiyinchilikda xotinlari, so'ng qizlari vafot etdi. Uch o'g'il bilan Qo'shoq aka qoldi (Ortiqov Abdurahmon - hozir Toshkent Davlat Texnika universitetining professori, falsafa fanlari doktori, Ortiqov Abdurahim - Toshkent Davlat iqtisodiyot

universiteti dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi, Ortiqov Abdullalar edi).

Qo'shoq aka bolalarining ochlikdan nolishiga chidayolmay, arpazordan yarim kilocha arpani bolalari uchun olib kelayotganda qorovul ushlab qamab qo^adi.

Sud qilinib o'n yil qamoqqa hukm qilinadi. O'n yil-a! O'n yil emas, o'zi bu ochlikdan hali omon qoladimi, yo'qmi, Xudo biladi. Bundan tashqari, ochlikdan shishish darajasiga yetgan bu uch bola otadan keyin ko'chada qoladigan bo'ldi. Otam o'zbeklarning ichida rus tilida yozish va gaplashishni biladigan odam bo'lgani uchun turli joylarga ariza yozib, Qo'shoq akani jazodan qutqarib qoladilar.

(Bir oilaning boshidan kechgan bu dahshatli voqealarni qamoqda xayoldan o'tkazib, shuncha xo'rlik, shuncha ochlikni boshidan kechirgan bu avlod voyaga yetganda hayotdan rozi bo'larmikan? Bevaqt ochlikdan halok bo'lgan ota-onalar, go'daklikda dunyodan ko'z yumgan aziz jigarlarining alami unutilarmikan, deb o'ylardim.)

1935 - 1936-yillar to'yib non yeydigan zamon bo'ldi, deb xotinim hikoyasini davom ettirdi.

Ocharchiliklar ortda qolib og'zimiz endi oshga tek-kanda, nasib etgan bu quvonchlar ham uzoqqa bormadi. 1937-yilda vahimali gaplar tarqala boshladi. Bu vahimali mish-mishlar tez orada rostga aylanib, qu-loqlar ichidan endi xalq dushmanini izlash boshlan-di. Quloqlar oilasidagi ilmli, maVifatli kishilar, bizning yaxshi o'qituvchilarimizdan Amirillaxon aka va u ki-shining ukasi Hamidxon akani xalq dushmani deb bir kechada olib ketdilar. Qayerga, nima uchun olib ket-ganligi haqida hech xabar bo'lmadi. Amirillaxon aka-ning besh bolasi bolib, hammasi yosh edi. Xotinlari nimjon, ishga yaroqsiz. 70 yoshli onalari vafot etdilar.

Otam ham doim xavfda yurar edilar. Kechalari qora mashina qishloqda paydo bo'lar, yana kimnidir olib ketar edi. Qama-qama 1940-yillargacha davom etdi.

1941-yili boshlangan urush, ayniqsa bizlar uchun og'ir bo'ldi. Urush boshlanishi bilan quloq bo'lgan erkaklar, shu jumladan, otamni Akmolinskka ishchi batalonga olib ketishdi. Bu vaqtda akam bilan men Toshkentda bo'lib, Ukrainada tug'ilgan singlim onam bilan nemislar qurshovida qolishdi. Bir necha yil otamdan darak bo'lmadi.

1944-yil Dnepr nemislardan ozod qilingach, onam va singlim bilan evakuatsiya qilinib, kuzda Toshkentga kelishdi. Ikki oy og'ir ahvolda yo'l yurdik. Onam oyoqlarini sovuqqa oldirgan bo'lib, shu kasal bilan vafot etdilar. Otam bolsa Qo'shoq aka Ortiqov bilan Akmolinskka ketganicha ochlik va ishning og'irligidan vafot etganlar...

Bu sho'ring qurg'urlarning gunohlari nima edi?

Xotinim sho'rlikka tug'ilganidan beri boshiga tushgan azob-uqubatlar yetmagandek, endi mendan ayrilish azobi, ikki bolani boqib o'stirish mashaqqati qolganmidi? Dahshatli bu o'ylarimni qamoq nazoratchisining yuklaringni ko'tar, qani chiq, degan buyrug'i buzib yubordi.

Tergovchining, sen hayotimizdan noligansan, menga qayg'uli she'rlar yoqadi degansan, deb qo'ngan aybno-masiga javoban bu gaplarim haqmi, tuhmatmi, mendan emas, yigirmanchi yillarning oxirida begunoh quloq qilinib, o'z yurtidan judo bo'lgan, xazondek to'zib, 1932 - 1933-yillarda ochlikdan ko'chalarda shishib olganlardan so'ra! Yo'q, faqat bulardan emas, 1937-yillarda qatl etilgan minglab, millionlarning faryod urgan ruhlaridan, tirikyetim qolgan farzandlaridan so'ra, ular rozimikan? - degim kelardi. Ammo aytib bo'larmidi?

Bordi-yu bu gaplarimga ishonmasang, bunday azob-uqubatlar, nohaqliklarni o'z boshidan kechirgan xotinimdan so'ra, degudek bo'lsang - o'sha kuni xotiningni ham xalq dushmani deb yoningga olib kelishlari muqarrar edi.

Bunday gaplarni aytish tergovchining ko'nglidagi ishni qilish bo'lardi. O'sha kuniyoq qo'ygan butun ayblarimizga o'zi iqror bo'ldi, deb tergovni tugatadi. Sudga oshiradi. U esa muddatidan ilgari tergovni tugatgani, mahorati uchun yana bir yuksak darajaga ham ega bo'ladi.

Yukimni ko'tarib qamoqxona hovlisida kutib turgan «Cherniy voron» mashinasiga chiqdim. Endi qayerga olib borishmoqchi? Xayollarim qaror topguncha ham bo'lmay, mashina ikki-uch daqiqali masofani bosmasdan to'xtab, yana qandaydir temir darvoza-ning ko'ngilsiz sharaqlab ochilib-yopilishi eshitildi.

Yuklarimni orqalab, mashinadan tushdim. Miltiq tutgan nazoratchining qo'lingni orqaga qil, to'xta, atrofga qarama, bu yoqqa yur, degan buyrug'i ostida yerto'laga tushdim. Bu yertola ikki yog'i temir eshiklardan iborat uzundan-uzoq qamoqxona edi. Meni bir xonaga kirgizishdi.

Tavba, inson tabiati shu qadar ajoyibki, kameraga kirib, unda o'tirgan bir-ikki mahbusga ko'zim tushishi bilan, qamoq azoblari bir dam unutilib, ko'nglimda kutilmagan qandaydir ravshanlik paydo bo'ldi. Bu yolg'izxonadan chiqib odamlar bilan uchrashganimdanmi, yoki qorong'i tor xonadan kengroq xonaga o'tganimdanmi, bilmadim, shu zahoti xayolimdan ozodlik vaqtimda eshitganim kulgili bir rivoyat o'tdi.

Rivoyat

Bir bechora kambag'al dehqon bola-chaqa, mol-joni ko'payib, uy-joyi torlik qilganidan doimo nolir ekan. Buning nolasini eshitganlardan biri, uyim kengaysin desang chorasi oson: shu bugunoq kechqurun bola-chaqang bilan yotadigan uyingni bir chekkasiga sigir, buzog'ingni bog'lab, Xudoga nola qilasan. Erta lab qarabsanki, keng uyning egasi bo'lasan qo'yan, debdi. Dehqon aytganni qilibdi-yu, ammo hech narsa o'zgarmabdi.

Dehqonning uyini kengaytirmoqchi bo'lgan odam buni eshitib, endi sigiringni yoniga echking bilan qo'ingni olib kirib boglab, Xudoga munojot qilasan, ana shunda, maqsadga erishasan, debdi. Dehqon buni ham qilibdi. Ammo hech narsa o'zgarmabdi.

Dehqonga va'da bergan odam, buni eshitib, endi hovlingdagi tovuqlarni ham uyingning bir chekkasiga olib kirib yot, debdi. Umid bilan sigir-buzoq, qo'y echking ustiga tovuqlarni ham olib kirib, azongacha bu tor tanqislikdan qachon qutulaman, deb nola qilibdi. Ammo tong otib, kun yorishibdi hamki, hech narsa o'zgarmabdi.

Bundan g'azablangan dehqon sho'rlik boyagi va'da qilgan odamni topib, voqeani bayon qilgan ekan, u esa:

- Endi bugundan boshlab birma-bir sigir bilan buzog'ingni, ertasiga echki bilan qoyingni, undan keyin tovug'ingni olib chiqib Xudoga yolborasan, shundan keyin qarabsanki, eski tor uyingning oldida katta saroy paydo boladi, debdi. Dehqon uning aytganini qilib, bir kun sigir bilan buzog'ini, ertasiga qoy bilan echkisini, undan keyin tovuqlarini olib chiqib qarasa, uyida o'nlab odam yashasa boladigan joy qolibdi. Buni ko'rgan dehqon hayvonlar bilan yotishdan qutulganimga shukr, boldi, boshqa uy kerakmas, shu uyimning o'zi ham yetadi, endi nolimayman, degan ekan.

Xuddi shunga o'xshash men ham eni bir gazlik yakkaxonadan qutulib, ikki-uch odam turadigan xonaga kirganimdan keyin, bu ko'zimga keng hovlidek ko'rinib ketdi.

Kamerada mahbuslarning biri 70 - 80 yoshlardagi sersoqol yahudiy domlasi, biri 1937-yilda xalq dushmani bo'lib o'n yillik qamoq va besh yillik surgun muddatini Kalimada tugatib qaytgach, qaytadan qamalgan 40 - 50 yoshlardagi Raim ismli sobiq partiya xodimi ekan. Bularning kimliklarini bilgach, awaliga men o'zimni butunlay begunoh, ularni esa dushman

sanab, ishonchsizlik bilan jirkanib qaray boshladim. Chunki, kimki, xalq dushmani bo'lib qamalgan bo'lsa, surishtirmay uni dushman deb sanash bizlarning qonimizga singib ketgandi. Ammo suhbat davomida esa ularning birortasi ham o'zlarini sovet davlatiga dushman deb sanamasdilar. Xuddi mendek ular ham o'zlarini butunlay begunoh deb bilardilar.

Men o'zim kimligim, qachon qamoqqa kelganligim haqida ular bergan savollarga javob bergunimcha bo'lmay, eshik ochilib nihoyatda baland boyii bir mahbus kirib keldi. Bu Gitler armiyasiga asirga tushgan Loran ismli sovet nemisi edi. U kirib kelib o'z temir karovatiga o'tirdi-yu, gap-so'zsiz shoshilgan-cha xaltasidan bir necha chaqmoq qandni alyumin krujkaga solib, suvi qochib, qotib qolgan non bilan yeya boshladi. Malum bo'lishicha, gunohlarini boy-niga olmaganligi uchun karserga tashlanib, haftalab uxlamay, ochiqib hozir chiqib kelishi ekan. Bir oz tamaddi qilgandan keyin bir oydan ortiq non-suvga chidab, quruq taxta ustida yotganidan nolish o'rniga o'sha yerda ozmi-ko'pmi uxlab, ko'zini ilintirib olish imkoni bo'lganidan mamnun bolib gapirdi. Aytishicha, yigirma kun uyqu berishmagan. Kechqurun tergovga chaqirishgandan to tonggacha uyqu bermay ikki tergovchi galma-gal, almashib so'roq qilib, tong otar oldidan, uyqudan turishga biror yarim soat qolganda javob berib, ko'zini ilintirishga ulguradimi, yo'qmi, yana kunduz kuni uyqu bermay, o'tirishga majbur qilishardi. Kechki uyqu vaqtida endi yostiqqa bosh qo'yib uxlay boshlashi bilan asablarini azoblash maqsadida yana tergovga olib chiqib ketardilar. Bu ahvol haftalab, oylab davom etgan. Loran nimadir demoqchi bolgan edi, shu paytda qamoq muhitida birdan-bir chehrasini ochib, mahbuslarni odam o'rnida ko'radigan, uydan yuborilgan narsalarni tarqatib yuradigan, malum miqdordagi pulga tergovchining ijozati bilan tamakimi, nonmi, kolbasami olib

keladigan Mashanov eshik ochib nima olishimizni so'rab qoldi. Loran unga bir kilo go'shtga yetarli puli borligini aytib, xom go'sht buyurdi. Atrofdagilar bundan taajjubga tushganini ko'rib:

- Men asirlikdan qutulib kelganimdan keyin Chirchiq shahriga yuborildim. Zavodga ishga kirdim. Rus ayoliga uylandim. Uning uy-joyi, kattagina yeri bor ekan. Tovuq-xo'roz qildim, cho'chqa boqdim. Cho'chqani so'ygan vaqtimda, qonini bekor ketkazmay ichardim. U kishiga juda quwat boladi. Ayniqsa qamoq sharoitida xom go'sht pishirilgan go'shtdan foydaliroq, - dedi.

Uning gaplaridan etim seskanib ketdi.

Men yahudiy domlani qayerdadir ko'rganligim, qayerdaligini va kimlarning tanishligi haqida so'ragan edim, javob berishni istamadi. Bu yerda tanisWarning nomini aytilish ham xatarli ekan. Chunki, nomini aytgan odamni ham xalq dushmani bilan aloqada ayblab qamashlariga imkon tug'dirgan bo'lardik. Yoki aksincha sen tanigan odamlaringdan birortasi ilgari yoki shu kunlarda qamalgan bo'lsa, bu ham senga bitta aybnoma bo'lishi tabiiy. Bundan tashqari qamoqda mahbuslar bir-birlariga ishonmasdilar. Chunki, sir olish uchun qamalganlardan yollangan odamlar kameralarga kiritilardi.

O'zimni butunlay begunoh hisoblaganligim tufayli meni - sovet shoirini nemis soldati bilan birday ko'rib, bir xonaga qo'yilishim meni umidsizlikka tushirib, ruhan azoblardi. Gunohim shuncha jiddiy, deb o'lardim. Nemis soldati bilan xonada hamtovoq bo'lish tasawurimga sig'magan narsa edi. Nahotki men ham ana shu nemis soldati, 1937-yilda xalq dushmani bolib qamalgan Raim aka yoki yahudiy domlasi darajasida gunohkor sanalsam! Dodingni kimga aytasan! Nahotki shular bilan taqdirim bir bo'lsa!

O'sha kechasi Loranga uyqu berishdimi, yo'qmi, bilmadim, yotar oldidan meni tergovga olib chiqib ketishdi.

Kutilmagan o'lim

Davlat xavfsizligi qo'mitasi qamoqxonasida o'tirganimga mana bir necha oylar bo'ldi. Taqdirim nima bo'ladi - hech narsa malum emas. Bu xususda na men va na bu qamoqda yotganlarning birortasi bir gap aytolmaydi. Bu dargohda hamma narsa sirli. Dunyoda nima kechyapti - hech kim hech narsa bilmaydi. Na radio, na gazeta!.. Qo'shni kamerada kim bor, kim qamalgan - uni ham bilmaysan. Ammo hamma o'tirganlar bitta narsani bilardi. U ham bo'lsa o'zining gunohi yo'qligini. Men bilan o'tirganlarning birortasi, haqiqatan ham bilib-bilmay mana shunday gunohni qilganman, o'zimdanda ham ayb o'tgan degan afsusni aytmasdi. Ammo shunga qaramasdan hamma o'z bilgani, eshitganini gapirardi.

- Bu yerga qamalganlarning hech biri omon chiqqanmi?

- Dushmanlar ham bo'lgan-ku?

- Sen o'zing dushmanmisan? Dushman bo'lib nima qilgansan?

- Bu yerga olib kelishdimi, gunohing bo'lishi shart emas. Otmasa ham, 25 yil bermasa ham, juda bo'lmaganda besh yil, o'n yilsiz chiqarmaydi. Masalan, men mana o'n yil lager, besh yil surgunda bo'ldim, nima dushmanmidim? Mutlaqo! Bu yerning qoidasi shu, seni olib kelishdimi, tamom!

O'zimni gunohsiz bilib, dunyoda haqiqat bo'lsa chiqib ketarman, degan umid bilan yashayotgan men uchun bu gaplarni eshitish juda dahshatli edi. Ammo o'n yillab lagerma-lager, qamoqma-qamoq, surgunlarda umr o'tkazgan bu odamning gapi, qancha vahimali bo'lmasin, haqiqatga yaqin edi. Nohaq qamalgan ming-minglab odamlar bilan birga yillab kun ko'rib, ularning taqdiri nima bo'lganini, kim qanday ayblar bilan ayblansa, qancha muddat berilishini ham bi-

lib qolgan edi. Lekin shunga qaramasdan hamma o'z bilgan, eshitganlarini bir umid bilan aytardi.

Biri sud qilingandan «Osoboe soveshanie» («maxsus kengash») bo'lgani yaxshi, chunki, u o'n yildan ortiq berolmaydi, sud esa besh yil ham, 25 yil ham berishi, hatto otishga hukm qilishi ham mumkin, har holda, nima bo'lsa ham maxsus kengash ishingni ko'rgani durust desa, boshqa biri maxsus kengashning o'n yili emas, hatto besh yildan sudning 25 yili afzal, chunki, sud hukm qilgan muddat bitsa, bo'ldi, chiqib ketasan, tutib turolmaydi, ammo maxsus kengash orqali hukm qilingan bolsang umring qamoqda o'tishi hech gapmas. Muddating bitsa, seni bir sabab bilan ishingni qayta ko'rib qo'shib qo'yaberadi, - derdi.

Bunday gaplarni men birinchi eshitishim. O'zimcha, axir, qonun, adolat, haqni haq, nohaqni nohaq qiladigan odam nahotki bolmasa, deb aytgim kelardi-ku, ammo buni ham ba'zilar hukumatning siyosatidan norozilik deb tushunib, ayblashidan cho'chib indamasdim. Deyarli har kuni shu gap. Qamoqda otirganlarning shundan boshqa nima dardi kasali bolishi mumkin?!

Hammasi vahima gaplar.

Nahotki menga ham 25 yil bersalar!.. Meni vahima bosgan edi.

Ammo Rayim aka bunday gaplarni eshitaberib, eti qotib ketganidanmi, xuddi qamoq, surgun uning uchun oddiy narsadek, mening holatimni ham his qilmasdan, «bu yerga keldingmi, o'n-o'n besh yil muddat olmasdan chiqib ketib bo'lmaydi», deb, yana gapining to'g'riligiga ishontirish uchun dalillar keltirib gapiraberadi. U mendan: - Tojixon Shodieva degan ayolni eshitganmisiz? - deb so'radi. Men u ayolni shaxsan tanimasam ham 37-yillarda xalq dushmani bo'lib qamalgan degan ovozasidan xabardor edim. Ammo xalq dushmani bo'lgan odamni taniyman deyish xavfli, xatarli sanalgani uchun, ha ham, yo'q ham demasdan gapirabering degandek qarash qildim.

~....." " -

- Mana shu xotin hozir Kalimada. O'n yil muddatini tugatdi. Qamoqdan chiqdi. Xohlagan joyingga ketishning mumkin, deyishdi. Ammo men Toshkentga xursand bo'lib qaytdim-u, u qaytishni istamadi, o'sha yerda daiyo portida ishga kirib qoldi. Nega? Tug'ilgan yurtini u sog'inmaganmi yoki kechganmi? Ey, kim o'z tug'ilgan yurtini sog'inmaydi, undan kechadi. Tojixon baloni biladigan xotin edi. O'zi emas, hatto menga ham Toshkentga qaytishni maslahat bermagan edi. U hukumatning yuksak idoralarida ishlagan, siyosatini tushungan xotin edi. Abdurayim, Toshkentga borishni orzu qilsang, bilib qo^, o'rgangan bu joyingdan ham ajrab qolasan. Bir marta xalq dushmani nomini oldingmi, boldi, seni omon qoyishmaydi. Bir bahona topib yana qamashadi, yoki boshqa yoqlarga surgun qilishadi, degan edi, mana, aytgani boldi. Men uning gaplariga ishonmay, bola-chaqani bir ko'rsam, armonim yo'q, nima, bu xotin payg'ambarmi, deb shubha bilan qaragan edim, u esa baloni bilarkan, yana nima dedi deng: - Men bu gaplarni havodan olib aytayotganim yo'q, tarixning sabog'idan olib gapiiyapman. Yigirmanchi yillarning boshlarida oz-muncha ziyolilar, hukumat rahbarlari dushman deb olimga, ayrimlari surgun, qamoqlarga hukm qilinmadi. Xo'sh, nima boldi? 30-yillarga kelib surgun qilinganlari qayta qamaldi, qamoqdagilari esa otildi. 30-yillarning boshida qamalganlar qamoqdan chiqarilmay 1937-yilda qaytadan dushman sanalib, otib tashlandi. Sen bilan bizning taqdirimiz ham shunday. Xalq dushmani deb nomimiz bir qora boldimi, endi hukumat bizga ishonmaydi. Otib tashlamasa ham quvilganimiz quvilgan! Tojixon bu gaplarni karomat qilganday aytgan ekan, to'g'ri chiqdi. Mana, qamoqning ham, surgunning ham muddatini otadim. Biror gunohim yo'q, nimaga qamashdi? Toshkentga kelib ko'rgan rohatim bir necha oy ham emas, bir necha kun bola-chaqamning oldida bolib diydorini

ko'rganim bo'ldi. Hali toyganim ham yo'q, mana yana qamashdi. Taqdirim endi nima boladi?

Gapini davom ettirolmay, ho'ngrab yig'lab yubordi. Sho'rlikning asablari tamom bo'lgan edi.

Uning ahvolini ko'rib, gaplarini eshitganimdan keyin, meni qanchaga qamaydilar degan tashvishni o'ylashdan ham ko'ra, bu adolatsizliklarga qarshi qandaydir nafrat, taqdirga tan berishdek qandaydir jur'at paydo bola boshladi. Uning bu gaplarini eshitgan mahbuslar, garchand o'zlarining mutlaqo aybsiz ekanliklarini bilsalar ham oylab, yillab davom etgan tergov azoblari, zo'rlab qo'yilgan aybnomalar oqibatida bu yerdan eson-omon, erta-indin, haqjoyiga qaror topib, qutulib chiqish emas, Xudoning marhamati bolib, kamroq muddat olish, besh yil, o'n yil bolsa ham bir kun bola-chaqa bilan olmay qaytadan diydor ko'rish nasib bolishi haqida oyiardilar. Taqdirga tan berib qolgandilar.

Ammo-lekin, men buni tan olish emas, oyiab-oylab bunday bolishiga ko'nika olmasdim. Tergovchilar qanchalik zo'rlab asossiz gunohlarni bo'ynimga qo'ymasin, o'n yil, 25 yil u yoqda tursin, hatto qamoqda yotishim mumkin emas, menda gunoh yo'q, erta-indin meni chaqirib, sen ozod holding, deyishlari kerak deb oyiardim. Axir, mening gunohim nima? Sen dindor, dinni targ'ib qilgansan deb qamasalar, axir, men Bo'rixovdek domla ham emasman! Yoki bo'lmasa, qoltig'i tagiga nina bilan «es-es» deb yozilgan nemis soldati Loran ham emasman-ku! Axir, nemis fashistlarining ustidan g'alaba qilinganda, uni quvonch ko'z yoshlari bilan qarshilab, g'alaba sha'niga hamdu sanolar to'qigan shoirlardan biri men edim-ku! Nahot endi o'zim nafratlagan, o'z qarindosh-urug'larimning kushandasi bo'lgan fashist soldati bilan teng qilinib, hamtovoq bolib, bir xonada teng nafas olishga munosib ko'rilsam. Nahotki, gunohim shunchalar og'ir! Nahotki, men shunchalar dushmanlik qilgan bo'lsam!

Ba'zan bu xayollar bilan dod-faryod solib, qamoq eshiklarini urib parchalash emas, o'limimga rozi bo'lib ketardim. Hatto, ba'zan alam ko'z yoshlari tirqirab oqqanini sezmay qolardim.

Shunda Loran:

- Men Fashist Germaniyasidan asir tushgan «es-es» soldatiman. Garchand asirligimdan boshqa biror gunohim bo'lmasa ham, biror zararim yetmagan bo'lsa ham nemis soldati bo'lganim uchun gunohkor qilsa, biror narsa deymayman. Ammo seni, chet el razvedkachisi bolmasang, sovet shoiri bo'lsang, unga qarshi yozilgan asaring bo'lmasa, nega dushman deb qamashdi? Uning ustiga yosh ekansan. Tashvish qilma, seni chiqarib yuborishar, - degan taskinni berardi.

Rayim aka ham nimadir demoqchi edi, ammo kameraga nihoyatda darg'azab so'kinib kirib kelgan bir oyog'i yo'q, invalid rus yigiti gapni bo'ldi. Salom-alik, hol-ahvol so'rash yo'q, og'ziga kelgan haqorat so'zlar bilan hammani ota-onasi qolmay, astar-paxtasini ag'darib so'kingan holda maxorka o'ray boshladi. Jahl bilan o'rayotgan moxorka qog'ozi yirtilib, yerga to'kildi. Qo'lida qolganini g'azab bilan yerga urdi. Xuddi men bilan eski tanishdek, sansanlab, chekasanni, tortadigan narsangdan ol, - dedi.

Bir kameradan ikkinchi bir kameraga ko'chirib kiritilgan mahbus o'z ko'rpa-yostig'i, juda bo'lmasa, biror tuguni bilan kirardi. Bunda qo'ltiq tayoqdan boshqa narsa yo'q, na bir yemish, na kiyim-kechak. Men moxorka uzatdim.

Shu yerda bir narsani eslatib otmoqchiman. Bu qamoqda moxorkadan boshqa na sigaret, na papiros chekish imkoni bolmadi, chunki, uydan keltirilgan papiros-u, sigaretalarning hammasini ichida biror xat, biror zaharli yoki portlovchi narsa bormi degan shubha bilan burda-burda qilib, tekshiruvdan o'tkazib berilardi.

U mendan olgan moxorkani qo'lga olib, rahmat o'yniga sansanlab, sen kimsan, bu yerga qachon

tushding, - degan gapi bo'ldi. Men shoir ekanimni, bir yildan oshiq vaqtdan beri yotganimni aytdim. Yana u moxorkani o'rab so'kina boshladi:

- Sen shoir ekansan, sen hukumatga dushman bolishing mumkin. Sen ilmi odamsan. Men-chi, suka, la'nati, onangni palon qilaylar, kimman! Men bir o'g'ri, bezori bo'lsam, qanday qilib men siyosiy mahbus bo'lib qoldim. Men o'g'riman, ha, o'g'ri, blatnoyman! O'g'rigimni yashirmayman. Bugun o'g'rilik qilaman, yeyman, ichaman. Ertasiga qo'lga tushsam, KPZga olib borishadi. - Men KPZ nimaligini tushunmaganimni sezib: - qamoqqa birinchi tushishing bolsa kerak, KPZ nimaligini ham bilmaysan, KPZ degani kamera predvoritel'nogo zaklyucheniya (vaqtincha hibsdan turish xonasi). KPZ men uchun o'z uyimdek gap. Savdogar, boyvachchalarga uydan olib kelingan yogliq ovqat, ichkilik bormi, sherik bo'lardim. KPZ - men uchun tekin ovqatxonadek gap. Bir yil-ikki yilga hukm qilib lagerga yuborsa, bir oyog'im yo'q, ishlamayman, savdogar, kolxoz raislari bormi, ularga kelgan ovqatlarga sherik bolib, tekin ovqat yeb, ichkilik ichib, nasha chekib yashayberardim. Meni boshqalardek orqamda qolgan bola-chaqam bolmasa, lager men uchun ikkinchi uy edi. Bu yer-chi! Bu qamoq emas, jahannam-ku! Suka! Bu yerda xohlagan vaqtingda istagan peredachangni ololmasang. Ichkilik icholmasang, ashula aytish u yoqda tursin, bir-biring bilan ovoz chiqarib so'zlasholmasang, qarta, shesh-besh o'ynamasang! Kunduzi uxlatmasa. Bu yerda bir oy yotgandan ko'ra otib yuborsa roziman. Fashistlar! Suka! Tavba, hatto yostiqqa suyanolmaysan, darrov darchani ochib, yonboshlama, deb tanbeh beradi. Meni otib yuborsa roziman. Ikki oydan beri sud ham qilmaydi, lagerga ham jo'natmaydi. Men siyosiy mahbusmishman! - U o'zicha kulib: - Bilasanmi, birodar, menga nima ayb qo'yishgan! Men terrorist emishman. Faqat kulasan, suka! Qanaqa terrorist! Ay-

bim, mastlik bilan tramvayda Stalinni so'kkanimmish! Nima deb so'kkanman, o'zim ham bilmayman. Shuning uchun meni siyosiy mahbus, xalq dushmani deb olib kelsa... ablahlar! Qanjiqlar! Qani, birodar ayt-chi, menga qancha berishar ekan?..

Men nima derdim. O'z xayolim bilan o'zim band edim. Javob bergunimcha ham bo'lmay gapira ketdi:


- Haqiqiy shoir Yesenin edi! Xalqni ham, o'g'rini ham o'ylardi. Senlar Stalinni maqtashdan boshqa nima ni bilasanlar? Gapirishga ham qo'rqasanmi? Senlarni hammangni qamash kerak... Xafa bolma, og'ayni, hammang bichilgansan. Anavi kamerada bir jid, yahudiy xusid (yahudiy domlasi) bilan o'tirib qolibman. Yuragimni yorib yuboray dedi. Bo'g'ib o'ldirgim keldi. G'ashimga tegib, pichirlab duo o'qishdan boshqani bilmaydi. Nega sen ham indamaysan? Yeseninga o'xshab blotnoy, taskin beradigan she'r o'qisang-chi!

Men uning gaplarini eshitib, o'zimcha oyiardim: Yesenincha she'r yozishmish! Taskin beradigan she'r o'qishmish! Tabiat haqida yozgan she'rlarimdan xato izlab, g'oyasizlikda ayblab otirishibdi-yu, bunga Yesenincha yozilgan she'rlarimdan o'qib berarmishman! Men uning gaplarini jim tingladim. U esa bundan g'azablanib:

- Men do'zaxga kelib qolibman, to'g'rimi? - derdi.

Men unga nima derdim? Uni kuyib-o'rtanishlari to'g'ri bo'lsa ham Stalinni so'kib turgan odamning gaplariga qo'shilishib bo'larmidi? Awalo buning o'g'ri ekaniga ham ishonib bo'lmaydi. Balki gap olish uchun kirgandir. Chunki xonalardan xonalarga gap olish uchun maxsus odamlar qoyiladi. Qamoqda yotganlar ham bir-birlariga ishona bermasdi.

Mening javobimni kutmasdanoq birdan jazavasi tutib, ikki mushtlab temir eshikni urib, og'ziga kelgan haqoratlar bilan qamoq nazoratchisini chaqira ketdi. Prokurorga shikoyat yozish uchun qalam bilan daftar talab qildi...



Bu orada meni tergovga olib chiqib ketishdi. Kechqurun soat 7da so'roqqa chiqqanimcha, uxlamasdan tong otarda kameraga qaytdim. Hamrohim yo'q edi. Karovati bo'sh. To'shak, yostiqlari ham olib chiqib ketilgan. Nima gap? Meni esa qo'shni kameraga ko'chirishdi.

Bu kameraga kirishim bilan, u yerdagilar, mendan qaysi kameradan o'tganimni so'rab bilishgach, kechasi bilan bu kamerada g'ala-g'ovur bolgani, kimdir o'zini o'zi o'ldirganini aytishdi. Bu kechagi bir oyog'i yo'q invalid Ivan edi.

E'tiqod jazosi

Kecha kechqurun, yotar oldi soat 10larda tergovga chaqirilganicha tun bo'li uyqu bermay mana tong otdi, hatto kun yoyilib tushlikka yaqinlashayapti, hali so'roq tamom bo'lgani yo'q. Bir tergovchi bilan ikkinchisi almashib, mudrash u yoqda tursin, hatto seni ko'zingni yumib o'lashga qo'ymaydi. O'tirgan kursingda bejizat qimirlashga ham haqing yo'q. Tur deganda bir necha soatlab tik turishing, o'tir deganda esa tun bo'li qadalib o'tirishga majbursan. Bu jazoning eng yengil yo'li. Bordi-yu o'tirgan kursingda uyqusizlikdan toliqib mudragudek bo'lsang, yaponcha massaj qo'llashlari ham hech gap emas. Bu shunday usulki, bo'yningga kaftining qirrasi bilan bir tushiradi, ag'darilganingcha bir necha vaqt hushinga kelmay yotasan. O'zingga kelgach, do'q-devara, haqorat bilan yana so'roq boshlanadi. Bir o'limdan qolganingga shukr qilib, ko'zingni ochasan. Bu yerda bordi-yu, o'lganingda ham hech kim seni nega o'ldi, deb surishtirmaydi. Bu tashkilotning ustidan, adolatsizligidan dodlab shikoyat yozadigan azamat yo'q.

Tergovchining xonasida u bergan so'roqlarni oyiab o'tirib, xayolimdan xalqimizning «suvdan holva yasash»



degan maqoli otaberdi. Suvdan holva yasab boladimi? Bolarkan! Shunday oson bo'laxkanki, tergov vaqtida bunday narsaning bo'lishiga yana bir bor iqror boldim.

Odatda odam o'ldirgan yoki o'g'rilik qilgan gunohini tan olmasa, uni isbotlab, bo^niga qoyish uchun tanish-bilishlarini guvohlikka chaqiriladi. Ammo mana, meni qamoqqa olishibdiki, kelganimdan beri o'z gunohimdan ko'ra hali ota-onamning kimligi, hali qarindosh-urug'larim kim bo'lgan, tanish-bilish, yaqin kishilarim, ular bilan qanday aloqada bo'lganim, avlodimda kim qamalgan, negaligini mendan surishtiradi. Bu nega kerak bo'lib qoldi? Bundan maqsad bitta: o'zimdan ayb topolmaganlaridan keyin, ular bilan aloqada ayblab, ularning gunohlariga meni ham sherik qilish! Ular nima gunoh qilgani menga malum emas. Buning tergovchiga ham ahamiyati yo'q, unga ularni tanishligimni aytsam bo'ldi!

Haqiqatini aytadigan bolsak, bizning zamonamizda xalq dushmani bolib biror odam qamalmagan xonadonni topib boladimi? Axir 1920-yillardan boshlaboq jadidchilikda ayblab ziyolilarni qamash boshlangan edi. 1927 - 1928-yillardan dindorlar bormi, mulkdorlar bormi, quloq qilindi. Bir qismi yot unsur hisoblanib yana qamaldi, surgun qilindi. Bu tozalashlar kamlik qilgandek, 1937-yildan boshlab Markazkom sekretarlari, davlat arboblari, yozuvchilar xalq dushmaniga chiqarilib qirg'in qamash boshlandi, bu 1940-yilgacha davom etdi. Urush tugagandan keyin, frontdan qaytganlarning bir qismi fashistga asir tushganlikda ayblanib qamalgan bolsa, 1947-yildan boshlab yozuvchi, olim, san'at ahlini g'oyasizlik, kosmopolitizmida ayblab yangidan yana qama-qama boshlandi. Biror qarindoshi qamalmagan odam qolgan yo'q, hatto bitta odam emas, butun oilalari bilan otildi. Surgun qilindi.

Axir mening o'zimni ham qamalgan tanish va qarindoshlarim yo'qmidi! Bitta emas, bir necha...

Xolamning o'gli Ubaydullo Xo'jayev 1900-yillarda Rossiya institutlarining adliya fakultetini bitiradi. U jahon qonunshunosligi, adabiyotidan boxabar, hatto Lev Tolstoylar bilan xat yozishib, bahslashga olish darajasidagi yuqori saviyali advokat bo'lgan, 1917-yili Qo'qon muxtoriyatining Mahmudxo'ja Behbudiyar qatoridagi tashkilotchilaridan biri bolib, millat uchun nihoyatda jon kuydirgan siymo edi. 1927 - 1928 yillarda siyosiy ayb bilan qamalib, 1936-yilda qamoqdan qaytadi. Ubaydullo akamda na bola-chaqa, na bisot-bag'al, na tayinli uy-joy bor edi. Qamoqdan qaytgach, singlisinikida turdi. Bor bisoti kitob edi. U odam qamaligandan keyin bu kitoblarni saqlashga qarindosh-uruglar ham xavotirlanib, birining uyidan ikkinchisinikiga ko'chirib, oxiri bizlarning boloxonaga kelib qolgan edi. Birinchi marotaba Lev Tolstoyning 20 jildligi, Fitratning ko'k muqovali «Hind ixtilochilari» kitoblari, «E1», «Sadoyi Turkiston» kabi gazetalarning qavatlanganini ko'rib, tanishgan edim.

Qamoqdan kelgandan keyin singlisinikida yashab, O. Genrining «Maugli» asarining tarjimasini bilan shug'ullandi. Bu odamning bilim doirasi shu qadar keng ediki, 1930-yillardayoq hali o'zbek ziyolilariga uncha tanish bo'lmagan O. Genrining ijodi mohiyatini tushunib yetgan edi.

1937-yillarda yana qamaldi. Shu ketgancha bedarak yo'qolib ketdi.

1937-yilda xalq dushmani bo'lib pochcham qamaldi. U muallim bo'lib, bilim doirasi keng, dunyodan boxabar, adolatni fahm etgan odamlardan biri edi.

Mendan tanish-bilishlarim, yaqin odamlarim kimligini so'ragan tergovchi, xalq dushmani bo'lib qamalgan yuqoridagilarning menga qarindoshligidan xabardormikan, yo'qmi? Xo'sh, o'zim aytsam-chil..

Axir, ular nima gunoh qilgan, nimaga qamalgan - bilmasam, men u vaqtda yosh edim-ku!

Bordi-yu ular gunohkor ham bo'lsalar, axir, men- ga nima aloqasi bor? Ularning menga qarindoshligi- ni bilganda nima qilardi? Leninning akasi Aleksandr Ulyanov Rusiya podshosiga suiqasd qilib, o'ldirmoq- chi bolganda jinoyat ustida qo'lga tushgan. Jinoyati isbotlanib osib o'ldirilgan. Ammo qarindosh-urug'la- riga tegmagan-ku! Hatto podsho hazratlari uning onasi - Mariya Aleksandrovnani bir inson, ona sifati- da qabul qilib, arzi-dodini tinglab, unga taskin berib, o'z afsusini bildirgan. O'glining jinoyati aniq va elga oshkor bolgani uchun qonundan tashqari ish qilol- masligini, uzrini aytgan. Gunohkor farzand uchun podsho na ona, na otani xo'rlamagan-ku! Buzuq tar- biya berishda gunohkor qilmagan-ku!

Bizda bo'lsa... Bizda shundaymi? Otasi uchun be- gunoh farzandlarini, hatto yaqin qarindosh-urug'la- rini qamashlar bo'lmaganmi?

Akmal Ikromov xalq dushmani deb qamalganda o'g'li Komil Ikromov 10-14 yoshlar chamasi voyaga yetmagan bola edi. U sho'rlikning aybi nima ediki, umrining o'n yil bahorini qamoqda, yana bir qismi- ni Sibir surgunlarida, xor-u zorlikda kechirdi. Nega? Bitta umi? Afsuski, bitta bu emas, minglab, million- lab qamalgan eri yoki otasi uchun umri ta'qib, sur- gunlarda o'tgan xotinlar, o'g'il-qizlar bo'lmaganmi?

Tergovchining tanish-bilish, qarindosh-urug', yaqin odamlarim haqidagi savoliga javob oylarkan - man, shayton xayolimni ming yoqqa olib qochardi. Tergovchi bo'lsa, tepamga kelib, kimlar bilan qanday aloqada bolgansan, kimlar bilan ulfatchilik qilib, choyxonalarda osh ustida sovetlarga qarshi gaplar aytgansan, deb o'dag'aylardi, gapir, derdi.

Ammo, men esa uyqusizlikdan o'zimni zo'rg'a tu- tib gangigan holda unga javoban: - Gunohim senga malum bo'lsa, ayt, qasam ichaman, iqror qilmasam har qancha jazoga roziman... Ammo u bo'lsa: - Dush-

man o'zicha taslim bo'lmaydi, sovetlarga qarshi faoliyating, sheriklaring kimligini o'zing aytishing kerak, deyishdan boshqa gapni aytmasdi.

Bularga nima deb javob berasan! Axir kim o'zini kim bilan qachon, qayerda uchrashgani, nima to'g'ri-sida gaplashgani, kimlar bilan osh yeganini yozib yuradi. Bundan kuzatilgan maqsad bitta, u ham bo'lsa qamalgan qarindoshlarim bilan aloqada meni ayblaganlaridek, men nomlarini aytgan kishilarni esa men bilan aloqada ayblab qamash edi.

Albatta, olimlar bilan ilm haqida, shoirlar bilan she'r, odamiga qarab hamma bilan har narsa to'g'ri-sida gaplashasan. Tergovchimni bunday javoblarim qiziqtirmasdi. Uning bularni surishtirishdan maqsadi butunlay bo'lak narsa edi.

Men nomlarini aytgan tanish-bilishlarim tergovchining kutganicha bo'lmadi, shekilli, sira xayolimga kelmagan va men uchun mutlaqo kutilmaganda u:

- Usmon Nosir haqida nimalar bilasan? - deb so'rab qoldi.

Men oyiab-netmay Usmon Nosir juda yaxshi, sevikli shoir bo'lganini aytdim.

- Bu senga qayoqdan malum, qanday aloqada bo'lgansan?

- Kitoblarini, she'rlarini o'qiganman. Mening bunday javobimni eshitgan tergovchi nima uchundir xuddi kutgan maqsadiga yetishib, uni qo'ldan boy berib qo'lishdan xavotirlangandek, go'yoki aytgan gapimdan men aynib qolayotgandek shoshilinch, qandaydir jilmayish bilan menga:

- Bilganlaringni aytaber, yana kimlar o'qigan uning kitoblarini, u bilan qayerda uchrashgansan? - dedi.

- 1936 - 1937-yillar. Pedagogika bilim yurtida talabalik vaqtim. Usmon Nosir o'sha yillarning eng sevikli, mashhur shoiri edi. «Yurak», «Mehrim» kabi yangi chiqqan she'riy kitoblari o'quvchilarning qo'li-dan, ta'rif-tavsifi esa tillardan tushmasdi. Shu vaqt-



da Usmon Nosir xalq dushmani bo'lib qamaldi, degan gap tarqaldi. Komsomollar yig'ilishida uni la'natlab, kimning qo'lida kitoblari bo'lsa yoqib tashlashni ta'kidlashdi. Shunday qildik. Bor bilganim shu!

Bunda kishini gunohkor qiladigan nima bor! Ammo mening to'g'ri ko'ngillik bilan, haqiqatni boyamasdan aytgan gaplarimdan tergovchi o'zicha xulosalar chiqarib, yetti uxlab tushimga kirmagan, men aytgan gaplarimning butun teskarisini yozgan edi. O'qib yoqa ushlaysan! O'zingni qayerga qoyishingni, dodingni kimga aytishingni bilmay qolasan!

«Men xalq dushmani, ashaddiy millatchi, sovetlarga qarshi harakatlari uchun qamalib ketgan Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Usmon Nosirlarning millatchilik, hayotimizdan nolishdan iborat, pessimistik asarlarini sevib o'qib, ularning millatchilik, sovet davlatiga qarshi, tuhmatdan iborat g'oyalarini o'tirishlarda tanishlarim orasida bilim yurtida o'qigan davrimdan targ'ib qilib kelganman» kabi mutlaqo tuhmatdan iborat, oy-lab topilgan uydirmalardan iborat gaplarni o'qidim.

Bunga qanday qilib qol qoyasan! Bunga qol qoyish ularga qoyilgan gunohlarni boyningga olish bilan barobar edi. Demak, Cholpon, Usmon Nosirlarga nima ayb qoyilgan bolsa, meni ham shu bilan ayblamoqchi. Bundan chiqariladigan xulosa bitta: ularning taqdiri bilan sening ham taqdiring bir deyish edi.

Qanday dahshat! Axir, ularning taqdiri nima bilan tugagan! Nahotki!.. Shu kuni tergovchi menga sovetlarga qarshi tashviqotda ayblashdan tashqari yana bitta aybnoma - millatchi degan moddani qoydi!

Tergovchining yozganlariga qo'l qoyishdan oldin ularni o'qib chiqib, bu yerdagi qamoqda yotgan odamlar biror jinoyat va biror qilgan gunohlari uchun emas, KGB xodimlari tomonidan oldindan o'zlari to'qib-bichib, o'zlari oyiab qoygan uydirma jinoyatlarni zo'rlab o'tkazish uchun qamalganlariga imonim komil bo'ldi.

Mening millatchiligim nimadan iborat? Usmon Nosir she'rlari, Abdulla Qodiriy asarlarini o'qiganimmi? Bu asarlardagi millatchilik nimadan iborat? Usmon Nosirning qaysi she'rida millatchilik bor? Biror misol bormi? Ammo tergovchi buni aytmasdi. Millatchilik ruhidagi biror she'ri bolmasa, uni o'qiganim uchun nega men millatchi bo'laman? Bunga tergovchi javob bermasdi.

Axir, men Abdulla Qodiriyning ham, Cho'lponning ham, Usmon Nosirning ham ko'rmagan, ular qamalganida men 16 yoshli bola bolib, ularni suhbatlarida bo'lmagan bolsam-da, ularning millatchi ekani-yu, sovet davlatiga qarshi g'oyalarini qayoqdan bilishim mumkin? Bilmagan narsamni nima deb targ'ib qilaman? She'rlarini maqtaganim uchun men ham millatchi boladigan bolsam bu - butunlay asossiz! Men uning she'rlarini ko'pchilik qatori yod olib maqtagan bolsam, bu uning millatchilik, yigloqi ruhda yozilgani uchun emas, aksincha, kishilarning qalbini, shodlik va dardlarini ifoda eta olgani uchun, maftun qilgani uchun maqtaganman!

Usmon Nosirning yodimda qolgan she'rlarini xotiramdan o'tkazdim:

*Yurak, sensan, mening sozim,
Tilimni nayga jo'r etding.
Ko'zimga oyni berkitding,
Yurak, sensan ishqibozim.*

*Senga tor keldi bu ko'krak,
Sevinching toshdi qirg'oqdan.
Tilim charchar, ajab, gohi
Seni tarjima qilmoqdan.*

Shu misralari ko'nglimdan o'tdi-yu, o'zimni tutolmay beixtiyor ko'zlarimga yosh keldi. Ho'ngrab yigladim! Axir, hayotdan olgan sevinch va shodliklari

ko'kragiga sig'may, qirg'og'idan toshib ketgan bir shoir qanday qilib pessimist bo'ladi, qanday qilib uni pessimist deyish mumkin? Qanday qilib bu so'zga til boradi!

Bunday yolg'on nega kerak bo'lgan? Shu she'rning davomi Usmon o'zi aytgandek xotiramda seldek quyilib kela boshladi:

*Itoat et, agar sendan
Vatan rozi emas bo'lsa.
Yoril, chaqmoqqa aylan, sen,
Yoril, mayli tamom o'lsaml*

Yoqamni chok qilib dod-faiyod ko'targim keldi. Axir Vatanining har bir xizmatiga askardek hamisha tayyor, uni rozi qilish uchun chaqmoqqa aylanib, hayotini qurbon qilishga rozi bir otashin shoirni qanday qilib, qaysi insof, qay diyonat bilan dushman deyish mumkin bo'ladi!

Axir men Usmon Nosir she'rlarini deyarli hammasini yod olgandim. Xayolimdan qaysi she'rida millatchilik, hayotdan nolish, siyosatni qoralaydigan g'oya bor ekan deb birma-bir otkazib ko'rdim. «Yurak» to'plamidan keyin oradan bir yil o'tmasdan nashr qilingan «Mehrim» to'plamidagi she'rlarni xotiramdan kechirdim. To'planning nomini «Mehrim» deb atalishining o'zi ham, vijdon bilan aytganda, shoirni naqadar hayotga muhabbati zo'rligidan dalolat bermaydimi!

Usmon she'rlarini o'qigan har qanday o'quvchi xalqqa, Vatanga bundan ortiq yana qanday sadoqat, qanday muhabbat bo'lishi mumkin deb aytishdan boshqa nima deyish mumkin?

Usmon Nosir she'rlarini xotiramdan yana bir bor o'tkazarkanman, hech kimning xayoliga kelmagan bu aybnomalar, bu tuhmatlarga Usmon o'zi qanday bardosh bergani, u qilgan ohu faryodlar butun vujudimni larzaga sola boshladi.

Qanday qilib men xalqi sevgan, kitoblari qo'ldan tushmay o'qilgan buyuk bir shoirni xalqiga dushman deb ayta olaman!

Usmon!.. Sado ber, Usmon! Bu beqiyos boliton azoblariga qanday qilib sening bardoshing yetgan, Usmon! Sening she'rlaringdan olgan oromim, mening ijodimga maktab bo'lganing haqi, qanday qilib seni o'z xalqining dushmani, millatchi deymen! Ko'r bo'lmaymanmi! Yo'q! Buning uchun ular nima hukm chiqarsalar chiqarsinlar, insof bo'lsa - insoflariga, vijdon bo'lsa - vijdonlariga havola! Ko'nglimdagi gaplarni tergovchiga aytdim.

Ne uchundir shu onda ko'z oldimda 24 yoshida qamalgan Usmon Nosir gavdalanadi. Nazarimda Usmon Nosir xuddi men o'tirgan shu qora kursida o'tirib, tergovchiga - men dushman emasman, barcha qoygan ayblaring tuhmat! Xalqimga, vatanimga cheksiz mehr-u muhabbatimdan o'zga bisotimda dardim yo'q! O'ldirsalaring ham millatchilik, davlatga dushmanlikda o'zimni aybdor bilmayman, qol qoymayman, deb nola qilayotgandek tuyildi. Nahot 24 yoshli buyuk iste'dod egasi, kelajakning daho shoiri Usmon Nosirni tuhmatlarni tan olmagan, haqqoyiigi uchun o'ldirganlar! Nahot shu qismat menda ham takrorlansa!

Bu dahshatli xayolimni tergovchining:

- Sirlaringni bizdan yashirolmaysan, qo'limizda seni fosh qilish uchun dalil va guvohlar yetarli! Usmon Nosir, Cho'lponlarning ta'sirida xalq g'amda qolgan, uni g'amdan qutqarish kerak degan kim? Sen emasmi? Xo'sh, xalqning g'ami nimadan iborat? Qanday qilib qutqarmoqchi bo'lgansan, shu haqda gapir! - degan do'qi buzib yubordi.

- Qayerda aytibman?

- Cylab ko'r!

- Bunday degan emasman!

Tergovchi shkaf tortmasidan mening 1939-yilda yozilgan (qayerdan olgan bilmadim, chunki u hech

qayerda bosilmagan edi) to'rt yo'l she'rimning rus-
chaga ag'darilgan nusxasini o'qib berdi:

*Vujudimni tilib tilka-tilka
Ayla, vijdonimrd sotmayman,
Xalq dardini joyladim dilga,
O'ldir, o'limdan ham qaytmayman.*

- Bu she'r senikimi?

- Meniki!

- Demak, xalqni baxtsiz, g'amda qolgan, uni g'am-
dan ozod qilish uchun o'limdan ham qo'rqmay ku-
rashmoqchi bo'lgansan?

Ba'zan kishi g'azablangan vaqtda shunday holat-
lar boladiki, bunday paytda o'z haqligingni isbotlash
uchun so'z topolmay qolasan. Asablaring chidash
bermaydi. Istamagan holda tilingdan so'kish, haqo-
rat otilib chiqadi.

Axir tergovchi mening «xalq - baxtsiz, xalq - g'am-
da» degan she'rimda yo'q so'zlarni o'zicha qo'shib
ko'zini lo'q qilib tursa, nima javob qilishing, qahringni
nima deb ifoda qilishing mumkin! Ammo shu daqiqa-
da ko'nglingdan tug*yon urgan, bular bari tuhmat,
bu ifloslik, la'nat sendek tergovchiga degan so'zlarni
aytib bo'larmidi? Axir:

«Xalq dardini joyladim dilga»

degan gapdan sovet xalqi g'amda, baxtsiz degan
ma'no kelib chiqadimi! Xalq dardini shoir dilga joyla-
gan bo'lsa, dardini aritish uchun kurashsa, buning ni-
masi gunoh, nimasi! Shoir o'z xalqining g'amini yema-
sa, uning yukini yengillatmasa, ijod qilishining nima
keragi bor! Xo'sh, xalqning dardi yo'qmidi? Million-mil-
lion tuhmat bilan qamalgan kishilarning bola-chaqasi,
qarindosh-uruglarida dard yo'qmidi? Nohaq quloq qi-

linib, allaqaysi yurtlarga ko'chirilib oilasi barbod bolganlarning avlod-ajdodlarida dard yo'qmidi?

1930-yillar ocharchiligida ochlikdan shishib o'lgan, bolalaridan ajralib qolgan, o'zi esa kunjara yeb o'lgan onalarning, tirik qolgan farzandlarda armon, dard bo'lmaganmi? Bu ofatlarni takrorlanmasligi uchun kurash tuhmat bo'ladimi? Buni unga qanday tushuntirasan!

U menga:

- Xo'sh, sovet xalqini qaysi yollar bilan g'amdan qutqarmoqchi bolgansan? - degan savol berib, qo'lga tushirmoqchi bo'ldi.

- Yaxshi! She'ringda «O'ldir, o'limdan ham qaytmayman» deganingda, xo'sh, nimani nazarda tutgansan? Qani ayt-chi! - dedi-yu basharasida endi qo'lga tushirdim, degandek mamnuniyat bilan menga tikildi.

*Vujudimni tilib tilka-tilka
Ayla, vijdonimni sotmayman, -*

deb yozgan bolsam, har qanday holatda ham kishilarni qo'rqmas, vijdonli bo'lishga, xalqning dardi bilan yashashga undasam, xo'sh, buning nimasi sovetlarga qarshi?

«O'ldir. O'limdan ham qaytmayman!» - deganimda, 1920-yillarda buyuk o'zbek qonunshunos yuristi, qarindoshim Ubaydulloxonni, begunohdan begunoh qamalgan pochchamni, xalqining buyuk, takrorlanmas iste'dodli farzandlari Cholpon, Abdulla Qodiriy, Usmon Nosirlarni qamab, yo'q qilib yuborgan seni, senga o'xshagan jallodlarni nazarda tutganman! 1930-yilda ocharchilikdan xalqni qirganlarga qarshi yozganman, degim keldi-yu, ammo bu tergovchini faqatgina yana g'azabga keltirib, o'zimga o'zim azob sotib olishlik ekanini o'lab, tilimni tishladim. Bir umid faqat Xudodan edi.

Xayolimdan:

*Tangrim, o'zing, o'zing yarlaqa,
O'zingdan hech o'zga madad yo'q,
Na do'stim bor, na dard tinglouchim,
O'zingdan hech o'zgaga had yo'q! -*

1939-yilda yozganim shu to'rtlik o'tdi.

Bu to'rtlikni o'sha vaqtda yozganimdan keyin yod olib, o'zini yirtib tashlaganman. Chunki, bu to'rtlik, yoki shu ruhda yozilgan she'rlar o'sha vaqtda pessimistik, diniy sanalib, so'zsiz qoralanardi, qamash uchun ashvoviy dalil bo'lardi. Vaholanki, bu she'r o'sha davrda demokratiya, so'z erkinligi yo'qligiga, oqni oq, qorani qora deb aytish imkoni bo'g'ilganiga qarshi yozilgan edi. Ammo bunday nuqson, kamchiliklar - adolatsizlikka qarshi kurash, xalqning dardini yengillashtirish uchun jon kuydirib tanqid qilish dushmanlik sanalardi. Mana bunday xatolar, kamchiliklar bolyapti, degudek bolsang, buning g'amini yeydigan, to'g'rilaydigan hukumat, rahbarlar bor, degan javobni eshitardim.

O'sha rahbarlar xatoga yo'l qo'yapti, deb ko'ringchi, seni rahbarlarga suiqasdda ayblashadi. Sening vazifang kamchiliklarni ko'rsatish emas. Agar sen chindan ham sovet davlatining do'sti bolsang, har qanday holatda ham, dushmanlarga sir bermaslik uchun hayotimiz farovon, baxtiyormiz, deyishimiz kerak. Aksincha, hayotdan norozi, dushman sanalib, sengaishonch yo'qoladi: shubhali odam bo'lib qolasan:

18-19 yoshlarimda «Sonet» she'rim bosilgan:

*Xalq - boyligu. Vatan - xazina.
Menposibon. O, noyob kasb.
Xoh tun bo'lsin, ko'raman bosib
Dushman kirsan, bo'lib birigna.*

*Sevinchlarga to'la bu siyna,
Chunki shuni menga muno'sib
Ko'rib, xalqim aylabdi nasib,
Mayli, umrim bo'lsin hadiya!*

*Vatan ishq bilan, o, qalbim,
Dengiz kabi to'luq, limmo-lim.
Sevgim bo'lmas asli begona,
Ishontiray qayta ont ichib
Kijon bersamjanglarga kiral
Sevgim, yurak but qolur yana!*

Bu she'rni yozgan shoirni sovet davlati, xalqinining dushmani deb boladimi? Yoki, urushning S e h ! kuni yozilgan she'rim: S n c n i

*Istaymanki, daydib kelgan yov
Gulzorimni yakson etmasin.
Jangda o'lay, mayli, xalqimning
Bir umrlik erki ketmasin.*

Yov kim? Nemis fashistlarimi? Ular hujumni qayerdan boshladi? O'zbekistondanmi, yoki mTyer andanmi? Albatta u O'zbekistonni, m L g ^ ^ emas Belorussiya, Rossiya yerlarini bosibok?boX ladi. Rossiya yerlarini yov bosib olsa, menga nima deb qarab o'tirmay, jangda o'zini qurb™ qilifhgaTozi bolgan shoirni baynalmilalchi demay, mLtchfikda ayblash adolatdanmi?! J1Rcla

Bunday aybnomani qo^ish sen onangni haqorat qilgansan onangdan kechgansan degan tuhmatdek dahshatli-ku! Bu malomatni kim bo^niga ofadi? Haqiqiy farzand bu sharmandalikni qaror qilib el dod sorbSh k°\arib ^ yoqalarini chok q*b oLni
..limga rozi b o < 1 »

Bu haqorat, tuhmatlar kamlik qilgandek, sen bu she'rlarni o'z millatchilik, sovetlarga dushmanligingni niqoblash uchun yozgansan, degan javobni eshitsang, bunga qanday chidaysan!

Millatchiligim nimadan iborat degan bir fikr doim meni qiynardi? Men biror millatni haqorat qilibmanmi? Umuman millatchilikning o'zi nima? Negizi nimadan iborat! Millatchilik degan gap o'zi qachon paydo bo'ldi, qayerdan kelib chiqqan? O'zbek xalqi tarixida shu vaqtgacha biron shoir, bironta olim, biror kasb egasini, sen millatchisan deb qamash u yoqda tursin, aybdor qilganini bilmayman. Millatchi degan gap qachon paydo boldi? Ruslar O'rta Osiyoni bosib olganidan keyinmi, yoki inqilobdan keyinmi? Chor Rossiyasi davrida ham biror o'zbek yozuvchisi, olimini millatchilikda ayblab, hozirgidek yalpi qamalGANI tarixdan malum emas.

Xalq dushmani degan gap o'zi tarixda bo'lganmi? Xonga, hokimga qarshi kurashlar bo'lgan, ammo o'z xalqiga qarshi chiqqan, uni baxtsizligini istagan ziyolini tasavur qilolmayman. Yaxshi niyat yo'lida har qanday odam ham xato qilishi mumkin, ammo hech bir davrda xato qilgan odamni xalq dushmani deb qamaganini bilmayman. Nahotki, «O'tgan kunlar»dek xalq sevib o'qiydigan asarni yaratgan Abdulla Qodiriy yoki buyuk bilim egalari Fitrat, Cho'lponlar o'z xalqining baxtiga qarshi kurashgan bo'lsa! Bitta bular emas, Fayzulla Xo'jayev, Akmal Ikromov, ular qatori ming-minglab qamalGAN ziyolilar-chi? Nahotki shunday dono odamlar o'z xalqi ziyonini oylagan bo'lsa! Baxtiga to'g'anoq bo'lishni istagan? Yo'q! Yo'q! Bularni haqiqatni bilmagan nodonlar deb bo'ladimi? Yo'q!.. Shunday bo'lgach, bir xalqning shunday iste'dodli farzandlarini dushmanga, millatchiga chiqarib otib, oldirib yo'q qilib tashlansa, adolatli deb bo'ladimi? Axir bularning har biri o'z xalqiga faqat yaxshilik tilagan-ku! Yaxshilikka jazomi?! Bularga hech kim

achinmaydimi? U sho'rliklarning taqdiri har bir aqli raso, oq bilan qorani ajratishga fahmi oz-moz yetgan odamni oyi-atmaydimi? Masalan, men o'zim kitoblari qoldan qo^may kechalari uxlamasdan o'qigan, adabiyotimizning faxri, yorqin yulduzi bo'lgan 24 yoshli Usmon Nosirning qamalishiga tilimda aytmasam ham dilimdan rozi bo'lganmanmi?

Dilingdagi gapni aytishga nega qo'rqqansan? Kimdan? Kimdandir, nimadandir cho'chib, haqiqatni aytolmay yashash erkinlikmi? Abdulla Qodiriyning «O'tgan kunlar»i, «Mehrobdan chayon»larini odamlar yashirib qo'ldan qo'lga berib o'qigan-u yirtib tashlamagan. Men shunday odamlarning o'limiga quvonganmanmi? Aslo, aslo! Ularning kitoblarini o'qigan xalq-chi?! Demak, xalq sevgan odamlarni qamaganlar xalq dushmanimi, yoki bunday adolatsizlikdan nafratlanganlar dushmanmi?

Xayolimdan o'tgan dilimdagi bu achchiq haqiqatlarni aytib bolarmidi! Aytish emas, xayolingdan o'tkazishga cho'chiysan! Buni aytish, o'zingni ochiqdan-ochiq millatchi, dushman qilib ko'rsatish bo'lardi. Dodingni kimga aytasan? Kim tinglaydi! Tepangda qo'lini mushtlab, o'dag'aylab turgan tergovchimi?

Bitta chora:

*Tangrim, o'zing, o'zing yarlaqa,
O'zingdan hech o'zga madad yo'q.
Na do'stim bor, na dard tinglovchim,
O'zingdan hech o'zgaga had yo'q, -*

deb Xudoga nola qilish-u, yoki ikkinchi chora, o'zi-ni o'zi kamerada qatl qilgan Ivandek bu tuhmat azoblaridan qutulish uchun o'z joningga qasd qilish!

Tangrining qahri

Bugun meni shunday bir xonaga kirgizishdiki, Xu-doning oldida nima gunoh qilgan ekanman, bilmadim, kameraga emas, xuddi do'zaxga kirib qoldim deb ladim. Bu kamera boshqalarga nisbatan bir muncha keng bolishiga qaramasdan, kirish bilan shunday bir qolansa hidga to'g'ri keldimki, dimoglarni yorib yuborgudek bo'ldi. Chidab turib bolmasdi. Xuddi it, mushukning o'ligining ichiga kirib qolgandek boldim. Kameralarining maxorka tutuni, qirq daraja issiqdan chiqqan odamlarning teri, bir burchakdagi hojat qilinadigan tuvakning aralash sassig'iga o'rgangan odam ham bunga o'qchimay chidashi qiyin edi.

Kameradagi sementga qoqilgan ikki-uch temir karovatlar bo'sh bolib, bir burchakdagsida kimdir orqa o'girgancha, qimirlamay yotardi, oyoq tomonida mis tuvak (parash) turardi. Ko'rpa-yostig'imni karavotga tashlagancha, yozish ham ko'nglimga sig'may, xayolga tolgancha otirdim. Sassiqdani o'qchiq kelardi. Qayerga qochasan! Nima iloj! Balki meni jazolash uchun shu kameraga kirgizishganmi? Inson nimalarga ko'nikmaydi, nimalarga bardosh bermaydi! Tutqunlik!

Bu yotgan odam kim? Kameraning bu sassig'iga qanday bardosh qilib yotibdi. Nega indamaydi? Qamoq odaticha, kameraga biror yangi mahbus kirgudek bo'lsa, tashqaridan biror xabar aytarmikan, biror dardkash topildi degandek umid bilan qaralardi. Bu odamdan sado chiqmasdi. Tirik, o'likligini bilish uchun tepasiga bordim. Yo tavba, butun sassiq shu odamdan kelardi. Ko'zini yumgancha o'zicha nimalarnidir pichirlardi. 70 - 75 yoshlar chamasidagi bu odam o'girilib menga qaradi-yu bir og'iz gap aytmasdan ko'zim yana yurnib oldi. Bir oz jimlikdan keyin, yig'i aralash o'zicha nola boshladi:

*Xudoyo ohu - vovaylo,
O'zimdan bo'lmadim ogoh!
Karomat qilmasang, Alloh,
Oro yo'llarda qolg'onmatil!..*

U buni qandaydir ohang bilan aytardi.

Menga aytgan birinchi gapi: - Sen kimsan? - degani bo'ldi. Kimligimni aytdim. Eshitdi-yu, go*yo men unga davo bo'ladigandek yolg'iz yotib yig'ilib qolgan hasratlarini bir olam ko'z yoshlari bilan ayta boshladi:

- Bir oyog'im go'rda, bir oyog'im to'rda, yetmishdan oshgan vaqtimda qayoqdan men dushman bo'lib qoldim! Oliklarim qayerda qolib ketadi endi. O'zim savodsiz bir ko'knori, giyohvand odam bo'lsam, bu ahvolda ajalimdan oldinroq, sud qilmaslaridanoq o'lib ketaman-ku! Oyoqlarim turishga yaramaydi. Turg'azishga yordamlash, peshonam sho'r ekan. Qaysi gunohimga Xudo bu kunga soldi! Tuvakka o'tirishimga yordamlash, nima chora, ichim buzilgan... Bu ahvolda erta-indin o'lib qolaman.

Haqiqatan ham oyoqlarining tizzalari shishib ketgan, qo'ltiqtayoqsiz yurishi qiyin edi.

Men uni turishiga yordamlashdim, uning butun vujudidan sassiq kelardi. Tuvakka o'tqazdim. O'zini o'zi eplolmasdi, uni tozalashga yordamlashdim. Meni duo qilib, o'z holidan o'zi Xudoga nola qilardi. Gunohlariga kechirim so'rardi. Men esa uning bu nolalarini tinglab, bu ko'rgulik, bu xo'rliklar mening qaysi gunoh, qay shaddodliklarimga bo'ldi, balki gunohlarimni yengillashtirish uchun meni buning oldiga kiritdimi deb o'vlardim. Shu xayollar ko'nglimdan o'tarkan, kameraning kishini o'qchitib, ko'ngilni behuzur qiluvchi badbin bo'ylari ham dimog'imdan ko'tarilgandek, bu begona xuddi awaldan qadrtondek, undan jirkanish o'rnini qalbmida uyg'ongan qandaydir achi-nish, savob degan his egallay boshladi.

Savob?.. Bu nima?

Bizning eng katta gunohimiz savobni unutganimiz craasmi!

Savob nima! Savobni bilmagan odam xolisanilo birovning yukini yengillashtirishga ham hissa qo'shadimi? Savob bu - insonga mehribonlik hissidan tug'ilgan, yaxshilikka yaxshilik qaytishiga ishonish e'tiqodi emasmi? Savobga ishonish kishini gunohdan, shafqatsizlikdan qaytarmaydimi? Insonni insofga keltiradigan narsa, balki shu savobga ishonishmikan!

Men bu mo'ysafidni suyab joyiga o'tqazdim. U shunday bir ruhiy holatda ediki, men kimman, nima qilib bu yerga keldim, hatto buni so'rash ham uni qiziqtirgani yo'q. Uning xayolida nimalar kezardi?

Lekin bu odam menga tanish, qayerdadir ko'rganman. Eslashga ham, so'rashga ham ulgurmay o'zi gap boshlab qoldi:

- Bolam, senga rahmat, meni bu ahvolimga chidashing qiyin, nima chora, Xudo qildi! Bu ahvoldan qutulib, o'lmasligim uchun bitta chora bor. Sendan iltimos, men o'rischa gaplasholmayman, boshliqlarini chaqirib tushuntir, tintuv vaqtida olib qo'ygan ko'knorimni qaytarib berishsin, bo'lmasa ich ketishini to'xtatish qiyin. Bu ichketar ko'knorini yemanimdan. Bu ahvolda ikki-uch kun ichida holdan toyib, shisha boshlayman, shish boshlandimi, bu endi o'lim degan so'z. Shu yerda oliklarim qolib ketmasin, nachalnigiga tayinla, ko'knorimng hamma-sini qo'limga bermasalar ham, awaliga yetti ichim, uni ertasiga yana kamroq, asta-sekin, kundan kunga me'yorini kamaytira borib, shu yo'l bilan bir hafta ichida ko'knori ichishdan qutulishim mumkin. Bu sharoitda tashlamay ilojim yo'q.

Men uning iltimosini qamoq boshliqlariga aytдим. Bilmadim, qamoq boshliqlari insofga kelibmi, yoki sud qilinguncha o'lib qolmasin degan oy bilan-

mi, cholning aytganicha har kuni unga ko'tcorisidan oz-ozdan bera boshlashdi. Kolcnorini ichib olishi bilan, dunyo ko'ziga tor bo'lib, ko'nngliga hech narsa sig'may, gaplashish ham yoqmay, nola qilib yetgan odam birdan tetiklanib, ruhi o'zgarib tilga kirib, qamoq azoblarini bir dam unutib, o'zining yoshliklari, qilgan maishatlari, hatto «Yusufva Zulayho» qissalaridan bilgancha rivoyatlar ayta boshlardi. Kayf tarqalishi bilan bu ko'tarinki ruh ham asta-asta so'nayotgan shamdek pasayib yana ohu-vovoylo, yana yig'i boshlanardi. Uning birdan-bir tashvishi, shu yoshimda, yetmishdan oshganimda meni sud qilsalar, o'liklarim kafansiz, qay yerlarda qolib ketadi, deb qayg'urish edi.

Men uni qayerdadir ko'rganimni aytib, nega qamalgarlarini so'radim. Menga tanish ko'ringan bu mo^safid sho'rlikning javobi meni dahshatga solib qo^di:

Toshkentning Navoiy ko'chasidagi qadimgi Qatorterak degan joyda, 1945- 1950-yillarda shundoqqina ko'cha yuzida, mahaila aholisi uchun qilingan kichkinagina choyxona bo'lardi, choyxonaning ko'chaga qaragan oynavonli derazasining pastki bir ko'ziga ochilib yopiladigan taxta eshikcha qilingan bo'lib, bu odam besh-o'n pachka papiros, ularning yoniga qurut qo^ib sotib, shundan tushgan daromad bilan kun ko'rguvchi Ilyos ota bo'lib chiqdi. Uning kimligini bilgach, shu odamni ham xalq dushmani qilib qamashganidan hayratga tushib, nima gunoh qila qolgan edingiz, qamashdi, degan savolimga:

- Men sovet hukumatini ag'darmoqchi bo'lganman, - degan javobni qildi. Bu, albatta, hech kim ishonmaydigan g'azab bilan aytilgan kesatq edi.

Yetmishdan oshgan, savodsiz, uning ustiga nogiron, giyohvand bir odamdan eshitilgan bu gap kimni hayratga solmaydi! Kimni ishontiradi! Shu odamgaki rahm-shafqat qilmay, xalq dushmani deb qamagan bo'lsalar, unda...

Uning bu gapiga birorjavob qilmay, hayratga tushganimni ko'rib:

- Axir, men, keksaygan, giyohvand, bugun aytgan gapim ertaga esdan chiqadigan bir odamdan, choyxonada o'tirib, hukumatga qarshi qanday igVo, tuhmat gaplarni aytgansan, desa, xo'sh, men nima deyishim kerak? Awalo bularni aqli bo'lsa, hukumatga qarshi gap qanaqa bo'ladi-yu, qarshimasi qanaqa bo'ladi, nimaligini o'zim bilmasam-u kelib-kelib shu savolni menga beradimi, o'zing o*yla! Choyxona bu - karvon-saroydan ham battar joy. Unga kimlar kirib chiqmaydi, nima gaplar bo'lmaydi. Kim bilan nimani gaplashganman, kim nima degan, qaysi biri esimda!.. Men nodon, Xudo urgan bo'lmasam, tanish-bilish yaqinlaring kim, desa, yonimda kolxoz do'konining sotuvchisi Hakimjonni, choyxonaning yonida turadigan, ertadan kechgacha choyxonadan chiqmaydigan Homidxonni aytamanmi! Shu gapim sabab bo'lib, mana endi ularni ham xalq dushmani sanab menga sherik qilib qamashibdi. Nahotki bizlar hukumatni ag'darsak! Nahotki, shunday katta davlat, shuncha askar, shuncha quroli bilan bizlardan qo'rqib o'tirsa! Bu yog'ini so'rab nima qilasan, bolam!

Qamoqda o'tirgan odamning ko'nliga kulgi sig'maydi. Ammo cholning gaplarini bir artist sahnadan aytayotgan deb tasavur qilsang, beixtiyor kulmay ilojing yo'q. Axir sovet davlatini yiqitmoqchi bo'lgan bu giyohvand chol kimu uning atrofidagi hamfikrlari kim? Bularning gapining ta'siri nima bolardi! Nahotki xalq shularning ta'siriga berilib, gapiga ishonib, ketidan ketsa! Xayolimga Don Kixot kelib, qamoqdaligim birdan xotiramdan kotarilib, o'zimcha kuldim. Bu gaplarni eshitib nima ham deysan. Men unga taskin berib:

- Ota, siz, bola-chaqa, orzu-havas, bu dunyoning maishatini ko'rgansiz, hukumatga insof bersa hech gapmas. Sizlarni nima qilardi, chiqarib yuboradi,

mana bizlar, dunyoga kelib nima ko'rdik, bizlarga jabr, - desam, u:

- Kimdan eshitgan bo'lmay, bu badbaxt qamoqqa tushgan borki, 25 yildan kam muddat bermaydi, - deydi. - Senlarga 25 yil berganda ham umr bersa, yoshsanlar, endi 30 yoshga kiribsan, 55 da qutulib chiqasan, men yana necha yil yashayman, senga emas, menga jabr, o'liklarim qay yurtlarda qolib ketadi! - deb, meni yosh umrimning xazon bo'lishi-yu unga achinish emas, o'zining o'ligi qay yurtda qolishining g'amini qilib nafsoniyatimga tegib ranjitgan bo'lsa ham, lekin ikkinchi yoqdan keksaygan chog'da bunday baxtsiz bo'lganiga achinardim.

Axir mushuk o'lsa ham kishi achinadi, uni kimdir ko'madi! Ammo lagerda, tutqunlikda o'lsang, seni it o'ligicha ham qadring bo'lmaydi

Cholning, o'liklarim qay yurtlarda qolib ketadi, deb qayg'urishida, kindik qoni to'kilgan yerdan, o'z yurtidan ayrilish, o'z vatanining bir kaft tuprog'i nasib etmasligidan nolish bor edi. Ha, darvoqe, ozmuncha odamlar o'z yurtining bir siqim tuprog'iga zor bo'lib, begona yerlarda yitib ketdilar! Bu o'limdan qo'rqish emas, o'z yurtiga mehr-u muhabbat edi.

Ilyos otaning noliganicha ham bor edi. Bu orada uning kayfi tarqab ruhi o'zgara boshladi. Kayfxumori, haqsizlik azobi qo'shilib, cheksiz bir alam bilan Ilyos otaning Xudoga nolishi yuraklarni larzaga solib otilib chiqardi:

*Xudoyo, ohi-vovoylo,
O'zimdan bo'lmadim ogoh!
Karomat qilmasang, Alloh,
Oro yo'llarda qolg'onman!*

Qamoq sharoiti, begunoh odamlarga yog'dirilayotgan tuhmatlar davrida Ilyos otaning bu she'riy nolasi shu qadar o'zining to'liq ifodasini topgan ediki,

haqiqatan ham biror karomat, mo'jiza yuz bermasa bu asoratdan qutulish mushkul edi.

U g'azab bilan, kimlarnidir la'natlab, vasiyat qilgandek nimalardir menga demoqchi bo'ldi-yu bu orada nazoratchining chiqishga tayyorlan, degan ovozi eshitilib, aytmoqchi bo'lgan niyatini oxirigacha yetkazishga imkon bo'lmadi.

Ilyos otani olib chiqib ketdilar. Qayerga?

Qayerga bo'lardi - balki, davolanguncha vaqtincha kasalxonaga, yo sud qilib 25 yilga hukm qilib lagerlardan biriga! Sen kim bo'lma, bu dargohning changaliga ilindingmi, bas, faqatgina bitta yo'l, u ham bo'lsa lagerlarga olib boradigan yo'l. Bu yerdan boshqa yoqqa boradigan yo'l yo'q, qolgan hamma yo'llar sen uchun berk.

Yetmish besh yoshga borgan bu oyoqsiz mo'ysafidni qayerga olib ketdilar? Besh kunlik umri qolganmi, yo'qmi? Uning nimasi dushman bo'ldi? Uning dushmanligi o'n tiyinlik qurut, yoki bir quti sigaret oluvchi xaridorning:

«Qurti ikkitasini emas, to'rttasini o'n tiyin qiling, yoki «primani» arzonroq soting» degan gapiga:

«Bu gapingni hukumatga ayt, tagini mo'l qilib magazinlarga chiqarib qo'sa, men ham arzon sotardim, meni o'zimga ham magazinchilar ustiga qoyib sotadi, menga qoladigan faqat non puli xolos», deb qilgan javobimi? Sovetlarga qarshi targ'ibot shumi? Bu sho'rlik chol ko'chaga chiqib sovet hukumatining dastidan «dod», deb jar solmagan bo'lsa, yoki biron joyga bomba qo'yib, sheriklari bilan portlatmagan bo'lsa!

Yo'q narsani yo'q deyish, qimmat narsani qimmat deb to'g'ri gapni aytish dushmanlik sanalsa, unda nima qilish kerak? Yo'q bo'lsa ham bor, och bo'lsa ham to'qman deyish kerakmi? Yolg'on gapirish do'stlik bo'ladimi? Shu bir og'iz gapni aytgan va buni eshitgan atrofdagi odamlar bu xato demaganlars uchun ham-

masi sovetlarga qarshi to'da sanalib, qarigan choglarida bola-chaqa, uy-joylaridan mahrum bo'lib begona yurtlardagi qamoq lagerlarida o'liklari qolib ketishga mahkum etilsa, bu qaysi qonun, qaysi insofga kiradi! Bir og'iz gap uchun 25 yilga hukm qilish kerakmi?

Ilyos ota sho'rlikning "o'liklarim qayerlarda qolib ketadi» deb ohu-nola qilishlari kishi yuragini o'rtardi.

Nahot, insonga rahmi-shafqat shu bo'lsa! Bu yerdagi tergovchilarning insofi, vijdoni qayerda!

Men Ilyos ota ahvoli, uning taqdiriga yurakbag'rimdan achinar edim-u, ammo o'zimning taqdirim, oldinda meni nimalar kutmoqda, bulardan bexabar edim. Ertaga bu dunyoda nimalar bo'lishini kim biladi. Mening taqdirim ham...

Cylarim oxiriga yetmay temir eshikning tuynukchasi ochilib, nazoratchi ovqat olib kelganini aytdi. Men bir necha yildan beri tutilib, mahbuslarning qollaridan qollariga otaverib, qayerlargadir urib gardishlari qiyshaygan mis toboqni uzatdim. Bir cho'mich yovg'on, so'k oshi quyib berdi. «Arpa yemas bu otlarni ajriqqa zor qildi Xudo», deganlaridek ichmasdan ilojing bormi!

O'z ayblaringni bo^ningga olmaganing, ya'ni sovetlarga qarshi faoliyatingni o'zing ochiq aytib bermaganing uchun jazolash maqsadida uyingdan kelgan ozmi-ko'pmi narsalarni ham oldirmasa, yoningdagi bor pulingga xarajat qildirmasa, xo'sh, bu yerda beriladigan bir cho'mich so'k oshi, sulii bo'tqani yemasdan nima chora! Yaxshi yemoqchi bo'lsang «Men sovetlarga qarshi dushman bo'lganman», deb ayblaringni, sheriklaring kim bo'lganligini tan olib aytib ber, uyingdan kelgan narsalarni ham olasan, bufetlardagi narsalar ham seniki bo'ladi. Bu degani vijdonni jig'ildonga almashishning xuddi o'zi.

Och bo'lishimga qaramay bir qoshiq ovqat ham tomog'imdan o'tmadi. Ilyos otani olib chiqib ketgan bo'lsalar ham tuvakdan chiqqan sassiq hali kame-

radan arimagan edi. Nazoratchiga ahvolni aytib, tuvakni to'kib kelish kerak, degan iltimosimga, «faqat kechki hojat vaqtdan boshqa payt mumkin emas», degan javobni oldim. Qo'lingdan nima keladi!

Oradan ko'p o'tmay temir eshiklardan birining ochilib yopilgan xunuk ovozi eshitildi. Bu yon-verimdagigi emas, ovozing uzoqdan kelishiga qaraganda, yerto'laning eshigi edi. Kishi yillab qamoqda o'tirabergandan keyin eshikning ochilib-yopilgan ovozidan ham nechanchi kamera ekanini taxminan sezadigan bo'lib qolasan.

Men yotgan kameraning yonida nazoratchining kimgadir «to'xta» degan ovozi eshitildi. Temir eshik sharaqlab ochilib, mening kameramga sochlari oppoq oqargan o'rta bo'li, nihoyatda xushro'y 50 yoshlar atrofidagi mahbus yelkasida yuki bilan kirib keldi.

Bu odam 1919-yildan kommunistik partiya a'zosi, toshkentlik Nasriddin Xo'jayev edi. Inqilobning birinchi yillaridayoq otilib chiqib partiyaga kirganlardan, Endi haqiqiy ozodlikka erishdik, butun orzu-umidlari-miz endi ro'yobga chiqadi, deb, yigirmanchi, ottizinchi yillarda joni-jahdi bilan jonbozlik ko'rsatganlardan. Mana endi yelkasida ko'rpa-yostiq bilan kirib kelib, men bilan zixi pachoq mis toboqda bo'tqa yemoqda.

Bu sodiq kommunistning gunohi nima?

Nasriddin Xo'jayev mening savolimga g'azab aralash: «Seni qaysi gunohingga qamashdi?» - deb savol bilan javob berdi.

Shu javobni eshitdim-u boshqa bir narsa haqida so'rashga tilim bormadi. Tog'amning o'g'li sodiq kommunist Bahovuddin akaning fojiali taqdiri ko'z oldimdan o'ta boshladi. U ham 1918 - 1919-yillarda shu partiya safiga sidqidil bilan kirgan edi-ku! Taqdiri nima bilan tugadi? U qamalmadi, ammo shu e'tiqod bilan yashab, oqibatda nima topdi?..

Nasriddin Xo'jayev garchand menga qamalish sababini aytmagan bo'lsa ham, tog'avachchamning feli-

ga, e'tiqodiga qiyos qilib, buning qamalishi-yu Bahovuddin akaning nechuk qamalmaganidan o'zimga xulosa chiqardim,

Tog'amning o'gli Bahovuddin aka partiyaga kirgach, xuddi butun orzu-armonlariga yetkazadigan Xumo qushini ushlagandek, uy-joy bormi, uylanib bola-chaqa qilish bormi, qarindosh-urug'u barchasidan kechib, hukumat nimani buyursa, shuni qilib qayerga bor desa, o'sha yoqqa ketaberdi. 1924-yillarda oziq-ovqat otryadiga qo'shilib qishloqma-qishloq dehqonlardan don yiqqani ketdi. Bosmachilikka qarshi kurashga yuborganida joni bilan bu ishga ham kirishdi. Keyinchalik kolxoz, sovxozlarda goh mudir, goh partkom bo'lib ishlab, o'n-o'n besh yilda biror sabab bilan Toshkentga kelganda qarindosh-urug'larinikiga kirib o'tadigan bo'ldi. Bu yillarda ota-onadan qolgan ichkari-tashqari hovli-joy qarovsiz, qishda qor bosib kuralmay, yozda suv toshib qaralmay, uylarning tomi bosib, eshik, derazalarini ko'chadagilar tashib keta boshladi. Qarindosh-urug'larning: «Bahovuddinxon, hovli-joyingizni yo soting, yo ko'chib keladigan bo'lsangiz kelganlaringizda u yoq bu yog'iga qarab turing», - degan maslahatlariga u:

- Kommunistlarga xususiy mulk kerakmas, xususiy mulkchilikka qarshi kurashishimiz kerak! - degan javobni qilardi.

U sovet davlati manfaatidan bo'lak hamma narsadan kechgan, o'zini shu g'oya yo'lida qurbon qilishga tayyor, baxtini shu yo'lda topishga ishongan odam edi. Bundan boshqa dinni ham, Xudoni ham, as-tag'furillo, tanimay qolgan edi.

Uning otasi - mening tog'am Nuriddin maxsum dindor, xattot bo'lib, o'z mahallasidagi Baland maschit peshtoqlarini Navoiy baytlari, Qur'on oyatlari bilan xolis bezagan kishi bo'lgan. Bobomiz esa Zayniddin maxsum Shayxontohur madrasasining mudarrisla-

i idan biri bolib, Toshkent aholisi orasida o'z e'tiqodi bilan e'tibor qozong tabarruk shaxs bolgan.

Bobomiz Zayniddin maxsum din va e'tiqodga shu qadar sodiq odam bolganki, hatto xaloyiq shahar qoxiligiga tayinlamoqchi bo'lganda ham e'tiqod oldida amaldan kechib, rozilik bermagan. E'tiqodga sodiqlik, shaxsiy manfaatidan ko'ra ko'pga xizmat qilishni afzal ko'rish jihatidan Bahovuddin ham buvamizga tortgan edi. Ikkalasi ham amal, davlatga hirs qoymagan edi, ammo umrlarining yakuni, oqibati o'xshash bo'lmadi.

Zayniddin maxsum bobomiz vafot etganda, eshitishimcha, tobutlariga yopilgan malla tabarruk, deb bir parchadan talash-talash bo'lib ketgan ekan.


Bahovuddin maxsum-chi?

Bahovuddin maxsum 20 - 30-yillar qishloqma-qishloq, rayonma-rayon kezib partiya topshirig'ini bajarib, qayerga yuborsa, bosh tortmay borib, 1974-yili to'rt qiz, bir o'g'il va musofirchilikda topgan xotini bilan bizlarning uyga ko'chib keldi. Boshqa qayerga boradi? Uy-joy maydonga aylanib, ko'chaga allaqachon qo'shilib bolgan. Shuncha yil xizmat qilib orttirib kelgan bisoti, bolalaridan tashqari bir necha ko'rpa-yostiqlik, bita sholcha, besh-o'nta piyola, choynak.

Yoz bag'ri keng deganlaridek, yoz oylari bizlarniki-da yashab, qishga yaqin ijaraga olib qo'shnimiznikiga ko'chib o'tishdi.

Shuncha yil qishloqlarda jonini jabborga berib ishlab, hovli-joy qilishga loyiq biror narsa orttirib kelgandir desam, qayoqda, ko'tarib kelgan sholcha-yu, ko'rpa-yostiqlikdan bo'lak narsa ko'rinmadi. Hukumat ishga joylashganidan keyin uy va'da qilibdi.

Omadi kelib uncha-muncha odam pul berib kirolmaydigan, juda daromadli, yog'liqjoyga, Toshkentdagi go'sht-yog' kombinatiga boshliqlik bo'lib ishga tayinlandi. Lekin bu yerda uzoq vaqt ishlamadi, bir-ikki yilga yetar-yetmas vaqt ichida ariza berib o'z xohishi bilan bo'shadi. Men undan:



- Axir, hammaga ham nasib etmaydigan ozmi-ko'pmi sariyog', go'sht, kakao, kolbasa uyingizga tekinga kelib, tirikchiligingiz o'tib, maoshingizga yordam bo'lib turgan edi. Shunday daromadli joydan birov ket demasa, nega ariza berdingiz, - desam:

- O'zim bo'shamasam, qamalib ketishim kerak edi. Mening uyimga direktor fondidan deb shofer tashlab ketadigan ulushlar mutlaqo qonunda yo'q edi. Bunday qonunsizliklar muovininim, buxgalteriyadagilar uchun ham odatiy ish bo'lib, hatto biror ishchi uyga quruq qaytmas ekan. Axir bu davlat mulkini talon-toroj qilish-ku! O'g'rilik-ku! Bir aytdim - bo'l-madi, ikki aytdim tushuntirolmadim, chora ko'rishga majbur bo'ldim. Yo'q, aksincha bolib chiqdi. Endi, muovinarimu injenerlar mening ustimdan ayb topib, gunohkor qilib turli idoralarga ariza yoza boshlashdi. Tuhmatga o'tishdi. Qarasam, bular ko'pchilik. Yuqori tashkilotlardagi rahbarlarning ham mening ishdan ketishimga mayli bor. Halollik, o'g'rilik, davlat mulkini talon-toroj qilish haqidagi gaplarimga ular ensasi qotib qaragandek... Men bu yerda bolsam, ularga hech kim tegmaydi. Demak, hammasining tili bir, kuni shu yerdan o'tib turgan. Bitta o'zim qanday qilib bular bilan kurasha olaman! Dunyo tamom bo'ldi. Halol odam qolmadi! Bu gapni senga aytdim. Bu gaplarni aytsang, dushman ko'rinasan. Ishdan ketishimning sababi shu! - deb javob berdi. Men unga yaqin ishonarli qarindosh bo'lganim uchun u yillar bo'i ko'nglida yig'ilib qolgan dardlarini ochiq, yashirmasdan aytib soldi: - Bizlar inqilobni nima uchun qilgan edik, ukam? O'g'ri, muttahamlarni ko'paytirish uchunmi? Davlat mulkini hamma istagancha talon-toroj qilishi uchunmi? Haqiqatni aytsang, gunohkor bo'lish uchunmi? Shuning uchun inqilob qilib, inqilobga jonimizni tikib xizmat qildikmi?

U yonib, yig'lagudek bo'lib gapirardi. Har gapining orasida kimdandir, nimadandir xavotirlangandek, «gap

shu yerda qolsin, bu gaplarni boshqalarga aytib bolmaydi, aytsang, dushman ko'rinasan», - deb qo'yardi.

Kombinatdan bo'shagandan keyin bir necha oy xayolchan yurdi-da, kunlardan bir kun men bilan ko'rishib:

- Shaharda insof qolmabdi. Rahbarlar ham gapingga quloq solmaydi, e'tibor berib eshitmaydi, xaromxo'rliklar odatiy narsa bo'lib qolganmi, arzi-dodingga chora izlash, kuyinish o'rniga parvo qilmay qaraydi. Hali ham qishloqlarda insof bor. Mirzacho'l-dagi kolxoz-sovhoz qurilishi ministriligiga qarashli trestga partkom bo'lib tayinlandim. Maoshim kam bo'lsa ham sog'lig'imga havoning yordami bolar, - degan xabarni aytdi.

U yerda ham uzoq ishlamadi. Bola-chaqa Toshkentda. Haftada bir kelib-ketib ishladi. Yotar-turar, yeyar-icharda halovat bolmadi. Qishda o'pkasini sovuqqa oldirib, zotiljam bo'lib qaytdi. Kasalxonada uzoq yotmay vafot etdi. Jasadini olib kelishganda kiyimlarining cho'ntagidan bitta besh so'mlik, bitta uch so'mlik g'ijimlangan pul chiqdi.

Ta'na emas, axir tobutini o'rashga uyidan 4 metr surp chiqmadi.

Bobosi Zaynuddin maxsum o'lganda tobutga yopilgan mallani xaloyiq tabarruk deb yirtish qilib olgan bo'lsa, tobutini butun shahar ko'tarib ketsa-yu, davlat xizmati uchun jonini ayamay, mol-u mulk, qarindosh-urug' demay xizmat qilgan bu odamni o'z shahrida musofirdek mahallaning besh-o'n odami olib borib joyiga tiqib kelsa!

Kamerada ikki mushtini tizzalariga tirab, boshini quyi solgancha o'tirgan Nasriddin Xo'jayevga afsus bilan tikilib, Bahovuddin akamning hayotini xayolimdan o'tkazar ekanman, garchand o'zi aytmagan bo'lsa ham Nasriddin Xo'jayevni nega qamashganlarining sabablari menga ayon bo'la boshlagan edi.

Buning sababi shuki, Bahovuddin aka nihoyatda ehtiyotkorligi orqasida dardlarini mendan boshqaga oshkor qilmay, ichida olib ketdi. Qamalishdan qutulib qoldi. Nasriddin Xo'jayev jamiyatimizdagi nohaqliklarga qarshi oshkora kurashdi, ana shu uni qamoqqa yetaklab keldi.

Nasriddin Xo'jayev quyi solingan boshini go^o uni kimdir chaqirgandek birdan ko'tardi-da, ikki panjasini tizzalariga musht bilan urib: «Tavba, adolat yo'q!» - deb o'rnidan turib kamerada yura boshladi.

Nazoratchi eshik tuynukchasidan hojatga chiqishga tayyorlanishni buyurdi. Eshik ochilib, tabarruk yoshdagi bu odam bilan, nima chora, qanchalik ruh-han qiyin bolmasin, ikki yoqdan ikkalamiz tuvak dastalarini ushlagancha kechki hojatga chiqa boshladik.

Kinoyadan chizilgan shakl

Kinoyaning ham shakli bo'ladimi? Tavba, uning shakli qanaqa bo'ladi?

Suvdan holva-chi? Suvdan holva yasaydiganlar bo'lgandan keyin, xo'sh, kinoyadan shakl yasaydiganlar topilmaydi deysizmi? Buning qanday bo'lishini davlat xavfsizlik qo'mitasining ichki qamoqxonasida yotganlar biladi.

Qamoqda yotganimga mana bir necha oy bo'lgan bo'lsa, nimalarga duch kelmadim!

Bugun meni tergovchinning tanish xonasiga emas, 1-bolim boshlig'i Konyuxovning oldiga olib kirishdi. Konyuxov qotma, yuzidan zahar tomib turadigan odam edi. U meni, xo'sh, qalaysan, deb mehribonlik qilgandek ahvol so'rab, yasama bir tabassum bilan kutib oldi. Orada o'tgan bir oz ko'ngilsiz jimlikdan keyin mahhuslar uchun burchakka qo'vilgan maxsus kursiga o'tirishga ishora qilib, «Xo'sh, nimalarni oyiading, qani, gapir chi», deb rnuoyimlik bilan gap boshladi.

- Men dushman bo'lmasam, gunohim bo'lmasa, nega ushlab o'tiribsizlar, - deyishdan boshqa nima ham derdim. - Men shu choqqacha nima ish qilgan, nimaiki yozgan bo'lsam, sovet davlati, Stalinga mehr, sadoqat uyg'otishga xizmat qildim. Buni faqat kitobxonlar emas, tanqidchilar ham doston va she'rlarimda kuylanganini tan olib, ijobiy baholagan bo'lsalar bu dushmanligimmi? Mening kimligimga shular dalil bo'lolmaydimi?

- Asarlaringda yozganing o'z dushmanligingni niqoblash uchun qilingan!

Mana qilgan mehnatingning bahosi! Qadri!

- Qaysi aybimni niqoblaganman? Sovet xalqiga o'z xizmatim bilan keltirgan foydamdan nahot ziyonim ko'p bo'lsa!

Konyuxovning meni chaqirishidan maqsadi, tergovchining gaplarini rad etishga urinishingning foydasi yo'q, u ko'ndirolmasa, mana men bor, bizdan qochib qutulolmaysan, deyish edi.

Xuddi shuni tasdiqlagandek eshikdan polkovnik Kozеров kirib keldi. Konyuxov unga:

- Xalq dushmani Yusupovni so'roq qilyapman, - deb malum qildi.

Bunga javoban u:

- Xo'sh, jinoyatlarini tan olyaptimi?

- Yashiiyapti!

- Unda tergovni cho'zaberadi, yotaberadi. Shafqatsiz fosh qilinglar. Tergovni davom ettiring! - dedi-da, Kozеров shundan boshqa gap aytmasdan, qandaydir qog'ozlarga sirli nazar solgandek bo'lib chiqib ketdi.

Dushmanligim nimadan iborat? O'ylab-o'ylab oxiriga yetolmasdim. Mabodo odam o'ldirgan bo'lsam, qamoqning bu azoblariga chidab, o'zimni qiynab o'tirmay, taqdirga tan berib, iqror bo'lardirn qo'yardim. Men o'zimni gunohkor deb bilmasam, axir, qaysi gunohimni bo'nimga olaman? Qaysi gunohimni!

Konyuxovning menga birinchi savoli:

- Jinoyatchi Yusupov, qani iqror qilib ayt-chi, sovet davlatiga qarshi kimlar bilan til biriktirib, qanday ishlar olib borgansan? Ochiq, yashirmasdan aytsang jinoyating yengillashadi. Oilang bilan ko'rishishga ruxsat beramiz. Peredacha olishingga ruxsat etamiz, suding ham tezlashadi.

- Gunohim bo'lsa, aytaber. Aybim bo'lsa, otsalaring ham roziman!

- Biz seni otmaymiz. Sud hukm qiladi! Bizning vazifamiz sening jinoyatingni fosh qilish!

- Qaysi jinoyatimni axir?

- Do'stlaring bolganmi?

- Albatta bo'lgan.

- Kimlar?

Mening do'stlarim kimligi bularga nega kerak bo'lib qoldi? Qaysi birini aytasan?

Bu fikrim hali bir joyda qaror topmasdan «Xiva» kinosiga o'rnatilgan radio karnayidan kelayotgan musiqa ovozi tinib, qulog'imga uzuq-yuluq «G'oyaviy dushmanlarimiz kosmopolitlar...» yana shunga o'xshash, qamalganlar haqida, hatto, Mirzakalon, Hamid Sulaymonlarning nomlari aytilgani elas-elas eshitilib qoldi. Eshitganimga ming pushaymon yedim. Ko'nglim xufton bolib, umidlarim yakson qilindi. Demak, Akmal Ikromov, Fayzulla Xo'jayev, Abdulla Qodiriylar qamalgan kezlarda omma orasida ularga qarshi nafrat uyg'otuvchi qanday muhit uyushtirilgan bolsa, radiodagi hozirgi bu eshittirish ruhi ham o'shaning davomidek edi. Bu eshittirishdan keyin meni qamashlaridan maqsad naqadar jiddiy ekanini o'ylamasdan ilojim yo'q edi. Nahotki, meni ham o'shalardek xalq dushmani qilib umrimni qamoqda chiritsalar! Nahotki, o'shalar qatori otib oldirsalar! Nahotki, radiodan bu gaplarni eshitgan xalq, mening do'stlarim, qarindosh-urug'larim shunga ishonib «xalq dushmanlariga nafrat», deyishga tillari

borsa! Xo'sh, dushmanligi nimadan iborat, aytinglar, deydigan biror mard topilmasmikan!

Abdulla Qodiriy yoki Usmon Nosir qamalganda ularning gunohi nima deganmidik, axir o'zimiz? Yo'q, bunday mard topilishiga ishonmayman! Himoya qilish u yoqda tursin, hatto u nima gunoh qilgan, men bilmayman, deb aytishga ham jur'at etmasalar kerak.

Onam hayot bo'lganda onam, otam hayot bolganda otamgina menga achinib, dod-faiyod qilishlarigina mumkin bolardi. Bu zamon shunday zamonki... Xo'sh, qanday zamon? Qani gapir, desalar, qaysi mard, «Odamlardan bir-biriga ishonch, oqibat ko'tarilgan, har kim faqat o'zini o^lab qolgan zamon», deb ayta olardi!

Xo'sh, men uchun qayg'uradigan kim qoldi! Kim? Qaysi mehribonim? Ikki beva opam, xotinim, bola-chaqamdan boshqa yaqinlarimdan kim bor? Oh, sho'rlik xotinim! Oldidagi ikki yosh bola, yana qornidagi bilan 25 bahorni endigina ko'rgan juvonning holi ne kechdi! Undan boshqa kimdan umid qilay!

Nihoyatda dahshatli ko'ngilni g'ash qiluvchi xayollarimni tergovchi Suxanovning eshikdan kirib kelishi bo'lib yubordi. Buning paydo bo'lishi esa yana ham ko'ngilsiz, yana ham qayg'uliroq edi. Nazarimda, u aytganlarimga seni o'zim ko'ndirolmasam kapitan Konyuxov bor, u ham ojizlik qilsa, polkovnik Kozerov, shunda ham ayblaringni tan olmasang, hali qarab tur, generallar, butun bir organ bor, bu changaldan qayoqqa qochib qutulasan? Sendek dushmanlarni ilhomlantirgan Markazqo'mning sobiq birinchi kotibi Akmal Ikromov nima bo'ldi! Buyuk yozuvchiman degan Abdulla Qodiriyning qo'lidan nima keldi! O'shalarni ham tavbasiga tayantira olgan bizlarni kim deb o^laysan! Ularning oldida sen kim bo'psan, dushmanligingni bo'yningga olaber - degandek tuyildi.

Usmon Nosir she'rlarini o'qiganim, uni maqtaganim uchun meni ham ularning ta'siridagi shoir

deb millatchilikda ayblab, bitta modda bilan ayblab bo'lishdi. Endi sovet hukumatiga qarshi targ'ibotda, sovet hayotidan norozilikdagi «jinoyatlarimni» fosh qilishga o'tishdi.

Qayerda qanday gaplar gapirganman, kimlar bor edi, sovet hayotidan kuluvchi qanday latifalar aytganman, shularni surishtirishga otildi. Bundan kuzatilgan maqsad, sovetlarga qarshi yashirin tashkilot tuzmoqchi bo'lgansizlar, degan aybni boynimga qoyish edi.

Sovetlarga qarshi tashkilot tuzishda ayblandingmi, tamom, bu tuzoqdan qutulishing qiyin. Chunki sendan biror ayb topolmaganda ham tashkilot a'zolari-ning birortasiga tanishliging, aloqang bor bo'lsa bo'ldi, tashkilot a'zosi sifatida jinoyatchi qilish uchun yetarli.

Sovet hukumatining siyosatiga qarshi targ'ibotda va tashkilot tuzishda ayblash uchun men aytmagan shunday narsalarni o'ylab topishibdiki, yo tavba, na ularda mantiq bor, na aqlga to'g'ri keladi. Butun bir davlat tashkiloti haqiqat va aql oldida andisha qilmasdan shu ahvolga tushganidan kulging kelsa, yo'q narsalarga seni ishontirmoqchi bo'lganlaridan qahr- lanmasdan ham ilojing qolmasdi.

Meni ayblash uchun endi shunday bir gunoh topishdiki, bunday qaraganda nihoyatda kulgulikdek ko'rin- sa ham, ammo buning tagida bitta odamning umrini qamoqda chiritish uchun yetarli jinoyat yotardi.

Stalin dohiy darajasiga ko'tarilgan bir zamon, unga til tekkizishdan ko'ra katta gunoh topib bo'l- masdi. Unga til tekkizgan odamni o'zinigina emas, shu bahona avlod-ajdodi sochidan tirnog'igacha qilichdan o'tkazilardi.

Mana bugun meni dohiy Stalinning so'zini masxa- ralab, kinoya bilan aytgansan, deb ayb qoyishmoqchi bolishdi. Go^o men tengdosh yozuvchi do'stlarim- dan birining to^ida Stalinning urushdan keyin ayt- gan «Turmush yaxshilanib qoldi, hayot quvnoq bo'lib

qoldi», degan so'zini masxaralab kinoya bilan aytgan rmishman. Bu tuhmatdan iborat emish. Nimasi tuhmat! Kinoyami, yoki to'g'ri ko'ngilda aytganmanmi, buni qayoqdan bilding! Kinoya qilib aytgan bo'lsam ham to'g'ri aytganman. Chunki to'y bo'lishiga qaramasdan dasturxonda yeydigan narsa yo'q edi. Axir, i irush vaqtida, bitta koyiagimiz ikkita bo'lishi u yoqda tursin, hatto butun ko'ylakning o'zi bolmagan. Axir men o'zim biror uzoqroq joyga toy-tomoshaga borib, yotib qolgudek bo'lsam chiroqni o'chirmaslaridan yechinolmasdim. Chunki, garchand koyiagimning yoqasi, galstugim bo'lsa ham koyiakning orqasi yo'q edi...

Urush vaqtida zavod bormi, fabrika bormi, hamma-sijangga kerakli narsa ishlashga qaratilgan edi. Bir kiyimlik chit - anqoning urug'i. Topilganda ham unchamuncha odam kiyolmasdi. Oddiy kalish degan narsa nima, u ham yo'q bo'lib ketgan-da. Hunarmandlar uylarida bo'z to'qiy boshlashdi. Bozorlarda rezinkadan qolda quyilgan, tishi yo'q, zilzambil quyma kalishlar sotilardi. Yemak-ichmak, tirikchilikka zarur narsalarni topib bir amallab kun kechirish xalqning o'ziga tashlab qoyilgan. Urushga bormay qolgan oilalar o'zi yemasa ham, ichmasa ham jangga ketgan aka-ukasi-mi, erimi, farzandimi, olmay omon qaytishining dardida ochlikka ham, yalang'ochlikka ham chidardi.

Axir, bir oyda bir odamga to'rt yuz gramm yog' berilardi. Kuniga qanchadan to'g'ri keladi? Bir oyga bir kiloyu ikki yuz grammdan don berilardi. oyiab ko'rsa, bu narsalar rosmana yeyman, degan odamga bir haftaga ham yetar-yetmas masalliq-ku. Orzu-havas, toy-tomosha qayoqda! Faqat urush yillaridamas, urushdan keyingi dastlabki yillarda ham birovning oldiga qoyishga bir burda ortiqcha non topilmasdi.

Shuni farovon hayot deb bo'ladimi? Mening aybim haqiqatni aytganimmi? Shuning uchun qamash kerakmi?

Urush tugashi bilan xuddi osmondan darhol noz-ne'mat yog'ilgandek, hamma yoq obod, hamma yoq farovon desak, kim ishonardi!.. Mantiqqa sig'adimi?

Urush tamom bo'ldi. Kimdir otasidan, kimdir farzandidan ayrildi, kimlardir bedarak ketdi. Xonadonlarda, qarindosh-urug'larnikida dod-faryodlar ko'tarildi, kishilarning qalblaridan ayriliq alamlari, ko'z yoshlari hali arimay turib, ularning dardlariga dardkash bo'lish o'rniga hayot quvnoq bo'lib qoldi, desak insoniylik boladimi?

Stalinning urushdan keyin «Hayot farovon bolib qoldi», degan gapi esimda. Aytganman. Inkor qilmayman. Meni taajjubga soladigan narsa shuki, bu gapimni qaysi do'stim yetkazgan, bundan qat'i nazar, ammo bu gapni men to'g'ri ko'ngil bilan aytganmanmi yoki kinoya qilibmi, nima bilan isbot qiladi, yoki o'sha vaqtda basharam qanday holatda bolganini suratga olib, tovushimni magnitofonga yozib olgan ekanmi?

Yo'q, tergovchini qiziqtirgan narsa buni isbotlash emas, uni qaysi ma'noda aytganligim ham emas, ular uchun eng muhimi - shuni aytganimni tasdiqlatib olish edi. Bundan chiqaradigan xulosa esa ularning o'z qo'llarida edi. Ya'ni xalqlar dohiysini masxaralash, uning so'ziga ishonchsizlik, degan aybni qo'yish edi.

Tergovchi mening bu gaplarimdan quyidagi xulosa chiqarib yozgan edi:

«Stalinning gaplarini aytishdan maqsadim faqatgina sovet davridagi hayotdan norozilik, uni qoralashgina emas, odamlar orasida xalqlar dohiysining so'ziga ishonchsizlik tug'dirishni ham ko'zda tutgan edim... Men o'zim shoir bo'laturib sovet davrida bitta koyiakka yolchimadim, mana shuning o'zi ham dohiyning so'zini masxaralab aytganimning isboti bo'ladi..." va hokazo, va hokazo.

Buni o'qib, bunday aybnomani eshitib, insof bilan aytganda, nima deyish mumkin! Mening aytganlarimdan shu xulosa chiqadimi!

O'sha davrda xalqlar dohiysining so'zini masxaralagan odamga qanday jazo berish mumkin edi? Bulling uchun otish ham kam edi.

Ayrimlar, shunga ham odamlarni qamashganmi, ishonib bo'lmaydi-ku, deyishlari mumkin. Shoshil-inang, bu ham holva, hali shundaylari borki...

Menga qoyilgan gunohlardan yana bittasi yelpig'ich haqida aytilgan latifa edi. Buni eshitib, yo tavba deb, ishonmay hazil bolsa kerak deb qotib-qotib kulishingiz ham mumkin.

«Echkiga jon qayg'u, qassobga moy» degandek, buni eshitganlar ichagi uzilguncha kuladi-yu, ammo buni aytgan men uchun-chi, motam, fojia. Bu shunday bo'lgan edi:

Kunlardan bir kun yo'lim tushib, menga tanish kolxoz raislaridan birinikiga kirib o'tmoqchi bo'ldim. Odat boyicha biror joyga borganda, quruq borib bo'lmaydi. Nima oldim? Meva-cheva olay desam, qishloq joy, uning ustiga kolxoz raisi, hamma narsa o'zida bor. Oyiab-o'ylab, rais anchagina semiz odam bo'lgani uchun issiq kunda yelpinib o'tirar degan xayol bilan do'konga kirib ikkita yelpig'ich oldim.

Garchand bu arzimagan sovg'a bo'lsa ham rais og'aynim xursand bo'ldi. Ammo uni ochib yelpinmoqchi bo'lgan ekan, ikkalasi ham sochilib ketib, uy ichi, bola-chaqalarining oldida bir oz kulgi bo'пти. Go"yo buni malomat qilish uchun ataylab qilgandek, rais mendan ranjib gapirib qoldi. Ammo men buni ataylab yoki hazil uchun qilmagan edim.

Shuning uchun ertasiga yelpig'ich sotgan do'kondorga uchrashib, voqeani aytdim. Gapimni eshitgan do'kondor:

- Aka, yelpig'ich sochilib ketgan bolsa, bizda ayb yo'q, yelpig'ichni tuta bilish kerak, qani, qanday qildingiz, ko'rsating-chi, - deb so'rab qoldi. Men yelpig'ichni olib o'zimni qanday qilib yelpiganimni aytdim.



U esa:

- Mullaka, yelpig'ichni tutishni bilmapsiz, yelpig'ichni bunday tutmaydi. Sizga o'xshab yelpig'ichni ochib yelpisa, albatta, sochilib ketadi, bu ahvolda sizga bir kunda o'nta yelpig'ich ham kamlik qiladi. Yelpig'ich sochilib ketmasin desangiz, yelpig'ichni ochib mana bunday qilib qo'lingizda tutib uni qimirlatmasdan kallangizni o'zini ikki yoqqa qimirlatsangiz yelpig'ich sochilib ketmasdi... Ha, akajon, yelpig'ichni tuta bilish kerak, dedi jiddiy.

Awaliga gapiga jiddiy quloq solib, keyinchalik bu andijonliklarning mehmonlarga qilgan hazili ekani ni anglagach, rosa kulishdik. Choy quyib, hol-ahvol so'rashdik.

Yelpig'ich haqidagi bo'lgan bor gap shu: xo'sh, bunda sovet hukumati, uning siyosatiga qarshi dushmanlik degulik nima bor? Buni eshitgan tergovchi o'zi ham awaliga kuldi. Ammo chiqargan xulosasi-chi? Kurakda turmasdi. Aqlga sig'mas darajada dahshatli edi: u shunday deb yozgandi:

«Men bu latifani to'qib chiqarishimdan maqsad sovet davlati sifatsiz mol chiqarib, xalqni aldash bilan shug'ullanadi, bu bilan men sovet savdo sistemasiga tuhmat qilmoqchi bolganman». Bunga nima deysiz! Sovet savdo sistemasiga tuhmat etish!

Awalo hech mahalda, hech kim yelpig'ichni bunday qilib ishlatmaydi. Shunday bolgach, yo'q narsaning nimasi sovetlarga qarshi boladi! Buning nimasi tuhmat! Xo'sh, bizda sifatsiz mol chiqarilmaganmi? Sifatsiz mol chiqarilmasin, deb tanqid qilinsa, sifat uchun kurashilsa yomonmi? Shu tuhmat bo'ladimi? Sifatsiz mol chiqarilayotganini tergovchilarning o'zi bilmaydimi? Qaysi vijdon bilan meni ayblashmoqchi! Bu latifani sovetlarga qarshi qasddan aytganimni isbotlash uchun:

*Xalq dardini joyladim dilga,
O'ldir, o'limdan ham qaytmayman.*

She'rimni misolga keltirib, agarda sovet hukumati-ning siyosatidan rozi bolganingda, sen bu she'rni yozinagan bo'larding, norozi bo'rganing uchun shunday luhmatdan iborat latifalarni sovetlarga qarshi hamfikir (lo'stlaring Shuh rat, Mirzakalon, Hamid Sulaymon, Alimuhamedov Abdurahmonlar bilan alohida yig'inlarda aytib yurgansan, degan qo'shimchani yoza boshladi.

Men bu odamlarga yelpig'ich haqida aytmaganman-u?.. Nega ularga aytgan deb yozadi? Buning tagida kuzatilgan dahshatli maqsad yotardi. Ya'ni bu bilan menga bizlar hamisha yig'ilishib sovetlarga qarshi dushmanlikdan iborat igVolar bilan shug'ullanuvchi yashirin tashkilot a'zolarimiz, degan aybno-mani qo^moqchi edi.

Endi yana qanday jinoyatlar oyiab topisharkin?

O'z-o'zimcha o^lab, o'yimning oxiriga yetolmayman. Nima qilish kerak!?

Shuni oyiarkanman onam rahmatlining «Ey, bolam, achchiq haqiqatning oromi boladi», degan gapi xayolimdan otaverdi. Bu gapni onam ko'p gapirardi, yoshligimdan qulog'imga quyardi. Bu gapni esladim-u, ruhimda bir yengillik, qandaydir g'urur paydo bo'ldi.

Agar yanglishmasam, 32 - 33-yillar yurtda ocharchilik edi. U vaqtda nonni zaborniy chiptasi bilan olardik. Talon bo'lishiga qaramay, ba'zan bir-ikki kunlar do'konga non kelmasdan tegishli nonni ham o'z vaqtida ololmasdik. Kelgani ham hammaga yetmasdi. Xadradagi Tashtram do'koni ishchilarga qarashli bo'lgani uchun bu yerga non boshqa do'konlarga qaraganda vaqtida kelardi.

Shunga qaramasdan non olish oson bo'lmasdi: hamisha ur-to'polon, baqiriq-chaqiriq. Men yosh bola bo'lganim uchun ba'zilar rahm qilib oldinga qoyib yuborardi. Ko'pincha yarim kechadan navbat olishga to'g'ri kelardi. Oladigan nonimiz shunaqangi qop-qo-

ra, jirish bo'lardiki, do'konchi pichoqni suv solingan chelakka tiqib olmasdan buxankani kesa olmasdi. Odamlar shu jirishga ham zor edi. Qo'limdagi nonni Xadradagi ochlar yulib ketmasliklari uchun ehtiyotlab xaltaga solib olib kelardim.

O'sha yillari Xadradagi Tashtram devorlarining tagida oyoq-qo'llari ochlikdan shishib, yuzlari qoq suyak, eski uvadalarga o'ralgan, bitlab ketgan erkak, yosh bolali ayollar qahraton qish sovug'ida tizilishib, tilanchilik qilib o'tirishardi.

Ertalab nonga chiqqan paytlarimda kecha kechqurun tilanchilarning ayrimlari ochlik va sovuqdan qotib o'lgan bolib, jasadlarini xuddi sarjin ortgandek aravalarga tashlab olib ketardilar. U mahalda shahar aylanib, o'lik yig'adigan maxsus aravalalar bo'lardi.

Shunday hayotdan odamlar, mamnun bo'lishi mumkinmidi? Albatta, yo'q! Ularni dushman sanash adolatdan bo'ladimi?

«Kishi o'ziga bir oz mashaqqatni olmasa, boshqaning ko'nglini ololmaydi». Onamning shu gaplari esimga tushardi-da, o'z nafsandan qiyib och bolali xotinlarga bir burda bo'lsa ham non tashlab o'tardim. Ruhimda qandaydir g'amgin yengillik sezardim.

Ocharchilik nihoyatda avjga chiqqan, bahor kunlaridan biri, hamma bir amallab tut pishig'iga yetib olsak olmay qolardik, degan umid bilan yashayotgan bir payt. Shu pallada uyimizdagi bir tup ertangi gilos pishib qoldi. Bir yon ocharchilik, bir tomondan mahaila komissiyasi Mamanbeyning hovli solig'i, qorovul pulini qistab kelishi sababi zarurati bilan 5-10 kilo chamasi gilos terib sotgani bozorga olib bordim. Sotib bo'lgach, tog'oramni dasturxonga o'rab ketmoqchi edim tog'oramning yonidan ellik so'mlik pul chiqdi.

Yoshligimda halol bo'l, o'z nafsini qiymasa, boshqani xursand qilib bo'lmaydi, degan onamning nasihati qulog'imga quyilgani va o'rgatilgan odatga amal

qilib, yonimdagilardan pul yo'qotmadinglarmi, deb so'radim. Yo'q javobini olganimdan so'ng, qatorimda-
-i gilos sotayotgan mo'ysafid dehqonga kimdir ellik so'mini qoldirganini, o'qish vaqtim yaqinlashib qolib, kutish imkoni bolmagani uchun sizga tashlab ket-sam, mabodo egasi izlab kelgudek bo'lsa berarsiz, de-Kan iltimos bilan murojaat qildim. Mo'ysafid dehqon esa mabodo pulning egasi chiqmasa, biror bechoraga xayr qilish sharti bilan olib, menga esa umringdan baraka top, tarbiya berganingga rahmat, deb duo qil-ganini eslab hali-hali faxrlanaman. Atrofdagilarning menga mehr bilan qaraganlarini eslab, halolligim bi-lan maqtangan vaqtlarim ham bolgan.

Tergovchining savollariga javob qilishni oyiarkan-man, o'sha voqealar xayolimdan o'tib, qanchalik ma-shaqqatli bolmasin faqat bor gapni, haqiqatni, onam aytgandek «achchiq haqiqat lazzati»ni tatib ko'rishga jur'at uyg'onardi.

Yana bir voqea:

17 - 18 yoshlik yigitlik vaqtim; o'zim qatori bir o'spirin yurib ketayotgan bir tramvayning oldingi va-gonida o'tirgan bir ayolning ro'molini yulib olib ke-yingi vagonga chiqib oldi. Buni ko'rdim-u chidolma-dim. Muyulishda sekinlashgan tramvayning ketidan chopib chiqib, ro'mol o'g'risi - yigitning cho'ntagi-dan ro'molni olib, kelasi bekatda o'zini tramvaydan sudrab tushirdim. Militsiyaga olib borib topshirdim. Bundan menga nima manfaat? Ro'molini oldirgan o'zbek ayolmidi? Yoki o'g'irlagan rus yo yahudiy-midi? O'sha zamonda men bularning millatini ajratar-midim? Yo'q! Ro'mol oldirgan ayol o'zbek, o'g'irlagan boshqa millat bo'lgani uchun jon kuydirganmidim? Millatchilik hissi bilan qilganmidim?

Bundan menga bitta manfaat: ro'molni o'g'irlatib chirqirab qolgan ayolning quvonchini ko'rish, halol-

lik va haqiqat uchun kurashib onam aytgan achchiq haqiqatning lazzatini totish edi.

Nega endi o'zimga o'zim xiyonat qilib tergovchining tuhmatlarini haqiqat deb, o'zimni o'zim gunohkor qilishim kerak! Nega umr bo'yi o'z qilmishim uchun vijdon azobi bilan yashashim kerak! Nega achchiq haqiqatning lazzatidan o'zimni bir umr mahrum qilishim kerak!

Birovlarning haqiga xiyonat qilmagan nega endi o'zimga, o'z vijdonimga xiyonat qilishim kerak. Odatda tuhmatchini haqgo'y bo'lishga, xoinni sadoqatga o'rgatishga daVat etish uchun jazolanardi. Bular-chi, halol odamlarni nopoklikka, rostgo'ylarni tuhmat va yolg'onga o'rgatish uchun qamashganmi?

Xuddi mening dardlarimni ifoda qilgandek xayolimdan beixtiyor Ilyos otaning nolasi o'ta boshladi:

*Xudoyo, oh vovaylo
O'zimdanda bo'lmadim ogoh!
Karomat qilmasang Alloh,
Oro yo'llarda qolg'onman.*

Bu tuhmat, bu adolatsizlik zanjiridan kim qutqaradi! Kim dodingga yetadi?

Stalinmi? Yo'q! Kechagina uning yonida bolgan marshallar Tuxachevskiy, Blyuxer, o'nlab inqilob sarkardalari, qarddon yozuvchi, olimlar bedarak bo'lib ketganda, axir Stalin, ular qayerga g'oyib bo'ldilar, deb so'radimi? Nahotki, Stalin bundan bexabar bo'lsa!.. Xayolimga shunday o'ylar kelardi-da, o'zimdanda o'zim cho'chib ketardim. Chunki, bu gaplarni aytib bo'larmidi! Aytish qayoqda!

*Yigit chog'im edi, shaydoyi chog'im,
Yov hujum boshladi aziz Vatanga.
Ko'zim qiyib tashlab sevgan yorimrd,
Vatan mehri haqqi jo'nadim jangga.*

Onam duo qilib qoldi ortimda:
«O'zing asra deya bevaqt o'limdan!»
Ona va yor mehri jo'shdi qalbimda,
Otashlarga kirdim.
O'lim yo'limdan
Ming bor to'sib chiqdi. Bilmadim qo'rquv.
Visol zavqi bilan kurashdim dadil.
E'tiqod o'limni yenga oldi-yu
G'olib bo'lib qaytdim qirq beshinchi yil.


Onamning shodligin yo'q edi cheki,
O'lsam ham yo'q, derdi endi armonim.
Bu quvonchi uzoq bormadi lekin,
Dahshat, qo'rquv bilan hovuchlab jonin,

Ko'z yosh to'kib yana qoldi ortimda;
«Quruq tuhmatingdan asra deb, Xudo».
Meni qamadilar ne uchun, shunda
Onam ham ko'plardek bilmasdi ammo!

U ham bilmas edi. Men ham bilmasdim,
Tinchlikda o'rtadi yana dod, firoq.
Yov qo'luga tirik asir tushmasdim,
O'z yurtimda asir qilindim biroq.
Mening kimligimni, qalbimni bilgan
Do'st u qo'shnilarim hayron hammasi.
Hammasi ichdan jim... Tili kesilgan
Go'yo gung odamdek chiqmasdi sasi.

Balki gunohkorman, balki nurdek pok!
Kim ham jur'at etar bilishga sirin!
Kimga arz aylasin, kim bo'larpanoh?
Yoki Stalinga ochsinmi dilin!

Yo'q, undan hayiqib boqardi mutlaq!
Qo'rqqaniga qalbin ocharmidi xalq!



O'sha davrlarda Stalinni qanchalik yuksakka ko'tarib maqtamaylik, boshqalarni bilmadim-ku, uning qahri qattiqligini qalbidan his qilardim. Qahri qattiqlik inson uchun yaxshi fazilatmi? Balki shu sababmi, tengdoshlarim, o'sha davr shoirlari Stalin haqida o'nlab she'rlar yozgan bolishlariga qaramay, mening esa Stalinga bag'ishlangan birona ham maxsus she'rim yo'q edi. Tergovchi hali meni shu jihatdan ham gunohkor qilmasa degan xavf ham yo'q emas edi.

Qadimda boylar, xonlar, xoqonlar odamlarga jabr-zulm qilgan, xalq xo'rlangan, derdik. To'g'ri! Ammo u nimadan iborat edi? Boylar mehnatkashlarning haqiga xiyonat qilardi, dehqonlarga suv bermasdi, yerlarini tortib olardi! Yana? Kambag'allarning qizlarini o'zlariga xotin qilib olganlar. (Xotin bo'lgandan keyin u cho'ri emas, albatta kelgusi merosxo'r bo'lardi.) Yana qanday jabr-zulm, xo'rlashlar bolgan?.. Qama-qamalar-chi?

Qadimda qamoqxona Toshkentning qayerida bo'lganini hech kim aniq aytib berolmaydi. Chunki o'g'ri-ning o'zi bo'lmasdi. To'g'ri, bo'lardi, bo'lganda ham bitta-yarimta ot o'g'risi bo'lardi. Bir yil, ikki yilda bitta-yarimta o'g'irlik bo'ladimi, bolmaydimi, buning uchun maxsus qamoqxona, maxsus mirshabxona yo'q edi. Shuning uchun bitta jazo - xalq ichida o'limon qilish bolgan.

Zindonlar-chi? Zindonlar bolgan. Zindonlar podsholar yashagan poytaxtlarda bolgan. Unga qancha odam sig'ardi! Ikki-uch yil mobaynida bir necha odam zindon qilingan degan gapning o'zi ham eshitgan quloqqa u mahallarda dahshatli tuyilardi. Endi-chi? Nima desam?.. Hozirgi vaqtda qamoq degan so'z odamlarga kurort, sanatoriy degandek oddiy gap bolib qolgan. Chunki qadimda biror xonlik, biror hokimlikda bitta zindon, biror qamoqxona bo'lsa, endi, har bir deparaning o'zida yuzlab, minglab odamlar sig'adigan qamoqxonalar qilingan. Hatto, hozir ayrim

tashkilotlarning shaxsiy qamoqxonalari ham bor. Masalan, melisaning o'z qamoqxonasi bor. Davlat xavfsizlik qo'mitasining o'ziniki alohida! Qadimda gohida ot o'g'risi uchrasa yoki bitta-yarimta pichoqlashgan bolsa, endi qamoqning ham, jinoyatning ham, jabr-zulm, ins on xo'rliklarining ham ming bir xili paydo bolgan.

Men ertalab tergovdan qaytib kameraga kirsam, oyoq qo^adigan joy qolmagan, to'rt kishilik kameraga yigirmadan ortiq mahbus kiritilgan edi.

Karavotlarning tagiga oyoqlarini uzatib yetti-sakkiz odam yonboshlab yotardi, chalqancha ag'darilib bolmasdi. Bo'sh joy yo'q. Ayrimlar burchak-burchakda cho'nqayib mudrardi. Men kameraga kirganimda parash (mis tuvak) qo^adigan joy ham qolmagan edi.

Bir kechada bular qayerdan kelib qolgan?

Bular respublikaning turli viloyatlaridan ushlab kelingan nemis, chechenlar, vatan urushi qatnashchilari, qari-qartang dindor o'zbek, yahudiy domlari edi. Bularning ayrimlarini Toshkent qamoqxonasida yotganlar bilan yuzma-yuz qilishga olib kelingan bolsa, ayrimlarini qamoqda yotganlar bilan jinoiy aloqasi bolgani uchun birga sud qilish uchun keltirilgan. Bular orasida o'n yil-o'n besh yil qamoq muddatini tugatib, qayta qamalganlar ham bor edi. Ter hidi, maxorka, keksaroq odamlarning kechki hojatga chiqarish vaqtigacha ham chidamay tuvakka bo'shashlaridan paydo bo'lgan sassiq havodan nafas olib bo'lmasdi. Nima chora! Hatto temir panjara qilingan tuynuk orqasidagi oyna ham yil bo^i ochilmasdi.

Bir yil, ikki yildan beri sud qilinishini kutib, qamoqxonaning beradigan bir cho'mich sole oshi yoki baliq sho'rvasi bilan kun kechirgan sho'rliklar otadimi, osadimi, tezroq sud qilib beradiganini berib, bu azobdan qutulsak, deb intizor kutib yotardilar.

Oradan qancha vaqt o'tdi - yodimda yo'q. Kameradagi odamlar asta-sekin ketib siyraklasha boshladi.

Kamerada uch kishi qoldik. Biri kolxozda mexanizator bo'lib ishlagan yosh yigit, ikkinchisi Nasriddin Xo'jayev edi.

Axir bu odam o'zini sovet hokimiyatini tiklaganlardan biri men deb hisoblaydi. Mana endi shunday bir odam qo'lida bir parcha uvadani qumga bulg'ab, kameraning bir burchagiga qoyilgan mis tuvakning hojatga chiqilgan paytda tomgan dog'laridan tozalab o'tiribdi. Men unga bu ishni siz qilmang, deyishimga qaramasdan u «kemaga tushganning joni bir, buni qilish qamoq qoidasi ekanmi, hammamiz barobarmiz», deb iltimosimga ko'nmasdi. Bu odam Sovet qonunini, buyruqni muqaddas bilgan, har qanday buyruqni boyin tovlamay bajarishga o'rgangan kishilar toifasidan edi. Grajdanlar urushi, bosmachilarga qarshi kurashda ham qoliga qurol olib chiqqanlar ham shunaqa odamlar emasmi! Paxta mustaqilligi uchun kurashda, hatto kishilarning ko'rpa-yostig'idagi paxtalarni uyidan olib chiqib davlatga topshirishda jonbozlik ko'rsatganlax-chi? Shular! Mulkdor, dindor, hatto, ilimli odamlarni sho'roga haqsiz qilib quloq qilish davrida birinchi bo'lib mahallalardagi yig'inlarda so'zga chiqqan, qo'l ko'targanlar ham shular emasmi? Shular-ku! Endi nimani oyiayotgan ekan. Xayolida nimalar bor! Nahotki, endi dushman bo'lib chiqsa?! O'zi jon chekib qurgan imoratni aqli raso biror inson hech mahal o'z qo'li bilan o'zi yoqadimi? Uning qulashini, barbod bo'lishini istaydimi? Shunday bolsa, nega bu odam qamoqda?!

Men-ku yoshman. Partiyasizman, sovet davlatiga bunchalik xizmatim hali singuncha yo'qdir. Ammo umr boyi jonini shu yo'lga tikib, qoshdan qovoq qaytarmay, hamma buyruqni bajarib kelgan, sochiga oq tushgan bu kekxa kommunistning gunohi, nahotki, qamalish darajasida og'ir bo'lsa!..

Tuvakka pardozi berish bu - bir nafaslik xo'rlik. Ammo qamoqning senga bir kun ham tinchlik ber-

maydigan azoblari ham bo'ladi. Bu qandala-yu, kanna talanish. Ayniqsa, qandala degan qon so'ruvchi hasharot shunday joni qattiq bir ofatki, mahbuslarga na kunduzi, na kechasi tinchlik beradi. Odatda kameralarda chiroq kecha-kunduz, yil boyi yoqiq turadi. Qorong'ida mahbuslar qochishga biror tayyorgarlik ko'rmasin, yoki o'zini o'zi bir narsa qilib qoymasini uchun ataylab yoqib qoyilgan. Odatda kechasi paydo bo'ladigan qandalalar yoruqqa o'rganib qolgani uchun kechasi ham, kunduz kunlari ham devorlardan, shiftlardan sen o'tirgan joyga sakraydi. Bu balodan har oyda bir ikki kungina qutulish imkoni bo'lardi. Buning uchun nazoratchilar choygumlarda keltirib bergan qaynoq suvni karavotlarimiz ustidan quyardik. Qandalalar hovuch-hovuch semon polga to'kildirdi.

O'rdak laqabli nazoratchi xotin dam-badam temir eshikning darchasidan mo'ralab:

- Parashda dog' qolmasin. Tezroq qimirlalaring, suvni ko'p sarflama! - deb bir necha bor buyruq berib turardi. Xotin bo'lsa ham nihoyatda qahri qattiq, rahmsiz edi. Ammo unga sen kimu, men kim deya-olasanmi? Bu huquq qayoqda! Ular senga inson deb qarashadimi? Mutlaqo!

Bir oy, ikki oyda kameralarga kirib turadigan vrach yoki turma boshlig'i ham atrofga nazar solib, kameraning qishda muzlab qolgani yoki yozning isig'ida sasib, bijg'ib ketganini emas, asosiy e'tiborni burchakda turgan mis tuvakning dog'i bormi, yo'qligiga qaratadi. Bundan maqsad senga g'amxo'rlik emas, aksincha, senlardan ko'ra mana shu tuvak biz uchun e'tiborli, senlar shuni tozalashga loyiqsizlar, demoqchi bo'lardi. Tuvakda biror dog' topsa, seni karserga tashlab jazolashni yoki uydan keladigan o'zmi-ko'pmi nasibadan mahrum qilishni mo'ljallardi.

O'sha kuni nazoratchi tushki ovqat vaqtida Nasriddin Xo'jayevga yuklarini yig'ishtirib chiqishga tayyorlanishni buyurdi.

Narsalarini yig'ishtirishga yordamlashdim.

Shu kungacha nihoyatda kamgap, hamma sirini ayta bermaydigan Nasriddin Xo'jayev yuklarini tayyorlab, ketar oldida:

- Kecha menga qo'gan aybnomalar bilan tanishib chiqdim. Ishimni sudga oshirishgan. Gunohim bo'lmasa ham endi sud qilishadi. Oramizdan yaxshi-yomon gap o'tgan bo'lsa unutinglar! Endi qayta ko'rish nasib etadimi, yo'qmi! Xayr!

Menga qarab aytgan gapi:

- Sen umidsiz bolma! - degani bo'ldi.

Nomus o'limdan kuchli

Bugun nima uchundir tergovchilarning menga qila-yotgan munosabatlarini o'ylab o'tirib, mahallamizdagi karvonlarning asov otlarni aravaga qo'shishga o'rgatayotgan vaqtlaridagi ur-surlari ko'z oldimdan o'tabardi: aravaga qo'shilmagan otlarni ikki shotining orasiga kiritib, qorinbog'ini tortish, ayniqsa, jilovlab uning ustiga minish oson bolmasdi. Ko'zini bog'lagan paytda ham biqiniga arava shotisining tekkanini sezishi bilananoq qoldan chiqib qochish uchun ikki orqa oyoqlari bilan orqa-o'ngiga qaramay arava bormi, odam bormi, pishqirib, tarsillatib tepa boshlardi. Bu ahvol bir-ikki takrorlanganidan g'azabga kelgan karvon otni jilovidan ushlab yuzi-ko'zi aralash qamchilab ketardi. Ot sho'rlik bu shafqatsiz qamchin zarbidan sakrab o'zini to'rt yoqqa urib, gir-gir aylanib pishqirardi-yu, ammo jilovini uzib hech qayerga qocholmasdi. Bugun bo'lmasa - erta, erta bolmasa - indin, oxiri qamchin zarbidan aravaga qo'shilishga ko'nikardi.

Qamoq sharoitida mening o'sha otdan nima farqim bor!

Qamalganingni dastlabki paytlarida gunohingning yo'qligini o'ylab, biror shubha bilan qamashgan bolsa,

haqiqat qilishar, dunyoda adolat bor-ku, deb o'zingni yupatasan. Ammo senga birdan-bir suyanchiq bolgan bu ishonch ham asta-sekin yo'qolib, hatto o'zingning begunohligingni isbotlash uchun arz-dod qilishdan foyda chiqmasligiga iqror bola boshlasang, undan nima chora! Bitta chora shuki, bularning qolidan qutulish qiyinligiga amin bola boshlagach, taqdiringga tan berib, Xudoning rahmi kelib hukumatda bir o'zgarish bolar, degan umid bilan yashay boshlaysan.

Mana yana bahor keldi. Ikkinchi bahorni qamoqda o'tkazmoqdaman. 15 oydan oshyapti. Yil bo'yi yeganing suli bo'tqa, chekkaning maxorka. Bahor kelib gilos, qulupnay, tut pishadi. Yoz kirishi bilan chilaki pishadi. Ketma-ket qovun, tarvuz yetiladi. Sen bu ne'matlarning hammasidan mahrumsan! Xudo yaratgan bu ne'matlarni totib ko'rishga ham sening haqqing yo'q! Karam solingan sho'rva ichyapsan-ku, shuni berishganiga ham shukr qil! Sen o'zingning kimligingni bilasanmi? Sen dushmansan! Ertaga seni qanday taqdir kutyapti, o'ylayapsanmi? Sen qilgan gunohlarni balki otuvga loyiq topishar. Shunday bo'lishi ham hech gap emas. Bunday o'lar oldida o'zingdan o'zing cho'chib tushasan.

Tergovim tugadi. Ishimni sudga oshirishgan. Ikki oydan beri kamerada bitta o'zim. Atrofingdagi semonli to'rt devor, bo'sh qolgan temir karavotlar. Dardlashib, ko'ngil yozadigan odamlar ham hukm qilinib, taqdir nasib qilgan joylardagi lagerlarga ketib bo'ldi. Tergovchi chaqirmaydi. Tergov tugagach xotin bolachaqang bilan ko'rishishga ruxsat etamiz, deb bergan va'dasiga ham amal qilgani yo'q. Radio eshitmaysan, gazeta bermaydi. Yolg'iz dardkashim - xayol!

Qamash mavsumi tugab, qamaladiganlar qamalib boldi shekilli, deb o'lagandim, yo'q, bugun ertalab kameraning eshigi ochilib qotmadan kelgan, baland boyii, soqol qolgan 70 yoshlar chamasidagi bir mo'ysafid ki-

rib keldi. Qolidagi yuklarini yerga qo'yib, men bilan salomlashib, atrofni ko'zdan kechirdi-da, bilmadim, nima ma'noda, nima uchundir, «Xudoga shukr» deb qo'ydi. Nimaga shukr qiladi! Qamoqqa tushganigami? Yoki yakkaxonada uzoq vaqt yotgan bolsa, endi men bilan diydor ko'rishib, dardkash uchratganigami? Boshqa nima sabab bolishi mumkin? Axir qaysi tan-joni sog' odam qamoqqa tushganida Xudoga shukr, deydi.

Xayolimdan balki bu odam otishga hukm qilinib, o'lim kamerasida yotgan bo'lsa, hukmi bekor bo'lib, omon qolganiga shukr qildimikan, degan fikr ham o'tdi.

Bularning shukronasining sababi keyinchalik malum bo'ldi. Men o'lagancha bo'lib chiqmadi.

Bu odamning tagi-taxti, turar joyi asli Xorazmdan bo'lib, toshkentlik qarindoshlarinikiga kelayotganda qo'lga olinib, shu sabab bu yerdagi qamoqxonaga kelib qolgan edi. Qamoqqa yangi kelgani, tergovni endi boshlangani uchun, gunohi nimadan iborat, nega qamalganini ham hali o'zi aniq bilmasdi. Bilmasdi emas, nega ushlab olib kelishganini tasavur qilolmay, meni birov bilan adashtirib olib kelishgan bo'lsa kerak, bandaning boshida bundan ham yomon kunlar bo'ladi, deb shukr qilayotgan ekan.

Ey, sodda sho'rlik! Birovga adashtirib qamagan bolsalar ham bu yerga olib kelishdimi, tamom, biror ayb topib muddat berishlarini, dushman qilishlarini bu sodda odam xayoliga ham keltirolmasdi.

Albatta, men bir yildan ortiq qamoqda yotib, so'roqlariga javob beraverib, nimadan nima chiqarib ayblashlaridan xabardor bo'lib qolganim uchun, undan nimalar haqida so'rashyapti, degan savolimga u:

- So'ragan gaplari kurakda turmaydi, maynavozchilik. Meni tergov qilayotgan yigit, qo'chqor-u xo'roz urishtirishga menga o'xshagan ishqivoz shekilli, nuqul qo'chqor urishtirishni qachon, qayerda ko'rganim,

i >ra-sira o'sha paytda kimlar bilan, nimalar haqida gaplashganimni so'raydi, xolos, - deb javob berdi.

He sodda odam! Tergovchi ham menga o'xshash qo'chqor urishtirishga ishqivoz ekan, deydi-ya! Ammo tergovchi nega muncha qo'chqor urishtirishni mendan so'rab qoldi, nega muncha kovlayapti degan narsani xayoliga ham keltirmagan bo'lsa kerak sho'rlik! Xorazmlik bo'lganim uchun shunchaki qo'chqor urishtirishni so'ragandir, deb oylagan bolishi ham ehtimoldan holi emas. Ammo buni nega surishtirgani, tagida nima maqsad kuzatilganini keyinchalik bildi.

Qamalganining ikkinchi-uchinchi haftalari bolsa kerak, bu bechora mo'ysafid tergovdan o'zini qayga qoyishini bilmay, g'azab bilan kameraga kirib keldi:

- Dunyo tamom boldi! Dunyo ado boldi! Meni otib tashlasin, endi bu tergovchiga bir og'iz so'z aytmayman. Hech qanaqa gapiga javob bermayman. Stalinga yozaman! Stalinga arz qilaman. Men oq poshshoni tarafdorimishman. Nikolay poshshoni! Nima, men uni basharasini ko'ribmanmi, yoki ikki tug'ib bir qolganimmi, maqtayman! Oq xo'rozni maqtagan bolsam, oq poshshoni maqtagan bo'lamanmi? Bu qanday bedodlik!

Bu bechoraning butun gunohi, Xorazmda xo'roz urishtirish vaqtida kimdir undan:

«Kimning xo'rozi yengadi, qizilimi, oqimi, sen qaysi birining tarafdorisan?» - degan so'roviga:

«Ko'rinishdan qizilga qaraganda oqi zo'rroq ko'rinadi, oqi yengadi, men oq tarafdoriman», - degan gapni aytgani bo'libdi. Uning bu gapidan tergovchi o'zicha xulosa chiqarib: «Haqiqatan ham Xorazm shohi Junaidxonga mening xeshligim bo'lgani rost, shuning uchun ham men xo'roz urishtirish paytidan foydalanib qizillardan, ya'ni sovet hukumatidan ko'ra oq poshsho yaxshi edi, bir kunmas bir kun oq posh-

sho yengadi, demoqchi bolganman», deb yozib, undan qo'l qoyishni talab qilgan ekan.

Albatta, bu gaplarga hozirgi odamlar ishonishi qiyin. Ammo, yuzlab emas, minglab emas, million-millionlab odamlar qamalib, otilib, Sibir surgunlarida yo'q bolib ketganlar-chi? Bunga ham ishonmaymizmi? Axir, bularning ko'pi asosan kommunist, sovet davlati uchun jonini tikkan odamlar edi-ku! Bularning dushmanligiga ishonib bo'ladimi? Yo'q, bo'lmaydi! Xo'sh, shunday bo'lgach, ularni nima deb qamashgan? Demak, yo'q ayblarni, kishi xayoliga kelmaydigan yuqoridagi kabi sabablarni oyiab topishgan, desak, ishonmay boladimi?

Men o'zimcha oyiardim, xo'p, ishonib bolmasa, begunoh odamlarni qamash hukumatga nega kerak bolib qolgan?

Qamalgunimga qadar, men o'zim ham qamalganlarning ko'pchiligini haqiqatan dushman bo'lsa kerak, deb oyiardim. Ammo qamalganimdan keyin bu fikrim xato ekanligiga imonim komil bo'la boshladi.

Tergovchining adolatsizligi, bilaturib oqni qora qilib ko'rsatishidan fig'oni falakka chiqayotgan hamrohimga taskin berish uchun unga:

«Kuyganingizning foydasi yo'q. Qamalishingizga oq podshoni maqtaganingiz ham, xo'roz ham sabab emas, bular faqat bir bahona, bu qama-qamalardan maqsad bitta: maoshingiz kam bo'lsa, maoshim kam deb arz qila olasizmi? Chet elga borgingiz kelsa, bora olasizmi? Yo'q! Bizda boshqa davlatlardagidek erklik, demokratiya yo'q deb ayta olasizmi? Ayta olmaysiz, dardingiz ichingizda. Qaysi davlatda 1-2-sinf bolalarini oktyabr oyidan to plan bajarilguncha o'qishdan mahrum qilib qor-yomg'irda dildiratib, paxta baxtimiz, deb dalalarda ishlatadi? Bu baxt emas, deb ayta olasizmi? O'zbekning ming yillik tarixi bor, o'zbek jahonni hayratga soladigan san'atning yuksak na-

munalari Samarqand, Buxoro, Xiva kabi shaharlarni bunyod qilgan, buyukligi oldida zamonlar ta'zim qilgan Navoiy, Ulug'bek, Boburlarni yaratgan xalqni savodsiz, qashshoq gado desa to'g'rimi? Yo'q, bu to'g'ri emas deb ayta olasizmi? Aytolmaysiz! Nega? Chet el radiosini eshitdim deb birovga ochiq ayta olasizmi? Bizda din erkinligi yo'q deb ayta olasizmi? Aytib ko'ring-chi! Aytolmaysiz! Ammo, ichingizdan-chi, bu-larning noto'g'ri ekanini sezasizmi? Sezasiz! Bitta siz emas, boshqalar ham seza dimi? Sezadi! Bordi~yu, siz ham, u ham, xullas, ko'pchilik shu noroziligini aytsa, unda nima boladi? Oshkora norozilikka aylanmaydimi? U mahalda nima boladi! Nima bo'lardi, norozilik avj oladi. Oqibatdaxalqqo'zg'aladi. Bunday xavf-xatar-ning oldini olish uchun nima qilish kerak? Birdan-bir chora, ha, xalqni cho'chitish! Buning uchun siz bilan bizni qamash. U yoq~bu yoqqa qaramay haqiqatni aytadigan, tili o'tkirroq odamlardan qutulish. Shu bilan odamlarga vahm solish», - degim kelardi.

Ammo tilim uchida turgan gapni yonib turgan hamrohimga aytib bolarmidi? Balki bu mo'ysafidni mendan sir olish uchun yonimga kiritgan bo'lsa-chi? KGB qamog'ida bu ham ehtimoldan holi emas.

Tergovchining xo'roz urishtirishdan o'ylab topgan, kishi aqliga sig'maydigan xulosasidan g'azablangan chol boshini qay devorga urishini bilmay soldnar va tergovchini haqoratlashdan o'zini tiyolmasdi.

Xalqimizning:

*Ket, desang Qashqar ketoyin,
Yo'lda yolg'izlik yomon.
Yolg'izlikdan kim o'libdir,
Hammadan xo'rlik yomon,*

- degan hikmatlarining ma'nisiga boshing devorga tek-kanda yetar ekansan.

Qamoq bu yolg'izlik, ayriliqning o'zigina bo'lsa, diydor ko'rish umidi bilan chidaysan! Ammo bu yerdagi xo'rliklarga-chi? Xudoning o'zi rahm qilmasa, bandasiga to'zim bermasa, chidab bo'lmasdi.

Bu mo'ysafid mahbusning qalbidagi tuhmat alami bosilguncha ham bo'lmay, xuddi sen qochib ketayotgandek, qamoq eshigi birdaniga sharaq-shuruq ochilib, ikki nazoratchi kirib keldi. Birimizga anovi burchakda, ikkinchimizni manavi yerda turlaring deb buyruq berib, ko'rpa-yostiq, idish-tovoq, tuvaklarning ichi bormi, chekadigan maxorkadan tortib yeydigan narsalaringgacha ag'dar-to'ntar, titi-piti qilib shumon (tintuv) boshladi.

Bunday ahvol har hafta, har o'n-o'n besh kunda mahbuslar portlatuvchi biror narsa, qurol-yarog' o*ylab topgani yo'qmikan, degan gumon bilan takrorlanib turardi. Bir yildan ortiq qamoqda yotgan men uchun bu tabiiy bo'lsa, yonimdagi yangi kelgan hamroh uchun kutilmagan hoi bo'ldi. Hatto tintuvchilar ham menga tanish bo'lib qolgan. Bularning ayrimlari hamma yoqni ag'dar-to'ntar qilmay rasmiyat uchun qo'l uchida u yoq-bu yoqni ko'rgan bo'lib chiqib ketsa, ayrimlari o'zingni ham qip-yalang'och yechintirib, biror xavfli narsani yashirib qo^gandek orqa-o'nginggacha tekshirib ko'rardi.

Bu gal boshdan-oyoq, ich kiyimigacha yechdirib, yalang'och qilib yangi odam bo'lgani uchunmi tekshirishni qo'shnimdan boshlamoqchi bo'ldi. Ammo u bunga o'rganmagani uchun, men va boshqalarning oldida hayo bilan ustki kiyimlarini yechdi-yu avratini ko'rsatishga unamadi.

Nazoratchi esa qani, tezroq bo'l, deb do'q-devara qilishini qo^masdi. Choi esa nima qidirasan, yashirgan narsani topmoqchi bo'lsang, ust-bosh kiyimimni qara, yalang'ochlab nima, jinsimni tekshirmoqchimisani! Hez emasman, bola-chaqa ko'rgan odamman, -

deb g'azab bilan baqirar, nazoratchi esa gap qaytarma, tez bo'l, yechin, deyishini qo'ymasdi.

Albatta, men unga turadigan joyimiz qamoq, to'rt atrofimiz devor, boradigan joyimiz tergovchining xonasi-yu, senlarning nazorating ostida bir kecha-kunduzda ikki marta hojatga chiqish. O'shanda ham tuynukdan kuzatib turasanlar. Ko'chaga chiqmasak, biror odam bilan aloqada bolmasak, har hafta, o'n kunda bunday tintuvlarni qilib tursalaring, yana nimani qidirasanlar, degim keldi-yu, qamoq qoidasi bo'yicha nazoratchi bilan gaplashish mumkin emasligi, buning uchun ham jazolashlarini oyiab, g'azabimni ichimga yutishdan boshqa iloj topmadim. Bu gaplarni men aytmasam ham bularning o'zi bilmasmidi? Maqsad - seni xo'rlash! O'z aytganiga seni ko'ndirish.

Ikkinchi nazoratchi, keksa odam ekan, qoyaqol degandek qarash qildi-yu, ammo og'iz ocholmadi. Chunki, ularning o'zi bir-biriga ishonmasdi, dushmaniga rahm qildi, yon bosdi, tanishi bo'lganmi, deb ayblashlaridan qo'rqqardi. Bir-biriga rahm qilmaydigan, bir-biridan qo'rqqan odamlarga gapirib nima foyda topaman? Bularda insofyo'q-ku! Choi esa dunyoda insof borligiga ishonardi.

Hamon u aravaga qo'shilmagan otdek qaysar, bu xo'rlikdan nihoyatda g'azabnok edi. U shu qadar asabiy ediki, nazoratchiga tashlanib, kutilmagan ko'ngilsizlik bolmasa, degan xavotirda edim. Ular boysunmaganlik uchun karserga tashlashliklarini aytganda ham qaysarligidan qaytmadi. Ertasiga karserga olib ketishdi.

Bu odam uchun nomus o'limdan kuchli edi.

O'sha kuni meni ham jazodan benasib qilishmadi. Meni qahrabo mushtugim bor edi, qo'limdan semon yerga tushib sigareta tiqadigan joyidan sinib ketgan edi. Qamoqda bekorchilikda ermak deb nondan xamir qilib mushtukning og'ziga yopishtirib, atrofiga cho'p tiqib, ip bilan bog'lab, sigareta tiqib cheksa bo'ladigan

holga keltirib, barmoqlarimni maxorka sarg'aytirib sasitishidan saqlaydigan qilib olgandim. Bunga ko'zi tushgan nazoratchi qo'lga olib u yoq-bu yog'ini nazardan kechirib, burdalab-burdalab yerga tashladi. Buni unga bir ziyoni yoki xavfi tomoni bormidi? Yo'q! Maqsad - seni o'z xohishingga qoymaslik, faqat qamash, erklikdan mahrum qilish emas, asablaringga tinchlik bermaslik, sovet davlatiga dushman bolganing uchun sen qilgan ishning aksini qilib, har xil yollar bilan azoblash, qiynash, huzur-halovatdan mahrum qilish.

Bu shafqatsizlik, bu adolatsizlik, begunoh odamlarga bunchalikjabr-zulm, inson zotini bunchalik xo'rlashlaridan maqsad nima? Axir mahbuslar sho'rliklarga bir kecha-kunduzda faqat 15-20 daqiqagina toza havoga chiqib nafas olish imkoni berilgan bolsa. Ba'zan haftalab shundan ham mahrum qilinadi. Olib chiqilgan vaqtda ham ba'zan nurdan qamashgan ko'zlaring yorug'likka o'rganib ulgurmasdanoq, toyibroq ochiq havodan nafas olmasingdanoq berilgan 20 daqiqa otmasdan «boldi, bo'ldi, chiqilaring», deb do'q bilan kameraga haydaydi. Bu shafqatsizlikka uni nima majbur qiladi!

Malum vaqtlarda hammomga tushirganlarida issiq suv bersa, sovuq suv bermaydi. Sovuq suv kelsa, issiqni to'xtatadi. Boshingga surgan sovuning arimasdan, nazoratchi bostirib kirib kiyinishni buyuradi. Hali kiyinib ulgurmasingdan eshikni ochib qoyib, bu onangni uyimas, qani imirsilama, chalasini lager hammomida yuvinasan, deb tepangda haqoratlab turadi. Gap qaytarib ko'r-chi! Kiyinishga ulgurgan ulguradi, ulgurmagan keksalar, oyoqsizlar, bedarmon odamlar qo'ltig'iga tiqib oladi.

Bu yerdagi hamma narsa yolg'onga asoslangandi. Qoida boyicha vaqti-vaqti bilan goh qamoq boshlig'i Krasnogolovov, goh respublika prokurorining yordamchisi arz-dodingni eshitmoqchi bo'lgandek kame-ralarni aylanadi. Albatta, ular kirish bilan mahbus-

lar tayinlangan joyda qo'llarini orqaga qilib turishlari shart. Kimdir ikkinchi yili qamoqda o'tirib hali ham sud qilmaganlaridan, kimdir shikoyat yozish uchun qog'oz va qalam bermaganlaridan zorlansa, boshqa biri nazoratchilardan, tergov ishi tamom bo'lishiga qaramay, bola-chaqasi bilan hali ham uchrashishga ruxsat etilmaganidan, kimdir bemorligi, uyidagilar olib kelgan narsalarni bermay qaytarib yuborilayotganidan, qamoqqa yangi tushgan ba'zi birlar o'zlarini nohaq qamaganliklari, zarracha ham gunohlari yo'qligidan shikoyat qilar, goyo buni eshitgan adolatli prokuror ertagayoq uni chiqarib yuboradigandek far-yod solib ko'z yoshlari bilan dardlarini aytardi. Faqat men indamasdim. Negaki, bir yildan ortiq qamoqda yotib, qamoq boshlig'i bormi, prokuror bormi, bir necha marotaba kameraga kirib, odamlarning arz-dodlarini eshitib, ammo birortasi ham amalga oshmaganing guvohi bolib, prokuror, tergovchi, nazoratchi - hammasining tili birligiga, arz qilishingning hech qanday foydasi yo'qligiga ishonib qolgan edim.

Prokuror mahbuslarning arz-dodlari, tergovchilarning jallodligi, nazoratchilarning xo'rlashlari haqidagi shikoyatlarini odatdagidek qo'lidagi daftarchasiga yozib olardi, bu safar ham shunday bo'ldi. Ammo natija-chi! Prokurorning qo'lidan ham hech narsa kelmasligiga ishonib qolgan edim. Bitta umid suddan! Agarda sudning ham bular bilan tili bir bo'lmasa, aniqrog'i KGBdan qo'rqmasa!..

Men, o'zim-chi?

Men bularni nopoklikda ayblab, gunohkor sanayapman. Ammo bordi-yu mendan so'rashsa, sen o'zingni pok vijdonli, haqiqatgoy deb sanasang, ijodkor, shoir odamsan, qani, ayt-chi, o'zing ko'rgan shu adolatsizlik, nohaqliklarni, iching to'la dardlaringni qo'rqmasdan she'rmi, doston aynan qilib o'zidek yoza olasanmi? KGBdan qo'rqmaysanmi?

Mana kechagida xotining sakkizta yogliq patir yo-pib, bir oz mayiz va chaqilgan yong'oq, ikki-uch pachka «Saratov» maxorkasini kiritibdi. Albatta, senga patirni yeyishdan ham ko'ra sevikli xotiningning unga tekkan qollari, bolalaring ko'z oldingga kelib, yurak-bag'ring ezilgani rost. Har burdasi tomog'ingga tiqilib, ko'z yosh-laring bilan zahar bo'lib yutilmoqda. Bu bevaqt ayrilic alami chidab bo'lmas darajada albatta og'ir. Axir, qa-malغانingda oilangga pul bosib ketmagan eding-ku! Bu qaysi pulga kelgan? Uch bolani boqish osonmi? Ijod qilaman, doston yozaman deb litfondan ming so'm pul olib, hali tolaguningcha yo'q edi, rahm qilmay uni qistab kelsalar kim to'laydi! Sen sovet adabiyoti haqiqatni, kishilarning dard-alamlarini kuylaydigan adabiyot deyilishiga ishonsang, shu ayriliqlarni, shu sog'inchlarni, shu to'kilgan ko'z yoshlaringni she'r qilib yozaolasanmi? Matbuotda bosishlariga ishonasanmi? Kosmopolit, hayotidan norozi pessimist, hayotning faqat salbiy jihatlarini ko'radigan shoir deb ayblashla-ridan qo'rqmaysanmi? Bu jamiyatda ijod erkinligi yo'q deb, ayta olasanmi? Aslo, aytolmaysan!

1946-yilda partiyaning kosmopolitizm va g'oya-sizlikka qarshi deb chiqargan qarori, Jdanovning «Leningrad» va «Zvezda» jurnallarini qoralab qilgan ma'ruzasi sening aqlingga mixdek qoqilib, yuraging-ni olib qo'g'anki, hozir qamoqda yotib ham, qo'ling-ga qog'oz, qalam berib, mana, sovet hayoti haqida bilganlaringni, dilingdagi gaplarni ochiq yozib ber, desalar, imonim komilki, qamoqda yotib ham men baxtiyor sovet kishisi hayotimiz farovon, bu baxtli kunlarni bergan Stalin yashasin, deb she'r yozasan. Qani, ayt-chi, yoki noto'g'ri gapirdimmi? Ijod erkinligi yo'q, haqiqatni yozib bo'lmaydi, dermiding, yoki...

Bu savollarga o'zimchajavob izlab xayol surib o'tirib, 1939-yilda yozgan to'rt yol she'rim yodimga tushdi:

*Tangrim, o'zing, o'zing yarlaqa,
O'zingdan hech o'zga madad yo'q,
Na do'stim bor, na dard tinglouchim,
O'zingdan hech o'zgaga had yo'q!*

Bu to'rtlikda qanday xato bor?

Ammo bu to'rtlikni pessimizm, dinni targ'ib qilishdan iborat deb ayb topishlaridan qo'rqib, biror odamga o'qib bermasdan, hatto qog'ozga tushirmasdan, shu vaqtgacha yodimda saqlab kelaman-u! Nega? Bu qo'rqqoqlik, ijod erki yo'qligi emasmi? Yoki:

*O, tasodif! Tasodifgoh baxt,
Goh keltirar o'lim va xatar.
Tasodifan xursandman behad,
Duchor qildi, baxtga bu safar.
Tasodifan ko'rdim bazmi kech,
O'g'irlading, sevgimni darhol,
Yurak dardin aytolmadi hech,
Boqishlaring qildi maftun, lol.
Aylanmadi til o'sha onda,
Xayrlashdik bebo'sa va jim.
Sen ketding, u qoldim armonda,
Uchrashishni so'roqlolmadim.
Tasodifning men uchun bu gal
Keltirgani baxtmi, yo hijron?
Hali-hali etolmayman hal,
Firoqingda o'rtama, jahon!
Tasodifan shodman, ammoki,
Afsus bilan qolganligim rost!
Qaydasan yor, topguncha toki
Tasodifga yig'layman, xolos!*

1944-yilda yozilgan shu she'rda sovet xalqi, sovet siyosatiga qarshi aytilgan qanday maqsad bor? Bu

she'rim ham, biz tasodifga ishonmaymiz, bu g'oyaviy sayoz degan sabablar bilan hech qayerda bosilmagan, mana bu ham ijod erkinligiga kiradimi?

O'z-o'zimcha oyiardim! Men sud oldidan shular haqida o*ylarkanman, o'z haqligim, vijdonim oldida bir oz taskin topib, qamoq azoblari unutilgandek bo'lardi.

Tergovchilarning begunoh odamlarni gunohkor qilishlari, adolat hakamlari - prokurorlarning mahbuslarning arz-dodini eshitib amal qilmasliklarini garchand bilsam ham, so'nggi umidim suddan edi. Nima bolsa ham axir, sud degan nomi bor-ku! Nega ishonmay!

Tergovchi yoki chalasavod nazoratchilar ilmi odamlarning qadriga yetmagan, arz-dodini fahm etmagan bolsa, har holda sud xodimlari oliy malumotli kishilar - ularga nisbatan xolis hakam-ku! Bundan tashqari, axir, advokat degan gaplar ham bor-ku, deb o'zimni o'zim ovutardim.

Qassobdan chiqqan jalloddan olimdan chiqqan jallod xatarli. Chunki qassobdan chiqqan jallod ilmsiz, omi, u dovdir-sovdur ish qilishi mumkin. Ammo olimdan chiqqan jallodning qolidan qutulish qiyin. Negaki, u aql bilan ish qiladi va o'zining haqligiga uncha-muncha odamlarni ishontira oladi. Sudga insof bersin!

Men shular haqida xayol qilarkanman, tabiatimda bir ravshanlik paydo bo'lardi. Tezroq sud bo'la qolsa-yu bu qamoq azoblaridan qutula qolsam deb o*ylardim. Haqiqatan ham meni sud qilib bir yilmi, o'n yilmi muddatga hukm qiladigan nima gunohim bor? Nima? Tergovchilarning yozganlari hammasi yasma, axir o'zlari to'qigan yolg'on-ku!

Yelpig'ich haqidagi aqlga to'g'ri kelmaydigan latifanamo gapim uchun xalq dushmani bo'lib qolamanmi? Nahot sud shunga ishonsa! Yoki sifatsiz mol ishlab chiqarilayotgani yolg'onmi? Hammaga ayon-ku! Bitta yelpig'ich emas, hamma sohada sifatsizlik bor-ku!

Stalinning gapini kesatib aytgan deb gunohkor qilish ham asossiz. Awalo kesatiqmi, to'g'ri ko'ngilda aytganmanmi, buni eshitgan odam bilan yuzma-yuz qil desam, buni qilmadi. Demak, asossiz. Bordi-yu kesatib aytgan taqdirimda ham bu yerda tuhmatdan iborat nima bor? Hayotimiz jannat emas-ku, yetishmovchiliklar, qiyinchiliklar yo'qmi? Urush tamom bo'lgan bo'lsa ham hali qornimiz to'g'uncha yo'q-ku! Buni suddagilar tushunar!

Meni millatchilikda ayblashlari ham butunlay asossiz. Millatchiligim Usmon Nosir she'rlarini maqtaganimmi, uni iste'dodli shoir deganimmi? Axir adabiyotdan ozmi-ko'pmi xabari bor, uning she'rlarini o'qigan odam uni hech mahalda yomon, qalbaki shoir ekan, deydimi? Demaydi! Agarda millatchi bo'lib biror millatini masxaralagan yoki o'rislarni bosqinchi, hamma huquq ularda desam, shunga o'xshash bir gap aytgan bo'lsam, millatchilikda ayblasa. Suddagilarda adolat bordir, axir!

Shunday fikrlar bir necha kundan beri eshiklari ochilmay sasib ketgan kamerada yolg'iz o'tirib xayolimdan o'tar ekan, tezroq sud bo'la qolsa-yu o'zimni butunlay begunoh ekanimni ayta qolsam, deb shoshilardim. Axir, sovet davlati bu faqat O'zbekistondagi johil tergovchilar, prokurorlardan iborat emas-ku. Axir dunyoda haqni haq, nohaqni nohaq qiladigan Moskva, Stalin kabi «suyanchiqlar» borligini o'ylab, umidim bardam bo'lardi.

Gunohim yo'qligidan umidvor bo'lishimga yana bir sabab - keyingi vaqtlarda uydan yuborilgan narsalarni ola boshladim. Chunki, gunohi og'ir mahbuslarga oilasi bilan ko'rishishga, narsalar olishga ham ruxsat etilmaydi. Bundan tashqari prokurorga aytgan gaplarim amalga oshib, o'qish uchun kitoblar ham berila boshladi. Bu ham menga endi odamdek qarashayotgandek, aybim yo'qligidan darak berayotgandek tuyilib, sudda oqlanib chiqishimga ishonch bag'ishlardi.



Bugun men uchun xuddi dardkash, yaqin do'stim bilan topishgandek quvonchli kun bo'ldi. Bugun menga mistik rus shoiri Aleksandr Vostokov bilan, keyinchalik bilishimcha, xalq dushmani bo'lib qalmagan gruzin yozuvchisi Javaxishvilining qissa va hikoyalar to'plamini berishdi. Ayniqsa, xalq dushmani deb nohaq qamalib, keyinchalik haq bo'lib oqlagan «Begunoh Abdullo» va Sibir sovuqlarida qo'l-oyoqlaridan ayrilib, hatto jinsiy aloqa qilishdan mahrum bo'lib qolgan, shunda ham umidsizlikka tushmay, o'z ijodiy mehnati bilan kimyo ilmida yangilik ijod qilib mahbuslikdan qutulgan, irodali odamlar haqidagi qissalar dardimni yengillashtirardi. Bu kitoblar bir oz bo'lsa ham yolg'izlik azobi, turli vahimali xayollar sirtmog'idan qutqarardi.

Ayniqsa, yodimda yo'q, Aleksandr Vostokovmi yoki boshqa rus shoirimi, Gyotening «Umid» she'rining tarjimasini sud oldidan menga shu qadar dalda bo'ldiki, kitobni qaytarib yig'ishtirib olguncha bu she'rni o'zbek tiliga tarjima qilib, yodlab oldim.

*Yolboraman umid parisi,
Ish chog'lari menga bo'lgil yor.
Tugatmasdan ishning barisin,
Toliqishga erk berma zinhor!
Ishonaman, ro'yobga chiqar,
Taskinlaring ketmay behuda,
Umid bilan suqilgan tayoq.
Mehnat, chidam natijasida
Bir kun berar meva ua yaproq.*

Qamoq muhitida bu she'r eng yaqin do'stning menga taskinidek bo'lib qoldi. Bu she'r azobimni yengillashtirdi, darmon boldi. Shaytoniy xayollar bosib kelganda, yotgan-turganimda o'qidim. Qamoqda shirin xayoldan boshqa senga kim taskin beradi, kim dardkash bo'ladi!

Kitobning qaciri, uning odamga eng yaqin dardkash, sirdosh do'stdek madadkor bo'lishini qamoqda juda yaxshi his qilarkansan.

*«Boshingga mushkul ish tushsa,
Degaysan, yo Rasulalloh!»*

Biror dardkashsiz, yolg'iz qolgan chog'ingda, oy~lab-oyiab tagiga yetolmagan, seni qiynagan xayollar yechimiga kitob madadkor bo'larkan. Boshingga malmomat toshlariyog'ilib, qamoqda yotganingda, haqiqat uchun bukilmay kurashgan qahramonlar senga ibrat bo'lib, g'amlaringni yengillashtirarkan. Tuhmatchilarning mag'lubiyati, ularning fosh bo'lishlari senda ham haqiqatning g'olib chiqishiga kuch-quwat, chidam va umid uyg'otarkan. Sevikli yoringdan judo bo'lib, rashk o'ti qalbingni o'rtab, chirkin xayolotlar seni qurshaganda, har qanday mashaqqat, har qanday azob, ayriliq damlarida ham sevgisiga riyo qilmay, bardosh bergan oshiqlar hayoti haqidagi riyoatlar ortingda qolgan xotiningga ham ibrat bo'layotgandek, dunyoda sevgiga vafo, sadoqat borligiga ishonasan, bir dam taskin topasan.

Mana bugun bir yildan ortiq nohaq chekkanim qamoq va tergov azoblaridan qutuladigan kun ham keldi. Sud boladigan boldi. Qaysi gunohimga sud qilishadi!

Tergovchilar sen qilmagan ishlaringni qildi, aytmagan gaplaringni aytdi, deb zo'rlashlariga boysunmaganingda, seni qol qoydirishga undash uchun ularning birdan-bir aytadigan gaplari, agar bizlar seni nohaq ayblagan bolsak, sen, hozir bizni ham, o'zingni ham qiynamay, qolingni qoyaber, adolatli sud bor, prokuror bor, arzingni o'shalarga aytasan, deyish bolar edi.

Tergovchining bu gaplari garchand bir damgina ko'nglimga dalda bo'lsa ham, ammo, avlodlarimiz shu kungacha boshidan kechirgan fojialar xotiram-

da tirilib, ko'nglimni yana qora bulut qoplab olardi. Axir, ularni ham shu yerda tergov qilishgan, shu yerda sud qilishgan-ku! Shularni o'ylasam umidlarim chil-chil bo'lardi. Ayriliq alamlari o'rtay boshlardi.

Adolatli sud, adolatli prokuror!.. Axir qancha-qancha yozuvchilar, davlat arboblari qamoqqa olinib, er-tasigayoq Toshkentning yaqinidagi jarlikka olib borib yoki qamoqning o'zidayoq otib tashlanmaganmi? Ularning qabri qayerda ekanini hech kim, hatto hozirgi hukumatning o'zi ham bilmaydi-ku!

Shu vaqtgacha bizlar adolatli sud, adolatli qonun degan gaplarni eshitaberib qonimizga singib, bunga ishonch hosil qilib kelganmiz. Ammo adolat qanday boladi, u nimadan iborat, negiziga zehn solganmizmi? Yo'q! Negaki, fikr bildirish, xatolarni aytishni qonunga zid deb kelganmiz. Qonun buzulishlarini ko'ra turib ham qonuniy bo'lsa kerak, deb qabul qilishga o'rgatib qo'lganmiz.

Axir, shu vaqtgacha, qancha-qancha odamlar begunohdan begunoh qamalib ketganligini xalq bilmaydimi? Biladi! Hatto o'ziga eng yaqin, sirdosh kishilari, do'stlari qamalganda ham men buni yoshligidan bilaman, bundan dushman chiqmaydi, deb aytishga jur'at etolganmizmi?

Bizda hamma narsa qonuniy, adolatli deymiz-u, ammo ko'ngildagi gapni aytish imkoni bo'lmasa, yoki aytishga kelganda nimadandir cho'chib tursang, shu adolatdanmi? Adolat borligidanmi? Axir shuning o'zi ham qonun buzulishiga qo'shilmaydimi! Axir, deyarli sudlar yopiq eshiklar orqasida o'tkazilib, unga faqat sud hay'ati, prokuror va KGB xodimlaridan bo'lak biror odam tashqaridan kirishiga ijozat bo'lmay, butunlay xalqdan yashirincha o'tkazilsa, bu ham adolatdanmi? Bunday sudlarning adolati nimada?

Sud bo'ladigan kuni ertalab meni mahbuslarga mo'ljallangan maxsus «qora qarg'a» deb ataladigan

mashinaga chiqarishdi. Qayerga olib ketyapti - sen hech narsani bilmaysan. Butun ixtiyoring shularning qo'lida. Bu yerdagi hamma narsa sirli. KGB butun xalq, butun davlatdan ajralgan sirli bir dunyo. Hozir seni biror yerga olib borib otib tashlasalar ham hech kim bilmaydi.

Mashina bir-ikki daqiqalik yol yurmasdanoq, qandaydir temir darbozaning taraqlab ochilib-yopilgani eshitildi. Avtomat tutgan soqchi mashina eshigini ochib tushishga buyurishi bilan oq qo'lni orqaga qilib tushdim. Bu bir yarim yil, yarim yil qamoqda yashayverib odat bo'lib qolgani uchun emas, aslo, aslo! Bu avtomat tutgan soqchining qolingni orqaga qil deb kishini xo'rlovchi ovozi yana eshitmaslik va uning nihoyatda jonga tekkanligidan edi.

Bu yer qamaliganing birinchi kuni kelganim qamoqxonaning hovlisi bolib, meni yer ostidagi qamoq kamerasiga emas, kichikroq xonaga olib kirishdi.

Bu - sud zali ekan.

Bizlar bir oy davomida sud qilindik. Mendan boshqa yana yetti-sakkiz kishi.

Sud zalida men bilan birga sud qilinishi emas, hatto qamalishi xayolimga kelmagan odamlar bilan uchrashdim. Masalan, professor Hamid Sulaymon. Bu odam 1939 - 40-yillarda menga dars bergan. O'shandan beri deyarli endi uchrashishim, shaxsiy bordi-keldim mutlaqo bo'lmagan. Tarjimon, tanqidchi aka-uka Abdurahmon, Abdunabi Alimuhamedovlar, Shuhrat, Mirzakalon Ismoililarni hamma qatori yozuvchi, tanqidchi sifatida tanigan bolsam ham yosh jihatdan, bordi-keldi jihatidan yaqinligim bolmagan. Ammo bular orasida meni hayratga solganlardan yana biri Meli Jo'ra edi. Buning menga qanday aloqasi bor? To'g'ri, qamalishimdan bir-ikki oy ilgari Yozuvchilar uyushmasining safari bilan Qashqadaryo viloyatiga borganimda muharririyatda

ko'rganman, shu kezlarda Meli Jo'ra viloyat gazetasi-ning bosh muharriri bo'lib ishlardi. Bor tanishligimiz shu. Uni yozuvchilar bilan birga sud qilinishining sababi Mirzakalon bilan bo'lgan tanishligi ekan.

Garchand bizlar bir-birimiz bilan shaxsan tanish, bordi-keldi qilmagan, masalan Meli Jo'rani tanimagan bo'lsam ham, yozuvchi sifatida menga tanish bo'lgan Mirzakalon orqali u bilan sovetlarga qarshi niyatli, bir maslakdosh sifatida yashirin boglanishda bolganmishman.

Professor Hamid Sulaymon, Abdurahmon Alimuhamedov esa garchand yozuvchi bo'lmasalar ham, men, Shuhrat, Mahmud Murodovlarga dars bergan chog'larida sovetlarga qarshi millatchilik ruhida shakllanishimizga ta'sir o'tkazganlari uchun bosh aybdorlar sifatida bizlar bilan sud qilinaotgan ekan.

Tergovchining aytishicha, hech qanday gunohim bolmaganda ham mening birdan bir aybim, shular bilan yaqin bo'lganim va ularni millatchilik, sovetlarga qarshi qarashlari ta'siriga berilishim emish. Ammo ularning sovetlarga qarshi qarashlari, millatchiligi nimadan iborat, buni men bilishim shart bo'lmay, bu KGBga ma'lummish. Xullas, shunday qilib sovetlarga qarshi xavfli bir tashkilot, katta bir guruh tayyor. Bir guruh bo'lib, bitta zanjirga tizildingmi, tamom, men haqman deb ming arz-dod qilganing bilan bu halqadan yakka ajrab chiqolmaysan. Taqdiring bir.

Bularning hammasi bilan qamalbandan buyon sudning birinchi kuni, sud paytida uchrashdim. Men o'zim qay ahvolda, ularning nazarida qanday ko'rinishdaman, bilmadim-u, ammo jamiyatning eng madaniyatli, bilimdoni sanalgan bu odamlarning butunlay o'zgargan kiyim-boshlari, aft-angorlariga ko'zim tushganda o'z alam, dardlarim, hatto taqdirim haqida qayg'urish ham bir daqiqa unutilib, esankirab qoldim.

Ayniqsa, Hamid Sulaymon o'zbek ziyolilari ichida kiyim-kechak, bilim, muomalada nihoyatda madaniyatli, ilg'or fikrlovchi, sharq va g'arb adabiyotini teran egallaganlardan biri edi. Ayniqsa, bu odam chala dazmollangan shim, galstuksiz koyiak kiyagan, har bir xatti-harakatida salobat va qat'iyat aks etib turguvchi odam edi. Shunday bir odamni bugun sochlari olingan, soqollari o'sgan, qovoq, yuzlari salqi, rangpar, ustida telegreyka, galstuksiz, yoqavayron bir ahvolda ko'rdim-u naqadar xo'rlanganimizga yig'lagim keldi. Demak, shu ahvolgacha olib kelingan ekanmi, endi suddan ham, davlatdan ham rahm, insof kutish bekor ekaniga ishona boshladim. Bu orada:

- Sud kelyapti, turlaring, - degan buyruq eshilib, sud hay'ati kirib keldi.

Sud boshlandi!..

Afsus, ming afsus! Ha, bu sud emas, qo'g'irchoq oyini edi. KGBning qo'lidagi tuban qo'g'irchoq! Bundan madad, adolat, shafqat emas, hatto, zarracha insofdan umid qilish ham ko'rlik edi, o'ta nodonlik edi. Chunki sud raisining o'zi zalning u yer, bu yerida turgan, vaholanki, qonun boyicha ishtirok etishga haqlari bo'lmagan KGB xodimlari, tergovchilardan ko'zlarini uzmay, xato qilib qoyayotganim yo'qmi, to'g'ri ish olib boryapmanmi, degandek har bir so'zlarini qandaydir xavf-u xatar, hadik bilan aytayotganlari ochiqdan-ochiq sezilib turardi.

Sud har kuni ertadan kechgacha cho'zilishiga qaramasdan bir oyga yaqin davom etdi. Vaholanki, bir kunda tamomlab, hukm o'qilsa ham bemalol bolaberadi. Chunki, qoyilgan gunohlarning haqiqatga to'g'ri kelmasligi, bular hammasi tergovchilarning uydirmalari, dalil, guvohsiz, isbotlanmagan ayblovlar ekanligini bir og'iz aytishga sudlanuvchilarga imkon berilmagan edi. Imkon emas, yo'l qoyilmasdi. Sudlanuvchilarga tergovchilar qanday gunoh qoyib yozgan bo'lsa, sudlar ham aynan o'qib, aytadigan gaplari esa «Shu jinoyat-

larni boyningga olasanmi, yoki yo'qmidan iborat edi. Sening aytadigan gaping esa ha yoki yo'qdan iborat, xolos! Ortiqcha so'zlashga ruxsat bermasdi. Og'zingga urib to'xtatardi. Sudni oylab cho'zishlaridan maqsad esa goyo hammajinoyatlarini sinchiklab o'rganib, haqiqat qilingan deb hujjatlashtirishdan iborat edi.

Sirtidan qaraganda bu yerdagi ishlar hammasi qat'iy qonuniydek, hatto advokatlargacha ham bor. Ammo ular kimlar? Vazifalari nimadan iborat degan savolga to'g'ri javob aytadigan bo'lsang, sharmandalikdan o'zga narsa emas. Bunday ko'zboyamachilik, nayranglarga qaysi inson chidaydi. Aytishga aytdim-u, ammo vijdotsiz degan so'zni shu yerda, bularga nisbatan ishlatishning o'zi ham joiz emas. Chunki vijdotsiz deb vijdoni bolganu, ammo qanday sabablar bilan xato qilib yo'qotganlarga nisbatan aytiladi. Bu yerda qilinayotgan hangomalar esa vijdoni bo'lgan odamlarning ishi emas edi.

Ba'zi kunlari sud zalida bir-ikki advokatlar paydo bo'lib qolardi. Ular kimlarni himoya qilgani kelgan, vazifasi nima, bilib bo'lmasdi. Chunki ularga ham istagan vaqtda so'z berilmasdi. Bular hammasi rasmiyat, qonuniy ish yuritishmoqda deyish uchun qilingan xiyla bo'lib, aslida advokatlarda hech qanday huquq ham, qiladigan ish ham yo'q edi.

Keyinchalik bilsam, mening ham Toshqorayev Yoldosh aka degan advokatim bolgan ekan. Tavba, qachonki, men bilan sud davrida gaplashish u yoqda tursin, hatto yuzma-yuz kelib bir marta ham ko'rishmagan bolsa, qanday qilib menga advokat bolishi mumkin?

Bu qanday bolganini xotinim hikoya qilib berdi.

Xotinimning hikoyasi

Tergov tugatilganligi haqida xabar oldim.

Sud boshlandi.

Sud boshlanishi bilan odamlar orasida mish-mishlar ham boshlandi. Birov, endi hammasini chiqarib

yuboradi, hech qanday gunohlari yo'q desa, boshqa biri - bu yerga kelganlarning hech biri omon chiqqan emas, 25 yil, o'n yil bersa ham shukr deng, ba'zilarni oilasi bilan surgun qilarmish desa, hatto otishga hukm qilmasa boldi, degan vahima gaplar ham eshitilardi. Ba'zi gaplardan bir nafasgina umid uyg'olib yengil tortsang, ayrim vahimali mish-mishlarni eshitganda faryod, ko'z yosh boshlanardi. Bu gaplarni eshitib, sud tugagunga qadar qamalgalnarmas, bu yoqda qolganlarning na uyqusida, na yeb-ichishida halovat bo'ldi. Sud tugaguncha ming xil mish-mish vahimalar, ming xil gaplar. Kimlardir advokat solish zarurligini aytardi.

Men deyarli har kuni ertalab soat naq 10da sud bo'layotgan yerga boraman. Kun ancha izg'irin edi. Sud zaliga, albatta, bizlarni kiritmasdi. Buni bilardik. Ammo umid bilan qamoqxona darvozasining tirqishidan mo'ralab sizlarni sud zaliga olib kelayotgan mashina *ovozini* eshitish, hech bo'lmaganda sizlarni mashinadan tushayotganda oyoqlarini ko'rib, oyoq kiyimidan tanib qolish uchun harakat qilar edik. Bizlarni esa qo'riqchilar u yerdan haydar, kuzatish ham mumkin emas, der edilar.

Bu dahshatli dargohga har kelganda hamma yuragini hovuchlab, ming xil vahima bilan kelardi. Chunki kimningdir otasi qamalgalndan keyin uning o'g'lini ham qamashibdi. Eri qamalgalndan ikki-uch oy o'tmasdan homilador xotinini eriga sheriklikda ayblab uni ham qamashibdi, degan gaplarni eshitar-dik. Shuning uchun sudga ko'pincha qamalgalnarning kekxa otalari, onalari kelishardi. O'sha kezlari tergovchilar qamalgalnarning xotinlariga erlaridan ajralishni, aks holda ishdan chetlatilishini aytib, po'pisa qilar edilar. Bola-chaqani boqish, bir amallab tirikchilik uchun o'sha zamon taqozosi bilan vaqtincha ajralgalnlar ham bolgan.

O'sha kunlari sizlarning jinoiy ishingizni sud raisi Muhiddinov ko'rar emish deb eshitdim. Uning xotini Vazifa esa men bilan bir maktabda ishlar, bordi-keldimiz bor edi. Boshimga tashvish tushgan kunlarda ham munosabatini o'zgartirmadi. Qismatimga achinib, dalda berib turdi.

Shu yaqinligimizni nazarda tutib, men unga erining sudga raislik qilayotgani, advokat solmoqchi ekanimni aytganimda gap o'zaro qolsin, deb erining sud haqidagi fikrlarini aytib berdi. Erining gapiga qaraganda, hech qanday harakat va advokat solishning foydasi yo'q ekan.

Uning yurakdan aytilgan bu gaplari bir jihatdan, erim sizlar uchun qo'lidan kelgan yordamni ayamaydi, degan ma'noda bo'lsa, ikkinchi jihatdan, sudning ham, advokatlarning ham qo'lidan hech narsa kelmas ekan, hamma ixtiyor KGBdagilarda, degan ma'noni ham anglatardi. U menga o'zini yaqin tutib hatto erining «Bizlar ham yuqorining buyrug'ini bajarmay ilojimiz yo'q. Birdan-bir umid yaxshi zamonlar bo'lishidan, bitta Shukrullo emas, hammasi ozod bo'lishi kerak, gunohi yo'q ularning», degan so'zlarni ham aytib bergan edi.

Nima chora! Qamalganlarning oilalari o'zaro dardlashishar va zamon hamisha shunday qolmasligi, qandaydir o'zgarish bo'lishiga umid bog'lardilar.

Ammo bir oylik sud davomida noumid shayton, deb advokat Yo'ldosh Toshqorayev bilan uchrashdim. Oxiri advokat o'zining sudda hech qanday huquqi yo'qligini yashirmay aytdi. Shuning uchun insof yuzasidan xizmat haqi ham talab qilmadi. Sud nima bilan tugashi, ozod qilishi mumkinmi, juda bo'lmaganda necha yil beradi, gunohlari nima? Bu haqdagi savolimga ham hech qanday javob aytoilmadi. Advokatdan bo'lgan umid butunlay uzildi.

Mana advokatning ahvoli-yu, mana adolatli sudlarga ishonch!

Mana inson taqdirining ^immatil.. Mana inson unarning bahosi! Uni o^laydigan kim?!

Qamoqqa tushgan mahbuslarga bu adolatsizlik, bu qonunsizliklarni o'z ko'zi bilan ko'rib, guvohi bo'lib, kim qanday niyatda qilayotganini, buning uchun oh-voh qilishning foydasi yo'qligi, haqiqatan ham biror mo'jiza ro'y bermasa bu azob-uqubattan qutulish mumkin emasligini bilardi. Bu mo'jiza nimadan iborat, hamma oshkora aytolmasa ham, ammo ayrim yurak yutganlari, ayniqsa, awaliga otishga hukm qilinib, keyinchalik, maxsus kengashning qarori bilan jazo muddati o'n yilga almashingan Muhidbek Komilovga o'xshaganlar qo'rqmay gapiraverardi:

- Boshimizga tushgan bu adolatsiz ishlarni faqat KGB tergovchilarining o'zlari qilayotgan deydi bo'lsak, xo'sh, prokurorlar bilmaydimi? Prokurorlar bilmasa, sudlar-chi? Axir qamalanganlar bitta bizlar emas, yuzlab, minglab, millionlab-ku! Necha yildan beri bu ahvol davom etib keladi, hukumat tepasida o'tirganlar, yoki Stalinning o'zi bilmaydimi, unga bu ahvol yetmaganmikan? Hamma narsani bilgan Stalin, Xudo darajasiga ko'tarib qoyganmiz, haqiqatan ham Xudo bo'lsa, adolatli bo'lsa, buni bilmaydimi? Bilmasa, «Xudoligi» qayoqqa bordi! Shunday bo'lgach, kimdan umid kutasan? Bir o'zgarish bo'lmasa, bu changaldan qutulishni o'ylama!

Bu o'zgarish qanday o'zgarish. Bu mo'jiza nimadan iborat, bu haqda gapirganda nimani nazarda tutildi, urush bo'lishinimi, rahbarlarning o'zgarishinimi, Stalinning o'liminimi?.. Garchand aniq aytmasalar ham, qisqa qilib, bir o'zgarish bo'lishi kerak, bunday qolishi mumkin emas, derdilar. Hammaning umidi kelajakdan edi.

Bugun sud muhokamasi tamom bo'lib, qo'g'irchoq sud hay'ati hukmga kirib ketishi elon qilindi. Hamma-

miz «Qora qarg'a» mashinasida yana kameralarga qaytib kirdik. Sud hukmini qachon, nima deb elon qiladi?

Bir yil, bir yarim yillik tergov qiynoqlari, umid kutganimiz adolatli suddagi adolatsizlik, insofsizliklar, inson qadri-qimmatini hech ko'rilmagan, aqlga sig'maydigan darajada oyoq osti qilinishidan keyin, bu yerdan qutulib ketishni oyiash emas, olimingga rozi bo'lib, otib tashlasalar ham, otib tashlayversin, deydigan, hech narsadan qo'rqish bilmaydigan bir holat paydo bo'lgan edi. Suddan umidimni butunlay uzgan edim.

Axir, sen kimnidir do'st bilib, uni quchoqlab bag'ringga bosmoq bo'lsang-u, u esa mehringga mehr bilan javob qaytarish o'rniga ko'kragingga musht tushirib, seni haqorat qila ketsa, bundan alamli nima ham bo'lishi mumkin!

Yoki kimdir sening birdan-bir sevikli odaming, joningni ham qurbon qilishga tayyor bo'lganing - onangni xo'rlading, haqorat qilding deb, tuhmat qilib tursa, bu malomatdan faryod solib, yoqangni yirtib, olimingga ham rozi bo'lib ketmaysanmi?

Kecha Vatan urushida qon kechib, jonini ham ayamay yov bilan jang qilib, salomat qaytgan jangchilarni, bugun sen vatan xoini deb, yo'q ayblarni boyniga qoyib sud qilib tursa, bu alamga chidab bo'ladimi?

Bugun sud qilinib hukmini kutayotgan iste'dodli shoir, romannavis Shuhratning aybi Vatan uchun jang qilib o'lmay qaytgani, sadoqat haqida «Shinelli yillar» romanini qoni bilan yozganimi?

Yoki mening gunohim hayotdan olgan bir daqiqalik shodlik, zavqimni ifodalamoqchi bo'lib aytilgan:

Muncha hurl..

Par kabi yengil kapalak,

Guldan-gulga ko'char, uchardi tinmay...

Uzoq qo'nib qoldi. Xayolimni ham

G'uncha yaprog'iga ko'mdi sezdirmay.

*Tirpindi, seskandi, xayol ham uchdi
Bo'salarga qonib, yelpitgach qanot.
Boqdim tevarakka, shunda o'zimni
His etdim kapalak kabi yengil, shod.*

- deb yozgan she'rimmi? Bu she'rda sovet davlatiga, uning siyosatiga qarshi aytilgan qanday xato bor? Bundan jinoyat izlash, shoir mehriga, uning mehnatiga tupurish emasmi? Haqorat emasmi!

Bu she'rning birdan-bir xatosi g'oyasizligi emish! Bu adolatli sudning menga qo'ygan aybnomalaridan biri edi. G'oyasizligi shunda emishki, bunda sovet kishisining mehnati o'z aksini topmagan emish. Siyosiy gap yo'q emish.

Axir, kishining ruhiyatini ifoda qilish, hayotga, go'zallikka muhabbat uyg'otish, hayotdan zavqlana bilish, vatanning har bir zarrasidan quvona olish, kishilar qalbida razolat, xudbinlik emas, yaxshilik hislarini uyg'otish - bu mehnat emasmi? Shuni fahm qilmagan, farqiga bormagan, borsa ham, bilaturib gunohkor qilib turgan sud, sud hay'atidan qanday insofli, adolatli hukm kutasan!

Demak, ko'ngildagi gapni aytish xato bolsa, shoir nimani yozishi kerak? Bu ijodkorni o'z erkidan mahrum qilish emasmi? Nima qilish kerak? Och bo'lsang ham to'qman, nohaqlikni haq deb yozish kerakmi? Buning nimasi ijod. Bu ijodkor uchun huzur emas, azob-ku! Ijodkorni ijoddan mahrum qilishdan boshqa narsa emas. Ko'zim bilan ko'rib turgan nohaqliklar, adolatsizliklarni yozish imkoni bo'lmasa ham, Xudo yaratgan tabiat go'zalligi, uning parranda-yu darrandalariga bag'ishlangan zavqni ham kuylab xumordan chiqolmasam, bunday shoirlikning kimga keragi bor demaysanmi? Demak, sen o'zing sevgan, o'zing zavq olgan, o'zing haqiqat deb bilgan narsangni emas, kimlarningdir ko'ngil xushligini kuylashing kerak.

Hayotga o'z ko'zing bilan emas, kimlarningdir ko'zi bilan qarashing kerak. Shunda asarlaring g'oyaviy, xalqchil deb maqtaladi. Mukofotlar ham, amal-mar-taba ham seniki, prezidiumlarda o'tirasan, chet el-larga ishonib yuborishadi. Aks holda boshing tanqid-dan chiqmaydi, yozganlaring bosilmaydi, o'zing ta'qib ostida yashaysan.

Sen buni xalqni aldash, kitobxon didini buzish, pastkashlikka o'rgatish deb dod solmoqchi bolsang, xato qilasan, seni sotsialistik realizmga qarshi chiqish-da ayblashadi. Sudning menga qo'vgan ayblaridan biri shu bo'ldi! Mana sudning ahvoli! Mana sudlarning sa- viyasi! Bulardan qanday adolatli hukm kutasan! Men taqdirga tan berib, bu to'g'rida oyiamay qo'vgandim.

Meni birdan-bir o'ylatadigan, azoblaydigan narsa u ham bo'lsa, oilam, tirik yetim qolgan uch farzan- dim va sevikli xotinimning bundan buyoq kechadi- gan hayoti, sevgimizning taqdiri, oilaviy kelajagimiz, sevgimdan ayrilish edi. Faqat ayriliq emas, sevgimiz- ga qanchalik ishonmay, rashk alami o'rtardi.

Shaytoniy xayollar!..

1942-yil, ocharchilik zamonida uylandim. Ota- onam keksa, yolg'iz o'g'il bo'lganim uchun ertamas-in- din askarga olib ketsa, to'yini ko'rib qolaylik, bu ora- da farzand ko'rsa, kelgunicha o'rniga o'rin, ermak bo'lar degan orzu bilan uylantirishgandi. Oradan ko'p o'tmay otam vafot etdi. Uylangan kunimdan e'tiboran to'ning qarzidan qutulish tashvishi, muhtojlik bosh- landi. Xotinim sho'rlikka nima rohat ko'rsatdim? Uyi- mizdagi ozmi-ko'pmi orttirganimiz, otamning qo'lidagi bor narsa to'yga sarflanib bolgan edi. Otamdan qol- gan sigirni sotib, uning yilligini o'tkazdik.

Urushgacha bo'lgan butun bisot-bag'al qorin to'yg'azishga sarflanib ado bo'ldi. To'yib non yemay- digan, to'latib qozon qaynatilmaydigan zamon keldi. Biror odam kelsa, oldiga non qo'ib, qozon qaynatish

imkoni yo'q bolgani uchun uyda o'tirmay, ertalabdan chiqib, hatto xayolimga kelgan she'rlarni kutubxonalarga borib qog'ozga tushirardim.

Xotinim o'qituvchi bo'lib, biror sabab bilan o'qishga kelmay qolgan o'quvchilarning bo'g'irsoqdek ponchigini olib kelgan kunlari uyimizda quvonch bo'lardi. Chunki boshqalarnikida bu ham bo'lmasdi. Urushdan keyin ham qarz bilan yashadik.

Sud hukmini aytguncha qamoqning yolg'iz xonasida o'tirib oilaviy hayotimni, xotinimning oilaga mehri, jafokashliklarini, uning siymosini xayolimdan o'tkazar ekanman, uning bironta orzusiga yetkazolmaganimning armoni meni qiynardi.

Men o'ttiz, xotinim esa yigirma olti yoshda! Navqiron umr! Ocharchilikda, quvg'inlarda, xo'rlik va mehnatda xazon bo'lgan yoshlik. Endi yana necha yil ayriliq, ne-ne ko'rgiliklar bor! Ey Parvardigor! Xotinimning bardoshi yetarmikan? - deb o'ylardim!

Mana bugun «adolatli» sudning hukmi o'qib eshitirildi.

Mana 25 yil qamoq jazosi, besh yil surgun qilinishim, besh yil saylash, saylanish huquqidan mahrum etilishim haqida hukm chiqarildi.

Alvido, ona yurt!

Taqdirga tan berib shu so'zni tilga keltirishning o'zi naqadar og'ir! Tepangda avtomat, yoningda aytilgan chiziqdan bir qarich nari chiqsang tashlanib g'ajishga o'rgatilgan itlarni tutgan soqchilar seni qaygadir haydab borsa, shunday paytda tilingga bundan boshqa qanday so'z kelardi.

Mana bugun qamoqdan qutulib chiqish haqidagi xayollar o'rnini endi butunlay o'zga dard-tashvish qora bulutdek yopirilib egallay boshladi. Bugun, hibs qilingan kunim olaymi-olmaymi deb tebranib har

ehtimolga qarshi olganim ko'rpa-yostiqni orqalab, tug'ilgan yurtim, bola-chaqam, qarindosh-uruglar bilan qayta ko'rishish nasib etarmikan, degan oy og'ushida mahbuslarni lagerlarga taqsim qiladigan joyga olib kelganlarini bilmay qolibman.

Shu yerdan jinoiy moddasiga qarab birovni lagerga, qamoqqa hukm qilinganlarni esa qamoqqa butun mamlakat boylab tarqatiladi. Bu yer vaqtli qo'nalg'a hisoblanib, molxonadek katta bir xonaga yuzga yaqin o'g'ri bormi, odam o'ldirgan kallakesar, firibgar, dindorlar bormi, zich qilib joylashtirilgan edi.

Men bu yerga qadam qoydim u menga mutlaqo begona, afti-angori, usti-boshlari butunlay boshqa, ko'zlari bejo odamlarga ko'zim tushishi bilan hayratimdan yelkamdagi ko'rpa-yostiq, ozmi-ko'pmi solingan qopimni yerga qoyib, qayerga joylashishimni oyiab, o'zimga kelgunimcha ham bo'lmay, «meni yonimga kel», deb har biri o'z yoniga tortuvchi mehribonlar paydo bo'lib qoldi. Albatta, bu mehribonlikdan emas, qopimdagi narsalar, nasibangga sherik bo'lish uchun edi. Bular o'g'rilar edi. Bularning ko'pchiligi yangi kelganlarning durustroq kiyim-kechak, pulmi, yeydigan, ichadigan narsalari bormi, talab kun kechiruvchilar, qamoqda umr o'tkazganlar edi. Bularning bir to'dasi bir burchakda bir-biri bilan so'kinishib qarta tashlashar, xonaning bir burchagida nazoratchi kelib qolishidan hadiksirab ko'zi olazarak o'g'ri bolalar kayf qilish uchun kichkina kastyulkadagi suvga bir pachka choy solib, yoqadigan narsa bo'lmagani uchun kepkalarining jiyagidagi qog'ozlarga gachayoqib «chipir» qilardi. Kimdir chalqanchayotib, boshini qo'llariga qoyganicha xayolga cho'mgandi.

Albatta, oldin qamoq ko'rmay, bu yerga endi kelib qolgan odam o'zini butunlay boshqa dunyoga, qaroqchilar orasiga, do'zaxga tushib qolgandek his qiladi. Chunki bu yerdagi odamlarning basharasida bola-

ihaqa, oiladan ayrilib, erkinlikdan mahrum bo'ldim, degan afsus-armondan nishon ham yo'q edi. Bular uchun ozodlikdan mahrum bo'lib qamoqqa tushish, goyo bir shahardan ikkinchi shahargayoki bir uydan ikkinchi hovliga o'tgandek gap. Ozodlikda ular mehnat qilmay, kishilarni talab qanday kun kechirgan bo'lsalar bu yerda ham, lagerlarda ham o'zgalarning uyidan kelgan narsalarini talash, o'g'irlash, qartadan orttirgani hisobiga yashardi. O'z nafslari uchun bir-birini g'ajish, o'ldirish bu yerdagilar uchun odatiy holat, yashash qonuni edi.

Nahotki, mening yigirma besh yillik umrim endi shular bilan o'tsa?!

Yigirma besh yil ichida kim bor, kim yo'q, zamon u zaminda ne-ne o'zgarishlar bo'ladi, bundan qat'i nazar, endigi umrim qayerlarda, qanday kechishini oylarkanman, jiyanim Badriddinning 1937-yilda xalq dushmani bo'lib qamalgan otasi Shukur Kolonov va o'zlarining hayoti va azoblari haqida qanday maqsadda yozib qoygan xotirasi xayolimga quyilib kela boshlardi. Bular bir-biridan dahshatli, bir-biridan fojialiroq edi. Bu insonning naqadar xo'rliqi, uning bardoshi metinligining ham timsoli edi.

%/iyanim Badriddinning hikoyasi

Otam 1937-yil yanvarda O'zbekiston jinoiy qonunlarining 66-moddasi 1-qismiga binoan qamoqqa olindilar. 1937-yil 17-iyunda O'zbekiston Oliy Maxsus kollegiyasining qaroriga binoan besh yil huquqdan mahrum qilinib, tarbiyaviy mehnat lagerlarida o'z muddatini o'tash sharti bilan Uzoq Sharqdagi Kalima shahriga jo'natilgan. Lagerdan 1945-yil avgust oyida ozod qilinganliklariga qaramasdan uyga kelishga ruxsat bo'lmagan. Bu «jannat makon» shaharda 1946-yilgacha maxsus nazorat ostida, majburiy, inson bovar qilmaydigan mashaqqatli ishda ishlaganlar.

Birinchi marta qamalanganlarida men to'rt yashar bola edim. Go'dakligimga qaramasdan, o'sha kunlardagi ba'zi voqealar xotiramda yaxshi saqlanib qolgan.

Tergov tugab, sud hukmi elon qilingandan keyin otamni jo'natadigan kuni, onam «uzoqdan bo'lsa ham otasini ko'rib qolsin», degan maqsadda bo'lsa kerak, meni ham yetaklab borgan edilar. Kun nihoyatda issiq, temir yo'ldagi toshlarning qiziganligidan oyoqlarimning tagi qavarib ketgan edi.

Otamni uzoqdan vagonga chiqarishlaridan oldin ko'rib qoldim. Oyoqlarimning jarohatlariga qaramasdan oldilariga yugurib bormoqchi bo'lganimda harbiy soqchilardan biri yetaklab yurgan itini qo'yib yubordi. Meni quvlagan itdan qochaman deb yerga yiqilib, yiglab, dumalaganim ham esimdan chiqmaydi. Hali esini tanimagan yosh bolaga itni qo'yib yuborish vahshiylik emasmi?.. O'sha kuni otamni olib ketishdi.

Otam o'n yildan keyin, 1946-yil noyabr oyida Kalimadan qaytib keldilar. Kelganlaridan keyin ham xotirjamlik bo'lmadi. O'sha davrda, qamoqdan chiqqanlarni o'z uylari u yoqda tursin, hatto tug'ilgan shaharlarida yashashga ham huquqlari yo'q edi. Odatda ular o'zlari tug'ilgan yerlardan uzoqroq bir shaharda ishlab yashashlari shart edi.

Otam shu qoidaga binoan Qo'yliqla bir kolxozchining uyini ijaraga olib, kasbi muallim bolishiga qaramay, o'sha yerdagi gurunch zavodida oddiy ishchi bolib ishga joylashdilar. Bu davrda ko'pgina xonadonlarning qozonlari oylab go'sht ko'rmas, haftalab qozon osilmasdan issiq ovqatsiz hayot kechirar edi. Kunlardan bir kun ovqatlanib otirganimizda onam ro'zg'orda kepakdan boshqa hech narsa qolmaganligini aytdilar.

Shunda otam kepakdan ham qanchadan-qancha yaxshi taomlar tayyorlash mumkinligini aytib, shu ahvolda yashayotganimizga mingdan-ming shukr qilgan edilar. Negaki, ona yurtida, ozodlikda o'z uyida

kepakdan tayyorlangan ovqat ham otam uchun shohona tuyilar edi.

Qishda uylarni isitish va ovqat pishirishga ham ko'mir, o'tin o'rniga sholi qipig'ini ishlatardik. Ovqat pishirishga ko'proq yoqib qo'yilsa, pechkaga kam qolib, uy yaxshi isimas edi. Shunda otam, Uzoq Sharqning tabiatini, qish faslining uzoqligi va nihoyat sovuqligini eslab:

«Ishga chiqqanimizda harbiy soqchilar bizlarni maxsus o'rgatilgan, sovuqqa nihoyatda chidamli, yirtqich hayvonlar bilan teng olishadigan itlar bilan qo'riqlardilar. Mehnatning nihoyatda og'irligidan Sibir sovuqlarini ham sezmas edik. Odatda mahbuslarning ish vaqti ob-havoga qarab 12-14 soat davom etardi, ammo itlarni ish vaqti ikki soatdan ortmas, chunki ular bu sovuqqa bardosh berolmas edi. Mahbuslarga itchalik ham rahm qilinmasdi», - derdilar.

Otam bechoraga bizlar bilan hatto sovuq uyda yashab, kepak nonni baham ko'rish ham uzoq nasib etmadi.

1949-yil oktyabr oyining o'rtalarida bo'lsa kerak, maktabga borish uchun ko'chaga chiqqanimda zavod tomondan otamni ikki notanish odam bilan, rangi o'chgan holda kelayotganini ko'rdim, uni shunday holatda hecham ko'rmagan edim. U menga qarab uyga sekingina kirishimga ishora qildi. Uyga kirganimdan keyin, kelgan odamlarning kimliklari malum boldi. Ular Davlat xavfsizlik komitetidan edilar, uyga kirganlaridan keyin tintishga kirishdilar, biroq hech narsa topolmadilar. Nega deganda uyimizda tintiydigan narsaning o'zi yo'q edi. Bir sidirg'a ro'zg'or asboblari, kiyim-kechak, stol ustidagi kitob va daftarlarimdan bo'lak hech vaqo yo'q edi. Shu sababli tintuv ham uzoqqa cho'zilmadi.

Kelganlarning biri o'zbek bolib, otam va bizlar bilan o'zbekcha gaplashib nihoyatda madaniy muomalada

bo'ldi. Hatto otamni bir oz tinchlantirishga harakat qildi. Ammo ikkinchisi otam u yoqda tursin, bizlar bilan ham qo'pol, dag'dag'a bilan munosabatda bo'ldi. Tashqi ko'rinishidan ham maxsus tayyorlangan, tajribali jallodlardan qolishmasdi. Bizning biror-bir harakatimiz uning e'tiboridan holi qolmas, o'z o'ljasiga tashlanishga tayyor turgan yirtqich hayvonni eslatardi.

Onam yana ko'z yoshi bilan, besh kunlik diydor ko'rishish ham nasib etmaganidan oh urib, otam uchun bir sidirg'a lozim bo'lgan sochiq, ko'lak va boshqa zarur, arzimas narsalarni yig'ib bermoqchi bo'lganda, u onamning qo'lidagi narsalarni shu qadar qo'pollik bilan tortib olar, olazarak ko'zlari sinchiklab tekshirib, keyin qaytarib berar edi.

Otamni olib ketayotganlarida «Otangiz haqida malumotni Davlat xavfsizligi komitetidan olishingiz mumkin», deyishdi. 1950-yili Maxsus kengashning Qaroriga binoan muddati ko'rsatilmagan holda otam Krasnoyarsk o'lkasiga badarg'a qilingan ekan.

1949-yili otamni yana qaytadan qamoqqa olishlariga asosiy sabab 1937-yilda qo'vilgan aybnoma bolgan. Dastlab tergovda, keyinchalik sudda «Muntazam aksilinqilobchilik, millatchilik va trotskizm tashviqotchisi» degan aybni rasmiylashtirib qaror qabul qilingan. Bu hukm qabr toshidek sovuq, tegirmon toshidek og'ir, mavhum satrlar edi. Mana o'sha aybnoma:

1. Tintuv paytida o'zbek shoirlaridan biri Cho'lponning man qilingan she'rlar to'plami topilganligi;

2. *Otam* o'rta maktabda o'qib yurganlarida o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchilari Munawar Qori va Shorasul Zunnunovlarning talabalari bo'lganligi uchun;

3. Tergov buvamni ruhoniy deb topganligi uchun;

4. Trotskizmda ayblashlarining birdan-bir sababi, tintuv paytida uyimizdan 1926 - 27-yillari bosilib chiqqan «Rabochekrestyanskiy kalendar» jurnali to-

pilgan. Bu jurnalda partiya va davlat rahbarlari bilan bir qatorda Trotskiyning ham portreti bo'lgan.

Adolatsizlikni qarangi, til va dabiyot o'qituvchisining uyidan topilgan qator adabiyotlar orasida Cho'lponning sovet nashriyotida chop etilgan, sovet magazinidan sotib olingan she'rlar to'plami millatchilikda, aksilinqilobchilikda ayblashga asos bolsa?

Hech kimga sir emas, o'sha davrdagi kekxa yoshdagilarning hammasi dinga ishongan va namoz o'qigan. Shunday ekan, ularning barchasini millatchilikda ayblab qamash lozimmi? Yo'q! Qamoq, jazo, o'lim hukmi savodli, aqlli, dono, ziyolilarnigina terib, ularni jismonan yo'q qilib yuborishga qaratilgan yoki bolmasa ruhan majruh qilish uchun edi.

1953-yili xalqlarning «otasi», «buyuk dohiy» Stalin o'limidan bir yil o'tar-o'tmas, 1954-yili iyun oyida otamni surgundan quyidagi mazmundagi spravka bilan ozod qiladilar: «Kalanov Sh. 1937-yili 17-iyul O'zbekiston Oliy Sudining hukmi bilan O'zSSR Jinoyat kodeksining 66 st. 1-bandiga asosan qamoqqa olingan va besh yil huquqdan mahrum qilingan, keyin Krasnoyarsk o'lkasida surgunda bo'lgan, u MVD va SSSR Prokurori ko'rsatmasiga asosan 1954-yil 24-aprel surgundan ozod qilingan, 1954-yil 9-iyul SSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1953-yil 27-mart qaroriga binoan sud qarori bekor qilingam.

Mana insof, mana adolat! O'n sakkiz yil nohaq qamalib, bola-chaqa, uy-joy, erkinlikdan mahrum bo'lib, sog'liqdan ayrilib, umrning eng aziz damlari azob-uqubatda o'tib bo'lgandan keyin, sening gunohing yo'q ekan, deyilsa, bu qonunsizlik, bu adolatsizlikka qanday chidash mumkin!

Jiyanim Badriddinning otasi haqidagi xotiralari-ni eslab bularning menga qoyilgan ayblardan nima farqi bor deb oyardim. Pochchamning o'z boshidan

kechirgan dahshatli hayoti, oilasining xarob va baxtsizligi, inson bo'lib tug'ilib, biror kun bu dunyoda rohat ko'rmay fojiali o'limi nahotki mening boshimda ham takrorlansa, deb o'ylardim.

Bunday o'ylab ko'rsam, bunday baxtsizlik, falokatlar bitta mening boshimda ekanmi? Mamlakatda bu falokatni boshidan kechirmagan biror oila bormikan? Axir men o'zim bilgan tanish-bilishlardan tashqari qamalgan qarindosh-uruglar oz-munchami? Pochcham va xolamning o'g'li Ubaydulloxonning umrlari qamoqda o'tdi. Men o'zim qamaldim. Xotinim olti yoshdan darbadar. Otasi, amakilari qamoqda va fot etib ketdilar! O'-ho', voy-voy!.. Eslayman desa!..

Bir necha kundan beri mana shunday dahshatli o'lar bosimida inson qiyofasini yo'qotgan, yillab umrini qamoqda o'tkazishga odatlangan, nafsida har qanday jinoyatdan qaytmaydigan makkor va shafqatsiz kallakesar, o'g'rilar orasida lagerlarga yuborishlarini kutib yotibman. Dardlashadigan biror odaming yo'q. O'rningdan qimirlading, yoki hojatga chiqqudek bo'lsang, qaytib kelguningcha albatta narsalaringdan ajraysan. Kim oldi, deb so'rab ko'r-chi? Kimga arz qilasan? Nazoratchilargami? Ularning o'zlari ham bu yerga cho'chib kiradi. Molimni oldi deb shikoyat qilganlarni bo'g'ib o'ldirsalar ham hech kim javobgar qilolmaydi.

Yuzlab odamdan qay birini aybdor qiladi. Birdan bir dardkashim siyosiy ayb bilan qamalgan 20 yoshlar chamasidagi yigitcha bo'lib qoldi. Bu bechora qishloqi yigitning gunohi, xalq dushmani bo'lib qamalis-higa sabab o'rta maktabda shanbalik qilingan kuni Stalinning byustini bir joydan ikkinchi joyga qo'yaman deb ko'tarib ko'rsa, nihoyatda yengil unnab, juda yengil ekan, kallasining ichi bo'sh ekan, degan bir og'iz to'g'ri gapni aytgani bo'libdi. Keyinchalik bir sabab bilan oralari buzilib qolgan maktabdoshlari-

dan qaysi biri bu gapni tegishli joylarga malum qilib, KGB qoshidagi maxsus komissiyaning qarori bilan xalqlar dohiysini masxaralash, unga tuhmatda ayblanib o'n yil ozodlikdan mahrum etilibdi. Bu voqea yuz berganda u hali balog'atga yetganmi, yetmaganmide? Nahotki, bu bola sho'rlikning Stalinda qasdi bo'lgan bolsa! Adolat yuzasidan aytganda, haqiqatan ham ko'pincha byustlarning ichi hovol, bo'sh bo'ladi.

Kimdir bu sho'rlikning to'g'ri gapini g'araz bilan noto'g'ri tushungan bo'lsa, axir, hukumat tepasida o'tirganlarda, sudda aql-farosat yo'qmide? Axir o'sha byustni tekshirdik, haqiqatan ham ichi bo'sh ekan, bu yerda hech qanday yomon niyat yo'q deyilsa, olam guliston emasmide? To'g'ri gapni aytgani uchun bu yigitning umriga achinmay, rahm-shafqat qilmay xazon qilinsa, dodingni kimga aytasan.

Bu yigitning ko'zyoshlari tinmasdi. Alami oldida o'limiga ham rozi edi. Axir, uylanganiga endi besh-olti oygina bo'lgan ekan. Uning birdan-bir dard tashvishi olti oylik kelin qolgan sevikli xotini edi. Uning bag'rini birdan ezgan alam endi meni o'n yil kutadimi, yo'qmi, degan ayriliq, rashk azobi edi. Bechora dardini aytib yig'lardi. Bu alam faqat uning emas, mening ham dardim edi. Bu azob meni ham qiynardi.

Axir, buning qamoq muddati o'n yil, sevgida vafo bolasa, omonlik bolsa, diydor ko'rishmoq mumkin. Ammo mening diydor ko'rishmog'im uchun yigirma besh yil emas, besh yillik surgunni ham hisoblaganda o'ttiz yil kerak-ku! O'ttiz yil ayriliq! Ottiz yil kutish!.. Yigirma besh, yigirma olti yoshda eridan tirik ayrilib qolgan xotinim o'ttiz yil ersiz yashab, kutishga sabr-bardoshi yetarmikan? Dunyoga inson bir marta keladi, desa-chi? Bordi-yu shu xayol bilan uch bolani yetim qilsa-chi! Mening xotinimga mehrimdan bolak nimam bor o'zi? Axir unga na boylik, na oltin bisot qoldirdim! Axir bolachaqamni ota-onamdan qolgan uydan, mol-u mul-

kimdan ham mahrum qilishdi-ku! Uy-joydan ajralib hayot kechirish osonmi?! Bunga irodasi yetarmikan? Nahot o'rtadagi muhabbatimiz chin bolmasa!

Qarshimdagi yigitning ko'z yoshlarini ko'rib, sevgi haqidagi armonu nolalarini eshitib, vafo, fidoyi ayollar borligi haqida gapirdim. Bu bilan unga taskin berib, umid bag'ishlab emas, o'zimni ham ovutardim.

Axir, pochcham xalq dushmani bo'lib 1937-yilda gamalib ketganda opam 22 yoshida uch bola bilan beva qolgan edi-ku! Salkam 17 yil erini kutdi. Diy-dor ko'rishdi. Bir necha yilgina birga yashadi. Ayriliq, urush yillarining ocharchiligiga chidadi-ku! Sevgisiga riyo qilmadi-ku! Umid bilan yashadi-ku!

Nuriddin tog'amning xotini-chi? Ichagi buralib navqiron yoshida vafot qilganda xotini - kelinoyim ham 22 - 23 yoshlarida uch qiz bilan beva qolgan edi-ku! Tog'am qayta tirilib kelmaydi, er qilsa hech kim ayb qilmasdi. Erga tegsa bo'lardi. U bolalarini o'gay otaning qosh-qovog'iga qaratmaslik, ehtimol, erining arvohini norozi qilmaslik uchunmi yoki buni bevafo-lik deb bildimi, o'z mehnati bilan bolalarini martabali odamlar qilib tarbiyaladi. Shu bilan faxrlanadi.

Shular haqida qarshimdagi yigitchaga hikoya qilardimda o'zim ham bir oz taskin topardim, rashk azobidan bir oz yengil tortardim. Nahot xotinim uch bolasi bilan mening qamoqdan chiqishimdan umid uzib, ajralishni ko'ngliga keltirsa! Shunday ayollar-ning sevgiga sadoqatlari xotinimga ibrat bo'lmasmi-kin? Balki, u ham meni kutar.

Ammo meni o'zga bir tashvish umidsizlikka ham solardi. Xudo ko'rsatmasin, yigirma besh yil ichida axir men kim bolaman. Mendan nima qoladi? Bu sharoitda ne mashaqqatlar bor, o'zim bu xo'rliklarga bardosh berib, omon yashay olarmikinman?

Xotinim sevgisiga vafo qilib, ayriliqqa bardosh berib meni kutar, ammo uning yosh umrini, hali kelajagim

nima bilan tugashini bilmay turib xazon qilsam, bu mening insofimdandimi? Xat yozaymi? Ixtiyoriga qoyaymi?

Shu yerda barakda o'g'rilar orasida o'zaro mushtlashish, bir-birini bo'g'ish, o'ldirish boshlanib ketdi.

Bizning og'zimizdagi og'zimizda, bo'g'zimizdagi bo'g'zimizda qoldi.

Albatta, umrida birovning haqiga xiyonat qilgan, xiyonat qilish emas, nohaqliklarni ko'rganda jim turolmagan vijdonli, halol odam uchun o'z ko'z oldida bo'layotgan bunday bosqinchilik, kuppa-kunduz kuni birovlarining mollarini talash, bo'g'ib oldirishlarni ko'rishdan og'ir azob bo'larmidi! Aralashish emas, hoy, deb indab ko'r-chi, o'zing omon qolarmikansan! Kim sening yoningga kiradi. Sening molingni talamaganlariga shukr qilmaysanmi! Bordi-yu shu tobda sening hamma narsangni tortib olsalar, yoki bo'g'ib o'ldirmoqchi bo'lsalar, buning uchun kimni javobgar qiladi? Hech kimni! Dardingni kimga aytasan? Shikoyat qilib ko'r-chi, yodingda tut, 25 yilga hukm qilingan odamsan, o'g'rilarining o'zi bugun bo'lmasa, ertaga seni sotqinlikda ayblab bir-birlariga sen haqingda xabar berib muddatingda borgan joyingda o'ldirib yuboradi. Qamoq qoidasi shu! O'lsang kim senga achinadi! Sen xalq dushmanisan, o'ttiz yil ozodlikdan mahrum etilgan, aslini surishtirganda, tirik o'lik kimsasan. O'z ajaling bilan o'lasanmi, yoki birov o'ldiradimi, buning farqi yo'q. Agarda o'z kuchingga ishonsang, bular bilan olishasan. Yengsang, ustun kelsang, omad seniki, yashaysan.

Qamoqda bir-birining ustidan boshliqlarga shikoyat qilish sotqinlik hisoblanadi. Bundaylarni axir bir kunmas bir kun o'ldirib yuborishadi.

Mening shu kungacha ko'rgan-kechirgan azob-uqubatlrim hali holva ekan. Bu yerga kelganimning uchinchi kunlari, agar xato qilmasam, Yorqinjon aka ismli andijonlik ilm-ma'rifatdan xabardor, Cho'lpon,

Abdulla Qodiriylarni yaxshi biladigan mulla odam bilan tanishib qoldim. Bu odam 1937-yilda qamalib, o'n yillik muddatini bitirib, undan keyin bir necha yil Sibir surgunida yurib, bola-chaqasini ko'rgani kelganda yana qaytadan qamoqqa olinibdi. Uning o'z boshidan kechirganlari naqadar dahshatli, kishini vahimaga soladigan bo'lishiga qaramasdan, ikkinchi bir jihatdan menga dalda ham bo'ldi.

«Hozirgi vaqtda 100 yilga hukm qilsa ham o'lma-gan odam umr bersa eson-omon qutulib chiqishi mumkin, o'lmay yashash mumkin. Bizlar qamoqda ekanimizda urush davri, ocharchilik edi. Erkinlikda yashayotganlar non topolmayotgan bir mahalda, biz, o'lim kishilarining g'amini hukumat o'ylarmidi. Topilsa, kalamush bo'lsa ham yeyilardi.

Bizlar o'rmonda daraxt kesardik. Ochlikdan hoidan toyganlar, sillasi qurib, dam olish vaqtida o'rnidan turishga madadi yetmay, o'tirgan joyida o'lib qolaberar edi. Bir kuni necha odam bir chekkada birdan uymalashib qoldi. Bilsam, qandaydir hayvonning chala yiqilib qor tagida qolib ketgan bo'lagi topilgan ekan. Hatto, yashash uchun bir-biridan qizg'anib, shuni xom yeganlar ham bo'ldi. Axir 1920-yillarda Volga boyida odamlar o'z bolasini ham yegan-ku. Lenin ham buni iqror qilib yozgan-ku».

Bu odamning boshdan kechirganlari bir-biridan dahshatli edi. Bu yerda ko'rayotganlaring hali hech gap emas, bardam bo'l deya-yotgandek tuyilardi.

Bu odam qamoqda o'z uyidek mag'rur, go'yo tabiiy bir hoi degandek yurardi. Bu odamning xatti-harakat, gap-so'zida hatto shuncha yil ozodlikdan mahrum bo'lib qamoqda umr o'tkazishidan na o'kinch, na biror hasrat yo'qligi, hatto so'zlarining dadil va quvnoqligi meni hayratga solgandi. Unda na qayg'u-rish, na atrofdagilardan qo'rqish va na xavotirlanish alomati bor edi. U hatto o'limni xayoliga keltirish

emas, undan nazarimda, qo'rqmasdi ham. Nazar sol-sam uning atrofdagilardan ehtiyot qiladigan ortiqcha kiyim-kechagi ham, yeb-ichadigan narsasi ham yo'q edi. Axir, uydan kelayotgan odam, ne sababki quraq-dan-quruq bunday ahvolda ekanligi meni oyi-atgan bo'lsa, keyinchalik o'zining aytishidan ayon bo'ldi:

- Men qamal-gan kezda xotinim fabrikada mudir bo'lib ishlardi. Firqa a'zosi edi. Men qamal-gandan keyin xalq dushmanining xotini firqa safida turishi, rahbarlik lavozimida ishlashi mumkin emas, shuning uchun eringdan ajralishing lozim degan shart qoyish-gan. Xotinim bunga ko'n-maganu ishdan bo'sh-shga rozi bo'lgan. Ikki bolani bir amallab boqqan. Ammo urush boshlanib, tirikchilik og'irlash-gandan keyin, bir o'glim bilan qizimni bolalar uyiga berganidan xabar topdim. Shuni eshitdim-u vaqtincha bo'lsa ham ajra-lish haqida xat yozdim. Xatimni olganmi, olmaganmi, og'ir kasal bo'lib olamdan o'tgani daragini eshitdim.

Men surgun muddatini tugatib, o'z yurtimga bo-rish huquqiga ega bo'lganimdan keyin, xotinimning qabrini ziyorat qilish, bolalarimning diydorini bir ko'rish uchun borgan edim. Ming afsus, - dedi-yu, shu fursat so'zi halqumiga tiqilib, bir dam nimanidir o'vlagandek ko'zlarini yumib, - Andijonga borishga bordim-u qotgan yaramni yangiladim. Faqat xotinim bechoraning qabrini ko'rish nasib bo'ldi. Bolalarim-ni topolmadim. Xalq dushmanining farzandlari deb qaysi detdomga jo'natib yuborganlar, izlab topgu-nimcha ham bo'lmay, qaytadan qamashdi.

Uning bu gaplarini eshitarkanman, beixtiyor ko'z-larimga yosh kelardi. Ammo taajjubki, bu odam esa yuraklarni larzaga soladigan bu gaplarni aslo ha-yajon va afsusga berilmasdan, oddiy voqeadek so'z-lardi. U odamning fe'lidagi bunday o'zgarish, sovet davlatining siyosatiga butunlay ishonchini yu'qotib,

kishilar boshidagi bu fojialar tabiiy bir hoi deb qarashidan paydo bo'lgan ekan.

Bu odamning o'z falsafasi bor edi, garchand uning xulosasi mantiqan to'g'ri bo'lib, ichingda tan olsang ham, ammo hozirgi qama-qama davrida uncha-muncha odam eshitishga ham cho'chirdi.

Bizlar turgan barakdagi sodir bo'layotgan turli jinoyatu, ur yiqitlar, o'zaro mushtlashish, bir-birini rahm qilmay o'ldirishlar, odamlarning bu daraja buzulishiga kelib qolganliklariga uning o'z qarashi, o'zicha falsafasi bor edi. U qo'rqmasdan, bu ahvolga Oktyabr inqilobi, undan keyingi noto'g'ri siyosat sabab deb ochiqdan-ochiq gapirardi. Masala siyosatga taqalganda, undagi shu vaqtgacha hukm surgan beparvolik birdan tarqalib, ko'zlarida qandaydir chaqnash, so'zlarida keskinlik va g'azab paydo bo'la boshladi. U atrofdagi odamlarga ishora qilib:

- Sen bilan men siyosiy mahbuslarmiz, bular-chi? Bularning o'g'rilik qilib, odam o'ldirib, kishilarning haqlariga xiyonat qilib, yosh-yosh qizlarni zo'rlab jinoyatga qo'l urishlariga nima sabab? Bizlar sinfsiz jamiyat quramiz, dedik. Yaxshi! Sinflarni tugatmoqchi boldik. Qaysi sinflarni? Qandoq qilib? Hammamiz bir mamlakatda yashasak, bitta xalq bo'lsak, kimga qarshi kurashamiz? Kambag'allar boylar sinfiga! Bu degan so'z kambag'alroq odam boyroq o'z qarindoshiga, o'z qo'shnisiga, o'z hamqishlog'i, mahalladagi odamlarga qarshi kurashishi kerakmi? O'zi bilan birga yashab kelgan odamlarni ayamasdan sinf sifatida yo'qotishi kerakmi? Qanday yo'qotadi? Quloq qiladimi? O'z yurtidan bola-chaqasi bilan badarg'a qilib, ularning mol-u mulkini tortib olib o'zi ega boladimi? Sinflarni tugatish shumi? Bu sinfsiz jamiyat emas, bosmachilar jamiyati emasmi?

U menga, vijdonli shoir bo'lsang, qani, ayt-chi, yoki gapim noto'g'rimi, degandek jiddiy qarash qildi. Garchand uning gaplari mantiqan to'g'ri bo'lsa ham,

".....
bu gaplarni eshitgan odam cho'chimasdan to'g'ri, deb aytolmasdi. Hatto men o'zim ham yigirma besh yilga qamalgan odam bo'lishimga qaramay uning fikrlarini darhol tasdiqlashga o'ylanib qolgan edim. Erkinlikka chiqishga umidvor odam, bu gaplar qanchalik haqiqat bo'lmasin, aytishga emas, eshitishga o'rganib qolmasligi kerak, o'zini uzoqroq tutishi kerak deb o*ylardim. To'g'ri gapni aytish ham xatarli zamon edi.

Ammo u odam o'ziga ishonch va haqligidan faxrlanib huzur qilgandek:

- Insofli, vijdoni bor odam bir-birini talaydimi? Bizning hukumat esa talashni, birovlarini haqidan qo'rqmaslikni savob deb o'rgatadi. Qarindosh qarindoshni taladi, sinfiy dushman deb bola otaning ko'zini o*ydi. Mana oqibat: hammani o'g'irlikka, Xudodan qo'rqmaslikka, bandadan uyalmaslikka o'rgatib boldik. Odamlardan mehr-shafqat kotarildi. Mana bular - o'sha siyosatning mevasi, - dedi o'z atrofidagi o'g'irlik qilib qamalganlarni ko'rsatib. - Har qanday aqli bor inson och-qashshoqlik, muhtojlikda emas, boy bo'lib, to'q bolib yashasam, deydi. Bizning hukumat-chi, kambag'allikni emas, boylarni yo'qotaman, dedi. Mana endi niyatiga yetdi. Hamma kambag'al, hamma o'g'ri. Mana shunday to'g'ri gapni aytgan siz bilan biz - xalq dushmani. Vijdoningni yutib, haqiqatni gapirolmay erkin yurganingdan, och-yalang'och bolsang ham, ovozingni boricha o'zing sevgan kuyni aytganing ma'qul.

Bu odamning shuncha yil qamoqda bo'lib, ruhan tushkunlikka tushmay, bunchalik tetik yurishiga sabab endi ayon bo'lgan edi.

Peresilniy punkt (bunday so'zlar o'zbekchada bo'lgan emas, chunki, bunday joylarning o'zi bizning xalqimizga begona, shuning uchun aslicha yozdim) shunday bir dargohki, bugun birga bo'lgan odaming ertaga yo'q. Axir, o'zingning ham qayerda, qachon, nima bo'lishingni bilmaysan!

Bugun ham shunday bo'ldi. Qamoq nazoratchisi hammamizni barakdan hovliga chiqishga, saf bo'lib turishga buyurdi. Ismi shariflarimiz, jinoyat qonuni-ning qaysi moddasi bilan ayblanganimizni aytib, yo'lga chiqish uchun yuklarimizni olib chiqishni takidladi.

Sud tugab yigirma besh yil hukm qilinganimdan ke-
yin, uydagilardan ustimdagi kostyum-shim, oyoq-ki-
yimlarimni olib ketib, o'rniga ichki-ustki issiq kiyim-
lar, paxtalik shim, paxtalik chopon, ko'n etik, oddiy
bo'lsa. ham jun qalpoq olib kelishlarini so'ragan edim.
Bugun kun issiq bo'lishiga qaramay umrimda birin-
chi marta kerza etik kiyib, qopimni orqalab chiqdim.
Endi qayerga olib borishadi, bilmayman. Ammo nima
uchundir, o'sha kunlari andijonlik Yorqin akaning o'z
oilasi haqidagi aytganlari xayolimdan ketmay meni
azoblardi. Xotininimning umri o'xshamasin-u, ammo,
uning ham shu kunlarda boshdan kechirgan azoblari
Yorqin aka xotininimning ko'rguliklaridan nimasi kam?

Hali tergov tugamasdan uni «xalq dushmanining
xotini», deb ishdan haydashdi. Xo'sh, endi nima qi-
lishim kerak?

Ikki bola, uning ustiga yana homilador. Urushdan
keyin hali uy-ro'zg'orni o'nglab olganimizcha ham
yo'q edi.

Men qamalgach, oradan ko'p o'tmay Andijondan-
mi, Qashqadaiyodanmi 34 so'm pulga qog'oz kelib,
ishonch qog'ozini tasdiqlash uchun xotinim Yozuv-
chilar soyuziga murojaat etadi. Ertalab borsa, soyuz
rahbarlari: «bir pas kutib turing», deyishgan. Och,
og'iroyoq, kechgacha poylagan. Unga «kutib tur» de-
gan soyuz rahbari ishonch qog'ozini tasdiqlab be-
rish o'rniga: «Nega bu yerda o'tiribsan, biz seni ham,
Shukrulloni ham tanimaymiz, ikkinchi bu yerga qa-
dam qoYman, degancha ketib qolgan. Bu kutilmagan
muomaladan keyin, soyuzning eshigidan chiqishi bi-
lan hushidan ketib qolgan. Uyga qanday kelgani, kim
olib kelib qoinganini ham eslolmaydi.

Men qamalishimdan oldin yirik doston yozishga kirishib, ijodiy ta'tilga chiqib, shu munosabat bilan asar bitguncha adabiyot fondidan o'sha vaqtning puli bilan ming so'm olgan edim. Men qamalgandan keyin ko'p o'tmay Yozuvchilar soyuzi pulni undirish uchun xotinimni sudga beradi. Pulni olgan qamoqda! Nima qilish kerak? Agar uni tezda to'lamasa hovli-joyni musodara qilishlarini bildirishgan. Shundan so'ng uydagi bor narsani - gilam, qo'lidagi bilakuzuk, har balolarni arzon-garovga sotishga tushgan. Ham ayriliq, ham yetishmovchilik, ham eng yaqin odamlar keltirgan xo'rlik - ayniqsa bunisiga chidash qiyin edi.

Qizim Umida tug'ilishi munosabati bilan uchrashishga ruxsat etishlarini so'ramoqchi bo'lib xotinim tergovchiga telefon qiladi. Tergovchi: «Bu telefon nomerini qayerdan olding? Senga kim berdi?» - deya do'q urib, dag'dag'a bilan uni haqoratlay boshladi. Bunday muomaladan qo'rqib, dag'-dag' titrab, yuragi yomon bo'lib, bolani yerga tashlab yuboradi. Yonida turgan Mirzakalon Ismoilning xotini qo'lidan tushayotgan go'dakni ilib olganicha, o'zini yerga o'tqazib, tinchlantiradi. Sevikli xotinimning tortayotgan xo'rlik-u azoblarini xayolimdan bir-bir o'tkazarkanman, gunohkor bolib qamalgan men bo'lsam-u, u bechoralarda nima ayb! Mushtipar, mushfiq bu ayol bechoralarga shunchalik zulm! Bu sho'rliklarning gunohi nima! Otasiz uch farzandni boqish, ayriliq azobini tortishning o'zi yetmasmidi! - deb oylayman.

Toshturmaga olib kelishganiga ham mana bir necha hafta bo'ldi. Sevikli farzandlarim, xotinim, qarindosh-urug'larim bilan so'nggi marta diydor ko'rishib, xayrlashish haqidagi iltimosimga ham hamon javob yo'q. Ammo odam o'ldirgan, o'g'ri, ayrim savdogarlar esa uydan kelgan nozu ne'matlarni yeb, hatto qamoqda ekanliklarini ham unutib, qarta, qimor o'ynash, aysh-ishrat bilan ovora. Aslini surishtirganda bular-

ning nima g'ami bor! Chunki, o'g'ri o'g'rilik, firibgar firibgarlik qilganda bir kunmas bir kun qo'lga tushib qolishiga ishonmasa ham, albatta, ko'nglidan o'tkazgani tabiiy. Bundan tashqari o'g'irlargina emas, hatto odam o'ldirganlar ham bizchalik rahmsizlik bilan 25 yil ozodlikdan mahrum qilinganmas! Ularning muddatlari ham oz, qamoq sharoiti ham boshqa. Bola-chaqalari ham o'z uy-joyida, hech kim ulardan xalq dushmanining oilasidan jirkanib qochganday qochmaydi, xo'rlamaydi. Faqatgina ilm ahli, ziyoli zotigina o'g'ri, kissavurlardan ham xor, tuban sanaladi.

Ayshini nodon surib, kulfatini dono tortadi! - degan zamon shu emasmi!

Endi sen shoir yoki olim emas - keruxasan. O'zingdan yosh cho'ntak kesar chekishdan ol, keruxa (bu qamoq shevasida sherik degani) deb yoningga kela boshlaydi. Bu yerda shoir, olimliging uch pul, keruxa - sherik desa nimasi yomon? Yomonligi shundaki, so'ragan narsasini yaxshilikcha bersang berding, bermay ko'r-chi, ilojing yo'q, narsang borligini biladimi, bo'ldi, bo'g'ib bo'lsa ham oladi.

«Zamona zo'rniki, tomosha ko'rniki», - deganlari ham shu yerda.

Qamoq muhitini bilmagan, shoir yoki olimlik g'ururi hali vujudingdan arimagan dastlabki kunlarda bunday munosabatlar sening xo'rligingni keltiradi, g'azablantiradi. Ammo bu yerda bir oz qahringdan tushirib, taskin beradigan, og'izdan og'izga o'tib yuradigan «parasha», xolos (bu uzunquloq, to'qima gaplar degani). Mahbuslar o'zlarini ovutish uchun bir-birlaridan, xo'sh, bugun qanday parashalar bor, yangisini eshitdingmi, bilishimcha, 25 yil qamoq muddati yo'q qilinib, o'rniga otish yoki uzog'i besh yil qamoq bo'larmish, desa ba'zilar bunga e'tiroz bildirib, bu bekor gap, men boshqacha eshitdim, yaqinda, umuman siyosiy mahbuslar hammasi ozod qilinar-mish, degan gapga ishontirishga urinardi.

«Urush chiqaradigan rostdan murosaga keltiradigan yolg'on afzal», deganlaridek, bu gaplar bir nafas bo'lsa ham senga umid bag'ishlaydi.

Toshturmadan jo'natishlari oldidan oilam, qarindosh-urug'lar bilan ko'rishadigan kunimda mana shunday gaplar borligini xotinim, bolalarimga aytib, yaqin orada diydor ko'rishishga umid uyg'otmoqchi bo'lardim.

Nihoyat Toshturmadan jo'nab ketar oldidan uyimdagilar bilan diydor ko'rishib, xayrlashishga ruxsat bo'ldi. Ko'rishishga ko'rishdigu, ammo ming afsus ham yedim, dilimga achchiq alam ham soldi. Buni aslida ko'rishish emas, abadiy vidolashuv, desa to'g'ri-roq bo'lardi. Xayrlashuvga kelganlar orasida xotinimdan tashqari eri xalq dushmani bo'lib qamalib ketgan opam bechora ham bor edi. Eridan ayrilish azobini tortib, adoyi tamom bo'lgan opam, o'zining g'ami yetmagandek, mening g'amimga ham sherik bo'lib, endi men bilan xayrlashishga kelgan edi. Balki bu so'nggi ko'rishishdir, shunga qaramay, seni ko'rgani kelganlar bilan bag'ringga bosib, xayrlashish imkoni ham yo'q edi. Oraliqda bir metrcha ochiq joy qoldirib ikki tomoni to'r simdan qilingan devorlar ortidangina bir-biring bilan bor-yo'g'i 10-15 daqiqagina gaplashib olishing mumkin edi. Nimani ham gaplashasan? O'ttiz yilga hukm qilingan odam sen nima derdingki, ular nima deya olardi.

Erining hijronida ado bo'lgan, endi Xudodan tilab-tilab olgan yolg'iz ukasidan ajralish dardida kuyib ketgan, alamzada opamning jovdiragan ko'zlariga, za'faron yuzlariga boqqanimcha umid va yoki darmon bo'lguvchi so'z aytishga tilim aylanmay qolgan edi. Opam esa:

- Opang o'rgulsin. Xudoning rahmi kelsin, ota-bobomning arvohi yor bo'lsin, - deyishdan boshqa gap ayto'lmasdi. Butun istaklari, butun vujudi ko'z yosh-

lari bo'lib oqardi, Xudoyo Xudovando, tuhmat qilganlar, niyatiga yetmasin, derdi. Opam takror-takror duo qilardi, takror-takror kimlarnidir qarg'ardi. Uning yonida turgan xotinim esa ko'zlarida yosh, xuddi behushdek jim edi. Go^o uning butun dardlarni opam aytgandek, faqatgina u:

- O'zingizni o'ylang, bizlardan tashvish qilmang, bolalarni xor qilib qoVmayman, xat yozib turing, ahvolingizni malum qilib tursangiz bas!..

Yana nimalar dedi, qulog'imga kirmadi. Chunki, uning mehr bilan aytgan bu so'zlari, yoki judolik oldida menda uyg'ongan rashk sabab bo'lib ko'zlarimga har galgidan ham go'zal ko'rinib, qalbinga kutilmagan qiynoq ham solib qolgan edi.

Bu ko'rishuv cheksiz dard, xotiramda eng og'ir daqiqa bo'lib qoldi. Uni hayotimdan ham ortiq sevganligim shu ayriliq oldida yana bilindi. Bilindi-yu yuragimga o't solib qo'ydi. Shu fursatda menda sevgi, vafo, sadoqat, riyo, xiyonat - hamma-hammasi dahshat va quvonchlari bilan yopirilib kelib, bo' so'zlarni goyo endi eshitayotgandek, haqiqiy mohiyatini endi his etayotgandek holat paydo bo'lgan edi.

Men ularga taskin berish uchun, mahbuslar orasida yurgan 25 yil muddat besh yilga kamayarmish, yaqin orada siyosiy mahbuslarga avf umumiy elon qilinar-mish, yangi jinoiy kodeks qabul qilinar-mish kabi gaplarni aytib, tez orada diydor ko'rishishga umid uyg'otgunimcha bo'lmay, nazoratchining muddat tugadi, ketinglar, tugatinglar, degan beshafqat do'qi bilan ajralishdik. Ko'z yoshlar, faryod bilan ajralishdik.

*Alvido, ona yurt, alvido Vatan,
Bolaligim kechgan yerlar alvido!
Qaysi gunohimga bit kuyga soldirig,
Qaysi qilrnishimga, ey qodir Xudo!*

Bugun men nuri diydalarim, bola-chaqalarim, sevikli yorim, mushfiq-u mushtipar, jabrdiyda opamdangina emas, yoshlik xotiralarim, quvonchlarim, ona yurtim bilan, qayta ko'rish nasib etadimi, yo'qmi, butun baxt-u sevinchim bilan ziyoratgohim bo'lgan ota-onam xoki yotgan muqaddas tuprog'imdan manguga judo bo'lib, xayrlashar edim.

Oradan bir kun o'tgach, yuzga yaqin mahbuslarni yuklari bilan toshturmaning hovlisiga yig'ib, o'tirishni, ijozat bo'lmaguncha qimirlamaslik, o'rindan turmaslikni buyurdi. Jazirama, saraton oftobida kuydirib soatlab o'tkazib qo'ydi. Ikki yilga yaqin qamoqda o'tirib oftob issig'iga o'rganmagan, bequvatlikdan qonsiz, oqi-sarig' bolib qolgan yuzimga xuddi cho'g' bosgandek achishar, ko'ngil behuzur edi. Tomoqlaring qaqrab tashnalikdan sulaysang ham, hojatga chiqish zarurati tug'ilgudek bo'lsa ham avtomat ushlab atrofingni qo'riqlab turgan soqchilar, sendan ko'z uzmay tashlangudek bolib akillab turgan ovcharka itlar o'ringdan qimirlashga qo'ymasdi. Ruxsatsiz bir qadam tashlashga, og'iz ochib biror talab qo'yishga haqqing yo'q. Sen jazoga, ha, sud hukmi bilan jazolanishga hukm qilingansan. Agarda sen saraton oftobimi, ochlik, yoki 50 - 60 darajali qahraton qishning sovug'iga bardosh berolmay olsang, buning uchun hech kim javobgar emas, chunki sen berilgan jazoga chidashing kerak edi. 25 yillik jazoga bardosh berolsang, ozodlikka erishasan, sudning hukmi shu! Yaxshiki, toshturma hovlisida saraton oftobida ko'ngling behuzur bo'lib holsizlanyapsan, Bu sening baxting! Agarda shunday ahvol 50 darajali sovuq, bo'ronda yoki 50 darajali jazirama, 15 kilometrlik joyga transport bo'lmay piyoda haydagan vaqtida ro'y berib orqada qolsang, eng oson chora, buni qochish hisoblab, otib tashlaydilar. Chunki sen jazoga mahkum, huquqdan mahrum odamsan. Agar sen o'lmay, tirik qolib, bir

kunmas bir kun yorug' kunlar kelib ozodlikka umid bog'lasang, har qanday jazoga chidashing kerak.

Bu gaplarni go*yo men emas, menga hamroh bolib toshturma hovlisida jaziramada men bilan yonma-yon o'tirib, yillab qamoq azoblarini tortib chiniqib ketgan andijonlik Yorqin aka aytgandek edi.

Shu orada qandaydir papkalar kotargan turma boshliqlari bittama-bitta ismi sharifimiz, jinoiy hukm moddamiz, necha yilga hukm qilinganimizni turg'izib so'rab, lagerga olib ketuvchilarning ixtiyoriga sanab topshira boshladi. Bizlarga qoyilgan jinoiy modda 58 ekanini aytganimizda, odam oldirib, o'g'rilik bilan qamalganlar o'zaro bizlarni ko'rsatib, bir-birlariga bular siyosiylar, fashistlar, degani qulog'ingga chalinib qoldi. GoVo ular xalq do'stlari-yu bizlar xalq dushmanlari.

«Tashkent-tovarniy» stansiyasiga olib kelib «Chyor-niy voron» («Qora qarg'a»)dan tushirgach, hammamizni yerga o'tirishga buyruq berib, yana otamiz, o'zimizning ismimiz, qoyilgan jinoiy moddamiz, necha yilga hukm qilinganimizni so'rab, xuddi mol sanagandek birma-bir hisobdan o'tkazardi. Ayrim joylarda ba'zan soatlab turib qolsak, ba'zan, yov quvgandek, qani, qani, tez-tez bol, - deb yurishga shoshirib, - bir qadam safdan chetga chiqish, qochish hisoblanib ogohlantirmasdan o't ochiladi, - deb talcidlashardi.

Bu gapni birinchi eshitayotgan bemorlar, keksalar yelkalarida yuki bilan kunning issig'ida tomoqlari qaqrashiga qaramay vahimada oyoqlarini zo'r bilan sudrab kilometrlab yol bosishardi.

Yuzlab mahbuslarni oftobda qizib yotgan qizil vagonlar oldida to'xtatishdi. Shu fursatda bizlar chiqariladigan vagonlar tomonga «ana ular, xuddi o'shalar» deb temir yol shpallari ustida yugurib kelayotgan odamlar paydo bo'la boshladi. Bular toshturmada diydor ko'risholmagan, qayoqqadir bugun jo'natilishidan xabar topib otasi bilan, farzandi, yoki eri bi-

lan gaplashish imkoni bolmasa ham uzoqdan diydor ko'rib qolish uchun kelgan odamlar edi. Konvoylar esa bularni itlar bilan qo'rqitib, so'nggi marta bir og'iz so'zini aytishga ham yaqinlashtirmasdi.

Bu vagonlarga qancha odam sig'ishiga qarab emas, mahbuslarning soniga qarab, bir odam sig'adigan joyga o'n, o'nta odam joylashadigan joyga yuz odamni urib-tiqib chiqarardi. Joy topib joylashishi u sening o'zingga bogliq. O'tirib ketasanmi, yotib ketasanmi, konvoylar bunga emas, sanab qancha mahbus olgan bo'lsa tayinlagan joyga shuncha mahbusni yetkazishga javob berardi.

Kuzatuvchilarning dod-faryodlarining o'rnini vagonlarning zarb bilan siljishi, chinqirib uzoqlashishi egallay boshlagan edi. Go'yo bu ona yurtidan ayrilgan bizlarning chinqiriq, faiyodlarimiz edi.

O'z yurtimizda ko'rgan bu azob-u ko'rgiliklar ham halovat ekan. Do'sti-yorlaring, ona yurtning, senga joni achigan qarindosh-uruglaringning nafasi sezilardi.

Ularning yoningda borligini sezish ham darmon bolarkan. Doding ularga eshilib turgandek taskin toparkansan kishi. Haqiqiy tutqunligimiz, butun erkisizligimiz, haqiqiy do'zaxning eshigi hali bizlar olib boriladigan lagerimizga yetmasdanoq Krasnoyarsk perezsilniy punktlaridan boshlandi. Bu yerdagi bolayotgan vahshiyliklarni birinchi bor ko'rgan odam 25 yilni olmay tugatish emas, ayniqsa, bizdek ziyoli mahbuslar bir yil, ikki yil omon yashashga ham ishonchini yo'qotardi. Bu yer do'zaxning ikkinchi qopqasi edi.

Do'zaxning ikkinchi qopqasi

Saratonning avji jazirama issig'ida qizib yotgan qizil vagonlarda Toshkentdan jo'nab, Krasnoyarsk perezsilniy punktiga borgunimizcha bir haftami, o'n kun yo'l yurdikmi, bilmadim, bu orada yana qaysi pere-

p ^ P.....-

silniy punktlariga tushdik, kimlar bilan uchrashib, kimlar bilan xayrlashdik, birortasi esimda qolmadi. Negaki, poyezd jilishi bilan butun dunyo ko'zimga qorong'i ko'rinib, ko'ngilga Toshkentda qolganlar-u kelajak taqdirimni o'ylashdan o'zga hech narsa sig'may qolgandi. Endi qachon yana ona yurtim, bola-chaqa, qarindosh-urug'larim bilan diydor ko'rishaman! Qayta ko'rishish nasib boladimi, yo'qmi, butun xayolim o'shanda edi. Hattoki qizil vagonga urib tiqilgan odamlarning saraton issig'ida sasib-bij'ib ketishlari, suvsizlik, oyoq uzatadigan joy yo'qligi, istagan vaqtingda hojatga chiqish imkonidan mahrumliklar ham bu ayriliq azobi oldida hech gapdek tuyilib qolgan edi.

Taxminan Toshkentdan chiqqanimning ikkinchi haftasi bo'lsa kerak, Krasnoyarsk peresilniy punktiga olib keldi. Bu yerga kelganimdayol-yo'lakay boshdan kechirgan azob-uqubatlarimu, hatto, Toshkent peresilniy punktida ko'rgan fojialarim ham - hammasi unutilib ketdi. U kunlarga ham shukr qilib qoldim.

Krasnoyarsk peresilniy punktida ko'rganim qirg'in-urushlar, kuppa-kunduz kuni bir-birlarini ko'z oldingda oldirishlar, ayniqsa undan keyingi Shimoliy muz dengiziga tutashgan Taymir yarim oroli-ning Dudinka portiga borgunimcha barjadagi o'n-o'n besh kun ichida boshdan kechirganim vahshiyliklar aslo aqlga sig'dirib bo'lmasdi.

Krasnoyarsk peresilniy punktini KGB ichki qamoqxonasidan keyingi do'zaxning ikkinchi, haqiqiy qopqasi desa boladi. Xudo qarg'agan bandalarigina bu yerga keladi. Ajalingdan besh kun ilgari olib ketish hech gapmas!

KGB qamoqxonasida tergovchilar qiynasalar ham, nazoratchilar xo'rlab, bir nafas ko'zingni yumishga qoymasalar ham, ammo, hukm qilingunicha o'zini o'zi o'ldirib qo'masin deb sening hayotingni qo'riqlab har daqiqqa nazorat qilishardi. Bordi-yu o'lim jazosi-

ga hukm qilinishingni bilganlarida ham, seni otishga o'zlari xumordek ehtiyot qilardilar. Hatto sen o'zing ham har holda hukm qilgunlariga qadar qandaydir umid bilan o'lmasligingga ishonib yasharding. Endi-chi! Peresilniy yoki barjada bitta kiyiming, yoki o'g'rilariga yoqqan biror narsang uchun ular seni tala-salar, o'ldirsalar hech kim surishtirmaydi. Bu yerda-gilarning hammasi bir-biriga begona. Hatto o'g'rilar ham bir necha toifaga bo'linadilar, ular ham o'zaro bir-birlariga yov.

1952-yilning iyul oyi boshlarida meni Krasnoyarsk o'lkasiga olib kelishdi. Bu yerga tushda yetib kelishi-mizga qaramay, kun issig'ida vagonlardan ne uchun-dir tushirmay ovqat ham, suv ham bermay kechgacha qamab o'tirdilar. Peresilniy punktga olib kelganlarida yarim kechaga yaqin edi. Shunda ham ichkariga kiritish oldidan hammamizni odat bo'yicha mol sanagan-dek birma-bir sanab, kimligimiz, jinoyat moddalarni so'radi. O'rnimizdan turib, yurishga ijozat berib, zo-naga kirish oldidan bir-birimiz bilan gaplashmaslik, shovqinlamasligimizni tayinlab, buguncha hammom binosiga yotishimizni, aksincha, o'g'rilar narsalari-mizni talashliklari mumkinligini ochiq aytib o'tishdi. Bizlarni hammom binosiga joylab, ustimizdan qulf-lab ketishlariga qaramasdan, oradan ko'p o'tmay, aytganlaridek, eshiklarni ochib kirish, tuynuklardan tushishga urinishlar bo'la boshladi. Yo'l azobi, cha-la-chulpa uyqu, ming xil qiynoq xayollar bilan tong ottirdik. Ertasi kuni bo'lib-bo'lib baraklarga kirgizish-di. Hali yuklarimni joylashtirishga ulgurmasimdan oq atrofimda Toshkent peresilkasidagi kabi «mehrbon-lar» paydo bo'lib, nimaga qamalغانim, etap qayerdan kelganini so'ray boshladilar. Albatta, bu tabiiy bir hoi. Kimdir o'z tanish bilishini, kimdir biror yangilik-lar borligini bilishga qiziqadi. Ammo mening atrofim-dagilarning maqsadi nima ekanligi, keyingi vaqtlarda

bir muncha tajriba orttirib qolganim uchun menga malum edi. Garchand ular qayerdan kelganimni so'rasalar ham bejo ko'zlari narsalarimda bo'lib, niyatlarini menda nima borligi, pullarim bo'lsa qayerdaligini bilish, uni boshqalar egallab ketmasdan oldinroq o'zlari egallash edi.

Men Mamad ismli, qo'liga tasbeh ushlagan xushbichim mo'ylab qolgan, kiyim-boshi durustgina kavkazlik bilan qo'shni bo'lib qoldim. O'zimning kimligimni aytdim. Menga yaxshi muomalada bo'ldi.

Men uning kimligi bilan ortiqcha qiziqqanim yo'q. Bunday qilish ham xatar edi. Chunki «stukach» (mahbuslar orasidagi gap o'g'irlovchi josuslar)likda sendan shubhalanib qolsalar yoki uning raqiblari seni u bilan do'st deb oyiasalar, bu ham hayoting uchun xatarli bo'lishi mumkin edi.

Mamadning kimligi, nimaga qamalganligini surishtirmagan bo'lsam ham, atrofdagi mahbuslarning unga munosabati, menga esa o'zining: «xotirjam bo'l, gardash», deyishidan uncha-munchasi bunga yaqinlasha olmasligi sezilib turardi. Ammo yaxshi gapirib, uning o'zi ham narsangni qoqib olishi hech gapmas. Chunki o'g'rilarning bir toifasi yashirib emas, oldingga kelib mana shu narsangni ber yoki arzimagan bir narsani ko'rsatib shunga almashaylik deb ochiqchasi so'rab oladi. Bermay ilojing ham yo'q. Zo'r bo'lsang, kuching yetsa olishasan, bo'lmasa...

Mamadning vazohatidan siyosiy mahbus emasligi aniq edi. Demak... Bu sharoitda eng to'g'ri yo'l, muomalasiga qarab muomala qilmoq. Ehtiyot bo'lmoq!

Krasnoyarsk peresilkasi ittifoqdagi eng yirik peresilkalardan. Bunda minglab odam joylashadigan o'nlab baraklar bor. Butun lagerlarga - Abakan, Narilsk, Kallima, Varkuta, Tayshet - hammasiga, shimoldan tortib Uzoq Sharqqacha mahbuslar shu yerdan jo'natiladi.

Men biror tanishni uchratarmikanman degan niyatda ikki-uch kundan keyin baraklarga nazar sol-

moqchi boldim. Axir, men bilan sudlangan Shuhrat, Mirzakalon, Hamid Sulaymon va boshqalarning birontasini sudda ko'rib, ajrashganimcha ko'rganim yo'q edi. Ko'rarmikanman degan umidda, ammo afsuslar bo'lsinki, bir barak ichiga qadam qo'ygandim, inson bolasining xayoliga kelishi mumkin bo'lmagan vahshiylik ustidan chiqib qoldim... Vahimadan orqaga qaytmoqchi bolib qadam qo'yishim bilan eshik oldida turgan ikkitasi yo'limni to'sib to'xtatdi. Bo'layotgan bu voqeaga qarab chidab turib bo'lmasedi. Dodlashning esa iloji yo'q edi. Hattoki men emas, kattakon barakda, qancha odam bor edi, bilmadim, birortasi sado chiqarmasdi.

Barakning o'rtasida ikki-uch odam bittasining qo'l-oyog'idan ushlab, ko'tarib tepaga otardi. Yerga tushgandan keyin, tipirchilashiga qaramay, yana ko'tarib otishardi. Tipirchilardi-yu, ammo ovozi chiqmasdi. Og'ziga nimadir tiqilgan edi. Bu ahvol bir necha bor takrorlanib, uni yarim o'lik bo'lganiga ishonganlaridan keyin barakdan chiqib ketdilar.

Men umrimda xayolimga kelmagan bu dahshatdan bir nafas es-hushimni yo'qotganicha, nahotki yigirma besh yil shular bilan yashayman, deb oyiardim. Nahotki!.. Yarim olik bo'lib yotgan bu bechora odamning gunohi nima edi? Qimorda yutqazganmi, yoki sheriklarini sotganmi? Yoxud o'g'rilar bilan olishmoqchi bolgan qaysarroq siyosiy mahbusmidi? Bu sir edi.

Mahbuslikning azoblaridan yana biri shuki, dardlashishga ishonarli dardkash topolmaysan. Qamoqda ham erkinlik yo'q. Ko'nglingdagi gapni aytoilmaysan. Qamoqda ham seni kuzatadilar. Mahbuslar orasida ham gapingni maxsus bolimga yetkazguvchilar boladi.

Yigirma besh yil berib qo'ibdi, bundan ortiq nima bo'lardi, demoqchi bo'lsang, xato qilasan. Sovetlarga qarshi gaplaring uchun yana ham og'irroq ishlarga qoyishlari, omon qolishing gumon bo'lgan lagerlarga

yuborishlari, bola-chaqangga xat yozishlardan mahrum qilishlari mumkin boladi. Bir kunni uch kunga hisoblaydigan lagerlar ham bor degan gap agar rost bo'lsa, demak, 25 yilga hukm qilinganlar 7 - 8 yilda qutulib chiqishi mumkin. Ozodlikka chiqib, olmay, diydor ko'rishga birdan-bir umid qilsa bo'ladigan narsa, chin bo'lsa - shu! Eshitishimcha bu imtiyoz ham hamma lagerlarda, hamma mahbuslarga berila bermas ekan.

Xo'sh, meni qayerga, qanday lagerga olib borishadi? Bir kunlik mehnatingni uch kunga hisoblaydiganigami, yoki katerijnisigami? Bordi-yu bir kunlik mehnatingni uch kunga hisoblaganlarida ham qo'limda biror hunarim yo'q, xo'sh, men nima ish qila olaman? Peresilkada qolgan kunlarim bu azoblardan qanday qilib qutulish haqida xayol surarkanman, Olmaotadan mening vagonimga chiqib, bir necha kun men bilan birga bolgan qozoq yozuvchisi Qayum Muhammadxonovning asoslimi, asossizmi taskin beruvchi gaplarigina dalda berardi. Cho'kayotgan odam somon parchasiga ham tirmashadi, deganlaridek, unga ishongim kelaberardi. Bundan boshqa nima iloj! Bu bezorilik, xunrezliklardan umidsizlikka tushmay, bir nafas bolsa ham senga darmon boladigan narsa, rostmi yolg'onmi mana shunday to'qilgan gaplar edi, xolos. Lekin bunday oldi-qochdi gaplarni ayrim mahbuslar shu qadar asoslab, xuddi o'zlari bosh-qoshida bolgandek gapirardilarki, bir dam bolsa ham ishonmay ilojing qolmasdi. Ayniqsa, mendek 25 yilga hukm qilingan Muhammadxonovning gaplariga hozirgi holatda ishonmay ilojim yo'q edi. Chunki u o'z gaplarini shunday ishonch bilan, dadil aytardiki, hatto har bir xatti-harakati, butun ko'rinishi ham buning asosli ekanini tasdiqlardi. Ko'rinishidan basavlat, oq yuzli bu odam mening nazarimda qamoqdan chiqqanga o'xshamasdi, hatto u ko'rpa-yostig'ini orqalab bizning

vagonga chiqqanda ham qiyofasidan qamalgan odamning tashvishi aks etmagandek ko'rindi. Kundalik hayotdagidek men bilan mu >malada boldi. Hatto u o'zinigina emas, boshqalarning ham, shu jumladan, mening ham dushmanligim, yigirma besh yil qamoqda yotishim mumkinligiga ishonmasdi. U:

- Yigirma besh yil! Bo'lmag'ur gap! Yigirma besh yilda yo eshak o'ladi, yoki podsho, deganlaridek hayot ham, siyosat ham bir xilda turmaydi-ku, oqsoqol! Ayniqsa, bizda nima ko'p, rahbarlarning almashuvi ko'p. Bugun Yagoda rahbar bo'lsa, ertaga u dushman, o'rniga yejov bo'ladi. Mana yejov dushman bo'lib fosh etilgandan keyin, u qamagan odamlar oqlanib, o'rniga Beriya boldi. Kim biladi, buning o'rniga boshqasi kelsa, oldingisini o'zini qamab siz bilan bizni noto'g'ri ayblangan deb chiqarib yuborishi hech gap emas. Siz bilan men - shoirlarmiz. Men Qozog'iston respublikasi gimnining muallifiman. Siz bilan mening sovet hukumatiga qarshi asarimiz yo'q! Nimamiz dushman! Bundan tashqari, yaqinda eshitgan gapim shu boldiki, kodeks ham o'zgararkan, amnistiya bo'larkan, juda bo'lmaganda qamoqdan bir kunni uch kunga hisoblab chiqarishi, bu aniq, - derdi.

Meni nimaga qamaganlarini surishtirib bilgach, xuddi qonunshunosdek:

- Bular hammasi bo'lmag'ur gaplar, lagerga yetib olgach, Moskva - generalniy prokuror, SSSR Oliy Sudi, Oliy Sovetga shikoyat yozsak, o'shalarga yetib borsa boldi, ishimizni qaytadan ko'rib, chiqarib yuborishadi, - deb meni ishontirardi.

Bu gaplarni u menga taskin berish uchunmi, yoki o'zi ishongani uchun aytarmidi, bilmadimku, yaxshi ishlasang, qamoq rejimini buzmasang bir kunni uch kunga hisoblashlari mumkin deganida, boshqalardan ham bu haqda eshitganim uchun ishongim kel-

^^ ^^ Mnskvaee, bosh prokuror, Oliy sudga

yozsak, shikoyatimiz yetib borsa bas, chiqarib yuboradi, yoki qamoq muddatini qisqartiradi, degan gapiga mutlaqo ishonib bolmasdi. Bular bari tagi puch, oyianmay aytilgan gaplar edi.

Chunki qamalganimning dastlabki kunlarida men ham xuddi shunday umidda, shunday fikrda edim. Ammo suddan keyin, ayniqsa, yuzlab, minglab qayta-qayta qamalganlar bilan uchrashib, ularning hikoyalaridan keyin bu fikrim butunlay xato ekanini anglay boshladim. Axir, bitta bizlar emas, shuncha-shuncha qamalib, otilib, yigirma besh yilga qamalib ketayotganlarni nahotki, Moskvadagilar bilmayotgan bo'lsa, bexabar bo'lsa! Nahotki, respublikadagilar Moskvadagilardan bemaslahat, o'z erklaricha odamlarni qamayotgan, bu ishlarni qilayotgan bolsalar!

Muhammadxonov bilan bir necha kun yo'lda birga bolgan kunlarimizdagi gaplarni eslab, oyarimni oxiriga yetkazmasimdan oq, birdaniga peresilniy punktning hovlisidan o'nlab odamlarning baqiriq-chaqiriqlari, ur-sur, to'polon ovozi eshitilib qoldi. Men yonimdagi Mamadga bu nima gap, eshityapsanmi, degandek qaradim. Ammo u esa eshitgan bolsa ham hech narsa bolmagandek, to'palonlar, qirg'inlar bunday sharoitda tabiiy bir hoi degandek yastig'iga yonboshlab tasbehini beparvo o'giraberdi.

Ammo men ahvolni bilmoq bolib asta tashqariga chiqdim. Tashqarida o'ttiz, qirqqa yaqin odam o'zaro qirg'in qilishardi. Bir tomonda yaxshi kiyingan, oyoqlarida xirom etik, harbiy kiyim kiygan 10-15 polyak ofitserlari, ikkinchisi tomonda ularni talamoqchi bolgan bir to'da o'g'rilar qollariga tushgan narsa bilan, tayoqmi, toshmi, hovlidagi vitrinalar, hatto barakdagi narsalar borms (karavotlarni) buzib, bir-birlarini urardilar. Birovlarning ko'zi chiqqan, birovlarning boshi yorilgan. Yiqilganlarni ayamay holdan ketguncha tepaverdilar.

"~-----~-----"~-----"

Polyak ofitserlari alamzadalik hamda harbiy kishilar bo'lganlaridan o'g'rilar bilan jon achchig'ida olishardilar. Ofitserlarda yaxshi usti-bosh, ortiqcha kiyim-kechak, soat, qimmatli narsalar borligining isini bilgan o'g'rilar ularni talamoqchi bo'lganlar. Albatta, o'z vatanidan ayrilish alami, alamzadalik, uning ustiga jangda chiniqqan odamlar bulardan qo'rqib o'z mollarini bir to'da bezorilarga indamay berib qo'ar-midi! Bir-birlarini quvib urardilar. Bir-birlariga begona bo'lgan mahbuslar esa ikki tomonga ham aralashmasdi. Ayrimlari hatto bu to'palonlardan xabardor bo'lsalar ham bir-birining go'shtini yesin, degandek baraklardan chiqishni ham istamasdilar. Bunday paytda faqat mahbuslar emas, qamoq nazoratchilarining o'zlari ham olomoni bostirish uchun o'rtaga tushmasdilar, qo'rqardilar. Ur-yiqitni bostirish uchun peresilka hovlisining to'rt burchagidagi mezanalarda turgan soqchilar ogohlantirish uchun avtomatlardan yuqoriga bir necha marotaba o't ochdilar. Polyak ofitserlari yaralangan sheriklarini sudragancha o'zlariga ajratilgan maxsus barakka kirib eshiklarni yopib oldilar.

O'g'rilar kechasi ham ularning baraklariga bosib kirishmoqchi boldilar. Ancha vaqtgacha g'alva tinchimadi. Ertasiga ofitserlarni qayergadir olib ketishdi. Ular ketdi-yu baribir bu yer tinchigani yo'q, chunki o'g'ri, muttahamlar hukmron edilar.

Bu qadar shafqatsizlik, bu qadar vahshiyliklar chumoliga ozor bermagan, bir umr xalqimga ilm-ma'rifat beray deb boshini kitobdan ko'tarmagan, ko'zoynakda yo'lini zo'rg'a topadigan, umr bo'yi odob va axloqdan dars bergan tolibi ilmlar uchun bu bezorilarning qilmishlarini ko'rish, unga bardosh berish o'limdan ham og'ir edi! Inson xayoliga keltirolmagan bunday xo'rliklarga chidash!.. Insonlarni bu qadar xo'rlash, oyoq osti qilish!.. Ilm-fan, bu tabarruk siymolarning

, J t ^

uvoli, qarg'ishlari bir kun yoqalaridan tutmasmikan, deb o'ylardim.

Ammo yonimdagi odam befoyda o'ylarimdan af-suslangandek xurrak otardi. Kim biladi, balki bu kechasi kimnidir talash uchun kunduz uyqusini olmoqchi bo'lgan o'g'ridir. Hammasiga chidaysan. Xurraklarga ham, qirg'inlarga ham, tungi tuvakning sassig'iga ham... Chunki kechasi baraklarning eshigi qulflab qoyiladi. Hojatga tunda shu yerda chiqiladi. Hammasiga chidaysan... Choy qayoqda! Ichishga suv topilmaydi. Yuz-qo'lingni yuvmaslikka ham chiday-san, o'rganasan...

Oradan uch-to'rt kun o'tgandan keyin yuklarimiz bilan yo'lga tayyorlanishni aytishdi, endi qayerga haydashadi? Endi olib boradigan joylari qanday, bal-ki bundan ming battardir, lekin hozircha bu yerdan qutulganingga shukr qilasan. Enasoy daryosi porti-dagi barjaga chiqarish uchun haydab borishdi. Bar-jaga chiqish oldidan o'g'rilar bilan birga bo'lish azobi-dan joni halqumiga kelgan siyosiy mahbuslar, ularni alohida kayutalarga qo'ishni, o'g'rilarga qo'shmas-liklarini talab qila boshladilar. Ko'pchilik bo'lib noro-zilik bildirdilar. Etap boshliqlari awaliga bunga ro-zilik bildirgan bo'lsalar ham, kemaga chiqar oldidan joy yetishmasligini bahona qilib, o'g'rilarning yaxshi toifasi, ularning o'z nazarlarida shikast yetkazmaydi-gan toifasi bilan birga bo'lishimizni aytdilar.

Jallodning yaxshisi qaysi-yu yomoni qanday bo'la-di, nima qilganda ham jallod jallod-da! O'g'rilarning qandayligi, ularning fellarini etapma-etap bir necha marotaba birga bo'lib, juda yaxshi bilib qolgan siyo-siy mahbuslarning bu noroziliklari foyda bermadi. Soqchilar avtomat va itlar bilan qushxonaga kelgan moldek hammamizni haydab kayutalarga tiqa bosh-ladi. Qayerga qochasan. Senda nima ixtiyor!

Bizlarni kemanding pastki xonasiga tiqishdi. Bosh-liqlar bezarar, deb maqtagan o'g'rilar birinchi kunda-

yoq qiliq ko'rsata boshladilar: ko'ngillari xushlagan joyni egalladilar. Siyosiy larni hojatga chiqish uchun qoyilgan bochkaning yonidagi joylarga, issiqdan nafas olib bo'tmaydigan burchaklarga tiqib qoydilar. Tepadan yog'och chelaklarda uzatilgan ovqatlarni taqsimlash ham o'shalarning qo'llariga o'tdi. Qamoqtiing ovqati malum. Ammo shuni ham xohlagan cha taqsim qilish o'shalarning ixtiyorida: yog'lig'ini o'ziga olib, yovg'onini boshqalarga beradi, agar shuyam qolsa... Qarshilik qilish befoyda. Kemaning pastki, qorong'i qavatida seni bo'g'ib, mollaringni talashlari hech gap emas. Ular bilan sen teng bo'lolmaysan, o'rganmagansan, bundan tashqari siyosiy lar 30 - 40 kishi bo'lsa, ular ko'pchilik edi. Yigirma besh yil shular bilan birga umr kechiradigan bo'lganingdan keyin qaysinisi bilan olishaman! Axir, bular tasodifan jinoyatga qo'l urib qamalgan odamlar bo'lmay, aksincha, ozodlikda ham, qamoqda ham mehnat qilmay qarta, qimor oynab, birov larni talash hisobiga yashaydigan odamlar edilar. Erkinlikda odam o'ldirish, o'g'rilik qilish xavfliroq; qolga tushsang qamashadi. Ammo bu yerda-chi, kim-kimni o'ldirganini surishtirishmaydi. Odam o'ldirish, bir-birlarini talash bu yerda bema'lol. Savdo, xo'jalik sohasida ishlagan boyvachcharoq odamlar, yoki siyosiy mahbuslar, uylaridan tuzukroq kiyim-kechaklar, yemish olishlari mumkin. Ammo bular-chi?! Boshqalarda bo'lsa, demak, ularniki! Qanday qilib tortib olishni yaxshi bilishadi.

Qamoq degan shunday bir joyki, bu yerda bir-ikki yil umr kechirgan, ayniqsa uzoq muddatga hukm qilingan siyosiy mahbuslarning ko'ngliga na kiyim-kechak, na yaxshi yeyish-ichish sig'ardi! Bu do'zaxdan, bu shaytonlardan qutulib omon qolishni oyiardi, xolos.

Birinchi kechamiz tinch o'tdi. Boshliqlar aytgandek, birortasi bizlarga tegmadi. Bu tinchlikning sababi er-

tasiga malum boldi. Buning sababi kechasi bilan shilishni kimdan, qanday boshlash rejasi tuzilgan ekan.

Bular uzzukun uxlashardi, kechasi, hamma uyquga ketgandan keyin tunda mo'ljalga olganlari kimningdir qopini, kimningdir chamadonini titishga boshlashardi. Hatto ehtiyot qilib shimolning sovug'iga asqotar deb tagingga solib yotganing po'stin nimchangni ham tortqilay boshlardi. Albatta sen, buni sezasan, lekin shu bilan qutulsam bosh-ko'zimdan sadaqa, deb yoningga ag'darilib bir ishora ham qilasan, baribir u olmay qo'maydi. Agarda jur'ating yetib, ko'zingni ochib, nima qilyapsan, degan taqdiringda ham, «mahnyom» (o'g'rilarning shevasida almashamiz), deydi-da qonuniy qilib o'zining biror uvadasini yechib berib, senikini olib ketaberardi. Bu bilan qutulmaysan, ertasiga kelib tuguningni titadi. Albatta, bir necha peresilkalarda bolib, undagi fojialarni ko'rgan odam, qarshilik ko'rsatishning befoyda ekanini bilib, bor narsasini berib qutulishga rozi boladi. Chunki bular bitta-ikkita bolsa boshqa gap edi. Kayutaning yarmidan ko'pini shular egallagan. Bularning dastidan na maxorkang, o'rab chakishga na qog'ozing qolardi. Albatta, senga qamoqda maxorka o'rash uchun qog'oz bermaydi.

KGB qamoqxonasidan olib ketishlaridan oldin uydan kelgan yetti so'm pulimga kvitansiya berishgan edi. Maxorka o'rashga qog'ozim qolmagach, oz-moz bolsa ham xumordan chiqish uchun, o'sha kvitansiya qog'ozini bo'lib-bolib, bir necha marotaba chekishga yetkazdim, shuni ham ikki-uch chekimligini o'g'rilar olib qo'adi.

Enasoy boylab Turxansk, Igarka orqali Dudinkaga yetgunimizcha qancha kun o'tdi, yodimda yo'q, bu orada boshliqlar aytgan «bezarar» do'stларimiz, uydagi-lar berib yuborgan boshdan-oyoq yangi etik, kiyimlarimizni bitta-bitta olib, o'zlari kuyovlardek kiyinib, eski

choriq, uvada kiyimlarini bizlarga qoldirib bolishgandi. Bu odamlarning dahshatli jihati yana shunda edi, bular faqat seni narsangni talab qilmasdan, o'zaro talashib, bir-birlarini oldirishga ham tayyor maxluqlardan farq qilmasdilar. Mana necha kunki, ular kemaning uzun-uzun mixlarini sug'urib, tuni boyi sopol tovoqlarga charxlab, nayzadek qilib qo'shni kayutada ketayotgan boshqa toifadagi o'g'rilarga hujum qilish uchun kema devorini teshib o'tmoqchi boladilar.

Bularda bizlardek na bola-chaqa tashvishi, na orzu-havas, na nohaq qamaldim, degan afsusu armon bor edi. Yana jinoyat qilsam, qamoqda umrim otdi-ku, degan fikr ham yo'q edi.

Nega shunday?! Qayerdan paydo bolgan bu odamlar? Bular kimlar? Bularni shu ko'ga solgan, bunchalik vahshiyliklar sababi nimada? O'z-o'zimcha shular haqida oyiarkanman, bularga nisbatan bolgan cheksiz qahru g'azab, nafratim yumshab, uning o'rniga hatto qandaydir achinish, bu sho'rliklarda ham nima ayb, degandek his paydo bo'la boshlardi. Haqiqatan ham bularning inson qiyofasini yo'qotib, hayot, mehnat, bola-chaqa, orzu-havas zavqidan mahmm bolishlari, jazodan ham qo'rqqmay, qamoq bilan erkinlikka befarq qarashlarining sababi nima? - deb o'z-o'zimcha oylayman.

Bizlar shu choqqacha bunga asosiy sabab deb Vatan urushi davridagi ochlik, yalang'ochlik, bolalarning ota-onasiz, qarovsiz qolishi deb oyiadik. Tagini oyiab ko'rsang, bunday fikrga mutlaqo qo'shilib bo'lmaydi. Axir, urush faqat bizning mamlakatda bo'ldimi? Xitoyda bolmadimi? Kapitalistik Yaponiya, Amerika, G'arbiy Germaniya, sotsialistik davlatlar - Polsha, Chexoslovakiyada urush bo'lmadimi? Hammasida bo'ldi. Ochlik-yalang'ochlik, ota-onasiz yetim qolganlar bularda ham bolmadi, deysizmi? Bo'lgan! Agar o'g'rilik, avlodlarning buzilishi urug'ga bogliq

bo'ladigan bo'lsa, bu davlatlarning biron-tasida, hatto bir milliardga yaqin aholisi bo'lgan Xitoyda ham bizlardagidek o'g'rilik, odam o'ldirish avj olib ketgani yo'q-ku! Agarda axloq buzilishi chindan ham urushga bog'liq bo'lsa, ikkinchi jahon urushi davrida unga qatnashmagan davlatlar deyarli kam qolgan edi. Axir, butun jahonni bizlardagidek o'g'ri, muttaham bosib ketmadi-ku. Axir, nega mamlakatimizning hamma burchagini qamoq lagerlari bosib ketdi! O'g'ri, muttahamchiliklarning avj olishiga urush sabab bo'lgan bolsa, millionlab ilm ahli, davlat aroblari 1937-yilgi tinchlik yillari, hozirgi g'alabadan keyingi 1950-yillarda qamalishlariga sabab nima? Bularni ham urush buzdimi? Urush davrida davlatga ziyon yetkazmay, qo'poruvchilik qilmay, ochlik, yalang'ochlikka chidab kelgan muallim bormi, yozuvchi, dindor bormi, hammasining endi qamalishiga sabab nima?

Bizning mamlakatda o'g'rilikning avj olishiga ham, eng yaxshi odamlarning nohaq xalq dushmani deb qamalishiga sabab bitta, u ham bolsa, inqilobdan keyingi siyosatimizda yol qo'yilgan xatoliklar! Xalqni boy-kambag'alga ajratib, bir-biriga qarama-qarshi qilib qo'ydik. Birovni boy deb, birovni dindor deb mol-mulkini, uy-joyini chirqiratib tortib olib, quloq qilib boshqalarga berdik. Birovlarning haqidan qo'rqmaslik, quloq qilinib begona yurtlarga surgan qilinganlarning ko'z yoshlari, nolalariga rahm qilmaslikka o'rgatdik. Mana shu siyosat mehr-shafqatning orada ko'tarilishi, yo'qolishiga sabab bolmadimikin? Xohlagan odamni xohlagan paytda qamash, surgun qilish, mol-mulkini tortib olish kabi adolatsizliklar, sud, tergov organlaridagi qonun buzilishlari yoshlar o'rtasida kelajakka ishonchsizlik uyg'otmadimi? Nohaq qamalganlarning oilalari, do'st-yaqinlari, qarindosh-urug'larida davlat siyosatiga nisbatan ishonchning susayishiga, halol bolib jon kuydirganingning foydasi yo'q, halol bolganlar nima

bo'lyapti, o'zingni oyia, bir amallab kuningni ko'rsang boldi, deyishga sabab bo'lmadimikin!

Barjada xayolga tolganча yosh-yosh yigitlarni shu ahvolga tushganlari, qamoqlarda o'tayotgan umrlariga achinardim. Hatto ayrimlarining yoniga yaqinlashib suhbatlashgim ham kelardi. Axir, bular ham odam-ku!

Bizning jamiyatimizda o'g'rilarning bunchalik ko'payib ketishiga balki qonunimiz, uning bo'shlig'i sababdir? Axir ikki og'iz to'g'ri gapni aytganlar xalq dushmani sanalib 25 - 30 yil ozodlikdan mahrum qilinadi, ammo, o'g'rilik, hatto odam o'ldirganlarga esa bunchalik jazo yo'q. Ularga munosabat qamoq sharoitida ham boshqacha.

Lagerlarda o'g'rilar siyosiy mahbuslarni «xalq dushmanlari, fashistlar», desa, siyosiylar esa o'g'irlik, odam o'ldirib, qamalganlarni kesatib «xalq do'stlari» deb atashardi. Dindorlar, yozuvchilarning bu yerda bezorilarcha ham qadri yo'q edi. Ular lagerlarda siyosiy mahbuslardek 12 - 15 soatlab 50 daraja, is-siq, sovuqda ishlashmaydi. Ularning bir kunlik ishini uch kunga hisoblash imkoni bor. Balki mana shunday munosabat ham o'g'rilarning ko'payishiga olib kelmaganmikan? Axir, bizlarda qadimda o'g'rilarni ushlashsa qo'llarini kesishardi, olomon qilishardi.

Vaholanki, jinoyatchilikka qarshi jamoatchilik talabi bilan chora ko'rilmaydi. Axir, yaqin-yaqinlarga cha ham Xitoyda o'g'rilik qilganlarni xalq o'rtasida maydonlarga olib chiqib osishdi. Hozirda esa o'g'rilik bilan qo'lga tushgan odamning to'pig'idagi tomiri kesib tashlanadi, yomon cho'loq bo'lib, qiytonglab yuradi. Balki shuning uchun ularda o'g'rilik yo'qdir. Nega bizlar shunday qilmaymiz?

O'g'rilik, bezorilikning dunyo bo'yicha bizlarda bunchalik ko'pligiga sabab balki dinning yo'q qilangani yoki Xudodan qo'rqmay, bandadan uyalmasligimi?

Bunday xayollardan tashqari, meni kechadan beri yonimda qayt qilib, uxlamay ingrab yotgan odamning bugun yana isitmasi ko'tarilib, qornidagi og'riq zo'rayib tortgan azobi, uning qilgan arzi-dodiga soqchilarning bizlar vrach emas, degan beparvo javobi, o'g'rilarcha ham qadr-qiymatimizning yo'qligi qiynardi.

Shu orada barjamiz to'xtab, kimdir Turxanskka keldik desa, boshqasi bu yer Igarka dedi. Qayerligi hammamizni kemadan tushirishgandan keyin malum bo'ldi. Bizlarning barjamiz to'xtagan bu yer Shimoliy muz okeaniga tutashgan Taymir yarim orolining Dudinka degan joyi bo'lib, buni port deb ham atab bo'lmasdi. Bir-ikki yog'och butka qaqqayib turardi. Atrofda na bir inson sharpasi va na bir odam yashaydigan xonadon bor! Bu yerlarda yilning o'n oyi qahraton qish bo'lib, bir oy, bir yarim oylik iliq-issiq kunlarda yuk paroxodlari konlardan mahbuslar qazigan ma'danlarni olib ketib, unga kerakli narsalarni yetkazib berarkan. Avgust oyining o'n beshlarida bu yerda qor bo'ronlari boshlanib, daryo muzlab qatnov ham to'xtardi. Bir oz kechikkan kemalar kelasi yilgacha muzlab qolib ketardi.

Men kelgan payt iyul oyining oxiri, avgustning boshlari bolib, qop-qora bulutlar orasidan quyosh goho ko'rinib qolishiga qaramasdan, shimoldan esgan izg'irin badanlarni junjiktirardi, qishdagidek yuzlarni o'ymalardi. Shimol botqoqzorlarida besho'n kunlik issiqda tirilgan och chivinlar ochiq joyga yopirilib talardi. Atrofda odam zoti yo'q. Butun atrof jim-jit, bir tomon pastak-pastak daraxtlardan iborat tundra. Bir tomon okeanga tutashgan daryo, butun atrof dunyodan ajralgan moxovdek vahimali. Nahotki kimsasiz yerga meni olib kelishgan bo'lsa!

Biz siyosiy mahbuslarni kayutadan tushirgach, yana familiyamiz, jinoiy moddamiz, necha yilga hukm qilinganimizni so'rab sanay boshlagan nazoratchilar,

qandaydir shubha bilan har birimizga tikilib o'zaro nimalarnidir gaplashishdi. Ularning shubhali qaiashlarida jon bor edi. Chunki biz siyosiy mahbuslar hammamiz tanib bolmas darajada o'zgarib qolgan edik. Kemadan tushgan vaqtimizda bizlarni faqat boshqalar emas, hatto o'zlarimiz ham bir-birlarimizni tanimay qolgan edik. Chunki bizlarning hamma yaxshi kiyimlarimizni o'g'rilar egallab, o'g'rilarning butun uvada, eski kiyimlari - botinka, telegreykalari, yirtiq kepkalari bormi, bizlarga o'tib qolgandi. Obkom sekretarining qishda kiyish uchun uyidan olgan yangi etigi o'rnida eskirib ketgan tufli, issiq qalpoq o'rnida jiyagidagi kartoni chipir qaynatishga yoqilgan yirtiq kepka, ayrimlari esa ko*ylaksiz mayka ustidan telegreyka kiyib olgan edi.

Siyosiy mahbuslarning o'g'rilarga talanib bu ahvolga chidab, indamay turishlari qo'rqanlikdanmidi? Yo'q. Ularning bunga befarq qarashlari besabab emas edi.

Yigirma besh yilmi, o'n besh yilmi, shular bilan birga yashash, bundan buyongi hayot hamon shular bilan bo'lishini oylagan odam shikoyat qilishni o'ziga lozim ko'rmasdi.

Bundan tashqari, xo'sh, qaytarib olding deylik, tutqunlikda, xor-u zorlikda o'tgan umringda besh kun yaxshi kiyding-u kiymading nima! Shuni oyiab ko'pchilik qaytarib olishni talab qilmadi. Bizlarning bunday xayolimizni sezgandek etap soqchilarining insoflilaridan biri:

- Kimki nimalaringni olgan bo'lsa, qo'rqmasdan ayta beringlar, olib beramiz, ular bilan ikki dunyoda ham bir bo'lmaysizlar, ko'rishmaysizlar, - degan gapni aytib, bizlar bilan birga bo'lgan o'g'rilarning hammasini kayutadan olib chiqib, birma-bir oldimizdan o'tkazdi. Birov, ana meni etigim desa, biri anovining boshidagi qalpoq meniki, deb unga eski kepkasini

qaytarardi. Xullas, o'g'rilarning qollariga kishan solib bir tomonga haydab, bizlarni esa yelkada qoplamiz bilan yayov, qizil vagonlar oldiga olib kelishdi.

Yomg'ir yog'a boshladi. «O'tiringlar», deb buyruc berganlaricha sovuq shamol bilan chelaklab quyq boshlagan yomg'ir badan-badanimizga singib, o'g'rilardan qaytarib olgan kiyimlarimiz jiqqa ho'l bo'lishiga qaramay, ochiq yerda soatlab tutib turdilar. Shular ham inson farzandlari-ku deb achinish, na rahm-shafqat bor edi! Biror panaroq joyga olishni xayollariga ham keltirmasdilar. Men ularning qiyofalariga tikilib, bunday bag'ri toshliklariga hayron qoldim. Tasawur qilolmasdi. Ular olasanmi-qolasanmi. sendan o'tgan azobni xayollariga ham keltirmasdilar. Chunki ular seni har qanday qiynoqqa loyiq, xalqning ashaddiy dushmanlari deb qarardilar.

Ertasi kuni bizlarni lagerga olib keldilar. Kechadan beri yog'ayotgan yomg'ir iyulning oxiri bolishiga qaramay birdaniga qorga aylandi. Sovuq. Kiyimlarimiz jiqqa ho'l. Men kelgan lagerni bu yerdagilar «Tiriklar qabristoni» deb atasharkan. Bu vahimali, xunuk nomning negaligi menga keyin malum boldi.

Tiriklar qabristoni

Men kelgan qamoq lagerini bu yerdagi mahbuslar tiriklar qabristoni, deb menga o'xshash yigirma, yigirma besh yilga hukm qilinganlarni esa otilmay yoki osilmay qolgan tirik murdalar deyisharkan. Albatta, menga o'xshash yangi kelganlar uchun bunday gaplarni eshitish qanchalik og'ir bolmasin, ammo tagida haqiqat yo'q emas edi. Men bu gapning qayerdan kelib chiqqani, nega shunday deyishlari sababini surishtirganimda, bir yilgina bu yerda yashab ko'r, nega ekanini bilasan, qo'yasan, deb javob berishdi. Bunday javobda ular nimani nazarda tutganini bilmadim-u

I mqiqtan ham ular aytgandek bir yil emas, bir-ikki oy rmas, kelgan kunimdanoq bu gaplarning nega aytilgani sababi ayon bola qoldi. Haqiqatan ham bu lager i liar aytgandek tiriklar qabristonidan farq qilmas edi.

Krasnoyarsk peresilniy punktidan bizlarni qo'riqlab kelgan soqchilar odatdagidek mol sanagandek bir-bir sanab lager boshliqlari ixtiyoriga topshirishlari bilanoq, ularni qiziqtirgan birinchi narsa kimning qo'lidan qanday hunar kelishligi bo'ldi. Chunki lager eshigiga qadam qolgan shu soat, shu daqiqadan boshlab yozuvchi yozuvchimas, ministr ministrmas, ishchi kuchiga, qulga aylangan edik. Endi sen kasbingga, kuching yetganiga qarab emas, lager boshliqlari nimaiki ishni buyursa, shuni qilasan.

Lagerga kelgan birinchi kunimizdanoq, odatdagidek yerga o'tqazib, eng awal oramizda betonchi, yuk tashuvchi, santexnik, g'isht teruvchi, temirchilar borligini surishtirishdi. Oramizda men degan biron odam topilmadi. Ammo, oshpaz, tikuvchi, sartarosh, nonvoy, yamoqchilar bormi, deb so'raganda, mendan boshqa ko'pchilik «men», «men!» deb barobariga qol ko'tara boshladi. Hattoki Qarag'anda lageridan kelayotgan leningradlik tarixchi olim ham nonvoy bormi desa ham, keyin tikuvchi bormi desa ham qo'l ko'tarabergan edi. Bunchalik ko'p hunarlarni qachon o'rganib ulgurgansiz, deb so'rasam, besh-o'n yil lagerma-lager yurib uning tuzini totib, sharoitiga tushunib qolgan odam bo'lgani uchun:

- Qol ko'targanlarning hammasi ham shu hunarlarni biladi deb o'ylaysanmi? Birortasi ham bilmaydi, maqsad, yetmish darajada qahraton sovuq, bo'ronli qish-qirovli kunlarda usti yopiq, issiqroq joyga bir amallab kirib olib jon saqlash xolos, - dedi.

Lager boshliqlari kerakli kasb egalarini tanlab bir tomonga o'tkazib, qolganlarga navbat yetgach, «Yusupov kim?» deb alohida urg'u bilan so'radi.

- Sen shoir ekansan-a! Bu yerda qalam bilan qog'oz yo'q. Faqat belkurak bilan cho'kich bor, mehnat sharafimiz, baxtimiz deb kuylab kelgansan, mana endi o'zing amalda ko'rasan, - deb yer qazuvchilar brigadasiga qo'shib qoydi. Ertasiga ishga chiqdim. Qo'limga yer qazish uchun cho'kich, shag'alni tashish uchun g'altak arava tutqazishdi.

Men bu lagerga kelgan vaqtimda bir yarim yildan ortiq quyosh ko'rmay qamoqda yotib, tergovchilarning haqorat, zug'umlari, peresilniy punktdagi fojialarning ruhiy qiynoqlari, bir necha oylik yol azoblari, uyqusizlik, ochliklardan keyin ozib-to'zib, vaznim ham bolalarnikidek 40 - 50 kilogrammga kelib qolgan edi. Uning ustiga qon bosimim bosh aylanar darajasida pasayib ketgan. Bu yerlarda o'n bir oy qish, bir oygina iliq-issiq kunlar bo'lib, yerlar abadiy muzlikdan iborat bo'lgani uchun cho'kich bilan muzliklarni qazib bir g'altak aravani to'latish ham mening ahvolimda oson emas. Sherigimning yordamida bir amallab to'latib, uni yerdan uzib kotarganimda ham taxta yo'lning ustidan ikki qadam yurmasimdan oq qolim qaltirab, muvozanatimni saqlolmasdan ag'darib yuborardim. Atrofidagilar awaliga kulsalar ham, oradan ko'p otmay, faqat planni o'laydigan brigadir menga:

- Keruxa, sen mening brigadamda ishlashga yaramaysan, ishimni orqaga suryapsan, faqat mening brigadamga emas, umuman lagerga to'g'ri kelmay-san, seni qamoqda olib qolishlari kerak ekan, qamoqbop ekansan, - dedi.

Uning gapini eshitgan atrofdagilardan ba'zilari:

- Shoir ekan, uni mehnat lazzatidan mahrum qilma! Shu vaqtgacha mehnat - baxt, mehnat sharafshon keltiradi, deb yozib kelgan, lekin yaxshiroq mehnat qilmaganmi, bechora baxtga erisholmayapti. Erisholmagan baxtiga erishaman deb umid bilan bu yerga kelibdi, noumid qilma, mehnat qilsin, izlagan

baxtini shu yerdan topar, bunday sharafdan mahrum qilish insofdan emas, - derdi.

Albatta, bu alam bilan aytilgan gap edi. Buning tagida mana sen o'zing, shoir, shuncha mehnat qilib oxiri nima holding, mana bu yerga kelib, shu ahvolga tushib o'tiribsan-ku, mehnatingning qadriga yetishdimi? Mehnatning sovet kishilariga keltirgan shon-sharafi, baxti shumi? - degan adolatsizlikka qarshi nafrat, inson mehnatining qadri-qiymati yo'qligining ifodasi yotardi.

Mening ishim faqat brigadirga emas, sherigimga ham ma'qul kelmas, unga ham barobar ishlasha oladigan odam kerak edi. Berilgan ish bajarilmasa, sen uning nasibasiga zomin bolib, maxorka puli ishlashdan ham mahrum qilasan. G'altak aravani yurgizolmay bir marta, ikki marta yiqilganimdan keyin sherigimning rahmi keldi, shekilli, shag'al ortishni menga qoldirib, o'zi g'altak aravani oldi. Bu men uchun undan ham og'ir edi. Chunki menda ha deganda g'altak aravani tolatadigan darajada kuch, cho'kich bilan yer qazishga yetarli mador qolmagan edi. Meni holdan toyganimni, hech narsa qilolmasligimni sezgan sherigim Yura qolimdan choldchni olib, yer kovlashni ham, g'altak aravaga ortishni ham, tashishni ham o'zi qila boshladi. U hali yosh, endi yigirmaga kirgan edi. U mendan chekish-chekmasligimni so'rab, shu bahona ikkalamiz bir daqiqa nafas rostlab suhbatlashib qoldik. Qachondan beri bu yerdasan, degan savolinga Yura:

- Qamalganimga olti yil boldi, - deb javob qildi.

Yuraning bu javobiga hayron bo'ldim, ishonmadim. O'zi endi yigirmaga to'lgan bo'lsa, qanday qilib, olti yil o'tirgan bo'ladi? Yura yolg'on gapirmagan ekan. U g'arbiy ukrainalik bo'lib, nemislarning qurshovida qolganlari uchun ota-onalarini qayergadir lagerga io'natib, buni esa 14 yoshida balog'atga yetmaganlar kolonnasiga, keyin vatan xoini sifatida bu

yerga yuborilganini mendan olgan maxorkasini o'rab aytib berdi.

Bu yerda ishlab topgan puli maxorkaga ham zo'rg'a yetardi. Men bilan sherik bolib ishlasa, bu puldan ham mahrum bo'lishi aniq edi. Men buni istamasdim. Bu begunoh, yoshlikdan ota-onadan mahrum bolgan bu sho'rlikka rahmim keldi. Qo'lim qabaradimi, boshim aylanib yiqilamanmi, o'zim uchun bo'lmasa ham sherigimning nasibasini qirqmaslik uchun ham ishlashim kerak edi.

Boshqa nima chora!

Qo'limda biror kasbi-kor bo'lmagandan keyin yer qazishdan boshqa bu yerda nima ham qilish mumkin? Qo'limdan nima ham kelardi? Ammo boshqalardak ishlashga yararli kuch-quwat bo'lmasa, xo'sh, unda nima chora! Ishlamasang, seni bu yerda hech kim so'qimga boqmaydi. Ishlashga majbursan, ammo bu yerdagi qurilish ishlariga yaramasang-chi!

Tergovchining menga qolgan gunohlarining deyarli hammasi ham to'qib chiqarilgan bolsa ham, ammo tergov vaqtida unga - o'z vatanim, xalqimga bolgan sadoqatimni, tirik ekanman qalamim bilan, ijodim bilan isbotlayman, deganimda u zaharxanda bilan:

- Ijodim-a! Qalamim bilan emish! Ijod degan narsani endi xayolingga ham keltirma, ha! Buni kalgandan chiqarib tashla! Endi bundan buyoq senga qalam emas, belkurakka ham ishonmaymiz, - degan edi, shu gapi to'g'ri chiqdi.

Kishi mehnatdan o'lmaydi. Mehnat beaded emas, bir nafaslik uyqu, bir nafaslik dam olish senga maddad bo'ladi, mehnat yukidan xoli qiladi. Ammo qalbingga otilgan haqorat yukidan qochib qutulmoq amri mahol! U seni bir daqiqa xoli qo'ymaydi. Uyqingda ham, o'ngingda ham, hordiq chog'ingda ham, seni tark etmay kemiradi, ado qiladi! Qulni xayol o'ldiradi, deganlari shu emasmi!

Gunohi bor odam vijdoni bo'lsa mehnati bilan emas, o'limi bilan ham gunohini oqlashga rozi bo'ladi. Har qanday mashaqqat, mehnatga chidaydi, bardosh beradi. Buning huzuri bor. Mashaqqat chekkan saring gunohing yuvilgandek yengil tortasan, bardamlashasan. Ammo bu yerda-chi, qilmagan qaysi gunohingni mehnating bilan yuvishing kerak! Senga qilgan tuhmatlari, nomingni aytishdan jirkanib qilgan malomatlari uchunmi? Peshona-yu yelkalaringga bosilgan tamg'alar badaligami?

Lagerga kelganimning birinchi kunlaridanoq insoniy qiyofadan, ota-onam umid bilan qolgan ismimdan mahrum qilishib, mahbuslik tamg'asi bosildi. Mahbuslik liboslarini berishdi. Oyoq kiyimi sifatida o'likdanmi, tirikdanmi qolgan, teshiklaridan sim o'tkazilgan, eskirib bujmayib ketgan botinka, yomg'ir-qorda kiyish uchun ming yamoq paxtalik shim, telegreyka, o'zimga mutlaqo loyiq bo'lmagan (bu vaqtda vaznim 50 kilogramm atrofida edi), halpirlagan, pochalari uzun jomakor, bosh kiyim sifatida lagerning mashinalari tikkan qalpoq, uning ustidan kiyish uchun boshlik (buni birinchi eshitishim), brezentdan qilingan qolqoplardan iborat edi. Bu yerning qoidasi shu: sening ixtiyoringda hech narsa yo'q, berganiniyib, berganiniyeysan. Qor-yomg'ir joningdan o'tsa, yamab-yasqab olish bu sening o'zingga bog'liq.

Kiyimlarni olganingdan keyin qor, yomg'irda ham ketmaydigan bo'yoq bilan ichki kiyimingdan tortib ustki kiyiminggacha, hatto bosh kiyim, shimlaringni ko'rinadigan old qismiga, yelkalaringga noming o'rninga o'zingga qo'rilgan raqamni yozishadi, shu bugundan boshlab ota-onang qolgan nom bilan xayrlashasan. Seni kimliging shu bugundan boshlab yelkangga yozilgan raqam bilan yuritiladi, bu seni inson nomi bilan atashga ham munosib ko'rmaslik, odam qatoridan c.hiqarilganingga ishora edi. Kiyim-kechaklar yamog'i-

ga chidash mumkin, chidaysan, ammo sening insonliging, sening qalbingga bosilgan haqorat tamg'asini kotarish, unga chidash!.. Qaysi gunohimga, qaysi yozuv qilmishimga axir bu haqoratlar!.. Qaysi axir!!!

Sen har qanday jismoniy mashaqqat, har qanday ruhiy haqoratlarga chidashga mahkumsan!

Otilmay qolgan tirik murdalar deyilishining ma'nosi ham axir shunda emasmi?! Bu lagerdagi mahbuslar posilka olish, uydagilar bilan ko'rishish u yoqda tursin, bir enlik xat yozish nima degan narsa - shundan ham mahrum qilingan-ku! Sening o'lik-tirikliging, qayerda ekaningni birov bilmasa, shuning o'zi tirik murdalik emasmi? Til-zaboning bo'lsa-yu dilingdagini gapirolmasang, biron dardkashing bo'lmasa, imkoniyatlaringning hammasidan birvarakayiga mahrum bo'lsang, tirikliging, inson bo'lib yurganing qayoqda qoldi. Tiriklar qabristoni deyilishining sababi shunda emasmi?

Agar bordi-yu nohaq qamaganlarini biror tashkilotga yozgudek bo'lsang u mahalda oilang, yor-birodarlaring, qarindosh-urug'laringga xat yozishdan mahrum bo'lasan. Chunki senga bir, ikki yilda bir marta xat yozish huquqi berilgan. Nega? Nima uchun?.. Maqsad nima? Bu qiynoq nega? Qarindosh-urug', bola-chaqang sendan umidini uzsin uchunmi? Jismoniy azob yetmagandek ruhiy azoblash uchunmi?

Bu yerda avgustning o'rtalaridan kunlar sovub, qor yog'ib, qish boshlanadi. Shimolning kishini uchi-rib ketgudek bo'ronlari boshlanadi. Bir necha oydan beri botmasdan ufqlarda aylanib yurgan quyosh, endi butunlay ko'rinmay, olti oylik qutb tuni boshlanadi. Garchand hozircha quyosh qor bo'ronlari orasida miltillab ko'rinib qo'ysa ham, ammo butun zulumat, butun qorong'ulik mening qalbimga, mening o'ylarimga cho'kkandi, bir men emas, menga o'xshash baraklarda yotgan ming-minglab tutqunlarning qalbini

qon qaqshatardi. Qishning qahraton bo'ronlari, sara-ton jaziramalariga kishi chora topadi, ammo haqorat, xo'rliklar, ruhiy azoblar seni kemirib, beiloj qolasan.

Yura bilan birga ishlash ham ortiqcha nasib etmadi. Mening qornimdan past qismida og'riq paydo bo'lib sanitariya bo'limi bor lagerga olib ketishdi. Shu sabab bir-ikki kun lagerda qoldim. Vrachlar biror jiddiy kasal topolmadi. Qorindagi og'riq yog'sizlik, quwatsizlikdan bo'lib, buning birdan-bir chorasi yog'liq narsa yemak, yoki bandaj taqib ishlash edi. Yo'q yog'ni qayerdan topasan! Bir oyda bergan pullari maxorka, yarim kilo mol yog'i, yarim kilo qand olishga bazo'r yetadi. Ikki chaqmoq qandni alyumin krushkaga solib, qotib ketgan mol yog'ini saiyog' o'rnida, shuni ham topilganiga shukr qilib bir mahal yeyar edim.

So'qimga soyiladigan molni kerak bolgani uchun parvarish qilinganidek, mening ham mehnatim zarur bolgani uchun bandajni o'zlari topib berishdi. Bandaj bilan ham g'altak aravani kotarganimda oshqozon-ichaklarim pastga sirg'alib tushgandek, qornimda sanchiq paydo bolardi.

Men ishga chiqqanimda sherigim Yura yo'q edi. Uning isitmasi baland bo'lib, qayt qilishiga qaramasdan, sen yoshsan, o'lmaysan deb ishga chiqarishgan. Ko'r ichagi yorilib, o'zidan ketgach, ishning oxirigacha bir chekkaga yotqizib qoyishgan, ammo o'ziga kelmagan. Vrachlar chopib kelardi, deysanmi, lagerga o'ligini olib kelishgan.

Lagerda o'limning sababi surishtirilmaydi. Bilgan biladi, bilmagan yo'q, oyog'iga nomer bog'lab, qayergadir olib borib yalang'och, kafan qayoqda, kiyimlarini yechib olib ko'mib keladilar. Bu yerda o'lgan bebaxtlar ikki gaz kafanlik dokadan ham benasib bo'ladi. Bu yerdagi mahbuslarni o'limga loyiq odamlar deb qaralgani uchun, operatsiya qilinganda tuzalguncha oylab yotishi kerak bolsa ham bir haftagacha

yotqizmay, o'lsa ishda o'lsin deb ishga haydashardi. Ayniqsa, yovg'on ovqat, 10-12 soatli og'ir mehnat sababli dabba, churrasi tushish bilan operatsiya qilnadiganlar ko'p bo'lardi. Vaqtdan ilgari ishga chiqarib, operatsiya qilingan joyi so'qilib, sochilib ketib, to o'lguncha qayta-qayta ochib, tikilaberardi. Ammo ishdan qolmasligi kerak.

Men bunday bevaqt, xor-zor kafansiz ko'milganlarni oyiari ekanman, yo'q bo'lib ketgan Abdulla Qodiriy, Akmal Ikromov, Usmon Nosir kabi qator-qator o'zbek xalqining aziz, buyuk farzandlari xayolimdan tinchlik bermay o'taberardi. Ularning o'lim oldida haqsizlikdan qilgan ohi-nolalari, qarg'ishlari eshitilaberardi. O'zimning amlarim ham unutilib ketardi. Dunyo shu ekan, insof kutib bo'lmaydi, degan fikrga ham kelib qolardim. Shunday choqda bandaj taqib yurishim ham, o'z ahvolim ham bir dam unutilardi. Bu yerda ertaga nima bo'lishingni bilmay umring omonatdek yashaysan. Har kuni, har soatda kutilmagan bir fojia, baxtsizlik ustiga bir baxtsizlik. Otilmay, osilmay qolgan tirik murdalar deganlaridek, tirik qolganlar bu yerda konvoylar tomonidan otilib ketardilar.

Ertalab soat oltida turganicha kech soat sakkizgacha tik oyoqda ishlaymiz. Ertalab nonushtaga bir cho'mich yog'siz so'k, yoki suli bo'tqani yegach, darbozadan chiqish oldidan minglab mahbuslarni qor, yomg'ir ostida qayta-qayta brigadasi bilan birma-bir sanab chiqish oldidan:

- Gapni to'xtatinglar, qatordan bir qadam orqada qolish yoki chetga chiqish qochish hisoblanib, ogohlantirilmasdan o't ochiladi, qani, yurlaring, - degan har kungi buyruq bir necha marta takrorlanadi.

Bular hammasi asabingni buzib, mahbusligingni eslatib turish uchun qilinadi. Bizlar ishlaydigan qurilish maydoni lagerdan ikki-uch kilometr narida bo'lib, yomg'irli kunlarda ivib, sasib, u yorga yetgun-

cha chalajon, kekxa, menga o'xshash bandaj taqib ishlaydigan odamlar holdan toyardi. O'z nafsini oylagan brigadirlar ahvoling bilan hisoblashmaydilar.

Bizlar ishlaydigan joydan bir oz narida xotin mahbuslar ishlashardi. Garchand bizlar ularni, ular bizlarni ko'rmasalar ham, lekin vaqti-vaqti bilan nola tola, faiyoddan iborat, Xudoga yolborib:


*Bizlarni kim ayirdi,
Kim qildi bizrd judo?!
Jazosini o'zing ber,
Mehribon, qodirXudo!..*

deb aytgan ashulalari eshitilardi. Ammo ashula oxiriga yetmasdan soqchilar ularning nafaslarini o'chirardi.

Xudoga yolborib faryod chekayotgan bu munis ayollar kimlar? Bular urush davrida nemislarning qurshovida qolgan, shuning uchun vatan xoini, yoki josuslikda ayblanganlar edi. Deyarli ko'pchiligi Ukraina, Belorussiya, Boltiq boyidan kelgan sho'rlik xotin-qizlar.

Yaqindagina o'z tug'ishgan singlisini shu lagerga kelganligi daragini topib, juda bo'lmasa ovozi ni eshitib, hol-ahvol so'rash niyatida devor yoniga yaqinlashganda uni ko'rgan soqchi otib tashlagan. Mashinasining ustiga chiqib onasi bilan so'zlashmoqchi bolgan shoferni otilib o'lganiga hali bir oycha ham bo'lgani yo'q. Singlimni ko'raman, xotini bir marta ko'rsam armonim yo'q, deb otilib o'lganlar bir yilda bir necha marta bo'lib turadi. Ammo shunga qaramay, xo'rlik, hijron jonidan bezdirgan visolga tashnalar tavakkal qilishdan toymasdilar.

Tiriklar qabristoni deyilishining sabablaridan biri ana shu emasmikan!



Afsuski, bitta emas! Bu yerda ajalingdan besh kun oldin olib ketadigan voqealarni har kuni kutsa bolar-di. Har kuni bir fojia. Birov otilib, birov yuk ko'taradigan krandan yiqilib, kimdir 70 darajali sovuqda o'pkasimi, nozik joyinimi sovuqqa oldirib olib ketaberdi. Bu yerda olibdi degan ovozni eshitasan-u, nega degan gapni, qayerga, qachon dafn qilinganini bilmaysan. Bu yerda olding - tamom. Bu yerda sening ixtiyoring tiringingda ham, olganingda ham lager boshliqlarining ixtiyorida. Xudo umr bersa, bir mo'jiza yuz berib, qutulib chiqarman deb umid qilasan-u, ba'zan mening boshimda ham mana shunday bevaqt ofatlar, olimlar tashvish solgan damlar tez-tez bolardi.

Yer qazish, g'altak arava tashish ishlariga yaramanimdan keyin yengilroq, qor, yomg'irdan panaroq deb santexmontajchilar brigadasiga o'tdim. Mahbuslar uchun yengil ish boladimi? Yengili shuki, ishlayсанu faqat o'lmayсан. Men qiladigan ishim yangi qurilayotgan binolarga radiatorlar o'rnatish uchun joy tayyorlash. Bir qolimda shlamburg (g'isht devorlarni oyish uchun trubadan qilingan uch tomoni tishli asbob), bir qolimda 10 - 15 kilogramm bolg'a (kichkina, yengil bolg'a bilan shlamburgni urib, devorni teshib bo'lmaydi) bilan g'isht devorlarni o'ib, awal unga yog'och qoziq, keyin kranshteyn qoqib chiqaman. Albatta o'n soat bolg'a bilan g'ishtni o'yib, moljaldagi ishni bajarish uchun ham hamma qatori kuch bo'lishi kerak. Bo'lmasa maxorka puli ham ololmayсан. Kuning lagerning bir cho'mich bo'tqasiga qoladi. Yo shu bilan yashashga, yo mehnatga chidashing kerak.

Lekin 45 - 50 daraja sovuq, hali eshik-derazalari qurilmagan, hamma yog'idan shamol g'urillab turgan binoda 10-12 soat davomida och-nahor 15 kilogrammli bolg'ani ko'tarib urish bandaj taqib yurgan men uchun og'irlik qilardi.

Nihoyatda og'ir jismoniy mehnatda qolganimdan xabardor bo'lgan, 7 - 8 yildan shu lagerda mahbuslikda umr o'tkazayotgan toshkentlik vrach Turg'un Alimuhamedovning rahm-shafqati sabab bo'lib, yengilroq ishga, navbatchi santexmontajchi bo'lib ishlashga o'tdim. Ammo yengil sanalgan bu yumushning hatto o'limimga ham rozi qiladigan azob-uqubatlarini bilishini bilmagan ekanman.

Garchand menga begona bu hunar jismoniy jihatdan asriy muzlikni cho'kich bilan kovlashdan ko'ra yengil, usti yopiq ustaxonada bo'lsa ham, ammo tutqunlik, lager hayotidagi kutilmagan azoblar, dahshatli hodisalar bo'lardiki, ba'zan 25 yil qamoqda o'tirishga ham rozi bo'lib ketarding.

Men navbatchilik qiladigan ustaxona lagerdan 1-2 kilometr narida edi. Sovuq 45 - 50 darajaga yetib, qor bo'ronlari boshlangan kunlari mahbuslar ba'zan ishga chiqarilmasdi. Bo'ron vaqtida sovuq 50 - 60 darajadan oshardi. Ammo menga o'xshagan tungi navbatchilar, temirchilik kabi kasb egalari qurilishga erangi zarur narsalarni tayyorlash uchun har qanday ob-havo sharoitida ham ishga chiqishga majbur edi.

Shunday kezlarda qollarida avtomat va itlar ushlab qurollangan nazoratchilar bizlarni safga tizishardi-da, har doimgidek «bir qadam safdan tashqariga chiqish yoki orqada qolish qochish hisoblanib, ogohlantirilmadan o't ochiladi», deb yurishga buyruq berishardi.

Atrof tep-tekis. Tun. Qorong'i zulmat. Dahshatli qor bo'roni atrofingda och bo'ridek uvillar, ustimizda lager bergan paxtalik telogreyka yoki jun po'stin, paxtalik shim, uning ustidan brezentga o'xshash mato-dan jomakor shim, yamoq-yamoq kigiz etik, qo'lqop. Bulardan tashqari, o'zing orttirgan yoki uydan yuborilgan issiq kiyimlarga o'ralib olganimizga qaramay, bo'ronning zo'rligidan qor ichimizga kirib qolganini bilmay qolardik.

Ikki ko'zdan boshqa hamma yoq o'ralgan bolib, ochiq qolgan yeringni bir damda sovuq urib ketardi. Dahshatli bo'ron esa ko'z ochirmasdi. Sovuqdan yoshlangan ko'zlarda kipriklar yong'oqning yarim pallasidek muzlab qolardi. Bir qadam oldinni ko'rish ham og'ir edi. Shunday vaqtlarda yanglishib, safdan bir oz tashqariga chiqdingmi, hayoting tamom, qochgan hisoblanib ogohlantirmasdan otib tashlaydi. O'lib ketish hech gap emas. Sen uchun hech kim javob bermaydi. Meni mana shu bevaqt o'lim xavfi tashvishga solardi. Umr bersa 25 yilda ham qamoqdan qutulasan, bunday tasodiflardan olib ketishni har daqiqa kutish mumkin edi.

Juda quwatim ketib qolgandi. Kuchim boricha, qorbo'ron va sovuq bilan olishib, safdagilarga yetib yurishga harakat qilardim. Bir kuni sovuqdan ikki ko'zim yumulib, muzlab qoldi. Muzni olsam, kipriklarim uzilib chiqadi. Noilojlikdan yonimdagi sherigimga «meni ushlab bor», dedim. Bizning o'zaro gaplashganimizga ko'zi tushgan kolonna boshlig'i nimadandir shubhalanib, tikonli sim darvoza oldiga yaqinlashganimizda bizni to'xtatib: «Hammang o'tir, tursang otilasani», deb yubordi. Nachora, hamma o'tirdi. Kimlarning oyoqlari, ba'zilarning yuzlarini sovuq oldi. Men esa ustaxonaga eson-omon, o'lmay tirik kelganimga shukr qilardim. Chunki, qamoq muddati tugab, endi ozodlikka chiqish paytida bekordan-bekor qancha mahbuslarning o'lib ketganiga guvoh bolganman.

Ular kimlar edi? Bular 10 - 15 yil lagerning og'ir mehnatini qilib holdan toyib yiqilgan armiyaning keksa generallari. Bular butun Krasnoyarsk olkasidagi shaharlar, katta-katta qurilishning butun loyihalarini tayyorlab beruvchi yigirma besh yilga hukm qilinib lagerning bo'tqasini yeb yashovchi mashhur me'morlar, injener sho'rliklar edi. Norilsk posyolkasi deb ataluvchi shaharni poydevoridan tortib to'rnigacba

¹ -W.4.

yopib, bitirib beradiganlar ham, eng xarob, xo'rlik va azoblarda yashaydiganlar ham shular edi. Bular tabiatan mehnat azobini birov zo'rlamasa ham o'zlariga o'zlari sotib oladigan odamlar. Bular chala-chulpa qo'l uchida xo'jako'rsinga ish qilishga o'rganmagan vijdonli odamlar. Xom xatala ishga ko'ngillari to'lmay, bo'lgancha bo'lar, menga nima deyish xayollariga kelmaydigan, hatto ish vaqtida mahbus ekanliklarini ham esdan chiqarib, o'zaro janjallashishga ham boradigan fidoyi kishilar edi. Chunki ular halollikka o'rgangan odamlar. Shunday odamlarni qo'shni lagerdagi ishlasa ishlab, ishlamasa bir-birining narsasini o'g'irlab, qimor o'nab yashaydigan muttahamlar xalq dushmanlari, fashistlar, deb devor orqasidan haqorat qilib, o'zlarini esa bizlar o'g'ri bo'lsak ham xalqning do'stimiz deyishardi.

Bu o'g'ri muttahamlarning haqoratlari yetmagandek siyosiy mahbuslar qurgan shaharlarni radio, markaziy gazetalarda sharmandalarcha komsomollar otriyadi, deb atashar, komsomollar o'zlariga topshirilgan obyektlarni muddatidan ilgari sharaf bilan topshirdi deb hamma yoqqa jar ham solishardi. Bundan boxabar odamlar bunga ishonsalar ham, ammo bu ishlarini kim qilganini o'z ko'zlari bilan ko'rib guvohi bolgan shu yerlik aholi, komsomollarning o'zlari gazeta, radiodagi bu axborotlarni o'qib nima deb o'ylardi? Garchi mahbuslarning xizmatlari aytishga munosib ko'rilmay, sir tutilsa, komsomollar qilmagan ishni ular qildi, deb yolg'on ishlatishning nima zarurati bor edi! Bu yoshlarni yolg'onga o'rgatib, rostgo'y odamlarni g'azablan-tirmaydimi? Ana shu fidoyilar esa bu yolg'onlarga tabiiy bir hoi deb qaraganlaridanmi, yoki bunday yolg'on axborotlarga o'rganib qolganlaridanmi, tabiatan pishiq ish qilish qonlariga singib ketganidanmi, g'azablanish o'rniga hatto ish vaqtida bir-birlari bilan bunday qilma, bunday qil, deb yoqa bo'g'ishgudek bolardilar. Chunki

dushman sanalgan bu odamlar aslida halol, vijdonli, e'tiqodi butun odamlar edilar.

Qor bo'ronlarida yurolmay, beixtiyor safdan chetga chiqib, konvoylar otib tashlagan odamlar ham shunday halol, vijdonli odamlardan edilar.

Men Perituladan qamalganiga qancha bo'lgani, shunday mehnatkash halol odam bo'la turib shikoyat yozganmi, yozmaganini so'raganimda, u zaharxanda bilan:

- Kimga? Nima deb yozaman? Meni nohaq qamadirning debmi? Nohaq qamaganlarini o'zlari bilishmaydimi? Yoki mo'vlovga arz qilsammi, a? (Stalin-ni lagerdagilar nomini aytmay, mo'ylov laqabi bilan atardik) - dedi-da, nima uchundir qah-qah urib kula boshladi. - Mana, mo'ylovga arz yozganlarning bittasi shumi? - deb yonidagi baland bo'li moldaviyalik Mishani ko'rsatdi.

Men bu haqda og'iz ochganimga ming afsus qildim.

Mishaning unutilgan dardlarini yangiladim. Es-kirgan yarasini tirnadim. Faqat unga emas, o'zimga ham ortiqcha dilsiyohlik orttirdim.

- Bizlarga arz-dod qilish, hukm xato deb shikoyat yozish mumkin emas. Bizlar umrbod qamoqqa mah-kum odamlarmiz, shuni bilasanmi? Bizlarni hukumat dushman deb qamagandan keyin dushmanning gapiga, ming haq bo'lsang ham, ming dod desang ham, ishonadimi? Ishonmaydi! Ishonmaydi... - Bu gaplarni u shunday *g'azab* bilan aytdiki, nazarimda bu gapni qo'zg'aganim uchun qo'lidagi miska bilan meni urgudek edi. Chunki, Mishkaning qamal-gandan keyingi hayotidagi baxtsizliklariga Moskvaga, yuqori tashki-lotlarga yozgan shikoyati sabab bolgan ekan.

«Bizga shikoyat yozish mumkin emas», deganining sababi odatda 8 - 10 yil muddatga qamal-ganlarning deyarli hammasi haqmi, nohaqmi, norozilik bildirib shikoyat yozishmas ekan, chunki yozganing bilan

1 -W.4.

hech mahal biror ijobiy natija chiqmagan. Hatto shikoyat yozish ular uchun xavfli sanalarkan. Negaki, yozgan shikoyating rahbarlarning nafsoniyatiga tegib, senga nisbatan yana ham nafratini qo'zg'atarikan. Sening shikoyatingni ular dushmanlarning sovet qonuniga bolgan ishonchsizligining yana bir belgisi, deb qabul qilib qamoq muddatini kamaytirish o'rniga ustiga-ustak qo'shib qoyarkan. Mana shunday insofsizlik Mishaning boshidan ham kechibdi.

Misha lagerda 6 yil otirgandan keyin, o'zining halolligi, mehnatkashligi, awalo begunohligiga ishonib, qolgan 4 yilini olib tashlashni so'rab, davlat ham insofga kelib qolgandir degan niyatda SSSR bosh prokuroriga shikoyat yozibdi. Shikoyatni olgach, qaytadan tergov boshlab, shikoyat yozadigan hali senmi deb, yo'q gunohlarini zo'rlab botyniga ilib, lagerda o'tkazgan olti yilini ham bekor qilib, yozgan shikoyatiga qaytadan o'n yil qamoqqa hukm qilindi deb javob berishibdi. Mana senga arz qilishning oqibati. Mana adolat!

Katta umid bilan, bir marhamat kutib arz yozgan Misha bu javobni olgandan keyin, dunyoda haqiqat borligidan umid uzib bundan buyoq diydor ko'rishish yo'q deb, o'sha kundan boshlab oilasi bilan aloqasini butunlay uzgan ekan. Qanday dahshat! Axir, bu o'zini o'zi tirik ko'mish-ku!

Mening yuzimga tepgan cheksiz qayg'u va umidsizlikni sezgan Peritula:

- Sen Mishaning gapidan cho'chima, sening muddating 25 yil ekan, arz-dod yozasanmi, shikoyat qilasanmi, insof berib kamaytirsa kamaytiradi-yu ustiga qo'shib qoymaydi, nimani qo'shadi. Yozsang, hech narsa yo'qotmaysan, - deb taskin berib, lagerda yasalgan qo'lbola kostryulkadagi ovqatning qolganini miskaga solib icha boshladi.

Bu gaplarni eshitib men o'zimcha, o'n yil hukm qilinganlar qayta diydor ko'rishishdan umid uzib, o'z-

larini o'ldiga chiqarsalar, 25 yilga hukm qilingan men xotinim, bola-chaqalarim bilan qayta ko'rishishdan qandoq umid qilay?

Mening dunyoyim bu - to'rt tomoni tikonli sim bilan o'ralgan devor, uvada kiyim, yemishim arpa-yu so'k. Xayolimda birdan bir narsa xotin, bolalarim, erkinlik. Ammo ozodlikda yeb-ichib, toy-u tomoshalarda bezanib yurganlarning oy-xayollari-chil.. Xonanda-yu sozandalarning dilni qitiqlovchi kuylari yangraganda nozu-ne'matlarga to'la dasturxon atro-fida o'tirib, raqslarga tort-tort bo'lib, qiyqiriq avjga chiqqanda, nahot bizlarni birov esga olsa!

Noumid shayton! Peritula aytgandek, karnaychidan puv, shikoyat yozsam, nima yo'qotaman? Bordi-yu shikoyatimga gunohi yo'q, ozod qilinsin yoki qamoq muddati qisqartirilsin degan javob kelib qolsa-ya! Axir, hayotda ne-ne mo'jizalar roy bermaydi!!! Shikoyat yozishdan o'zga nima chora! 25 yil qayoqda-yu, 10 yil qayoqda! Oh banda, nimalarga ko'nikmaydi!

Noumid - shayton.

Mo'jiza

Fotihaga qol ochib duo qilinganda: «Xudoyo Xudovando, quruq tuhmatdan, bevaqt olimdan hamisha o'zing asra, do'zax azoblarini hech bandangga ko'rsatma», deb niyat qilinardi. Gunohkori osiy bandalarini u dunyoda muz do'zaxdan olov do'zaxga, goh olov do'zaxdan muz do'zaxga tashlab, yolg'onchi-yu, tuhmat qilganlarning tilini ilon-chayonlarga chaqtirib, vujudini kanalarga talatarkansan, Parvardigor, ammo men yashayotgan bu lagerning undan farqi bormi! Men senga nima gunoh qilaqoluvdim, Parvardigor!

Qirq, ellik daraja kun issig'ida yonib yotgan temir vagonda 100 - 150 odam tiqilib, uning ustiga o'zi o'tirgan tuvakning sassig'ida, haftalab qultum suvga zor bo'lib yashasang, bu qaysi do'zax azobidan kam!

Bunga noshukrchilik qilsang, dunyoning bir chekkasidagi o'n bir oy qish, 50 - 60 darajali sovuq, bo'ron bo'ladigan, olti oy tun, quyosh ko'rmaydigan joyga tashlasalar, yil boyi kana-yu qandala, burgalar uyqu bermay talasa, bundan boshqa yana qanday do'zax bo'ladi? Do'zax azobining o'zi shu emasmi?

O'zing qilmagan ishlarni qilding, rostni yolg'on deb, tuhmat qilgan tergovchi-yu sudlarni jazolamay, nega begunoh, haqiqatni aytgan mehnatkash, halol bandalaringni bu kunga solding, Parvardigor!

KGB qamoqxonasidagi qandala, burgalar chaqishidan qutuldim desam, mana endi undan battariga muhtalo bo'ldim. U yerda qaynoq suv quyib qandalalarni yo'qotardik, bu yerda uch qavatli narlarga suv quyib bo'ladimi? Bu yerda kana, qandalalarga qarshi kurashning birdan bir chorasi faqatgina deraza, eshiklarning teshiklarini suvab, bir kecha-kunduz oltin gugurt tutatish. Ammo, uning ko'rpa-yostiqlarning mag'zi-mag'ziga singib ketgan, dimog'larni achituvchi sassig'idan uxlab bolmasdi. Sassig'i ko'rpalardan haftalab arimasdi. Derazalarni esa ochib, barakni shamollatishning iloji yo'q, chunki tashqari 50 - 60 daraja sovuq, bo'ron. Umuman bu yerda yil boyi derazalar ochilmaydi. Qish boyi qoningni kana so'rsa bir necha haftalik iliq kunlarda esa torf botqoqzorining chivinlari talab, ko'zingni ochirmaydi. Bir tomondan kechagina tutatilgan oltingugurtning sassig'i, bir yoqda xayol azoblari... Tuni boyi uxlamay, tongga yaqin endigina ko'zim ilinganda, niho-yatda vahimali tush ko'rib uyg'ondim.

Uyg'onganda ham ko'z yoshlarim bilan yiglab, Qur'on o'qib uyg'ondim.

Tushimda Toshkentdagi Ko'kaldosh madrasasimish, kuppa-kunduz kuni. Birdaniga qibla tomondan qop-qora bulut yopirilib, butun atrofni bir nafasda qorong'ulik bosib ketganmish. Bulut bilan birga

shunday bir bo'ron turganmishki, oyog'imni yerdan uzib meni uchirib ketibdi. Agar bir joyga olib borib urgudek yoki tashlab yuborgudek bo'lsa bormi, parcha-parcha bo'lishim turgan gap. Men bor kuchim bilan tepalikdagi «Tikonli mozor» degan qabristonning bir burchagidagi Avaz devonaning g'origa kirib jon saqlab qolish uchun uning yonidagi tolni ushlab olishga intilarmishman. Bo'ron esa o'z holimga qo'lmay, osmonga uchirib ketarmish. G'or yonidagi tolga zo'rg'a yaqinlashib, hali unga yopishib olgunimcha ham bo'lmay, shu mahalda bulutlar orasidan, xuddi tanasi buzoqdek, har bitta qanoti quchoqdek keladigan qop-qora qush paydo bo'lib, changallarini yoyib men tomon tashlanmoqchi bo'lib kelaboshladi. Uni ko'rdim-u endi kunim bitibdi, olimim muqarrar ekan deb, bu ofatdan asrashni so'rab emas, faqatgina bilib-bilmas ota-onamga qilgan gunohlarim, bergan ozorlarim bo'lsa shunga Xudoyi taolodan uzr so'rab, ko'z yoshlarim bilan kalima keltira boshladim, chunki ota-onam oldida qilgan gunohim bo'lmasa, undan boshqa biror odam, yoki xalqim oldida uzr so'raydigan gunohim yo'q edi. Bundan tashqari, men uchun eng muqaddas narsa, bu ota-onamning rizoligi edi, xolos! Tushimda ko'z yoshlarim bilan Xudoga yolborib, kalima keltirishim bilanoq, hozirgina butun osmonni zim-ziyo qilib qoplab turgan qop-qora bulut ham, qanotini yoyib menga tashlanmoqchi bo'lib kelayotgan bahaybat yowoyi qora qush ham birdaniga qayoqqadir g'oyib bo'lib, men esa peshin paytimish-da, quyosh chiqib, hovlisiga terilgan g'ishtlari top-toza, yarqirab turgan Laylak maschitda paydo bo'lib qolibman. Hamma yoq nur, men o'zim ozoda kiyimlarda! Tushimning davomi nima bilan tugadi, eslolmayman-u, shu vaqtda, baland ovoz bilan qilgan tilovatimni eshitib uyg'onib ketgan yonimda yotgan qo'shnim: «Hoy, nega baqirasan, uyqusirama, yigla-

ma...» deb turtib meni uyg'qtib yubordi. Tushimda o'qigan duoyim hamon qulog'imda jaranglab turardi. Uyg'ondim-u shu zahoti xayolimga: «Ohim endi Xudoga yetibdi, menga yopirilgan balolar daf bo'lib, falokatlarim aribdi. Endi uyga ketarkanman», degan fikr keldi. Bunday oyiashimga ishonarli sabab ham bor edi. Maschit - muqaddas, gunohlar ariydigan joy, Quyosh - yorug'lik, bulut bilan qora qushning g'oyib bo'lishi esa boshimdan falokatlarining arishi edi. Bundan tashqari yaqin orada bir mo'jiza ro^ berishi, yaxshilik bo'lishi haqidagi gaplar keyingi vaqtlarda mahbuslar og'zidan tushmay qolgan edi, bu bejiz emas edi, jon bor edi. Bir necha kun xayolim shu tush quvonchi bilan band bo'ldi. Bu tushimning taTairini Moskvaga yozgan shikoyatimning ijobiy javobiga yo^dim. Faqatgina bu emas, bu tush menda qandaydir yangidan kuch paydo qildi. Mening ruhimni ko'targan narsa yana shunda ediki, bu tush o'zimning kimligimni o'zimga tanitdi. E'tiqodimning sinovi bo'ldi. Har qanday dahshat, hattoki o'lim oldida ham o'z jonimni o'ylamay, qo'rquv bilmay, qilgan gunohlarimni dadil tan olishga yetishganimning timsoli edi. Bu peshonaga nima yozilgan bolsa, shuni ko'rish, faqat imonu haqiqatga suyanib qolganim, poklanganimning nishonasi edi.

Ozodlikka chiqqunimcha bu tushimni hech kimga aytmayman deb irim qildim. Tushimning ta'biri to'g'ri chiqdi, yaxshilikka boldi. Oradan ko'p o'tmay, yana bir ko'rgan tushim buni tasdiqladi.

Tushimdamish, lagerning temir darbozalari *ochilib*, men bolsam qizil ot minganimcha yop-yorug' bepoyon kenglikka chiqib qolganmishman. Lekin taxminan yuz-ikki yuz qadam yurmasimdan junli qolqopimning bir poyi lagerda qolgani esimga tushib, ortga qaytaymi deb oyianib, otimni to'xtatganicha uyg'onib qoldim.

Uyg'ondim-u nihoyatda quvonch bilan o'lana boshladim. Chunki bu tushim ta'biri oldingisidan ham xayrli edi. Bu oldingi ko'rgan tushimni tasdiqlardi.

Axir, tushda ot ko'rinsa murod, deyilgan. Demak, ot minib tikonli sim devorlardan tashqariga chiqib ketishim, bu qamoqdan qutulib, murodimga yetishimning belgisi edi! Ammo bir poy qolqopning qolishiga qanday ta'bir berish mumkin? Bu nimaning alomati! Bu ko'nglimni bir oz g'ash qildi. Bundan qat'i nazar, yaqin orada qandaydir mo'jiza ro'y berib, ozodlikka chiqib ketishimga zarracha shubham qolmagan edi. Shunday ishonch bilan yashay boshladim, tutqunlikda yaxshi tushdan boshqa quvontiradigan, umid qiladigan nimang bor!

Ko'rgan tushlarimning ta'birini biror odam noto'g'ri yo'yib ta'aimni xira qilib, birdan-bir umid, birdan-bir topgan shodligimdan ham mahrum qilmasin degan oy bilan qamoqdan qutulib chiqqunimga qadar hech kimga aytmay, ichimda saqladim. Bundan tashqari lagerdagilarning deyarli ko'pchiligida shunday e'tiqod, shunday bir xususiyat shakllanib qolgan ediki, bu sho'rliklar hayotlarida yolg'on-yashiq, aldovlarni boshdan kechiraberib, eshitaberib faqat tush emas, hatto uncha-muncha gaplarga ham, o'qiganlari, yozilganlarga ham ishonchlari qolmagandi. O'zimda-chi?!

Lagerdagi qaysi bir mahbusdan qaysi qilgan gunohingga, necha yilga qamalgansan? - deb so'rasang, hammasidan bir xilda - o'g'rilik qilibmanmi, odam o'ldiribmanmi? - degan javobni eshitasan. Faqat ular emas, mendan so'rasalar ham shu javobni qilgan bo'lardim. Lekin bulardan farqim shu ediki, ularning deyarli hammasi adolat borligiga, bu tuzoqdan eson-omon qutulib chiqishga ishonmay qoyishgandi. Bularning birdan-bir aytadigan gaplari, qamoq muddati tugagach, yana qandaydir yasama gunoh topmay uylarimizga qaytarsa bo'ldi, deyish edi. Ular qo-

nunga ishonchlarini yo'qotgan edilar. Adolat, haqiqat haqida gap ochilgudek bo'lsa, faqat zaharxanda, kulgi, kesatliq bilan gapirardilai. Adolat so'zini kinoyasiz, asabiylashmasdan aytmasdilar. Haqiqat haqida gapirsang, portlagudek bolardilar! Bu odamlar nohaqliklarni ko'raberib, to'lib ketgandi. Na chora! Qamoqning azoblaridan biri ham mana shu chorasizlik!

Nahot shunday bir mamlakatda dodingga yetguvchi, haqni haq qilguvchi inson, biror rahbar topilmasa! Nahot!.. Nahot, ayrimlar aytgandek qilingan shikoyatlar Stalinga yetib bormay, yollarda tutib qolinsa! Nahotki, xalqning oh-zori, ming-ming tirik yetim bolib qolgan go'daklarning ko'z yoshlari, yoshligida beva qolgan kelinlarning nolishlari-yu yolg'iz farzandlaridan tirik ayrilgan onalarning faiyodlaridan Stalin bexabar bolsa! Sudlarda, prokurorlarda insof qani?

Qamalibmanki, o'shandan beri ertadan kechgacha xayolimda shu savol.

Dunyoda besh qol barobar bolmagandek, hamma qo'yilgan gunoh ham bir xil emas-ku! Ba'zan shunday xayollar bilan shikoyat yozmoqchi bolamanda, butunlay gunohsiz deb oqlamasalar ham, har holda o'n yilga tushirsalar, diydor ko'rishish mumkin deb quvonaman. Bir dam tirik odamga o'xshayman.

Yuqorida ko'rgan tushlarimning haqiqatga aylanishiga, o'ng kelishiga men bilan bitta brigadada ishlaydigan 50 yoshlar chamasidagi chechenning gaplari yana ham ishonchli dalil bo'ldi. Bugun uning yozgan shikoyatiga katta yerdan (bizlar yashaydigan lager shimoliy muz dengiziga tutashgan yarim orol bolgani uchun undan tashqari shunday deb ataladi) javob keldi. Aytishicha, butunlay oqlab yuborisharmish. Bunga uning ishonchi shu qadar komil ediki, ayrim narsalarini yaqin ko'rganlariga, hatto yuz grammcha qolgan pishirilmagan sur dumbasini menga qoldirdi.

"

Ikki yilning ichida og'zimga birinchi mazali narsa tegishi. Xayrlashar oldidan, yaqin orada biror yaxshi o'zgarish bo'lishini, aniq odamdan eshitganiga meni ham ishontirib, albatta noumidlikka tushmay, Moskvaga shikoyat ustiga shikoyat yozishimni tayinladi.

U bu gaplarni aytganda nimani nazarda tutgan edi bilmadim-u, ammo oradan ko'p o'tmay, ayrimlarning eshitgani boyicha, yaqin orada davlat rahbarlari orasida o'zgarish bo'larmish degan mish-mish, parasha gaplar og'izdan og'izga o'tib qoldi. Yaqin orada «mo'ylovdan» qutulamiz, degan gap ham chiqib qoldi. Bu ham tushimning o'ng kelishidan dalolat edi.

Stalin haqida bunday gaplarni, hatto lager sharoitida aytish ham qanchalik xavfli bolmasin, ammo ko'pchilikda qandaydir yaxshilikka umid uyg'ongandek edi. Odamlarga bu gap qayerdan eshitilgan, bilmadim-u, lekin bu mish-mishlar bejiz emas edi: oradan uch-to'rt oy o'tmay, go^o mahbuslar bu gaplarni karomat qilgandek, radiodan Stalinning kasalligi haqidagi axborotni eshitib qoldim. Butun lagerlardagi mahbuslar orasida ichki bir g'alayon boshlandi. Butun adolat, butun erkinlik, butun o'zgarishlar Stalin nomi bilan aloqador bo'lgandek, odamlar orasida kutilmagan bir holat paydo boldi. Ochiq aytmasalar ham yaxshilikka, bo'lajak o'zgarishga umid uyg'ongan edi. Go^o yo'lovchilar uchun xatarli, ammo qachondir qulashi lozim bo'lib qolgan qoya qulagandek, atrofidagi aholi xatardan endi qutulgandek kayfiyatda edi.

Stalinning kasalligi haqidagi axborot radio orqali bir necha kun davomida soatma-soat berib borildi. Eshitganlarning tashvishu bezovtaliklari Stalinning olishi yoki qolishi emas, yo'q, aslo, birdan-bir narsa, uning o'limidan keyingi o'zgarish, rahbarlikning insofli bo'lishi, nohaq jabrlangan million-millionlarning taqdiriga bo'ladigan adolatli munosabatida edi. Bularning ko'pchiligi faqat o'z taqdirleri ustida emas,

1 -W.4.

jamiyatda boladigan o'zgarishlar haqida bahs qildilar. Stalin oldi.

Goyo kattakon muz tog'i asta-asta ummon qa'riga choldb ketgandek, bir necha kunlar davomida odamlar orasida bir sarosima, oychanlik hukm surdi. Cho'ka-yotgan muz tog'i goh cholcib, goh qalqib ko'tarilgandek, mahbuslarning oychanligi, pichir-pichirlari ham ko'p o'tmasdan bo'ron oldidan chang, to'zon kotarib kelgan shamol birdan bo'ronga aylangandek, odamlarning dilidagi gaplar hayqiriqqa aylanaboshladi.

Stalin olimidan keyin, yodimda yo'q - qancha vaqt o'tdi, men turgan Narilsk yarim orolidagi qattiq rejimli barcha siyosiy lagerlarda bir kunda, bir soatda isyon ko'tarildi. Faqat Stalin hammaning qoliga kishan bo'lib, ovozlarni bo'g'ib yotgandek, Sulaymon o'lib, devlar qutulgandek, mahbuslar ish tashlashdi. O'z talablarini lagerlar boshqarmasi boshliqlari oldiga moddama-modda yozma (manifest) tariqasida kotarib chiqdilar. Unda:

1. Ish soatlari qisqartirilsin.
2. Bir yilda bir marta xat yozish bekor qilinsin!
3. Oilasi, yaqinlari bilan ko'rishishni istaganlarga ruxsat etilsin.
4. Vafot qilgan mahbuslarni bekafan, faqat qo'llariga taxta boylab it qatori ko'milmasin.
5. Nohaq qamalganlarning ishlari qayta ko'rilib, ozod qilinsin.
6. Mehnatlariga non va chekishga yetarli haq to'lansin.
7. Lager xodimlari tomonidan mahbuslarning inson huquqlarini istagancha poymol qilishlari bas qilinsin. Inson deb qaralsin... - shunga o'xshash bir necha moddadan iborat qat'iy talablar qoyilgan edi.

Bulardan tashqari mahbuslarning talablarini aytish uchun Moskvadan davlat rahbarlari, Malenkovning, ayrimlar Voroshilovning kelishini, aksincha,

unga qadar lagerni o'z qo'llarida tutib, ishga chiqmasliklarini bildirdilar. O'sha isyon kunlari lagerdagi isyonchilar lager qamoqxonasidagi mahbuslarni chiqardilar. Isyon rahbarlari oshxonadan tortib lagerning ichidagi shifoxonalargacha o'z nazoratlariga bo'ysundirdilar. Lager rahbarlari, nazoratchilar lager darbozasiga yaqinlasholmas, isyonchilar bilan karnaylar orqali gaplashishga majbur bo'lardilar. Lager ichkarisida fojialar boshlandi. O'zi mahbuslikda yetib, mahbuslar haqida lager rahbariga malumotlar berib turgan stukachlar (gap tashuvchilar) jazolandilar: lager hovlisiga osib qo'yildi.

Tikonli sim devorlarning to'rt tomondagi minoralarda avtomat tutgan soqchilar lager atrofini tanklar bilan o'rab olinganini, isyon ko'targanlar o'z talablaridan qaytmasalar o'qqa tutajaklarini e'lon qilib tursalar ham, haqsizlik jonlaridan toldirgan mahbuslar yo o'lim, yo adolat degandek qat'iy turib oldilar. Yalpi ochlik e'lon qilajaklarini bildirdilar.

Lekin ular rasmiy ochlik e'lon qilmasliklaridanoq lagerning ichida ochlik bo'la boshladi. Lagerning ichidagi nowoyxona yopildi. Chunki tashqaridan keladigan un to'xtatildi. Faqat un emas, lager ichidagi issiq ovqat uchun kerakli don-dunlar ham bori tamom bo'la boshladi. Oz-moz bor ovqatlarga ham isyonchilar bilan lagerdagi zo'ravonlar ega chiqib oldilar. Lagerdagi ko'pchilik shularga qaram bo'lib, bir burda non topilsa yeb, bo'lmasa och o'tira berdilar.

Isyonchilar o'z oldilariga, o'n yillab lagerlarda yashab, oxiri xor-zor bo'lib o'lgandan, hamon olish bo'ladigan bolsa, yo ozodlikda yo ochlikdan bo'lsa ham kurashib olgan yaxshi, degan niyatni qat'iy qilib qo'ygan edilar. Bir necha kunga cho'zilgan isyon bekor ketmadi. Rostmi-yolg'onmi, o'zlarini markazdan kelgan vakillar deb tanitgan bir necha kishilar mahbuslar bilan uchrashdilar. Yaqin orada ko'pchilik talablari

i • •

qondirilishi, muddatlar qisqartirilishi, nohaq qamal-ganlarning ishlari qayta ko'rilib ozodlikka chiqarilishi, bir oz sabr qilish lozimligi aytilib, xullas, o'z kelajagi, adolat, sovet qonuniga ishonch yo'qotgan sho'rliklar-da ozmi-ko'pmi ro'shnolikka umid uyg'otildi.

Ular qilgan va'dalar darhol amalga oshmasa ham, Stalinning o'limidan keyin mahbuslarga munosabat-larda o'zgarish sezila boshladi.

Bir yilda bir marta yozish mumkin bo'lgan xat o'r-niga endi ikki-uch marta yozishga, oila a'zolari bilan uchrashish, uydan narsa olishga ijozat bo'ldi.

Ammo bular yillab qamoqda yotgan mahbuslar uchun ahamiyatsiz narsadek edi. Chunki, bir yilda bir marta emas, o'n marta xat yozishga ruxsat et-ganlarida ham, kimlarga, nima deb xat yozasan! Bordi-yu sening ham opa-singil, ota-ona yoki qarindosh-urug'laring Boltiq boyi respublikalari, garbiy ukrainalik mahbuslarnikidek qamoq yoki surgunda bo'lsalar, ularga yozsang, xat orqali aloqa qilsang, albatta, bu imkon ham bir marhamat hisoblanardi. Ammo sen, qaysi mehribon qarindoshingga, qaysi qadr-don do'stingga nima deb yozasan? «Aziz do'stim, yoki sevikli jigarim, men seni juda-juda sog'indim, sen bilan qadr-don edik, sen mening kimligimni yax-shi bilarding, zarracha gunohim yo'q, taqdir ekan... ko'rishguncha xat yozib tur!» deysanmi?..

Bunday deb xat yozish eng yaqin do'sting, yoki yaqin kishingni o'z yoningga tortish, gunohlaringga sherik qilish bilan barobar edi. Bunday maktublarni yozish eng yaqin odamlaringni senga hamfirklik-da ayblab qo'lga tushirib qamashlari uchun bahona bo'lardi, xolos. Bunday bo'lishini mahbuslar ham, ozodlikda qolganlar ham albatta yaxshi bilishardi. Shuning uchun sen yozgan xatingni olgan taqdirlari-da ham vahimaga tushib, o'sha zahoti yirtib tashlab, hech narsa bo'lmagandek javob ham bermaslikla-

ri yoki hatto ayrimlar, o'zlarini kutilmagan ofatdan qutqarish uchun vahima bilan, «Mahbus Shukrullo, siz menga hech mahal qadrdon, men sizga hech mahal mehribon, sirdosh bo'lmaganman. Meni yaxshi bilarding, deb xato qilibsiz! Bundan keyin, menga xat yozmang! Men sizdek xalq dushmanini tanimayman», degan javobni qilishi ham mumkin.

Axir, men o'zim, xotanim, bola-chaqamdan boshqa, qaysi bir do'stim, qaysi qarindosh-urug'larimga xat yozganman! Yoki qaysi birlaridan qayerdasan, holing qalay, nima bo'ldi? - degan bir enlik xat olganman? Garchand bunday munosabat insoniy bolmasa ham, nihoyatda og'ir botsa ham, ranjish, gina qilish o'rin-siz edi.

Zamonning zayli deb gina qilmaysan, aybni siyosatga qo'yasan. Ammo insoniy, odamiylik nuqtai nazardan oyiab ko'rsang-chi, nihoyatda alamli! Nihoyatda dahshat! Axir, kechagina sen bilan og'iz-burun o'pishib, sendan boshqa mening do'stim yo'q, degan bu gaplarga sen ishonib, yana ular bilan ko'risharmikanman deb sog'ingan odamlarning bugun «men seni tanimayman, mening nomimni tilingga olma, olchoq», deb javob qilsalar!.. Odamlarning vijdoni chidab shu darajaga yetishi seni qiynamaydimi! Qadr-qimmat qayoqda qoldi?

Isyondan keyingi quvonchli o'zgarishlardan yana biri baraklarga qulf solinmaydigan bo'ldi, kechasi bemalol hojatga chiqish imkoni tug'ildi. Garchand nomi lager deyilsa ham, aslida tartib jihatdan qamoqdan kamdan-kam farq qilardi. Yuzlab mahbuslar yetadigan baraklarga kech soat 11 dan keyin qulf solinib, toza havoga chiqishdan mahrum etilardi. Yuzlab odamlarning shiptirlariga chidashga majbur eding.

Isyonchilarga qilingan hamma va'dalar darhol amalga oshmagan bo'lsa ham, Stalin o'limidan keyin qamoq muddati oz qolganlarning «jinoiy» ishlarini qayta ko'rish uchun komissiya ishga tushdi, degan

gaplar eshitila boshladi. Haqiqatan ham, 10 - 15 yilga kesilib, ozodlikka chiqishiga bir-ikki yil qolgan ayrimlarni 1954-yilda muddatidan oldinroq chiqara boshladilar. Albatta, sovet qamoqxonalari-ga bir tushdingmi, tamom, adoyi tamom bo'lmasdan bu sirtmoqda qutulib bo'lmaydi, deb o'laganlar uchun bu yangilik ham kutilmagan hodisa edi. Ammo mendek 25 yilga hukm qilinganlarning taqdiri haqida turli mish-mishlardan tashqari biror aniq gap hozircha yo'q edi. Ammo, olmay qachondir ozodlikka chiqishga ozmi-ko'pmi umid uyg'ongan edi.

Stalinning o'limi, bir-ikki yil qamoq muddati qolganlarning ozodlikka chiqarilishi va o'zim ko'rgan tushlar hamma-hammasi menda endi ozodlikka muqarrar chiqishimga ishonch, so'na boshlagan ijodiy tafakkurga qaytadan jon ato bo'lishiga turtki bo'lgan edi. Ijod ishtiyoqi, tevarakka ijod nazari bilan qarash uyg'on-gandek boldi. Ammo bir muammo qiynardi.

Xo'sh, nima haqida yozasan?

Ko'r hassasini bir marta yo'qotadi! Yana baxtiyorlik haqida, baxtiyorman, deb yozasanmi? Baxtiyorlik haqida yozib, baxt topdingmi? Topgan baxting, mana shu lager bo'ldimi? Shu vaqtgacha o'z xalqinga manfaati tegadigan nima yozding? Shoir sifatida nima yaratding? Xo'sh, darhaqiqat, javob berarlik nima qilding? Haqiqiy ijod o'zi nima?

Shu haqda o'z-o'zimga savol berib, o'lar ekanman, kutilmagan bir tasodif fikrimga yorqinlik kiritdi.

Lagerlarda o'zlarini ilg'or madaniyatli hisoblab kelgan ayrim ovro'paliklar biz O'rta osiyoliklarni «orqasi qoralar», deb chaqirib, madaniyat, san'atdan bexabar, ilm-ma'rifatdan uzoq xalqlar deb bilishardi. Hatto, mil-latini aniq aytolmayman-ku, Boltiq bo'likmi, polyakmi, rusmi, bilmadim, Panteleyev degan injener, men o'zbekman deganimda, qozoq, tojikdan farq qilolmay,

o'zbeklar yonida doim pichoq taqib yuradigan, savodsiz, vahshiy, degan tushunchada ekanini aytgan edi.

Kunlardan bir kun shu odamning qo'lida kitob ko'tarib yurganini ko'rib, qanday kitob, deb so'rasam, kutilmaganda, Oybekning ruschaga tarjima qilingan «Navoiy» romani bo'lib chiqdi. Bu tasodifdan qalbimda quvonch va g'urur paydo bo'lib, taassurotni bilmoqchi bo'lgan edim u:

- Bu roman menga juda yoqdi. Qadimiy madaniy xalqlar tarixi haqida. Alisher Navoiy degan buyuk yozuvchi haqida, haqiqatan ham u juda ibratli, buyuk shoir bo'lgan ekan, - dedi.

Kechagina o'zbeklarning kimligini bilmagan, qo'loq, «orqasi qora» bir xalq deb oylagani uchun undan:

- Mening millatim kim? Navoiyning millati-chi? - deb so'rasam:

- Navoiy?.. Navoiy samarqandlik o'zbek, - degan javobni qildi.

Men unga, kechagina meni sen «qoravoy, badaviy» degan eding, o'sha Navoiyning avlodi, o'zbek men bo'laman, deganimda, meni kechir, O'rta Osiyo xalqlarini bilmas ekanman, bilsam ham noto'g'ri tasavurda ekanman, o'zbek xalqi haqiqatan ham juda qadimiy madaniyatli buyuk xalq ekan deb tan olib, uzrini aytdi.

Mana shu tasodif va Oybekning ijodi haqidagi gaplar haqiqiy asar qanday bo'lishi, o'z xalqiga xizmat nimadan iboratligi haqida jiddiyroq o'ylashimga sabab bo'ldi.

Haqiqatan ham Oybekning bu asari o'z xalqiga xizmatining yorqin namunasi edi. Xo'sh, men o'zim ham bir ijodkor sifatida xalqimga shunday xizmat qilaolishim, uning nomini ulug'lashim uchun nima qilishim kerak? Tarixiy asar yozishim kerakmi? Yo'q! Axir, tarixiy haqiqatni ozmi-ko'pmi to'g'ri yozgan bu asari uchun Oybekni ham o'tmishni ilohiylashtirgan-

san, o'tmish madaniyati oldida sajda qilgansan, o'zbek xalqini qashshoq, omi-savodsiz, johil, gado qilib ko'rsatish o'rniga tarixiy boy, yuksak san'at adabiyotga ega demoqchi bo'lgansan, deb kosmopolitizm, millatchilikda ayblashmadimi! Shularni oyiadim-u, bizlardan keyin, Oybek akani omon qo'yishganmikan, qamashganmikan degan tashvishga ham tushib qoldim. Chunki o'zimiz qamalغانimizdan keyin O'zbekistonda, yozuvchilar orasida nima gaplar, nima o'zgarishlar bo'ldi, hech narsadan xabarim yo'q edi. Tashqi dunyodan butunlay mahrum edim axir!

Tashqi dunyodan bahra olishga haqqim bo'lgan birdan-bir narsalar u ham bo'lsa, uchib o'tgan qushlarga qarash, ko'kdagi oyu yulduzlarga tikilib o'y surish, qoru yomg'irlar borligini sezish edi, xolos! Ammo, ming-ming nadomatlar bo'lsinkim, bu bepoyon zaminga istagancha oyoq bosish ham mening erkimda emas edi.

Ammo inson bolasi tirik ekan, tabiat yaratgan go'zalliklardan bahra olish, unga boqmoqdan hech kim uni benasib qilolmaydi. U daxlsiz!

Tabiat yaratgan mo'jizalarga boqib dardlarim bir nafas bo'lsa ham tarqardi, ko'kragimga shamol tekaniga ham ming-ming shukrlar qilardim. Bir damgina lagerdaligimni unutib, go'yo uyimizning tomida lolalar ochilgan faslda varrak uchirgandek shirin xayolga cho'mardim.

Mana bir necha kunki, ustaxona bo'g'otidan hali uchirma bo'lmagan chumchuq palaponlarining chirq-chirqlashlari umrimdagi eng baxtiyor onlarim - bolaligimni xotiramda tiklab, qalbimni erkalamoqda. Unga quloq solib bir dam bo'lsa ham tutqunlikda ekanimni unutaman. O'zimni qamoq lagerida emas, yong'oq, oshiq o'ynab o'sgan ko'cham bag'rida bo'lgandek his qilaman. Bir damgina o'zimni lager ustaxonasining bo'g'oti emas, hovlimiz ortidagi katta-

kon hovuz atrofidagi qator teraklar ustiga in qo'yib, tinmay chirqirab, og'izlarini ochayotgan qarqunoq bolasini ushlayotgandek sezardim. Va shu daqiqa beixtiyor ko'zlarim tikonli sim devorlarga tushardi-yu nazarimda qarqunog'u chumchuq palaponlari terakdagi inida emas, kattakon tikonli simlardan yasalgan qafas ichida tutqunlikda qolib, onasidan, o'z erkinligidan ayrilib nola chekib, chirqirayotgandek tuyilardi. O'sha fursatda, bordi-yu kimdir menga yana ijod qilish nasib etsa, endi nima haqida yozasan, deb so'ragudek bolsa, nimaiki yozmay, butun umrimni zulmga qarshi insonlarda mehr-shafqat, yaxshilik, mehribonlik hissini uyg'otishga baxsh etardim deb javob qilgan bolardim.

Shulardan o'zga muqaddasroq dunyoda nima bor! Faqat inson emas, mehr-shafqatga tutqunlikdagi parranda ham zor emasmi! Xo'sh, shu bir chumchuqning uyasini buzish, hali uchirma bo'lmagan palaponni chirqiratib onasidan ajratishmi, yoki uni himoya qilib mehr-shafqat qilish, erkinlikdagi sevinchini ko'rish lazzatliroqmi! Bir parranda, bir daranda emas, lak-lak tutqunlar inson mehr-shafqatiga zor emasmi! Hayotda mehr-shafqatli, mehribon insonlarni uchratish o'zi odamlar uchun quvonarli emasmi? Men uchunchi? Men o'zim mehr-shafqatga zor emasmanmi? Zulm, adolatsizlik, qahri qattqlik menda nafrat uyg'otmadimi?

Menga mabodo qayta ijod qilish, qo'lga qalam olish nasib etsa, faqat yaxshilik, faqat mehribonlik, faqat insonga vafodorlikni kuylardim.

Bag'ringga tekkan bir nafaslik shamol, o'rmonlarning shovullashi, irmoqlarning chuldirashi kimga orom bag'ishlamaydi? Xudo yarlaqab menga qaytadan ijod qilish nasib etgudek bo'lsa faqat va faqat go'zalliklarni madh etardim. Ammo visolsiz, muhabbatsiz go'zallik bo'larmidi! Hayotda visol, muhabbat-

dan o'zga muqaddasroq, orombaxshroq nima ham bor! Muhabbatga yetmoq emas, muhabbat haqida oyiashning o'zida qanchalik quvonch bor, erkinlikka erishmoq emas, hatto o'zini ozod his qilmoqda ham qanchalar huzur bor!

Mehr-shafqat, visol, tabiat go'zalligi - bularsiz na qahramonlik, na odamiylik, na obodlik, na hayotda rivoj bor!

Shu fikrlar xayolimdan otarkan, hayotimda ko'rgan-kechirgan yaxshiliklar, qalbinga orom baxsh etgan go'zalliklar, ayniqsa, keyingi paytlarda ro'shnolikka uyg'ongan umid g'alayonida asta-asta ijodga havas uyg'ondi. Qog'ozga tusha boshlashiga dalda bo'lgan yana bir narsa, ertagi kunga bo'lgan umid, ya'ni tushlarim o'ng kelib ertaga ozodlikka chiqsam, ikki qolimni burnimga tiqib chiqamanmi degan niyat boldi. Bordi-yu hozirgi mish-mishlar mish-mishligicha qolib, yaqin yillarda ozodlikka chiqarmagan taqdirilarida ham xayolimga kelgan narsalarni bir umid bilan qog'ozga tushirsam, bema'ni, bolar-bolmas oyiarni oyiab, o'zimni qiynaganimdan, nimadir yozilib qolganim foydaliroq-ku! Ijod zavqi bilan yashash, shu bilan ovunib kun otkazish afzalroq-ku, - degan qarorga keldim.

Albatta, g'am-alamlar-u sog'inchni ko'ngildan sitib chiqarib, tutqunlikda ekaningni unutib ijod qilishni xayolga keltirish yengil emas. Ammo men o'zimni shunga tayyorlay boshladim.

Ijod bilan band bo'lish lagerdagi xudbinliklardan, insoniy qadr-qimmatini oyoq osti bo'lishini o'ylash azobidan bir oz bo'lsa ham seni holi qiladi-ku.

Men lagerga kelganimga ko'p yil bo'lgani yo'q. Axir bu do'zax azobida bir yil, ikki yil emas, hatto o'n yil lab yotgan alamzadalar bor-ku! Ha, alamzadalar! Ha, asabiy, darg'azab sho'rliklar! Bulardagi ichki g'azab shu darajaga yetgan ediki, kishi izzat-hurmatini ifodalovchi, kishi qalbiga quvonch bag'ishlovchi «jonim

bilan», «marhamat», «aziz do'stim», «ziyofat» degan so'zlar begona bo'lib ketgan edi. Ularning sen bilan ish vaqtida «onangni palon qilay», nega qarab turibsan, hatto mehribonlik qilib, xafa bo'lma deyish o'rniga, «ularga palonimni qo'ydim» deyishlariga odatiy holat deb chidaysan! Chidamaganingda nima? Men olimman, men ministr, men generalman, men bilan oyiahib, odob bilan gaplash deysanmi!.. Shunday desang, bunga ham, «seni undayligingga qoydim» degan javobni olasan!

Bularga parvo qilib o'ylab, azoblangandan, eng to'g'ri yo'l - hammasiga ijod ko'zi bilan qarab, o'zingcha tas-kin topganing, ovunganing ma'qul bolmaydimi?

Ilhom bu - atrofingga ijod bilan qarash, g'ayrat!

Men o'zimni mahbus emas, mahbuslar hayotini goyo o'rganishga komandirovkaga kelgan yozuvchi deb faraz qila boshladim. Xudo hech bandaga nasib etmasin tavba-yu, rostini aytganda bu yerdagi xilma-xil felli odamlar, inson qadr-qimmatining xo'rliqi, inson zotining azob-uqubat-u mashaqqatlarga bunchalik bardoshlilikini ko'rish, hammaga ham vaqt nasib qilabermaydi. Erkinlikdagi yozuvchi bu yerdagi hayotni xayoliga keltirolmaydi ham. Ammo bu yerda ko'rgan va eshitganlaringni zamon va o'zingni kimligingni unutib, aynan o'zicha, yoki faqat o'z nuqtai nazarindan yozishing ham qiyin edi. Faqat qiyingina emas, to'g'risini aytish xavfli. Buning iloji ham yo'q.

Oddiy bir misol:

Mening lagerga kelganimga mana bir yildan oshyapti, hali bitta ham xat olganim yo'q. Yurak yutib, menga xat yozadigan yaqinlarim ham kimlar? Xotinim, opalarim! Bularning birontasidan haligacha darak yo'q. Nahotki, qayerdaligimni bilishmasa?!

Men turgan yerga paroxodlar bir yilda bir marta Enasoy daryosida muzlar erigandagina keladi. Keladi-yu, darhol ortiga qaytadi! Bo'lmasa, sovuq tushishi

bilan daryolar tosh qotib, kelasi yilgacha qolib ketadi. Katta yerdan keladigan xat-xabarlar ham paroxodlar orqali bir yilda bir marta keladi. Bu yerga samolyotlar deyarli qatnamaydi. Unda-munda kelganlari ham shu yerdagi qurilishga zaruriy narsalarni tashiydi.

Xat-xabar yo'qligidan diqqat bo'lgan kezlarda o'zimni shaytoniy xayollardan bir dam tiyardim. Ming o'zimni tiymay, ammo ba'zan turli xil o'ylar, vasvasalar uyqu bermasdi. Alam hasratlaringni xatga, yoki she'rga tushirib xumordan chiqmoqchi bo'lganingda ham haqiqatni yozishga oylanib qolasan. She'r qilib mutlaqo yozolmaysan. Qo'rqasan.

Bizlarni bu hukumat odam sanamaydi, bizlarni bir-birimizdan nohaq judo qilgan bu davlatga la'nat, deysanmi? Awalambor bunday xatni o'tkazmaydi. She'r bo'lsa, uning uchun yana jazolasa jazolaydi-yu hech qayerda bosmaydi. Xating egasiga tegishi, yoki seni gunohkor qilmasliklari uchun bordi-yu Xudoning rahmi kelib, ozodlikka chiqqudek bo'lib, asarlaring bosilishini istasang, haqiqiy ko'rganlaring, kechirgan azob-uqubatlaringning aksini yozasan.

Masalan, uyimga, lagerdagi ahvol va sog'inchimni bayon qilib xat yozgudek bo'lsam, ahvolimni so'rama, bu yerlarning tabiati ham, yashash sharoiti ham do'zax-ning azobi, sog'inishimning bo'lsa chegarasi yo'q. Bir daqiqa xayolimdan nari ketmaysan.

*O'rmonga boqsam ham og'adi esim,
Nihollar qaddingni solar yodimga.
Yellar eslatadi sochingni isin,
Oyga boqsam, husning kelar oldimga.
Olcha, giloslarga ko'zim tushsa ham
O'xshashlik ko'raman labing, ko'zingga.
Ammo topolmadim mukammal, ko'rkam
Bironta tengdoshni sening o'zingga...*

deb yozaman, albatta! Ammo, bu misralarni matbuotda elon qilinishini o'ylab uning oldiga:

*Yangilik juda ko'p, ishdan xursandman,
Bir xatga sig'maydi mukammal yozsam.
Xatingni o'qidim, «sog'indim» debsan,
Mening sog'inishim emas undan kam.*

*Men kelgandan beri uylar tiklandi,
Uylaming oldida boldi bog', gulzor,
Har narsa muhayyo... faqat yetmaydi,
Bu gulzorlar aro sening husning, yor!*

kabi sovet shoiriga xos nekbin misralar qo'shmay ilojim yo'q.

Mahbus bechoralarning mehnatidan yurtlar obod qilinganligi to'g'ri. Ammo bu misralarda mahbusning dardi qani? Shu gaplar mahbus aytadigan gaplarmi?

Tutqunlikda boladimi, erkinlikda boladimi, sovet shoiri bundan o'zgacha fikr qilishi, yozishi ham mumkin emas. Sovet matbuotida hayotdan noligan, pessimistik she'rlar bosilmaydi.

Ijodim kitobxonga yetsin, nashr qilinsin desang o'z ko'rgan-bilganlaring, o'z ko'nglingdagi gaplarni emas, partiya qaroriga mos keladigan qilib, hayotning nuqsonlarini emas, ijobiy tomonlarini yozishing kerak.

Hali kommunizmga yetganimiz yo'q-ku! Hayotimizda kamchiliklar, haqsizlik, adolatsizliklar, poraxo'rlik, o'g'irliklar yo'qmi? - desang, bu tipik holat emas, bizning jamiyatga xos emas, deb seni aybdor qilishadi.

Men turgan lagerning o'n ikki oyida faqat besh yoki olti kungina badaningga oftob tegadigan 16-18 darajali ilimiliq, quyoshli kunlar bo'ladi. Shunday payt-

larda abadiy muzlab yotgan yerning ustki torf qatlamigina bir oz yumshab, bosh ko'targan ko'katlar bir oy, yarim oy umr kechiradi. Hayot uyg'onadi. Muzliklarda kun kechiradigan qurt-qumursqalar qayta tiriladi. Ayniqsa, botqoqzor va ko'lmaklardan iborat tundrani chivinlar bosib ketadi. Ko'z ochirmaydi. Kechalari bilan baraklarga to'lib, talab chiqadi.

Xudo uraman desa, qo'sh qollab uradi deganlaridek, nimaiki azob, mashaqqat bolsa, hammasi mahbuslarning peshonasiga yozilgan. Lagerning odam chidab bolmas xo'rlik, azoblaridan tashqari, seni shunday bir yerga olib kelib tashlaganki, hatto, tabiatdan orom olish imkonidan mahrumsan. Tabiat ham sendan shafqatini ayaydi. O'n bir oylik qahraton ham, yil bo'yi zulmat ham, ko'z ochirmas bo'ronlar ham, badaningga oftob tegishiga qo'maydigan chivinlar ham shu dargohda. Ammo yetti-sakkiz yillab nur tushmagan qamoqlarda, shimol lagerlarida umr kechirganlar uchun besh-olti kunlik iliq-issiq kunlarda badaniga oftob tegishi ham bayram edi. Shunday kunlarda ayrim mahbuslar yalang'och bo'lib oftobda yotardilar. Qanaqa oftob!? Bizlar o'lagandek koyiagingni yechishing bilan jaz oladigan oftob qayoqda! Soatlab yotsang, badaningga issiq o'tmaydi. Tagingdan muz uradi. Bu yerlarda yerga issiq o'tmaydi. Oftobda yotmoqchi bo'lganlar stadiondagi taxtalarga cho'zilishadi. Shimoldan salgina g'ir etib esgan shamol, badaningsni o'ymalab, junjitadi. Bu yerlarning yoz degani shundayki, ustingdan paxtalik tushmaydi, yozligi - faqat qor yog'maydi. Shamol salgina tindimi - boldi, botqoqzorning och chivinlari ustingga duv yopiriladi.

Men ham atrofda qilarga havas qilib yechina boshladim-u juda zaiflashib qolgan ekanmanmi, chivinlar talamasdanoq, g'ir etgan shamolning sovug'iga bar-

dosh berolmadim. Chivinlar talasa ham parvo qilmay yotgan sherigimdan:

- Badaningga chivin chaqmaydigan biror narsa surganmisan. Qanday chidayapsan? - desam, u:

- Hech narsadan hadik bilmas, qo'rqmas odamni chivin emas, o'q ham, hatto o'lim ham ololmaydi, - dedi-da, nimalardir esiga tushib, g'azab bilan:

- Jangda bo'ldim, nemisga asir tushdim, kanslagerda bo'lib o'lmagan, chivin chaqishidan qo'rqamanmi? Zax qamoqxonada yoki qamoq boshlig'ining tepkisini yeb o'lgandan ko'ra chivin emas, ilon chaqsa ham, chayon chaqsa ham bir nafas yorug'likda oftob ko'rib o'lganim yaxshi-ku, og'ayni!

Shu gapni eshitdim-u, undan keyin nimalar dedi, qulog'imga kirgani ham yo'q. Butun xayolim yarqirab quyosh chiqib, qovun, uzumlar g'arq pishib yotgan ona yurtimga ketdi. Bu yerdagi odamlarga, bizlarda yozda bodringni hech kim yemaydi, molga beriladi, desam afsona, deb ishonmasdi. Chunki ular qovun, tarvuz, mening yurtimda yozda yetiladigan anjir, shaftolini yeb ko'rish u yoqda tursin, nimaligini tasawur ham qilolmasdilar.

Mening oyiirimni uning yonida yotganning:

- Sen qachon asirga tushgansan, Germaniyaning qaysi shahrida bo'lgansan, - degan so'roviga, palon shaharning palon lagerida, keyinchalik palon yerida bo'lganman, degan javobi bo'lib yubordi-da, ikkovi bir yerda bo'lgani, bir-biri bilan uchrashmagani, Germaniyada asirlarga munosabat, nemis qamoqxonasi, lagerlarida tortmagan azob uqubatlarini bizda ko'rganlarini, yana biri KGBning Toshkent qamoqxonasida bo'lgan vaqtida qamoq boshlig'i Krasnogolovov urib qulog'ini kar qilib qo'yganlarini o'zaro gaplasha boshladi.

Krasnogolovovni men ham tanirdim. U bir oyog'ini urushda oldirib, hassada yurardi. Nihoyatda qah-

ri qattiq, zolim tabiat. Nemisga asir tushgani uchun qamalgalardan jinday bo'lsa ham qamoq qoidasini buzding, deb ayb topib, men oyog'imni vatan uchun berganman, senlar esa meni oyoqsiz qilgan fashistga tushgan xoinlarsan, deb kaxserga tashlab, to'g'ri kelgan joyiga tayog'i bilan urib xumordan chiqadigan jallod ekanini aytib berdim. Ulardan biri, Krasnogolovovni qayerdan bilishimni surishtirishgandan keyin, nega qamalganimni so'radi. Men harbiy ish bilan emas, sovetlarga qarshi targ'ibotda ayblanganimni bilgach, negadir millatimni so'radi. O'zbek ekanimni aytishim bilanoq, gapimni oxirigacha eshitar-eshitmas:

- U yog'ini aytmasang ham nega qamalganing malum, albatta, millatchilik! Chunki o'risdan boshqa millatni albatta, millatchilikda ayblashadi.

Uning bu gapi awaliga meni g'azablantirdi. Lekin holatimni sezgach, meni tinchlantirish uchun:

- Mening gapimni to'g'ri tushun! Men seni millatchi demoqchi emasman. Millatchi so'zi qachon chiqdi, bilasanmi? Masalan, men kavkazlikman, bu so'z aslini surishtirsang, internatsionalist bo'laylik deyila boshlagandan keyin paydo bo'ldi. Ruslar O'rta Osiyoni yoki Kavkazni bosib olgunicha, internatsionalist bo'laylik degan so'z ishlatilganmi? Yoki qadimlarda millatchi deb hech kimni qamaganmi? Yo'q! Internatsionalist bo'laylik degan gap, inqilobdan keyin, ya'ni rus xalqi yomon, bosqinchi, demasin, unga qarshi kurashmasin, shunday desang, millatchilikda ayblanasan deb qo'rqitish uchun paydo bo'lgan nazariya, - degan fikrni aytdi.

Men bu odamlarning nemisga asir tushgandagi hayotlari, fashistlar bilan bizning davlatni mahbuslarga bo'lgan munosabatlaridagi tafovutlarni eshitib, nahotki shu gaplar to'g'ri bo'lsa deb oyiardim.

Uning gaplari beg'araz, to'g'ri edi. U o'zi ko'rganlarini aytdi. Lekin buni xalqqa aytib bo'ladimi? Bo'ladi!

Uning birdan-bir yo'li bunday gaplarni nasriy yoki dramatik asarda salbiy obrazlar orqaligina, ularning tilidan aytdirish mumkin. Boshqa iloj yo'q.

Shular xayolimdan kecharkan, o'z ichida (albatta, tilga chiqarib bo'lmaydi) nahotki, o'zing ko'rib turgan haqiqatni haq deb aytolmay, yasama yo'llar izlasang, bu qanday zamon deb oyiardim. G'azabimni ichimga yutardim. Axir, bu odamlarni yolg'onga o'rgatish-ku! Bu odamlarni ham, jamiyatni ham buzish-ku! Lekin shunday deb aytaolasanmi? Aytib ko'r-chi, tuhmat-chi deb qarashadi. Nima chora?..

Bugungi tasodif sabab bolib, lekin nima haqida o'ylamay, adolat, dunyo tashvishlarimi, baribir sevgi, rashk, vafo bir nafas mening xayolimni tark etmas edi. Dramaturgiya haqida, dramatik asar yozish haqida jiddiy o'lay boshladim. Chunki, faqat drama salbiy, ijobiy ishtirok etuvchilar orqaligina o'z dardlarimni aytish imkoni bo'lardi.

Drama haqida oyiash bir necha vaqt ikir-chikir xayollar azobidan meni holi qilib, xuddi aytadigan gaplarimni aytib, xumorim tarqagandek, dardim yengillashgandek bo'lardi.

Axir, inson uchun sevgi-muhabbat, mehr-shafqat, visol, erkinlik, hayot go'zalligi haqida oyiashdan muqaddasroq nima bor! Inson qalbiga ayniqsa, mendek tutqunlikdagi odam uchun sog'inish, visol, sevgi azobida o'rtanishdan yaqinroq dard bolarmidi. Sevgisiz erkinlik nega kerak! Sevikli xotinimning jamolini o'ylashdan o'zga menga quvonch ham, shundan o'zga azob ham yo'q edi.

*Ko'rmaganman ne go'zallarni,
Qaddi raso, husnda bekam.
Bo'lmaganman ne go'zallarning
Kuyin tinglab, suhbatida ham.
Uchratmadim ne go'zallarni,*

*Nozik badan, kelishgan ko'z, qosh,
Bezak qilgan brilliant zarni,
U ne go'zal! - bo'lmasa otash!
U ne go'zal! Joziba, iliq,
Yoqimlilik bo'lmasa agar.
Go'zallar bor nozik va silliq,
Tuyiladi sovuq bir haykal!..*

Senga teng kelarlik go'zal ham, vafodor ham topilmaydi, deb ishqida o'rtanganing seni unutsa! Undan ajralish...

Haqiqat, visol qadri - nimaligini judolikdagi insongina tola his qiladi. Judolik azobi!.. Visol shodligi!.. Buning biri do'zax, biri jannat demakdir!

Qamalganimning mana beshinchi yili. Stalin o'limi. 1954-yildan boshlab yuzlab mahbuslarning ishlari qayta ko'rib ozodlikka chiqaboshladi. Albatta dastawal qamoq muddatining tugashiga bir-ikki yil qolganlar, qisqa muddatlilar chiqariladi. Mendek 25 yilga hukm qilinganlar haqida hali aniq gap bo'lmasa ham, lekin hatto vatan xoini deb ayblanganlarni endi begunoh qamalgan deb ozodlikka chiqarishlari, albatta, bu menda ham erkinlikka chiqishimga ishonch, g'azab va alamlardan tug'ilgan mushtga yana qalam ushlab, ijod xayoli bilan yashashga kuch, quwat bag'ishlagandi.

Qanday kuch-quwat?

Odatda mahbuslar o'n soat ishlab toliqib keladilar-da, tappa tashlab chilparchin bo'lib uxlaydilar. Ammo kelajakka umid va endigina esa boshlagan erkinlik nafasi menda hamma uyquga ketganda, uyquni tark etib, hatto, ba'zan tongotargacha ijod dardi bilan yashashga bardosh paydo qildi. Ijodxonam santexmontajning stadiondek keladigan ustaxonasi. Tuni bo'lib bitta mening ixtiyorimda.

Odatda men tunda navbatchilikka chiqaman. Qiladigan ishlarim santexmontajchilarning ertangi ishlari uchun kerakli ayrim narsalarni tayyorlash. Nima ish qilishimni kunduzgi smenadagi boshliq yozib qoldiradi. Eng yengil ish salkam stadiondek ustaxonani supurib-sidirish, 200 - 300 tunukani aliflab, quritishga qo'yish, temirchilar yasagan ayrim asboblarni boyash, hatto qog'ozlarni qisishga simdan qisqich (skrepka)lar yasash hisoblanadi. Qo'lim ishda, xayolim ijodda bo'lardi. Imkon boricha topshiriqni tezroq tugatib, yozishga vaqt qoldirishga harakat qilardim. Ba'zan kelgan fikrlarning qochib ketmasligi uchun bo'yoqli qo'llarim bilan qog'ozga tushirardim va nazoratchilar nogoh kirib qolmasliklari va eshikdan kirganlari bilinishi uchun eshikning orqasiga yerga tushganda ovoz beradigan temir suyanchiq (lom) tirab, sal sharpa sezsam yozganlarimni ular ko'zi tushmaydigan yerga yashirardim. Ular sezgudek bo'lsa jazolanishim aniq edi.

Stalin olimidan keyin, garchand mahbuslarga munosabat birmuncha o'zgargan bolsa ham, ilmiy ish yoki o'zingcha nimalar ijod qilishga mutlaqo yo'l qoyilmasdi, hatto qalam, qog'oz topish imkoni ham yo'q edi. Men butun boshli dostonlar, she'rlarimni idoradagilar foydalanib, bir tomoni oq qolgan qog'ozlarga yozib, shubha bolmasligi uchun maxorka o'rashga qilingandek buklab kolcrak cho'ntagimda asrardim.

Oylar, kunlar o'tyapti, shikoyatni na oldik, na olmadik degan biror xabar yo'q. Yozgan shikoyatim joyiga yetganmikan? Yoki o'zbek tilida yozilgani uchun tushunmay tashlab yuborgan bolsa-chi!

Shikoyatimning natijasini surishtiringlar deb uyimdagilarga xat yozdim. Ulardan ham biror sado yo'q! Nahotki, ular ham mening yaqin orada chiqishimdan umidvor bo'lmasalar?!

Mana yana kuz yaqinlashyapti. Bu yerda sentyabr-dan 20 - 30 darajali sovuq, qor bo'ronlari boshlanadi. Daiyolar muzlaydi. Bir oy iliq-issiq kunlarda kelib ketadigan kemalar qatnovi ham to'xtaydi. Yollar yopiladi.

Bu yerlarni Katta yer bilan bog'laydigan temir yo'llar yotqizilmagan. Buning iloji ham yo'q. Abadiy muzlik, botqoqzorlar. Samolyotlar qatnamaydi. Kuzda ozod bo'lgan mahbus sho'rliklar ba'zan bir necha oylab uylariga ketolmay qolib ketadilar.

Yillar boyi begunohdan begunoh qamoqda yotgan odam, kutilmaganda ozod bo'lding, xohlagan yeringa ketishing mumkin, degan xabarni eshitsa-da, ketolmasa, bundan yomoni yo'q.

Ba'zan mahbuslar, qamoq azobi suyakka yetgan chog'larda bir-birlariga, hozir senga uyingga ketishga javob berishsa, lekin mana shu 50 daraja sovuq, qor bo'ronda yayov ketarmiding? - deyishganda, «Kertardim», der, yoki uyingga hozir javob berib, 25 yil bola-chaqang bilan birga yashaysan, ammo faqat suv bilan nondan boshqa narsa yemaysan, deb shart qoysa shunga rozi bo'larmiding? - desa, «jonim bilan», deganlar ham topilardi.

Ozodlik, erkinlik uchun odamlar nimalarga rozi bo'lmaydi! Menga shunday savol bersalar men nima javob qilgan bo'lardim?

1954-yil, aniq esimda yo'q, taxminan sentyabrning oxirlari bo'lsa kerak, lagerning maxsus bo'limiga chaqirib, kimligimni so'radi. Ismi sharifimni aytdim. Moskvaga yozuv-chizuvlaringni yuborganmiding? Ya'ni arizalaringni, demoqchi edi. Ha, degan javobni qildim. Shundan keyin oldimga bir qog'ozni qoyib, qol qoyishim kerakligini aytdi. Unda:

«SSSR Oliy sudi kollegiyasining qaroriga binoan jinoiy ishingiz bekor qilindi», deb yozilgan ekan. Ammo men zada bo'lib qolgan odam «bekor qilindi» so'zini o'qib, odatda hammaga qilinadigan javob, mi-

yamga singib qolgan fikr bo'yicha, «shikoyating bekor qilindi», degan ma'noda tushunib, ichimda padariga la'nat, qachon adolat bo'ladi, deb qo'l qo'ishga ham holim kelmay, xayolga tolganimni ko'rgan maxsus bo'lim boshlig'i:

- Nega qaqqayib turibsan, qo'l qoymaysanmi, yuklaringni tayyorla, Toshkentga ketasan, - degandan keyin o'zimga kelibman.

Yuklaringni tayyorla!.. Toshkentga ketasan!.. Yo tavba!.. Jinoiy ishing bekor qilindi!.. Gunohsizsan!..

Bu so'zlarni eshitgan zamoni unga qo'l qo'dimmi, qo'ymadimmi, bilmayman, telbalardek, go'yo meni poyezd kutib turgandek, barakka chopdim. Ammo yana o'sha damda qachon ketaman hamda qachonga tayyorlanishimni bilish uchun orqaga qaytdim. Tayyorgarlik!?

Qanday tayyorgarlik? Tayyorlaydigan nimam bor?

Tayyorgarligim shuki, yamoq-yamoq ichki kiyimlarimni eski bo'lsa ham yirtig'i yo'g'iga (lagerda yoqalik koyiak degan narsa bo'lmaydi. Faqat ichki ko'lak), ustimga qavat-qavat kiyadigan ichki-tashqi paxtaliklarni, eskirib taglariga yamoq tushgan kigiz etigimni irkiti chiqib ketmaganroqlariga almashtirish edi. Bundan bo'lak yo'lga oladigan biror narsam yo'q. Bor ko'taradigan bisotim uydan olingan, adyolga o'ralgan bitta yostiq, yozgan qo'lyozmalarim xolos! Yozgan narsalarimning bir nusxasini ko'rpamning yamoq joyiga yashirib qo'ydim.

Bo'ronli qish kuni yo'lga chiqdim...

Ko'rgan tushlarimda qanday hikmat bor, bilmadim-u, bu har bir kishining sezgisi, ixlosiga aloqadormi, bu men niyat qilganimdek to'g'ri bo'lib chiqdi.

To'g'ri bolib chiqqani shuki, lagerdan chiqqanimdan keyin, uyimga emas, qolimda kishan bilan yana Toshkent KGBsining ichki qamoqxonasiga olib kelishdi.

SSSR Oliy sudidan oqlanganim haqidagi javob olganimdan keyin ham nohaq shuncha yil yotganim yetmagandek, yana bir-ikki oy KGB qamoqxonasida tutib turishdi. Bu - tushimda qizil ot minib lagerning temir darvozasidan erkinlikka chiqib ketganimdan keyin qo'lqopimning bittasi qolibdi deb, yarim yo'lda otimni to'xtatishim edi!

Erkinlikka chiqqanimdan keyin ham bir narsa hamon tushimga kiradi. Tushimda uyimning oldiga yaqinlashganmishman-u, ammo ortimda tikonli sim devorlar paydo bo'lib yelkamdagi qopimga ilashmoqchi bolarmish. Men qadamimni tezlatib uyg'onaman.

Mana o'shandan beri necha yillar otdi, ammo qayerga bormay, Moskvagami, Farg'onaga, yoki dam olgani Sochigami, hamon, hali-hali tushlarimga etaginga ilashmoqchi bolgan o'sha tikonli sim devorlar, xuddi ot tushib derazalari olinib, tomlarini tundra bo'ronlari uchirib, faqat devorlari qorayib qolgan binolar kiradi.

Hamisha men qadamimni tezlatib, oldinga yurganimcha quyosh chiqib turgan bepoyon yashil o'tloqlarda paydo bolaman-u, tabiatim ravshan tortib uyg'onaman.

Yollarimizning nurli bolgani hamisha rost bolsin, ilohi omin!

*Karlom-Vari - Toshkent.
21-oktyabr 1989, 23-iyul 1990-yil.*

AcLabi-y-badiiy nashr

SHUKRULLO

KAFANSIZ KO'MILGANLAR

Avtobiografik roman

Muharrir

Feruza QUVONOVA

Badiiy muharrir

Dilfuza SALIXODJAYEVA

Kompyuterda sahifalovchi

Dildora JO'RABEKOVA

Texnik muharrir

Umidbek YAXSHIMOV

Litsenziya raqami: Al Nq 252, 2014-yil 2-oktyabrda
berilgan.

Bosishga 13.03.2020-yilda ruxsat etildi.

Bichimi 84x108 1\32.

Bosma tobog'i 6,0. Shartli bosma tobog'i 10,08.

Garnitura «Bookman Old Style». Ofset qog'ozi.

Adadi 10000 (I zavod 3000) nusxa. Buyurtma Ne 64.

Bahosi kelishilgan narxda.

«Yangi asr avlodi» NMMda tayyorlandi.

«Yoshlar matbuoti» MCHJda chop etildi.

100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.

Murojaat uchun telefonlar:

Nashr bo'limi - (78) 147-00-14; (78) 129-09-72;

Marketing bo'limi - (98) 128-78-43; (93) 397-10-87;

faks - (71) 273-00-14;

e-mail: yangiasravlodittail.ru

21043

24(50x8)7
3/2 - 91

SHUKRULLO

Shukrullo (Yusupov) 1921-yil 2-sentyabda Toshkent shahrining Shayxontohur dahasida tug'ilgan. O'zbekiston xalq shoiri. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi. Pedagogika bilim yurti va Nizomiy nomidagi Toshkent pedagogika institutini tugatgan. Ilk she'rlar to'plami – «Birinci daftar». «Qalb qo'shiqlari», «Hayot ilhomlari», «Umrim boricha», «Inson va yaxshilik», «Zarralar», «Suyanchiq», «Yashagim keladi», «Sening baxting», «To'kilgan dardlarim», «Shafaq» va boshqa she'riy asarlar muallifi. «Javohirlar sandig'i» essesi, qatag'on davri dahshatlari haqidagi «Kafansiz ko'milganlar» avtobiografik qissasi, «Tirik ruhlar» roman-xronikasi dunyo yuzini ko'rgan.

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti laureati. «Do'stlik», «El-yurt hurmati» ordenlari bilan mukofotlangan. Yevrosiyo Yozuvchilar uyushmasining «Turk dunyosida yilning adabiyot kishisi 2016» mukofoti, birinchi darajali «Mehnat faxriysi» ko'krak nishoni hamda «Mehnat shuhrati» ordeni bilan taqdirlangan.

ISBN 978-9943-08-851-1



9 789943 088511

YANGI ASR AVLODI

www.book.uz